

 **YOSHLAR  
KUTUBXONASI**

**Nodar DUMBADZE**

# ELLADA



Xans Kristian **ANDERSEN**

Antuan de Sent-**EKZYUPERI**

**BULBUL**

**KICKINA SHAHZODA**

**EZOP MASALLARI**

**Nodar Dumbadze**

# ELLADA

---


*Xans Kristian Andersen*  
**BULBUL**



*Antuan De Sent-Ekzyuperi*  
**KICKINA SHAHZODA**



**EZOP MASALLARI**



Yoshlar nashriyot uyi  
Toshkent – 2018

927879

UO‘K 82.100

KBK 84(0)

D 87

**Dumbadze, Nodar**

Ellada: hikoya ertak / N. Dumbadze: – Toshkent: Yoshlar nashriyot uyi, 2018. – 256 b

Ushbu majmuada allaqachon jahon adabiyoti durdonalariga aylangan bir necha asarlar jamlandi. O‘ziga xos uslubda bitilgan ushbu asarlar o‘quvchilarimizga manzur bo‘ladi, degan umiddamiz.



UO‘K 82.100

KBK 84(0)

ISBN 978-9943-5219-5-7

© Yoshlar nashriyot uyi, 2018



---

## XANS KRISTIAN ANDERSEN

### BULBUL

Aziz o'quvchim, senga kunday ravshanki, Chin-Mochin degan mamlakatning imperatori – shahanshoi ham, fuqarolari ham xitoylardan. Bu voqea qadim zamonlarda bo'lib o'tgan, shunga qaramay, u butunlay unutilib ketmasdan turib, bilib olsang, albatta yaxshi bo'ladi-da! Shahanshohning saroyi dunyodagi eng yaxshi saroy ekan; chiroylilikka chiroyli-yu, ammo juda nozikligidan biror yeriga qo'l tegizib bo'lmas ekan. Shahanshohning bog'ida eng anvoyi gullar o'sarkan, gullarning eng yaxshilariga kumush qo'ng'iroqchalar osilgan bo'lib, ular shabboda esganda jaranglab, sayr etuvchilarning e'tiborini tortib, bahri dilini ocharkan. Ana shunday ajoyib bog' ekan bu! Bog' uzoq-uzoqlarga cho'zilib ketganidan oxiri qayerdaligini hatto bog'bonning o'zi ham bilmas ekan. Bog'ning bir tomoni qalin o'rmonga tutashib ketgan bo'lib, ichkarisida chuqur ko'llar bor ekan va o'rmon moviy dengiz yoqasigacha cho'zilgan ekan. Kattakon daraxtlarning suv uzra osilib turgan shoxlari ostidan kemalar o'tarkan. Ana shu daraxtlarning qalin shoxlari orasida bir bulbul yasharkan. Bulbul shu qadar go'zal sayrar ekanki, uning qo'shig'ini eshitib o'tirgan kambag'al baliqchi o'zining qayg'u-tashvishlarini va suvga solgan to'rini ham unutib yuborarkan. U kutilmaganda: «Yo parvardigor, hayot naqadar yaxshi!» – deb uzun so'lish olar ekan. So'ng yana tirikchiligi esiga tushib, baliq tutish bilan

marshg'ul bo'larkan. Ertasiga kechqurun baliqchi bulbul sayrog'ini eshitib yana: «Ey parvardigor, hayot naqadar yaxshi!» deb yuborarkan.

...Xitoy shahanshoi saroyiga yetti iqlimdan sayyohlar kelib, hammasi g'aroyib chinni saroyini, jannatsimon bog'ni maqtashar ekan. Bulbul xonishini eshitishganida esa, sayyohlar: «Bu yurtning eng yaxshi g'aroyiboti mana shu!» – deyisharkan.

Sayyohlar o'z yurtlariga qaytib borishganida ko'rgan-kechirganlarini odamlarga gapirib berisharkan. Olimlar Chin mamlakati podshohining saroyini va bog'ini ta'riflay turib, albatta, bulbulni ham tilga olib o'tishar, hatto u diyorning eng yaxshi g'aroyiboti shu deyisharkan; shoirlar moviy dengiz bo'yida, o'rmonda yashovchi qanotli kuychini madh etib, ajoyib qasidalar yozisharkan.

Olim-u shoirlarning kitoblari jahon bo'ylab tarqalibdi va ba'zilar Chin podshosigacha yetib boribdi. Chin podshosi o'zining oltin taxtida savlat to'kib, kitoblarni o'qib o'tirar, har daqiqa mamnunlik bilan bosh chayqab qo'yardi, o'zining poytaxtini, saroyini, bog'ini maqtashgani unga yoqar edi-da. «Ammo hammasidan ham g'aroyibi bulbul!» – degan gap bor edi kitoblarda.

– Nima, nima? – ajablandi podshoh. – Bulbul? Nega men uni bilmayman? Bu qanaqasi? Axir mening bog'imda shunday bir qush yashasa-yu nima uchun men bundan bexabarman? O'zimning bog'imdagi qushni birovlarning kitoblaridan bilsam-a?

Shunday deb podshoh o'zining xos a'yonlaridan birini o'z huzuriga chaqirtirdi. Bu amaldor shunchalar o'ziga bino qo'yardiki, agar biror odam u bilan gaplashishga va biron narsani so'rashga jur'at qilsa, faqat «uf-f» deb javob berardi. Bu esa hech qanday ma'noni anglatmas edi.

– Aytishlaricha, bizning mamlakatimizda bir ajoyib qush bor ekan, uning oti bulbul ekan, – dedi podshoh. –

Ana shu bulbulni mening buyuk mamlakatimning eng yaxshi g'aroyiboti deb hisoblasharkan! Nima uchun bu qushning borligini biror marta menga aytmagansizlar?

– Xudo haqqi, men bu to'g'rida eshitganim yo'q! – dedi bosh vazir.

Hech qachon bunday qushni saroy a'yonlariga tanishtirmaganlar!

– Amrimiz shuki, bulbulni shu bugun kechqurunoq saroyimga keltiringlar! – dedi imperator, – u kuylab, bizni xushnud etsin! Menda qanday ajoyibot borligini butun dunyo bilsa-yu, men o'zim bilmasam!

– Shunday qush borligini hatto eshitmagandim, – takrorladi bosh vazir. – Ammo endi uni albatta qidirib topaman!

Qidirib toparmish! Juda oson ekan-da?!

Imperatorning bosh vaziri zinalardan balandga chiqib, pastga tushib, xonama-xona, dahlizma-dahliz yugurib-yelib, uchragan har kimsadan bulbulni so'rab-surishtirdi, lekin hech uning daragini bilmadi. Birinchi amaldor imperator oldiga qaytib kelib: «Bulbul deganlari yo'q narsa, uni kitob yozuvchilar to'qib chiqarishgan», dedi.

– Janobi oliylari, kitobda nimaiki yozilsa, hammasiga ishonavermang, boshqacha aytganda, bu ko'zbo'ya-machilikdan boshqa narsa emas!..

– Lekin bu kitobni menga eng qudratli Yaponiston imperatori sovg'a qilib yuborgan, unda yolg'on gap bo'lishi mumkin emas! – e'tiroz bildirdi Chin imperatori. – Men bulbul navosini tinglashni xohlayman! U shu bugun kechqurunoq huzurimda bo'lishi kerak! Men unga oliy darajada xayrixohligimni bildirmoqchiman! Agar aytilgan fursatda bulbul shu yerga keltirilmas ekan, kaltak bilan hamma saroy a'yonlarini kaltaklataman!

– U-f-f! – dedi bosh vazir va yana zinalardan balandga chiqib, pastga tushib, xonama-xona, dahlizma-dahliz

yugura boshladi; saroy amaldorlarining ko'pchiligi uning orqasidan ergashib, yugura boshlashdi – axir hech kim qorniga kaltak yeyishni xohlamas edi-da! Hammaning tili uchida bir savol: butun dunyo biladigan, lekin saroyda biror jonzot bilmaydigan qanaqa qush ekan u?

Nihoyat, oshxonada ishlaydigan bir qizaloqdan qushning daragini eshitib qolishdi:

– Ey, Xudoyim. Bulbulni bilmaysizlarmi? Uning sayrashini eshitmaganmisiz? Men, bechora kasalmand oyijonimga tushlik ovqatdan qolgan-qutganlarni eltib berishga ruxsat olganman. Oyijonim shundoqqina dengiz yoqasida yashaydi. Men u yerdan qaytayotib, charchab qolsam, o'rmonda maysalar ustida o'tirib, maza qilib bulbul xonishini eshitaman! Shunday paytda ko'zlarimdan duv-duv yosh oqadi, onajonim bag'rida orom olayotganday, sevinib, ichimga sig'may ketaman!..

– Oshpaz qizalog'im! – dedi bosh vazir. – Agar bizga bulbul qayerdaligini ko'rsatib bersang, seni saroy oshxonasidagi yaxshigina mansablardan biriga o'rnashtirib qo'yaman. Imperatorning qanday taom yeyishini tomosha qilish uchun ham ruxsat olib beraman! Bulbul shu bugun oqshom saroyga taklif etilgan!

Shunday qilib, mansabdorlar oshpaz qiz yetakchiligida o'rmonga yo'l olishdi. Saroyning deyarli barcha mansabdorlari bulbulni izlashga tushdi. Ancha yo'l yurishganida dalada o'tlab yurgan sigirning mo'-mo'lashini eshitib qolishdi.

– O! Bulbul degani shu ekan-da! – deyishdi yosh amaldorlar. – Shunday kichik jonivorning ovozi shu qadar kuchligini qaranglar! Lekin biz bu qushning ovozini ilgariyam eshitgandaymiz!

– Sizlar sigirning mo'-mo'lashini eshitdinglar, – dedi qizaloq. – Hali bulbulning oshiyoniga yetganimiz yo'q!

Yo'lda hovuzdagi qurbaqaning vaqillashini eshitib qolishdi.

– Naqadar ajoyib! – dedi saroy mansabdori. – Nihoyat, bulbul ovozini eshitdim! Xuddi ibodatxonamizdagi qo'ng'iroqlarning tovushiga o'xshaydi-ya!

– Yo'q, bular qurbaqalar! – dedi qizaloq – Lekin endi bulbulning oshiyoniga yetay deb qoldik!

Nihoyat, bulbul sayrashi eshila boshladi.

– Mana endi bulbul sayrayapti, – dedi qizaloq – Eshitinglar, eshitinglar! Ana, bulbulning o'zi! – shunday deya qizaloq daraxt shoxida o'tirgan mittigina, jimitgina qushchani ko'rsatdi.

– Nahotki shu bulbul bo'lsa! – dedi imperatorning bosh vaziri. Uni chiroyliroq bir narsa deb o'ylabman! Aft-angori juda oddiy ekan-ku! Chamasi, bir yo'la shuncha dongdor amaldorlarni ko'rganidan rangi o'chib ketdi shekilli boyaqishning!

– Bulbuljon! – deb qichqirdi qizaloq – Oliyhimmat imperatorimiz qo'shig'ingni eshitgilari kelib qolibdi!

– Juda yaxshi, – dedi bulbul va shunday ajoyib kuyladiki, eshitganlarni sel qilib yubordi.

– Xuddi chinni qo'ng'iroqlarning jarangiga o'xshaydi! – dedi bosh vazir. – Shunday jajji tomoqchanning titrashidan chiqqan tovushni qarang-a! Ajabo, uning qo'shig'ini ilgari eshitmagan ekanmiz-a! Bu qush saroyda juda katta obro' topadi!

– Imperatorga yana bir marta sayrab beraymi? – so'radi bulbul. U imperatorni shu yerda deb o'ylagan edi.

– Ajoyib-g'aroyib bulbuljon, – dedi imperatorning bosh vaziri. – Shu bugungi oqshomda saroyda o'tkaziladigan bayramga sizni lutfan taklif etish vazifasi zim-mamga yuklanganidan o'zimni baxtiyor hisoblayman! Shak-shubha yo'qki, Siz g'aroyib qo'shig'ingiz bilan hazrati oliylarini maftun etgaysiz!



– Mening qo‘shig‘imni yam-yashil o‘rmonda eshitish maroqliroq! – dedi bulbul, lekin imperator uni qayerga taklif etganini bilib, jon-u dili bilan borishga rozi bo‘ldi.

Imperator saroyida bayramga katta tayyorgarlik ko‘rilayotgan edi. Chinni devorlarda va oyoq ostida son-sanoqsiz oltin fonuslarning shu‘laları jimirlardi; uzun dahlizlarda shoxchalariga qo‘ng‘iroqchalar ilingan anvoyi gullar qator qilib qo‘yilgandi. Xizmatchilarning yugur-yuguridan, taraq-turuqidan va g‘irillab esgan yelvizakdan jaranglayotgan qo‘ng‘iroqchalarning tovushi odamlarning ovozini bosib ketardi. Kattakon zalning to‘rida, imperator taxtida o‘tirgan joyga oltin qo‘ndoq o‘rnatilgandi. Amaldorlarning hammasi jam bo‘lgan; oshpaz qiz ham eshik oldida turardi; endi unga saroy oshpazi degan unvon berilgandi. Bezakli liboslar kiyib, yasan-tusan qilib olgan hamma odamlar jajji, qoramtir qushdan ko‘zlarini uzmasdi. Imperator ana shu jajji qushga hurmat ko‘rsatib, bosh irg‘ab qo‘yardi.

Bulbul shunday dilbar bir navo qildiki, imperatorning ko‘zidan duv-duv yosh kelib, yonoqlariga oqa boshladi; qushning qo‘shig‘i yuraklarga jiz etib borardi. Imperator xursand bo‘lganidan o‘zining oltin tuflisini mukofot qilib, bulbulning bo‘yniga osib qo‘yishga qaror qildi. Bulbul, qo‘shig‘imni eshitganingizning o‘zi men uchun mukofot, deb oltin tuflidan bosh tortdi.

– Imperatorning ko‘zlaridan yosh oqqanini ko‘rdim – bundan ortiq mukofot bo‘lmaydi, – dedi bulbul. – Imperatorning ko‘z yoshida katta qudrat bor. Xudo shohid – menga bundan ortiq mukofot kerakmas!

Kunlardan birida imperatorga sovg‘a olib kelib berishdi. Uning ustiga «Bulbul» deb yozilgandi.

– Bizning mashhur qushimiz to‘g‘risida yana bitta yangi kitob chiqarishibdi, – dedi u.

Lekin qog'ozga o'rog'liq narsa kitob emas, g'aroyib bir quticha ekan. Qutichaning ichida xuddi rostakam bulbulga o'xshash, lekin patlari-yu qanotlariga dur-u gavharlar, marvaridlar-u boshqa javohirlar qadalgan sun'iy bulbul bor edi. Bu qushning murvati burab qo'yil-sa, rostakam bulbulning qo'shiqlaridan birini kuylab, oltin bilan kumushday tovlanayotgan dumini likillatib qo'yardi. Qushning bo'yniga bog'langan lentada «Xitoy imperatorining bulbuli oldida Yaponiya imperatorining bulbuli ip esholmaydi» degan yozuv bor edi.

– Naqadar ajoyib qush! – deyishdi bir og'izdan bar-cha amaldorlar va shu zahoti Yaponiya imperatorining elchisini: «imperatorning favqulodda bulbullar yetkazib beruvchi vakili» degan unvon bilan mukofotlashdi.

– Endi ikkala bulbul birga kuylashsin, ajoyib juftlik bo'ladi, – deyishdi amaldorlar.

Ammo ish yurishmadi. Jonli bulbul har gal o'zicha kuylar, sun'iy bulbul esa burama qo'g'irchoq, sharman-kaday faqat bir yo'sinda qo'shiq aytar edi.

– Sun'iy bulbul aybdor emas, – dedi saroy kapelmeys-teri.

U sira adashmay bir xil pardada va men tuzgan usulda kuylaydi.

Sun'iy bulbulning o'zini qo'shiq ayttira boshlashdi, u rostakam bulbuldan ham ko'proq yoqdi amaldorlarga, buning ustiga u juda chiroyli, la'l-u javohirlari tovlanib turardi!

Sun'iy bulbul bir qo'shiqni o'ttiz uch marta aytsa ham charchamadi. Davradagilar shu qo'shiqni o'ttiz to'rtinchi marta ham maza qilib eshitishmoqchi edi, ammo imperator tirik bulbulni ham aytiraylik, degan istak bildirib qoldi. Lekin u g'oyib bo'lgan edi.

Tirik bulbul ochiq derazadan yam-yashil o'rmon sari uchib ketganini hech kim payqamay qolgan edi.

– Bu nimasi? Qanday koʻrnamaklik! – xafa boʻldi imperator, shu zahoti barcha amaldorlar bulbulni koʻrnamak, pastkash maxluq deb atashdi.

– Lekin, baribir, qushning sarasi bizda qoldi-ku! – deyishdi ular va sunʼiy bulbulga boyagi qoʻshigʻini oʻttiz toʻrtinchi marta ham aytishga toʻgʻri keldi.

Biroq sunʼiy qush qoʻshigʻining ohangini hech kim yodlayolmadi, chunki yodda qoladigan ohang emas edi. Kapelmeyster sunʼiy qushni koʻkka koʻtarib maqtar, uning yaltiroq libosi va dur-u javohirlaridan tashqari ichki tuzilishi ham ajoyib ekanligini hammaga uqtirar edi.

– Tirik bulbulga kelsak, hazrati oliylari va siz, muhtaram janoblar, – dedi u imperatorga hamda uning amaldorlariga qarab, – qachon qanday qoʻshiq aytishini oldindan bilib boʻlmaydi. Sunʼiy bulbulning esa qanday qoʻshiq aytishini oldindan bilamiz! Hatto uning sanʼati sirlarini ham bilish mumkin, boʻlaklarga ajratib, ichki aʼzolarining tuzilishini – gʻildiraklari va parraklari qanday joylashganligini, qanday ishlashini bilib olishimiz mumkin.

– Biz ham shu fikrdamiz! – deyishdi saroyga yigʻilganlar. Kapelmeyster kelayotgan dam olish kuni sunʼiy bulbulni xalq oldida namoyish qilishga ruxsat oldi.

– Bulbulimizni xalq ham eshitsin! – dedi imperator.

Xalq sunʼiy bulbulning qoʻshigʻini eshitib, koʻngli toʻldi. Xalq toʻyib choy ichganida ham shunday qoniqish hosil qiladi. Hamma hayratlanib, bir ogʻizdan «O!» deyishdi va koʻrsatkich barmoqlarini yuqori koʻtarib, boshlarini liqillatib qoʻyishdi. Lekin chinakam bulbul sayrashini eshitgan kambagʻal baliqchilar sunʼiy bulbuldan hayratlanishmadi:

– Umuman durust, hatto rostakam qoʻshiqqa ham oʻxshaydi, ammo nimasidir yaxshi emas. Uning qoʻshigʻida nimadir yetishmaydi, nima ekanligini oʻzimiz ham bilmaymiz.

Tirik bulbulni esa davlatimiz chegaralaridan badarg'a qilingan, deb e'lon etishdi.

Sun'iy qush imperator mahfili oldidagi ipak yostiqdan o'rin oldi. Atrofiga esa temir bulbulga hadya qilingan barcha qimmatbaho narsalarni terib qo'yishdi. Endi uni: «Imperatorning kechki dasturxonini paytidagi birinchi chapqo'l kuychisi», degan sharafli unvon bilan atay boshladilar. Negaki, imperatorning ham yuragi chap tomonda bo'lgani uchun shu tomon muhim hisoblandi. Kapelmeyster sun'iy bulbul to'g'risida yigirma besh jildli kitob yozdi, bu kitoblarda Chin mamlakatiga xos olimona, eng murakkab, tushuniksiz so'zlar to'lib-toshib ketdi.

Lekin saroy a'yonlari, «bu kitoblarning hammasini o'qidik va tushundik», der edilar, chunki shunday deyishmasa, ularni ahmoqqa chiqarib qo'yishlari va qorinlariga kaltak bilan urishlari turgan gap edi-da.

Shunday qilib, bir yil o'tdi: imperatorning o'zi, saroyning barcha a'yonlari, hatto butun xalq, sun'iy bulbul ashulasining har bir pardasini yodlab olishdi. Ularga qo'shiq yoqib qolganidan, endi sun'iy qushga jo'r bo'lib kuylay boshlashdi. Ko'chadagi o'g'il bolalar: «Vit, vit, vit! Vilik, vilik, vilik!» – deb kuylashardi. Imperator ham xuddi shunday kuylardi. Naqadar soz!

Ammo bir kuni kechqurun imperator to'shakda yonboshlab yotib, sun'iy bulbulning qo'shig'ini eshitayotganida o'yinchoqning ichida shirillagan, chiyillagan tovushlar paydo bo'lib, parraklari pirillab aylanib ketdi va bulbulning uni o'chib qoldi.

Imperator o'rnidan sapchib turib ketdi va saroy tabibini chaqirib kelishga odam yubordi. Lekin bu as-noda tabibning qo'lidan nima kelardi. Keyin soatsozni chaqirib kelishdi. Soatsoz usta o'yinchoq bulbulning u yoq-bu yog'ini sinchiklab ko'rib, ko'p urinishlardan so'ng tuzatdi va «Endi bunga juda ehtiyot bo'linglar:

parraklarining tishlari yeyilibdi, yangisini oʻrnatgan bilan avvalgiday qoʻshiq aytolmaydi», deb ketdi. Falokatni koʻring! Endi oʻyinchoq qushga faqat yiliga bir marta qoʻshiq aytiradigan boʻlishdi. Bu qaygʻuli hol boʻlsa ham kapelmeyster konsert oldidan qisqa, lekin murakkab maʼnoli nutq soʻzlab, «bulbulimiz avvalgidan ham yaxshi qoʻshiq aytyapti», deb ishontirishga urinardi. Ehtimol, shundaydir.

Oradan yana besh yil oʻtdi, butun mamlakat gʻam-tashvishda qoldi:

«Xalqning sevimli imperatori oʻlim oldida», degan xunuk xabar tarqaldi. Allaqachon, kim yangi imperator boʻlishini gapira boshlashdi. Ammo xalq koʻchalarda toʻplanib olib, birinchi amaldordan: «Qadrdon avvalgi hukmdorimizning sogʻligʻi qanday?» – deya soʻrab-surishtira boshlashdi.

– Uf-f! – deb javob berardi amaldor va faqat bosh chayqardi. Imperator oʻzining hashamatli mahfilida rangi-roʻyi oqarib, qoʻllari muzlab yotardi; saroyning barcha amaldorlari uni oʻldiga chiqarib, yangi imperatorga taʼzimga borishga oshiqardi. Qarollar u yoq-bu yoqqa yugurib, gap sotishar, choʻrilar boʻsh vaqtlarida maroq bilan choyxoʻrlik qilishardi. Barcha zallar va dahlizlarga qalin gilamlar toʻshalgan, odamlar tovush chiqarmaslik uchun oyoq uchida yurishardi. Oraga sovuq sukunat choʻkkandi. Lekin imperator hali tirik edi, u oyoqlari – ustunchalari oltindan yasalgan barqut pardalar yopilgan hashamatli mahfilida oʻlim bilan olishib yotardi. Ochiq derazadan oy moʻralab, imperatorga va oʻyinchoq bulbulga qarardi.

Boyaqish imperatorning nafas olishga ham majoli qolmagan edi, nazarida kimdir koʻkragini bosib oʻtirganday edi. U, koʻzlarini ochib, chindan ham koʻkragida Azroil oʻtirib olganini koʻrdi. Azroil boshiga tojini kiyib olgan, bir qoʻlida hukmdorning oltin qilichi, bir qoʻlida qimmatbaho

davlat bayrog‘i bor edi. Barqut pardalarning g‘ijimlari orasida kimlarningdir g‘alati aft-angorlari ko‘rinardi: bir xillari irkit va razil, boshqalari muloyim va chiroyli edi. Azroil ko‘kragiga chiqib olgan paytda imperatorning yaxshi va yomon ishlari ana shunday qiyofalarga kirib, uni yo‘qlab kelishgandi.

– Mana bu ishing esingdami? – deb shivirlashardi ular galma-galdan va imperatorning umrida qilgan son-sanoqsiz yaxshi-yomon ishlarini yashirmay gapirib berishardi, hukmdorning manglayidan sovuq ter chiqib ketar edi.

– Men bunday bo‘lishini bilmas edim! – derdi imperator va sharpalarni quvishga urinardi. – Musiqachilarni chaqiring, musiqa chalinglar! Kattakon xitoycha nog‘oralarni olib kelinglar! Mana bularning gaplarini eshitishga toqatim yo‘q!

Lekin arvohtar o‘z gaplaridan qolmas, Azroil esa ularning gaplarini ma‘qullab, xitoychasiga boshini liqillatib o‘tirardi.

– Musiqachilarni chaqiring! Musiqa chalinglar! – deb qichqirardi imperator. – Aqalli sen qo‘shig‘ingni ayt, aziz, ajoyib tilla qushcha! Axir senga oltin, kumushlar, dur-u gavharlar hadya qildim, bo‘yningga tilla kavushimni osib qo‘ydim, kuylab ber, kuylasang-chi!

Lekin o‘yinchoq qush jim turardi, uni kuylatish uchun murvatini burashga ham biror odam qolmagan edi. Azroil imperatorga hamon ko‘zi o‘rnidagi katta-katta chuqurchalari bilan qarab o‘tirardi. Xona suv sepganday jimjit edi.

Shu payt birdan deraza orqasida ajoyib bir kuy yangradi. Chinakam bulbul imperatorning og‘ir kasal bo‘lib, o‘lim bilan olishib yotganligini eshitib, uni ovutish, dalda berish uchun uchib kelgandi. Bulbul sayrar, arvohtar tobora xiralashar, imperatorning yuragida tez-tez qon yurishar edi. Hatto Azroilning o‘zi bulbulning nolasiga mahliyo bo‘lib: «Kuyla, bulbuljon, kuyla!» – deb yalina boshladi.

– Kuylasam, oltin qilichni qaytarib berasanmi? Qimmatbaho bayroqni-chi? Hukmdorning tojini-chi? – soʻrardi bulbul.

Azroil qoʻshiq sehri bilan boyagi qimmatli narsalarni birma-bir qaytarib bera boshladi. Bulbul esa hamon kuy-lardi. Nihoyat, u oq atirgullar va gulxayrilar muattar boʻy taratayotgan, yangi nish urib chiqqan maysalarni, tiriklar-ning oʻlganlar uchun toʻkkan koʻz yoshlari bilan sugʻorilgan sokin, farahbaxsh qabriston haqida kuylay ketdi. Azroil bu qoʻshiqni tinglab, oʻzining soʻlim bogʻiga mehri shunday tovlanib ketdiki, shu zahoti oppoq va sovuq, tumanga aylanib, oynadan uchib chiqib ketganini arang sezib qolishdi.

– Rahmat senga, aziz qushcha! – dedi imperator. – Sen unutilmaydigan ish qilding! Seni davlatimdan badargʻa qilib, haydab yuborgan edim, sen esa menga hamla qilgan dahshatli arvohlarni, hatto Ajalning oʻzini ham huzurimdan haydab yubording. Bu yaxshiliklaringni qanday qaytarsam ekan?

– Sen allaqachon qarzingni uzgansan! – dedi bulbul. – Huzuringda sayraganimda birinchi marta koʻz yoshla-ringni koʻrdim – buni hech qachon unutmayman. Kuy-chining koʻnglini koʻtaradigan oliy mukofot – hayajonli koʻz yoshlari! Lekin endi sogʻaytiradigan, tetiklashti-radigan uyquga ketib, orom ol! Men boʻlsam seni qoʻshiq aytib allalayman!

Bulbul yana sayrashga tushdi, imperator esa sogʻlom, huzurbaxsh uyquga ketdi.

Imperator uygʻonganida, derazadan quyosh nurlari tushib turardi. Xizmatkorlaridan birortasi xabar olmas, hamma uni oʻldiga chiqargan edi. Faqat bulbulgina deraza rahiga qoʻnib, hamon sayrardi. – Bulbuljon, endi seni yonimdan sira ketkazmayman! – dedi imperator, – Endi oʻzing istagan paytingda sayraysan, oʻyinchoq bulbulni esa sindirib, parcha-parcha qilib tashlayman!

– Unday qilma! – dedi bulbul. – U ham qo‘lidan kelganicha xizmat qildi. Mayli, o‘yinchoq bulbul avvalgiday yoningda bo‘lsin! Men saroyda yashay olmayman, axir! Faqat o‘zim xohlagan vaqtimda huzuringga kelib turishga ruxsat bersang bo‘ldi. O‘shanda oqshomlari derazangga qo‘nib qo‘shiqlar aytib beraman. Qo‘shiqlarim seni ham sevintiradi, ham o‘ylantiradi. Men senga atrofingda yurgan baxtli va baxtsiz odamlar haqida, yaxshilik va yomonlik haqida qo‘shiqlar aytaman. Jajjigina sayroqi qush har yerda uchib yuradi, sendan uzoqlarda yashaydigan kambag‘al baliqchi va dehqonlarning kulbalariga ham uchib kiradi. Men seni boshingdagi tojing uchun emas, qalbing uchun sevaman. Lekin, baribir hukmdorlik toji qandaydir muqaddaslik nuriga yo‘g‘rilgan! Uni pok saqla! Demak, huzuringga keyin ham kelib turaman! Faqat bir narsaga va‘da ber!..

– Aytganing bo‘lsin! – dedi imperator o‘zining bor savlatini namoyish qilib. Bu orada u o‘zining imperatorlik liboslarini kiyib, og‘ir oltin qilichini ko‘ksiga bosib turardi.

– Faqat bir narsani iltimos qilaman! – dedi yana bulbul. – Fuqarolaring ahvoli to‘g‘risida bor xabarlarni aytib turuvchi jajji qushchang borligini hech kim bilmasin. Shunday bo‘lgani yaxshi!

Bulbul shularni aytib, uchib ketdi.

Xizmatkorlar imperatorning o‘ligini ko‘ramiz degan o‘yda saroyga kirishar ekan, ostonada to‘xtab, hang-u-mang bo‘lib qolishdi. Imperator esa ularga:

– Salom! – deya peshvoz chiqdi....

## IRKIT O‘RDAKCHA

Shahar atrofi nihoyatda go‘zal edi. Avji yoz fasli, javdar, bug‘doy oltinday tovlanar, suli boshog‘i sutga to‘lgan, pichanlar g‘aram qilingan edi. Yam-yashil o‘tloqda uzun-



oyoq laylak misrliklar tilida g'udranardi. Arabchani u onasidan o'rgangan edi. Dalalar va o'tloqlar qalin o'rmonlarga tutashib ketgan, ularning ichkarisidagi zangori ko'llarning suvi g'ir-g'ir esgan shabada bilan mavjlanar edi. Ha, shahar atrofi nihoyatda go'zal edi!

Shahar chekkasidagi ko'hna qo'rg'on tevaragi suv to'la chuqur ariqlar bilan o'ralgan, qo'rg'onning devori tagidan to suvgacha otquloq qalin o'sgan edi. Otquloq shunchalik g'ovlab ketgan ediki, bolakaylar uning eng yirik barglari ostiga yashirinib o'ynashardi. O'rmonday qalin o'sgan otquloqlarning ichkarisida yoshgina ona o'rdak tuxum bosib o'tirardi. Uzoq o'tiraverish joniga tekkandi. Buning ustiga yoniga sheriklari kelmas, yolg'iz o'tiraverish zerikarli edi. Boshqa o'rdaklar ko'katlar orasida u bilan birga g'ag'alashdan ko'ra ariqda suzib rohatlanishni afzal ko'rishardi.

Nihoyat, tuxumlarning po'stloqlari qirsillab yorila boshladi.

– Chiy! Chiy! – degan ovozlari eshitildi ichkaridan.

Tuxum sariqlariga jon kirdi va boshlarini tashqariga chiqarib olishdi.

– G'aq! G'aq! – dedi ona o'rdak.

O'rdakchalar bir amallab tuxumning ichidan chiqib olishdi va tevarak atrofga qarab, otquloqning yam-yashil barglarini tomosha qila boshlashdi. Onasi ularga xalal bermadi: mayli, qarashsin, yashil rang ko'zga juda foydali.

– Eh, olam naqadar keng ekan! – deyishdi o'rdakchalar. Bo'lmasam-chi! Tuxum po'stlog'ining ichidan ko'ra albatta keng-da.

– Butun olam faqat shu joy ekan, deb o'ylamanglar tag'in! – dedi ona o'rdak. – Sirayam undaymas! Olam uzoq-uzoqlargacha, bog'dan ham nariga, dalalar tomonga cho'zilib ketgan, lekin men hali u yoqlarga bormaganman... Xo'p, qani, hammalaring chiqib oldilaringmi? Ah,

yo‘q, hali hamma tayyor emas ekan. Eng yirik tuxum hali butun turibdi! Eh, bu ishning oxiri bormi o‘zi?! Bunaqada toqatim toq bo‘ladi-ku!

Shunday deb, ona o‘rdak yana yirik tuxum ustiga o‘tirdi.

– Ishlar qalay? – deb so‘radi uning holidan xabar olgani kelgan keksa o‘rdak.

– Ko‘rmaysizmi, qurmagur mana shu bitta tuxum meni juda ovora qildi, – dedi yosh ona o‘rdak. – Sira yorilay demaydi. Mana bu jajji o‘rdakchalarga qarang, juda chiroyli, to‘g‘rimi? Hammasi bir tusda, – quyib qo‘yganday, otalarining o‘zginasi.



– Qani, yorilmayotgan tuxumingni men bir ko‘raychi? – dedi qari ona o‘rdak. – Gapimga ishonaver, bu tuxum kurkaniki, g‘ulg‘uli tovuqniki. Meniyam bir kuni shunaqa laqillatishgan. Keyin qurmagur g‘ulg‘ulichalar boshimga chunonam tashvish orttirishdi-ki! Ularni suvga yaqin keltirolmay rosa ovora bo‘lganman. Tavallo qilib g‘ag‘illayman, bari bir kelishmaydi! Qani, yana bir ko‘raychi. To‘g‘ri, g‘ulg‘ulining xuddi o‘zi. Boshingga urasanmi buni, yaxshisi tashlab yubor-u o‘zingni bolalaringni suzishga o‘rgat.

– Yo‘q, yaxshisi biroz sabr qilaman, – dedi yosh ona o‘rdak. – Qirqiga chidagan qirq birigayam chiday.

– Bilganingni qil-e, – dedi qari o‘rdak va nari ketdi. Nihoyat, yirik tuxum ham yorildi.

– Chiy! Chiy! – deya chiyillab bir polapon yorug‘ olamga chiqdi. Lekin yangi mehmon biram katta, biram jirkanch edi-ki! Ona o‘rdak unga hayron bo‘lib tikilib qoldi.

– Shunaqayam yo‘g‘on bo‘ladimi? – deb g‘udirladi u. – Boshqa bolalarimga sirayam o‘xshamaydi. Rostdan ham g‘ulg‘uli bo‘lsa-ya? Bo‘lganicha bo‘ldi. Lekin men uni suvga pishmasdan qo‘ymayman. Qani tixirlik qilib ko‘rsin-chi!



Ertasiga quyosh charaqlab chiqdi, yam-yashil otquloq nurga chulg'andi. – Ona o'rdak kichkintoylarni ariq tomonga boshlab ketdi. Shalop etib, birinchi bo'lib suvga o'zini tashladi u.

– G'aq! G'aq! – chaqirdi u bolalarini. O'rdakchalar ham yugurib kelib, o'zlarini suvga otishdi. Shalop! Shalop!

Avvaliga suvga boshlari bilan sho'ng'ib ketishdi, keyin darrov suv yuziga chiqishdi va qoyil qilib suzib ketishdi. Oyoq pardalari rosa ish berdi. Hatto jirkanch kulrang o'rdakcha ham boshqalardan qolishmay suzardi.

– Sira g'ulg'uliga o'xshamaydi! – dedi ona o'rdak. – Oyoqlarini eshkakday ishlatishiga qarang. Qaddini rost tutishi-chi! Yo'q, u begona emas, o'zimning o'g'ilginam. Yaxshilab qaraganda xunukligi bilinmaydi. Qani, ortimdan chaqqon-chaqqon suzinglar-chi? Sizlarni hozir qatorga qo'shaman – qushlar makoniga olib kiraman. Faqat mendan uzoqlashib ketmanglar, bitta-yarimtasi bosib olmasin tag'in, mushukdan ham ehtiyot bo'linglar!

Ko'p o'tmay qushlar makoniga yetib kelishdi. Eh-he! Shovqin-suronni qarang, qiyomat-qoyim bo'lyaptimi?! Ikki oila o'rdak bir dona itbaliqni talashib, to's-to'polon ko'tarishayotgandi. Oxiri itbaliq, mushukka nasib etdi.

– Bu yorug' olamda doimo shunaqa bo'ladi, – dedi ona o'rdak va tili bilan tumshug'ini yalab qo'ydi, uning o'zi ham itbaliqni tatib ko'rishni xohlardi. – Qani, chaqqonroq ildamroq harakat qilinglar, – dedi u o'rdakchalarga qarab. – Qani bir yaxshilab g'aqillab, anovi xolanglarga ta'zim qilinglar-chi! U hammamizdan mo'tabarroq, Ispan zotidan bo'lgani uchun biqqigina. Ko'rdingizmi, uning oyog'iga qizil quroq bog'langan. Juda chiroylik-a! O'rdakka nasib qiladigan eng oliy hurmat bu. Ya'ni, egalari uning yo'qolib qolishidan qo'rqib, qizil latta bog'lab qo'yishgan. Odamlar-u hayvonlar uni o'sha qizil lattasidan tanishadi.

Qani, chaqqonroq, ishlanglar! Ikki oyog'ingiz bir joyda turmasin. Tarbiya ko'rgan o'rdakcha ota-onasiga o'xshab, oyoqlarini yoyib suzadi. Ha, shunday bo'lsin! Qarang. Endi boshlaringizni egib, «G'aq!» denglar-chi!

O'rdakchalar onalarining aytganlarini qilishdi. Lekin begona o'rdaklar ularga kalondimog'lik bilan qarab, ham-maga eshittirib, g'udranishdi:

– Ana, yana bir to'da kelib qoldi. Bizga shular yetishmay turuvdi! Anovi bittasining basharasiga qarab bo'lmaydi-ya. Uni ko'rishga sira toqat qilolmaymiz!

Shu zahoti bir o'rdak uchib kelib, katta o'rdakchanning bo'ynidan bir cho'qidi. – Qo'ysalaring-chi, – dedi ona o'rdak. – Axir u sizlarga sira yomonlik qilmagan-ku.

– To'g'riku-ya, – dedi boyagi urishqoq o'rdak. – Lekin u juda g'alati-ku! Bundaylarning boplab ta'zirini berish kerak.

– Go'daklaring chiroyligina ekan! – dedi oyog'iga qizil quroq bog'langan qari o'rdak. – Hammasi chiroyli, anavi bittasini hisobga olmaganda... Shunisi chatoqroq ekan! Uni boshqatdan qiyib-bichish kerak edi.

– Buning sira iloji yo'q, janobi oliyalari, – javob berdi ona o'rdak. – To'g'ri, unchalik chiroyli emas, biroq, ko'ngli oq. Suzishda bo'lsa boshqalardan qolishmaydi, ruxsatingiz bilan aytsam, boshqalardan yaxshiroq, suzadi. Chamamda, vaqti kelib, u boshqalarga o'xshab, ancha kichrayib qoladi. U tuxum ichida ko'proq qolib ketdi, shundan xunukroq chiqib qolganga o'xshaydi, – deya ona o'rdak katta bolasining yelkalarini qashib, patlarini silab qo'ydi. – Buning ustiga, bu nar o'rdak, nar o'rdak chiroyli bo'lishi shart emas. Chamamda u kuchli o'rdak bo'lib o'sadi, o'ziga yo'l ochib oladi.

– Boshqa o'rdakchalarigiz ancha chiroyli, – dedi qari o'rdak. – Bo'pti, o'zingizning uyingizda yurganday, bemalol o'ynab yuraveringlar. Mabodo, chuvalchang topib

olsalaringiz menga keltirib bersangizlar ham mayli, xafa bo'lmayman.

Shunday qilib, o'rdakchalar xuddi o'zlarining uylarida yurganday g'ala-g'ovur ko'tara boshlashdi. Faqat hammadan keyin tuxumdan chiqqan bechora o'rdakcha xunukligi tufayli hammadan dakki yer edi. Uni o'rdaklargina emas, hatto tovuqlar ham turtib, cho'qib, masxara qilar edilar.

– Judayam katta! – deyishardi ular.

Oyog'ida pixi bilan tug'ilgani uchun o'zini imperator chog'laydigan hind xo'rozi hurpayib, xuddi yelkanli kema-day qanotlarini yozganicha bir uchib, irkit o'rdakchanning oldiga tushdi, unga g'azab bilan tikilib, turib oldi; tojiga qon quyilib, dahshatli tus oldi.

Boyaqish o'rdakcha nima qilishini, qayoqqa qochishini bilmadi. Qayoqdan ham shunaqa tasqara bo'lib tug'ildim ekan, qushlar makonida meni masxara qilmagan hech kim qolmadi-ya, deya o'kinardi.

Birinchi kun shunday o'tdi. Keyin beshbattar bo'ldi. Bechora o'rdakchani hamma turtib, surtib, har yerdan quvishar, hatto akalari bilan opalari ham: «Basharang qursin, tezroq, mushuk-pushuk yeb keta qolsayam bo'lar-di!» – deb haqoratlay boshladilar. Ustiga-ustak onasi ham: »Ko'zinga ko'rinma, irkit!» – deb qarg'ar edi. O'rdaklar uni chimchilashar, tovuqlar cho'qilashar, qushlarga don sepuvchi qizaloq ham uni tepib, nariroqqa surar edi.

Nihoyat, o'rdakcha jonidan to'ydi. Tavakkal, deb hovlining o'rtasidan chopib o'tib, bir sakrab shoxdevordan uchib, tashqariga tushdi. Butalar orasidagi mitti qushchalar cho'chib, uchib ketishdi.

«Shunday xunuk ekanmanki, mitti qushchalar ham qo'rqqanidan qochib qolishdi», – deb o'kindi o'rdakcha va boshi oqqan tomonga chopqillab ketdi. Oxiri yovvoyi o'rdaklar istiqomat qiladigan bir botqoqqa borib qoldi. Shu yerda u sovuqdan qaltirab tunni o'tkazdi. O'rdakcha

juda charchab, tinka-madori qurigan, buning ustiga ko'ngli vayron edi.

Ertalab yovvoyi o'rdaklar uyalaridan uchib chiqib, yangi o'rtoq kelganini ko'rishdi.

– Bu qanday qush bo'ldi? – ajablanishdi ular.

O'rdakcha gir aylanib, har tomonga egilib, bilganicha ta'zim qila boshladi.

– Shunaqayam jirkanch bo'lasanmi? – deyishdi yovvoyi o'rdaklar.

– Darvoqe buning bizga aloqasi yo'q; faqat biz bilan yaqinlashishni xayolingga keltirma tag'in.

Bechora o'rdakchaga yo'l bo'lsin edi ular bilan do'st tutinishga. Faqat unga qamish orasida o'tirishga va botqoq suvidan totinishga ruxsat bersalar bo'ldi.

O'rdakcha shu alpozda ikki kun o'tirdi. Uchinchi kuni ikki yovvoyi o'rdak bola uchib kelib, uning oldiga qo'nishdi. Ular endigina tuxumdan chiqishgan va shuning uchun o'zlariga juda bino qo'yishgan edi.

– Bilib qo'y, og'ayni, – deyishdi ular. – Sening basharang shu qadar tasqaraki, to'g'risini aytganda bizga yoqib qolding! Biz bilan birga dunyo kezib, erkin qush bo'lib yurishni xohlaysanmi? Shu o'rtada boshqa bir botqoq bor, u yerda ko'hlikkina o'rdak xonimlar yashaydi. Ular «rap, rap» deb chet tilda gaplasha oladilar. Sen judayam xunukligingdan ularga balki, yoqib qolarsan.

Ammo shu payt, botqoq uzra «Pif, «Paf!», «Qars!», «Qurs!» degan tovushlar eshitildi va ikkala yovvoyi o'rdakchanning o'lik tanalari qamishzor ichiga shaloplab tushdi. Ustma-ust yana «Qars!» «Qurs!» tovushlari eshilib, qamishzordan bir gala yovvoyi o'rdaklar uchib chiqishdi. Otishma kuchaydi...

O'rdakcha tag'in qamishlar orasiga berkinib oldi. Ahyon-ahyonda boshi uzra sochma o'qlar vizillashi eshittildi.

Otishma oqshomdan keyingina tindi, lekin oʻrdakcha qoʻrqqanidan yana ancha vaqtgacha qimirlamay oʻtiraverdi.

Yana birmuncha vaqt oʻtdi. Nihoyat, oʻrdakcha oʻrnidan jilishga jurʼat qildi, ehtiyotkorlik bilan u yon-bu yonga qarab, olisdagi dala va oʻtloqlar tomon yugura ketdi. Kuchli shamol turganidan oʻrdakcha yiqilib tushishdan qoʻrqib, arang yugurardi.

Yarim kechaga yaqin oʻrdakcha bir kambagʻal odamning kulbasiga kelib qoldi. Kulba shunchalik nurab, chirib ketgan ediki, u agʻanab tushay-tushay deb turardi. Faqat qaysi tarafga yiqilishini bilolmagani uchungina kulba shu vaqtgacha qulamay turardi.

Shamol kuchayganida oʻrdakcha yer bagʻirlab olgandi.

Oʻrdakchanning baxtiga, kulba eshigi bitta oshiq-moshigʻidan chiqib, qiyshayganicha osilib qolgandi. Eshikning ochiq joyidan bemalol ichkariga kirib olish mumkin edi. Oʻrdakcha xuddi shunday qildi ham.

Kulbada bir kampir mushugi va tovugʻi bilan yashardi. Kampir mushugini: «Oʻgʻilcham», deb suyib erkalardi; mushuk xurpayishni, miyovlashni va hatto koʻzlaridan uchqun sachratishni bilar edi, lekin buning uchun uning yungini teskarisiga silash kerak edi. Tovuqning oyoqlari choʻpday va kalta boʻlgani uchun uni Kaltaxon deb chaqirishardi; kampir uni vaqtida tuxum tugʻib turgani uchun oʻz qiziday yaxshi koʻrar edi.

Ertalab begona oʻrdakcha kelib qolganini koʻrishdi. Mushuk miyovlab, tovuq, qaqagʻlay boshladi.

– Kim? – soʻradi kampir.

U yaxshilab qaragan edi, burchakda qaltirab turgan oʻrdakchani koʻrdi. Lekin koʻzi yaxshi oʻtmaganidan, uni semiz oʻrdak ekan, deb oʻyladi.

– Xudo yetkazdi! – deya quvondi kampir. – Endi oʻrda-

gimiz ham tuxum ochadigan bo'ldi. Agar, albatta u nar o'rdak bo'lmasa. Mayli, sinab ko'raylik-chi!

O'rdakchani sinay boshlashdi. Lekin, uch hafta o'tdi hamki, tuxumdan darak bo'lmadi.

Uyning haqiqiy xo'jasi mushuk, bekasi esa – tovuq edi. Shuning uchun ikkalasi «Biz bor, olam bor» deb yurishardi. Ular o'zlarini olamning yarim pallasi deb, shundayam, yaxshi tarafi, deb bilishardi. To'g'ri o'rdakning nazarida bu borada boshqacha fikr aytish ham mumkinday tuyulardi. Lekin tovuq boshqacha fikrlashga sira yo'l bermasdi.

– Tuxum tug'ishni bilasanmi? – so'rardi u o'rdakchadan.

– Yo'q.

– Unday bo'lsa tilingni tiyib yur!

Mushuk ham so'roqqa tutardi.

– Hurpayishni, ko'zingdan uchqun chiqarishni, miyovlashni bilasanmi?

– Yo'q.

– Bo'lmasa, aqlli odamlar gapirayotganda bo'lar-bo'lmas fikrlaring bilan hadeb gapga suqilaverma!

Shundan keyin o'rdakcha bir burchakka tiqilib olib, shumshayib o'tiraverdi.

Birdan o'rdakchanning yodiga toza havo, charaqlagan quyosh borligi, suvda yayrab suzib yurish mumkinligi tushib, yuragi orziqib ketdi. Chidab turolmay ko'nglidagini tovuqqa aytgan edi, u koyib berdi:

– Mazang qochibdi, – dedi tovuq. – Biror ish qilmay dangasalik qilib o'tiraversang, boshingga shunaqangi bo'lmag'ur xayollar kelaveradi! Yaxshisi tuxum tug'ib ko'r yoki miyovla, darrov hushingga kelib qolasan!

– Oh, suzish qanchalar yoqimlik! – dedi o'rdakcha.  
– Suvning eng chuqur joyiga boshing bilan sho'ng'ish qanday maroqli!



– Maroqli emish! – tajang bo‘ldi tovuq. – Aqldan ozibsan! Mushukdan so‘ra, dunyoda undan aqlli zot bo‘lmasa kerak, suzish bilan sho‘ng‘ish unga yoqarmikan, yo‘qmikan? Men o‘zim to‘g‘rimda gapirmay qo‘ya qolay. Mayli, kampirdan – bekamizdan so‘rab ko‘r-chi, undan ko‘ra donoroq odam dunyoda yo‘qligi ma‘lum, u nima derkin? So‘ra-chi, suvning chuqur joyiga sho‘ng‘ish kampirimizga yoqarmikin, yo‘qmikin?

– Sizlar dilimdagini tushunmaysizlar, – dedi o‘rdakcha.

– Nima, nima? Senday jinqarchaning dilida nima bo‘lishi mumkin! Ho, siz aqlli bo‘ldingiz-u, bizning mushuk bilan uy bekamiz ahmoqroq ekanmi? Meni aytmay qo‘ya qolaylik. Jinnilikni bas qil, bizdan ko‘rgan yaxshiliklarni unutma, tuzimizni ichib tuzlig‘imizga tupurma. Senga boshpana berdik, bag‘rimizga oldik. Shunday bir madaniyatli davraga tushib, oq-u qorani taniganingga shukur qil! Lekin ahmoq ekansan, sen bilan gaplashib o‘tirishning o‘zi bema‘nilik! Gapimga ishonaver, senga faqat yaxshilikni ravo ko‘raman. Do‘st achitib gapiradi, bilsang. Tuxum qo‘yishga harakat qilib ko‘r yoki miyovlashni va ko‘zlaringdan uchqun chiqarishni o‘rgan!

– Yaxshisi, shu yerdan bosh olib keta qolay! – dedi o‘rdakcha.

– To‘rt tomoning qibla! – javob berdi tovuq.

O‘rdakcha aytganini qildi, ketib qoldi. U tinimsiz suzar, boshi bilan sho‘ng‘ir, lekin avvalgiday, hamma uning ustidan kular, jirkanch va badbashara, deb haqorat qilishar edi.

Kuz keldi. Daraxtlarning barglari sarg‘ayib, qo‘ng‘ir tus oldi; shamol ularni chirt-chirt uzib, havoda aylantirib o‘ynardi. Qattiq sovuq tushdi... Qalin sur bulutlar yerga goh do‘l, goh qor separ edi. Butalarda o‘tirib olgan

qarg'a sovuqqa chidayolmay, ovozining boricha baqirib qag'illardir. Qar-r-r! Bunaqa sovuqni o'ylashning o'zi odamni muzlatib yuboradi. Bechora o'rdakchanning holi tang bo'lib qoldi.

Bir kuni oqshom oldidan, quyosh endi botayotgan paytda o'rmon ichidan bir gala chiroyli va yirik qushlar uchib chiqishdi. Bunaqa go'zal, qorday oppoq, uzun, tolma bo'yin, ulug'vor qushlarni o'rdakcha umri bino bo'lib ko'rmagandi. Ular qandaydir g'alati tovush chiqarib, chiroyli, katta-katta qanotlarini silkitib, sovuq o'tloqlardan moviy dengiz ortidagi iliq o'lkalarga yo'l olgan edilar. Ular balandlashib, osmon-u falakka singib ketishdi. Bechora o'rdakchanning yuragini tushuniksiz bir dard chulg'adi, u suvda pirpirakday aylanib, bo'ynini cho'zganicha shunday qattiq va g'alati qichqirib yubordiki, tovushidan o'zi ham qo'rqib ketdi. U boyagi go'zal, baxtiyor qushlar uchib ketgan tomondan ko'z uzolmay qoldi. Ular ko'zdan g'oyib bo'lganidan keyin esa, o'rdakcha o'zini qayerga qo'yishini bilmay, suvning tub-tubiga sho'ng'idi, yana suv yuziga chiqdi va uzoq vaqtgacha o'ziga kelolmadi. O'rdakcha bu qushlarning nomini ham, qayoqqa uchib ketishganini ham bilmasa-da, ularni butun vujudi bilan sevib qoldi. O'rdakcha dunyoda hali hech kimni bunchalik sevmagan edi. Yo'q, o'rdakcha ularning husniga hasad qilmasdi; o'zini o'shalariday chiroyli deyish xayoliga ham kelmasdi. O'zini aqlli o'rdaklar turtkilashmasa xursandlikdan boshi osmonga yetardi. Bechora irkit o'rdakcha edi u!

Qattiq-qirovli, qahraton qish keldi. O'rdakcha endi atrofidagi suv muzlab qolmasligi uchun tinmay suzishi kerak edi. Lekin tun sayin u suzayotgan joydagi suvning atrofi muzlab borardi. Sovuq qattiqligidan muz ham tars-tars yorilar edi. O'rdakcha oyoqlarini tinimsiz ishga solib, harakat qilardi. Oxiri u holdan toydi, shilqillab yiqilib, tanasi muzga yopishib qoldi.

Azonda shu yerdan bir dehqon o'tib ketayotib, muzga yopishib qotib yotgan qushni ko'rib qoldi. U yog'och kavushi bilan muzni yordi va chalajon qushni uyiga olib borib, xotiniga berdi. O'rdakchanning tanasiga iliqlik yugurdi.

Bolalar qush bilan o'ynamoqchi bo'lishgan edi, u xafa qilishmoqchi, deb o'ylab, qo'rqqanidan, ularning qo'lidan o'zini otdi. Uy bekasi qichqirib, qo'l silkigan edi, o'rdakcha xonada u yoqdan- bu yoqqa qochib, yog' solingan xumtovoqqa tushib ketdi, u yerdan uchib, un solingan yog'och xumga tushdi. O'zini esa tanib bo'lmay qoldi.

Ayol qo'lga otashkurak olib uni quvlar, ortidan bolalar bir-birini turtib, yiqitib, yugurishar, xaxolab qiyqirishar edi. Yaxshiki, eshik ochiq qolgan ekan, o'rdakcha «pirr» etib, u yerdan uchib chiqdi va butalar ustidagi yangi yoqqan qorga tushdi. O'sha yerda hushsizlanib, uzoq yotib qoldi.

Mana shu qahraton qishda bechora o'rdakcha boshidan kechirgan barcha kulfat, mashaqqatlarni gapirib berish juda qayg'uli bo'lar edi.

Quyosh o'zining qaynoq nurlari bilan yerni yana ilita boshladi. To'rg'aylar sayradi. Bahor keldi!

Qish ichi botqoqda, qamish-qiyoqlar orasida yotgan o'rdakcha ham jonlanib, qanotlarini silkitib parvoz qildi. Endi qanotlari avvalgidan ancha kuchli bo'lib, baland-balandlarga ucha olar edi. O'rdakcha tez uchganidan bir zumda kattakon bir boqqa kelib qoldi. Olmalar chaman-chaman gullagan, muattar nastarin daraxtining uzun, yam-yashil novdalari bo'tana bo'lib oqayotgan anhor suviga tushib turardi. O, bu yer naqadar go'zal, maftunkor, bahor butun atrofga atir-ifor sochardi!

Shu payt, birdan yaqindagi qamishzor ichidan uchta chiroyli oppoq oqqush uchib chiqdi. Ular suvda go'yo sirpanayotganday ravon, mag'rur suzishardi. O'rdakcha

bu qushlarni tanidi va yana vujudini qandaydir ma'yus hayajon chulg'ab oldi.

– Tavakkal qilib, shu ulug'vor qushlar yoniga boraman. Menday badbashara bir qush ularga yaqinlashishga jur'at qilganim uchun o'ldirguday cho'qib tashlashsa ham mayli! O'lsam o'la qolay! O'rdaklar va tovuqlarning chimchilab, burashlariga, parranda-boqar qizning tepkilariga, qahraton qishning izg'irini va ochlik-yalang'ochligiga chidab yurishdan ko'ra shu chiroyli qushlarning qo'lida o'lganim yaxshi!

Shunday deb, o'rdakcha anhor suviga tushdi va go'zal oqqushlar oldiga suzib bordi. Buni ko'rgan oqqushlar ham qanotlarini silkitib o'rdakchaga yaqin kela boshlashdi.

– Meni o'ldiringlar! – dedi bechora o'rdakcha va boshini quyi soldi. Shu zahoti u ko'zguday tiniq suvda o'zining aksini ko'rib qoldi. Lekin u qoramtir, kulrang, jirkanch o'rdakcha emas, oppoq oqqush bo'lib ko'rindi!

O'rdakcha avvallari benihoya kulfat, mashaqqatlar tortganiga xursand, chunki xuddi shu kulfat, mashaqqatlar tufayli u hozirgi baxtini, atrofdagi go'zallikni qadrlay oldi. Katta oqqushlar esa atrofida parvona bo'lib, unga tumshuqlari bilan suykanishardi.

Shu payt bog'ga kichkintoy bolalar yugurib kirishdi. Ular oqqushlarga non ushoqlari va don-dun sepa boshlashdi. Bolalardan eng kichigi birdan o'rdakchani ko'rib qoldi va:

– Yangi oqqush kelibdi! Yangi oqqush kelibdi! – deb qichqirdi. Boshqa bolalar ham:

– Yangi oqqush! Yangi oqqush! – deb quvonib qiyqirishardi. Bolalar sevinganidan chapak chalib, o'yinga tusha boshladilar. Keyin ular ota-onalariga xushxabarni aytish uchun chopqillab ketishdi. Ko'p o'tmay, hamma-lari suv bo'yiga kelib, qushlarga yana non ushoqlari va shirinliklar tashlay boshlashdi. Bolalar ham, kattalar ham:

– Yangi oqqush hammasidan yaxshi! U juda chiroyli va juda yosh! – degan gaplarni aytishardi.

Qari oqqushlar esa unga bosh egib ta’zim qilishardi.

Yosh oqqush esa xijolat bo‘lib, nima uchunligini o‘ziyam tushunmagan holda boshini qanotlari ortiga yashirishga urinardi. U shu lahzalarda hammadan ta’na eshitib, dakki yeb, urilib, surilib, quvg‘indi bo‘lib yurgan vaqtlarini esladi. Endi bo‘lsa hamma uni go‘zal oqqushlar ichida eng go‘zali deb maqtardi. Nastarin muattar shoxlari bilan suvga egilib, uni olqishlardi. Quyosh uni ilitib ardoqlar va mayin nurini sochardi... Shu payt birdan u qanotlarini beixtiyor yoyib, chiroyli qaddini rosladi va uning ko‘ksidan quyidagi so‘zlar beixtiyor otilib chiqdi:

– Yo‘q, men jirkanch o‘rdakcha bo‘lib yurganimda bunday baxtni orzu ham qilmagan edim!



## NODAR DUMBADZE

### HELLADOS

#### *Hikoya*

Yanguli – suxumilik grek Xrista Aleksandridining o‘g‘li. Cho‘pday ozg‘in, yelkalari turtib chiqqan, qirraburun, ko‘zlari charosdek qop-qora, qo‘llari uzunligidan tiz-zasiga tushib turadigan o‘n to‘rt yoshli bu bola yon-atrofdagi tengqurlari uchun naqd azroilning o‘zi edi.

Yanguli otasi bilan Venetsian ko‘chasida, Chalbash daryosining bo‘yida yashardi. Onasini eslolmaydi – chaqaloqligidayoq yetim qolgan. Ota-bolaning bor-yo‘q davlati bir parcha tomorqa, bittagina sigir va eshakdan iborat. Oshko‘k, sut-qatiq sotib kun ko‘rishadi.

Yanguli hech qayerda o‘qimasdi. Otasining yumushlariga qarashar, ahyon-ahyon eshakda qo‘shnilarga sut-qatiq tarqatar edi...

O‘n to‘rt yoshli bu zolim Venetsian ko‘chasida istiqomat qiluvchi barcha ustidan, jumladan, xolavachcham Koka ustidan ham tanho hukmronlik qilardi.

... Bizning tanishuvimiz o‘ttiz sakkizinchi yilning kuzlarida boshlangan...

... Temiryo‘l kesib o‘tiladigan joyda, odatdagidek, Yangulining to‘dasi uymalanardi. Beixtiyor boshim o‘sha tomon og‘di – hozir uyga borishdan nima foyda! Bolalarga yaqin qolganda qadamimni sekinlatdim-da, atayin engashib, botinkamning iplarini titkilay boshladim.

– He-ey, skripka!

Yangulining ovozi darrov tanidim.

– Nima deysan?

– Bu yoqqa kel!

– Ishing bo'lsa – o'zing kel!

Yanguli o'zidan ham battar taajjublangan o'rtoqlariga bir qarab qo'ydi-da, asta men tomonga yura boshladi.

– Kimligimni bilmaysanmi hali? – deb so'radi u kishining g'ashiga tegadigan bir ohangda.

– Bilaman, – dedim ko'zlariga tik qarab.

– Bo'lmasa, nega chaqirganda kelmaysan?

– Kim bo'psan meni chaqiradigan? – dedim yana bepisandlik bilan, ammo har ehtimolga qarshi, skripka solingan g'ilofni yerga qo'ydim.

Yanguli o'yinni ham unutib, bizni qurshab olgan bolalarga bir-bir qarab chiqdi.

– Yanguli, kimligingni bir ko'rsatib qo'y! – dedi bolalardan biri.

– Sol, Yanguli! – deya qo'shimcha qildi ikkinchisi.

– Bir shapaloqqina! – deb maslahat berdi uchinchi bola.

– Oldin zo'rligini bir ko'raylik-chi! – Yanguli shunday deb, yuzimni bir siypalab qo'ydi.

– Qo'lingni tort! – baqirdim unga.

– Ol-a! – deya hayron bo'ldi Yanguli.

– Uni qaranglar-a!

– Papirosni chiqaz! – dedi Yanguli birdan qo'lini cho'zib.

– Chekmayman!

– Pulni ol!

– Pulim yo'q.

– Cho'ntaklaringni ag'dar!

– O'zing ag'dar!

Bolalar pichirlasha boshlashdi. Yanguli dovdirab qoldi, ammo darrov o'zini bosib, skripkaga qo'l cho'zdi.

– Tort panshaxangni! – deb baqirdim skripka ustiga engashib. Lekin Yanguli o'zg'irlik qildi – g'ilofni ochib, asbobni menga uzatdi.

– Qani, birorta kuy chalib bolalarni xursand qilgin-chi!  
– Chalmayman!  
– Nega bo‘lmasa bu dahmazani ko‘tarib yuribsan? Esi yo‘q eshakmisan?

– Ber skripkani!

Yanguli asbobni orqasiga yashirib, bir qadam tisarildi.

– Petya, Fema, Kurlik, Pancho, Tena! Umrlaringizda skripka ovozini eshitganmisizlar? – dedi u bolalarga murojaat qilib. Ular baravariga chuldirashdi.

– Radiodan eshitganman! – dedi Petya.

– Bo‘laqol, Yanguli, bir ko‘rsatib qo‘y!

Skripkamning ovozini hammadan oldin o‘zim eshitdim: Yanguli qulochkashlab turib skripka bilan boshimga tushirdi.

«Zi-i-ng... qars...» etgan tovushdan so‘ng asbob ikkiga bo‘lindi. Uning qorni, xuddi shartta chopib tashlangan qo‘lday, nozik simlarga osilgancha lapanglab turardi.

Bolalar xaxolab yerga dumalashdi.

Yuragim go‘yo to‘xtab qolganday bo‘ldi, miyamga qon urildi, quloqlarim bitib qoldi. Men hech narsani eshitmas, sezmas edim, faqat qornini changallab kulayotgan bolalarni, pachoq bo‘lgan skripkani va Yangulining turtib chiqqan ozg‘in iyagini ilg‘ardim, xolos. Birdan bor kuchim bilan ana shu iyak ostiga musht soldim.

Es-hushimni yig‘ib olganimda Yanguli ko‘prik ustida o‘tirar, menga hayratomuz tikilgancha o‘ng qo‘li bilan iyagini ishqalar edi. Bolalar churq etishmasdi.

Shartta burilib, uyga jo‘nadim.

O‘sha kuni kechqurunoq qo‘shnimiz va Yangulining o‘ng qo‘li hisoblanmish Petya majaqlangan skripka bilan g‘ilofni uyimizga olib kelib, ostonaga tashladi-da, quyinni survordi.

Fig‘oni falakka chiqqan xolam avval Petyani, so‘ng Yanguli Aleksandridini, oxirida o‘zimni bisotida bor yomon so‘zlar bilan qarg‘ashga tushdi:



– Ha-a, yer yutsin seni, Petya kasofat!.. Iloyim, bo‘yginang go‘rda chirisin!.. Sen ham bir, ko‘katfurush otang ham bir! Senlar skripkani qadriga yetasanlarmi? Paganinimi, Stradivarimi, arrakashmi – senlarga bari bir!.. Eng avval sening go‘shtingni qiymalash kerak edi, Yanguli Aleksandriddi! Hayf senga musiqa! Eshakning hangrashini eshitib katta bo‘lgan bola musiqani tushu-narmidi! Hammasiga uyimdagi yangi bezori aybdor! Mana shuni oyog‘idan osish kerak! O, opajonim Aniko! O‘zimning tashvishim yetmayotuvmidiki, yana manovi g‘urbatni boshimga balo qilib tashlab ketding-a! Nima gunoh qildim, ey Parvardigor!

O‘sha kuni musiqa olamidagi sarguzashtlarimga nuqta qo‘yildi. Hayotimda yangi davr – yashash uchun kurash davri boshlandi...

Ertasi kuni Yanguli bilan Petya bizni maktab darvozasi oldida qarshi olishdi...

Yanguli qora satin ko‘ylagini yechdi. Keng, tarang ko‘kragini ko‘rib, seskanib ketdim. Bu ham mayli, chap to‘shining ustiga ko‘kish rangda naqshlangan lotin har-flaridagi yozuv meni negadir butkul dovdiratib qo‘ydi: «Hellados».

Yanguli Petyaga grekchalab bir nimalar dedi. Petya miq etmadi.

Yanguli yana takrorladi. Petya istamaygina ikkala cho‘ntagidan ikkita kattakon toshni chiqarib, bir chetga uloqtirdi. Yanguli Kokaga qaradi. Koka shosha-pisha qoq-quruq cho‘ntaklarini ag‘darib ko‘rsatdi.

– Boshladik! – dedi Yanguli.

– Boshladik! – dedim men ham. Olishuv ikki-uch minutgina davom etdi.

Men mushtlarimni tugib, Yanguli esa besh panjasi bilan urardi. Men urganda ovoz chiqmas, ammo Yanguli har tushirganda atrofdan qarsillagan aks-sado kelardi.

Petya Yanguliga grekchalab dalda berar, Koka esa menga gruzinchalab bidirlar edi:

– Kalla qil, Jamol, kalla qil!

Mushtlashganda kalla qilish nimaligini o‘zim ham bilaman, biroq Yanguliga yaqinlashib bo‘lmayotgan edi: uning chayir, terlagan gavdasi har gal sirg‘alib qo‘limdan chiqib ketaverardi.

Yana bir qarsillagan tovush eshitildi-yu burnimdan tizillab qon otildi. Qonni artgunimcha Yanguli tag‘in bir marta tushirdi; natijasi shu bo‘ldiki, kecha xuddi Yanguli ag‘darilganday gup etib yerga quladim, faqat bitta farqi bor: hozir men turadigan holdaman, ammo Yanguli kecha o‘rnidan turolmagan edi.

Nima bo‘lganda ham bugungi olishuvning yakuni ma‘lum: men yutqazdim. Yanguli biroz kutib turdi, mushtlashishni davom ettirish niyatim yo‘qligiga ishonch hosil qilgach, shoshmasdan ko‘ylagini kiya boshladi. Nigohim yana ko‘ksidagi g‘alati so‘zga tushdi: «Hellados»...

Ertasiga maktabga bormadim – yuzimdagi shish va mo‘mataloqlarni davoladim. Uchinchi kuni temir yo‘l kesib o‘tiladigan joyda Yangulidan boshqa deyarli butun mahallaning bolalari to‘planib turganini ko‘rdik. Ular bizni hushtak va tahqirlar bilan kutib olishdi.

Yanguli amirona ishora bilan hammaning ovozini o‘chirdi, so‘ng bamisoli qabila oqsoqoliday o‘z qavmiga yuzlanib, tarixiy nutq irod etdi:

– Bolalar! Men, Yanguli Aleksandriddi, sizlar saylagan sardor, sizlarga, Venetsian ko‘chasining hur farzandlariga murojaat qilaman! Ro‘parangizda tibilisilik rangpar laqma bilan uning jiyani – Vatan va qabila xoini, mishiqli Koka turibdi. Mana bu rangpar kelgindi bizning mehmondo‘stligimiz va muruvvatimizdan bahramand bo‘lish o‘rniga – Xudo siylagan yerimizni, dengizimizni, jamiki

daryolarimiz, oltin va kumushlarimiz, o'tloqlarimizni o'ziniki qilib olmoqchi...

– Bas qil maynavozchilikni! – dedim uning gapini bo'lib. – Mushtlashamiz!

... Bugungi olishuvimizga faqat eshak shohid bo'ldi. Mushtlashish uzoq davom etdi. Har qancha urinmayin, Yanguli o'zg'irlik qildi – birinchi zarbani u berdi. Men yiqilmadim, faqat chayqaldim, xolos. Ikkinchi marta hamla qilganida chaqqonlik bilan gavdamni orqaga tashladim, qo'li burnim yonidan shuvillab o'tib ketdi. Ammo u shu qadar shiddat bilan quloch otgan ediki, muvozanatini yo'qotib, munkaygancha bir qadam oldinga tashladi. Shunda... Ho' o'sha birinchi bor mushtlashganimizda bo'lganiday, ozg'in iyagi o'ngingga kelib qoldi. Men ham o'sha iyak ostiga qattiq musht soldim. Yanguli yiqildi, bir muddat qimir etmadi.

Biz bir-birimizga uzoq tikilib qoldik. Pishillab nafas olayotganimizni har ikkalamiz ham eshitib turardik. Men Yangulining yana hamla qilishini kutardim, ammo taajjubki, mushtlashishga menda na xohish, na kayfiyat qolgan edi. Biroq endi hech qachon Yanguli menga zo'rvonlik qilolmasligini ham bilib turardim.

– Bas! – dedi Yanguli kutilmaganda.

– Bo'pti! – Men ham rozi bo'ldim. – Lekin ertaga bolalarning oldida mushtlashamiz! – deya qo'shib qo'ydim har ehtimolga qarshi.

– Keragi yo'q. Zo'r bola ekaningni bolalarga o'zim ayta-man. Lekin, bilib qo'y, birinchilikni senga bermayman!

– Keragi ham yo'q!

– Xohlasang, ikkinchi bo'la qol.

– Menga hech narsa kerak emas! Sening yo'ling boshqa, mening yo'lim boshqa! – Men ketishga chog'landim.

– To'xta! Bunaqasi ketmaydi. Har kuni mushtlasha-vermaymiz-ku, axir. Ke, kelishvolaylik: ertadan boshlab faqat so'kishamiz. Kim qoyillatsa – o'sha g'olib!

– Mayli, roziman.

Mana, yana bolalar qurshovidamiz. Bu gal o‘rtamizda dahanaki jang avjiga chiqqan.

– Jamol – eshakmiya!

– Yanguli – ko‘katfurush grek!

– Tbilisilik mishiqi!

– Eshakboqar!

– To‘ng‘iz!

– Chirigan bodring!

– Toshbaqa!

– Itbaliq!

– Meduza!

– Ovsar!

– Paganini!

Bisotimdagi haqoratbop so‘zlar tugadi. Yanguli kutib turardi – navbat meniki edi.

– Bo‘la qol, yutqazasan! – deb turtkiladi Koka.

– Menda boshqa yo‘q!

– Onasiga o‘t!

– Yo‘q, onani aralashtirib bo‘lmaydi!

– Sheni deda vature, degin! Uyat joyi yo‘q buni!

– O‘rischasiga nima degani?

– Sen gruzinchasiga aytaver! U baribir tushunmaydi!

– Koka hol-jonimga qo‘ymasdi.

– Yanguli, sheni deda vature! – gruzinchalab shunday dedim-u javobini jon hovuchlab kutib turardim.

– Imana su ine prostikasa ineka, Jamol!

Sezdimki, Yanguli ham onamga til tekkizdi, ammo bu so‘zlar shu qadar xushohang, shu qadar yoqimli eshitildiki, go‘yo u go‘zal bir qo‘shiqni boshlaganday bo‘ldi nazarimda.

Men yana takrorladim:

– Sheni deda vature, Yanguli!

– Imana su ine prostikasa ineka, Jamol!

Bu hol yarim yilcha davom etdi. So'ng ehtiros-larimiz asta-sekin so'ndi. Ikkalamizning ham haqorat repertuarimizda bitta-yu bitta jumla qoldi, har uchrash-ganimizda men: «Sheni deda vatire, Yanguli!» derdim, u bo'lsa: «Imana su ine prostikasa ineka, Jamol!» derdi.

\* \* \*

... O'sha kuni Yanguli sut opkeldi. Hovlida unga ko'zim tushdi-yu... taniyolmay qoldim. Basharasi mo'mataloq bo'lib ketgan edi.

– Nima bo'ldi? – deb so'radim ajablanib.

Aql bovar qilmasdi – bu atrofda Yanguliga kim qo'l ko'tarishi mumkin?! Yoki birorta kattaroq yoshdagi odamning ishimikan bu?

– Hech narsa! – dedi u chetga qarab.

– Aftingni bir qaragin...

– Hechqisi yo'q! – deya jilmaydi u.

– Kim ekan u mushtumzo'r?!

– Otam!

– Otang?

– Otam.

– Nima gunoh qiluvding? – deya uning shishib ketgan chakkasiga avaylab qo'limni tekkazdim.

– Sababi bor-da...

– Nima ish qilib qo'yding?

– Uch kundan keyin Suxumiga Gretsiyadan paroxod keladi. Bu yerlik greklar Elladaga qaytishyapti. Otam ham...

– Xo'sh, nima qipti?

– Ketmoqchi emasman... Otamning gapiga qaraganda, bizning Vatanimiz, ona tuprog'imiz o'sha yerda... Bizni ajdodlar ruhi chaqirayotganmish, bu nidoga quloq solish shart emish...

– Nega birga ketmoqchimassan? – deb so‘radim as-toydil taajjublanib. Yangulidan ancha vaqtgacha sado chiqmadi.

– Qandoq tushuntirsamikin... – deya gap boshladi u nihoyat. – Onam yo‘q, hatto eslolmayman ham. Otam uzzukun tomorqada yoki tirikchilik tashvishida... Men ko‘chada, Venetsian ko‘chasida katta bo‘ldim... Mening vatanim, mening Elladam bu – Suxumi, ko‘cha, Chalbash; bu – Koka, Petya, Kurlika, Fema, Qora dengiz, ko‘prik... – U bir yutinib olib, davom etdi: – Bu – Mida... qolaversa, sen...

Midaning ismini mening oldimda Yanguli birinchi marta tilga olayotgan edi. Ammo men Mida – bir abxaz kishiga turmushga chiqqan grek ayolining qizi ekanini, Suxumida undan go‘zal qiz yo‘qligini, Yanguli uni yaxshi ko‘rishini bilardim.

– Tushundingmi endi?

A‘zoyi badanim jimirlashib ketdi. Bunaqa so‘zlarni umrimda birinchi marta eshitayotgan edim.

– Bu nima bo‘lmasa? – Men Yangulining ko‘kragini ochib, baland ovozda o‘qidim: – Hellados.

– Bu – naqsh, Jamol. Vatan – ichkariroqda, naqd yurakning o‘zida! – Yanguli qo‘lini ko‘ksiga qo‘ydi.

O‘pkam to‘lib, tomog‘imga achchiq bir narsa qadaldi, unga yana bir nimalar demoqchi edim-u, ammo Yanguli eshagini no‘xtasidan yetaklab, hovlidan chiqib ketdi...

Suxumiliklar o‘zlari bilan et-tirnoq bo‘lib ketgan qadrdonlari – greklar bilan xayrlashishardi. Greklar allaqachon nuqraday oppoq «Poseydon» kemasiga chiqib olishgan, o‘sha yerdan turib qo‘l silkishar, grekcha, ruscha, gruzincha, armancha lafzda bir nimalar deb qichqirishar edi.

Men bolalarga qo‘shilib, sohildagi panjara devorga qapishgancha, nigohim bilan Yangulini izlay boshladim.

Va uni topdim. Egnida o'sha o'zi yoqtiradigan oldi ochiq qora satin ko'ylak.

– Yanguli, Yanguli! – deya qichqirishga tushdim qo'l silkitib. Yanguli kuzatuvchilarga uzoq, juda uzoq razm soldi va birdan meni ko'rib qoldi. Ikkala qo'lini baland ko'tarib, nido berdi:

– Jamol, ego agapo imana su! Jamol, oyingni yaxshi ko'raman! – u grekcha nimadir deb baqirdi-yu, ammo menga qo'shiq aytganday tuyuldi. Tag'in shu narsani sezdimki, nazarimda, kemadan qochib ketmasin debmi otasi uni bilagidan mahkam ushlab turardi. Yana uning qo'shig'ini eshitishga, yana unga mo'ltirab turishga bardoshim yetmadi. Kemaga ters o'girildim-da, yig'laganacha uyga jo'nadim.

Oradan bir kun o'tib, Kelasuri daryosining quyilish joyida dengiz to'lqinlari bir bolaning jasadini sohilga chiqarib tashlabdi. To'g'rirog'i, uni keksa baliqchilar suvdan tortib olib, qumga yotqizishibdi. So'ng murdaning kimligini aniqlash uchun shu atrofda o'ynab yurgan bolalarni chaqirishibdi.

Marhumning basharasi shu qadar dabdala bo'lib ketgan ekanki, uni hech kim tanimabdi.

Uni men tanidim. Chap to'shining ustidagi «Hellados» degan sehrli yozuvni ko'rgandan keyin tanidim.

Nafasimni ichimga yutganicha sohildan, so'ng temiryo'l bo'ylab, keyin Venetsian ko'chasidan to'xtovsiz yugurib, telbalarcha uyga otilib kirdim.

– Ha, nima bo'ldi?! – Xolamning kapalagi uchib ketdi.

– Nina xola... Yanguli qaytib keldi...

So'ng xolamning oldida cho'kkalab, oyoqlarini quchoqlaganicha ho'ngrab yig'lab yubordim...

## YURAGIMNING BIR PARCHASI

### *Hikoya*

Jo'ka daraxtining ostida boshini quyi solgancha buzoqchalarining arqonini ushlab yaltirbosh bolakay o'tiribdi. Yoshovsiragan ko'zlarini loy-balchiq qotib qolgan yalang oyoqlariga tikib o'y suryapti: «Bu chol dadamning xuddi o'zi! Oppoq sochlari... Qop-qora qoshlari... Keng bur-ni... Chiroyli ko'zlari... Ovoziyam mayin, shirali... Ko'zimni yumib tursam tovushidan dadam deb o'ylayman!..»

Bola ko'zlarini yumdi.

– Men shuning uchun sizni bezovta qildim, azizim Kishvardi... Ortiq darmonim qolmadi. Umuman qo'ldan chiqib ketdi bu yaramas. Hamma bolalar bir go'r – kitobga yaqin yo'lamaydi, buyam shu. Kechasi-yu kunduzi mana shu buzovlari bilan birga. Uchinchi sanada nima qilganini bilasizmi? Gospodzedagi mahalla qudug'iga xumday tarvuzni uloqtiribdi! Mana, bir haftadan beri ikkita xonadon suv o'rniga sharbat ichib o'tiribmiz!..

– E, Xudoyim-ey! Shunaqami, o'g'lim?! Mayli, siqilmang, azizam Yuliya. Men uni Guriyaga opketaman, chinorning uchiga oyog'idan osib qo'yaman. Qo'yday yuvosh bo'lib qoladi!

– Nimaga uni osib qo'yasiz bilmadim-u, lekin bir gap xayolinga keldi: onasining juda baxti kulgan ekan – bu yaramasni ko'rmay o'tib ketdi. Aytganday, otasiniyam baxti kulgan...

– Nima deb o'ylaysiz, qadrdonim Yuliya, uni eplay olarmikanman?

– Bilmayman, hech baloni bilmayman... O'zingiz o'ylab ko'ring: yaqinda uni tegirmonga bergandim. Eng zo'r, saralab qo'yilgan makkajo'xorini o'g'irlab gumdon



qilgan. Qo'lida besh funt, yelkasida un bilan qaytib keldi. Qolgan narsalarni Valiko Kukulashvilining sayoq arzandalariga bo'lib bergan, menimcha. «Bola-chaqam ko'p, och-nahor o'tiribdi», deb zorlanardi bechora. Eh, tavba-ey!

– E, Xudoyim-ey! Shunaqami, o'g'lim?!

– Bu hali holvasi! Avvalgi kuni Kukuri Ugulava degan betayin o'rtog'i bilan o'zining geografiya o'qituvchisi Datikko Sveravaning bog'iga o'g'irlikka tushgan. O'ylaganiam qo'rqib ketasan odam!.. Shaftoli terishgan-da oborib tovuqqa almashtirishgan! E, tavba-yey!

– E, Xudoyim-ey! Shunaqami, o'g'lim?!

– Ha, buncha «shunaqami», «shunaqami» deb takrorlab qoldingiz! Meni aldayapti deb o'ylayapsizmi?

– Nega endi, nega endi, azizam Yuliya! Nahotki, uni bu yo'ldan qaytarib bo'lmasa?! Nahotki, diydasi qotib bo'lgan bo'lsa?!

– Yo'q, nima deyapsiz... Uni qutqarish mumkin, albatta. Ammo bunga mening qurbim yetmaydi. Buning uchun erkak kishining qattiq qo'li kerak. Bundan tashqari, peshanamda yana ikkitasi bor – Zurab bilan Vaxtang, Koliginamning bolalari, ular sal tuzuk.

– Him... Nima desam ekan sizga, azizam Yuliya. Ota-onasi hayotlik payti meni bolaga zig'irchayam yaqinlashtirmasdi. Men unga begonaman, tushunyapsizmi, begona!..

– Bunday demang, azizim Kishvardi. U nima qilsayam o'g'il bola, erkak bilan erkakning til topishishi osonroq... Buning ustiga u naslingiz davomchisi...

– Ha, albatta... O'qishlari qanaqa uning, azizam Yuliya?

– Him!.. O'z o'qituvchisining bog'iga o'g'irlikka tushgan, «Dekameron» degan uyat kitob uchun buvisining kumush qoshiqlarini sotib yuborgan bolaning o'qishi

haqida nima deyish mumkin?! Bir o'ylab ko'ring-chi, azizim Kishvardi!

– Shunaqami, o'g'lim?! Bo'ldi! Uni Guriyaga opketaman, chinorning uchiga oyog'idan osib qo'yaman!

– Buni qarang, biz uning tashvishini chekayotibmiz, pinaginiyam buzmaydi-ya! Kimga gapiryapsan demaydi!

Bola jo'ka daraxtining ostida ko'zlarini yumib o'tirar va o'ylardi: «Bechora Yuliya buvim charchadi. Oldin ovozi qanaqangi yoqimliydi, hozir shang'illaydi. Yo menga shunaqa tuyulyaptimikan? Bobom bo'lsa shoshmasdan, hovliqmay gapiryapti... Ha, ko'rinib turibdi, buvim charchagan. Agarda meni hozir bobom bilan jo'natib yubormaganda edi, hech qachon uni qiynamagan bo'lardim. Qaniydi... Qaniydi...»

– U yetim, azizam Yuliya... Faqat jazolash yaramaydi, mehr ham kerak.

– Yetimdan yetimning farqi bor! Keragicha mehr ko'rsatdim, qani bilsa! Mehrmish-a...

– Shunaqami, o'g'lim?! Men uni Guriyaga opketaman, oyog'ini osmonga qilib osib qo'yaman... Qachon olib ketishim kerak, azizam Yuliya?

– Hoziroq! Tayyorlanishiga hech qancha vaqt ketmaydi.

– Shunaqa deng... Hech balosi yo'q-da, a?

– O'tgan yili Avchaladan qanday olib kelgan bo'lsam shunday yuribdi, azizim Kishvardi... Xohlasangiz o'zingiz shohona sarpo olib berarsiz...

– Bechora bolam...

– Yo'l oldidan ovqatlanib olsalaring bo'lardi, azizim Kishvardi...

– Ha yo'q, tashvishlanmang, azizam Yuliya... Samtrediada tamaddi qilib olamiz, uyog'iga Xudo poshsho.

– Ixtiyoringiz... Oq yo'l sizga. Xizr yo'ldoshingiz bo'lsin!..

- Xudo quvvat bersin, azizam Yuliya!..
- Aytmoqchi, mana bularni ham ovoling.
- Nima bu?
- Uning har xil hujjatlari. Menimcha, sentabrda maktabga olib borasiz. Shunga kerak bo‘ladi. To‘rtinchi sinfga o‘tdi... Ma‘lumotnomada xato ketib qolgan: Lomjariya Nodari o‘rniga Lomjariya Nadiri<sup>1</sup> deb yozishibdi. Menimcha, bu xatoyammas, aslida, to‘g‘ri yozishgan.
- Shunaqami, o‘g‘lim?! Men uni Guriyaga opketaman, chinorning uchiga oyog‘idan ilib qo‘yaman...
- Qayeridan ilsangiz iling, lekin ortiq ko‘zimga ko‘rinmasa bo‘lgani.
- Oyog‘idan ilaman, oyog‘idan...
- Xudo quvvat bersin.
- Uni shunday ko‘yga solayki, holiga maymunlar yig‘lasin.
- Xo‘p, xayr bo‘lmasa, azizim Kishvardi.
- Yaxshi qoling, azizam Yuliya.

Mazkur oldi-berdi marosimi 1938-yil avgust kunlarining birida, tush payti Xoni qishlog‘ida Nodar Lomjariyaning buvisi, aniqrog‘i, onasining onasi qadrli Yuliya Mikeladze va guriyalik bobosi, aniqrog‘i, otasining otasi janob Kishvardi Lomjariya o‘rtasida bo‘lib o‘tdi.

Bir soat o‘tgach bola, aniqrog‘i, 1928-yilning 14-iyulida Tbilisi shahrida xizmatchi oilasida tug‘ilgan Nodar Lomjariya tandirday qizigan tuproq yo‘l bo‘ylab bobosining ortidan g‘amgin sudralib borardi...

\* \* \*

Bobo bilan nevara Xonidan Kulashgacha foytunda, Kulashdan Samtrediaga lineyka<sup>2</sup>da yetib olishdi. Keyin

<sup>1</sup> So‘z o‘yini: Nadari – erkakning ismi, nadiri-yovvoyi degani.

<sup>2</sup> Lineyka – ko‘p o‘rinli uzun arava.

tamaddi ham qilmasdan Choxatauridan o'tadigan choy fabrikasining yuk mashinasiga chiqishdi. U yerdan Intabueti qishlog'igacha piyoda ketdilar.

Bobo oldinda, nevara orqada. Bobo keksalarga xos xasta tovushda yo'taldi, ihradi. Ro'paradan kelayotgan yo'lovchini ko'rib jim qoldi, tezda imo-ishora bilan salomlashdi-da, so'ng yana yo'taldi, ihradi. Gohida u bolaga jim tikilib qoladi. Bu xuddi so'nggi zurriyotini yo'qotishdan qo'rqqan qari otning nigohiga o'xshaydi.

Bola qadam tashlar va o'ylardi: «Bechora chol nimjon, kasalmand... U meni daraxtga oyog'imdan osib qo'ymoqchi... Bu chol – mening bobom. Dadamning dadasi. Bobom! Uning ortidan ergashib yurishga meni nima majbur qilyapti? Xuddi qulga o'xshab indamay, ho'shshayib ketyapman. Ikki marta sakrasam – tamom! Nima meni ushlab turibdi? Charchab, ochqab, issig'-u chanqoqdan olguday bo'lsam ham qochib ketmayman. Nega? Bu kuchning nomi nima?»

– Nimalar haqida o'ylayapsan, o'g'lim? – o'girilib to'satdan savol berdi chol.

– Hech narsa haqida o'ylayotganim yo'q! – dedi dovdirab qolgan bola. U hamma narsani kutgandi, lekin bunaqa savolni emas.

Chol yo'lning chekkasiga borib o'tirdi. Yo'talib, nafasini rostlab olgach bolaga tikildi, keyin barmoqlarini bukib sanashga tushdi: 28, 29, 30, 31, 32, 33, 34, 35, 36, 37, 38.

– Yigirma sakkizinchi yili tug'ilganding. Hozir o'ttiz sakkizinchi yil. Demak, o'n birga kiribsan... Kap-katta yigit bo'p qolding... Qanday qilib hech narsa haqida o'ylamasliging mumkin? Yo o'z bobongdan yashirasanmi?

– Yo'q, nega endi, hech narsa haqida o'ylaganim yo'q edi.

– O'ylaydigan vaqting kelgan, o'g'lim, vaqting kelgan.

Chol yo‘talib, inqillab turdi-da yo‘lida davom etdi. Bola bobosining ortidan xuddi yuki og‘ir aravaday boshini egib, qulog‘ini ding qilib qadam tashlardi...

\* \* \*

Bola – oftobda qoraygan, sochlari hurpaygan – chinor tagida belkurakka suyanib turibdi, ko‘zlarini loy-balchiq qotib qolgan yalang oyoqlariga tikkancha o‘y suryapti: «Bir yilning ichida butkul qarib, munkayib qolibdi. Yuzida ajin to‘la. Ovozi qanaqadir bo‘g‘iq. Lekin baribir u mening ayamga – yosh, chiroyli, muloyim, qorako‘z, mehribon ayamga o‘xshaydi. Qadam tashlashiyam, ovoziyam... .. Ko‘zimni yumib tursam tovushidan ayam deb o‘ylayman!..»

Lekin bola ko‘zlarini yumadi. Qo‘rqib ketdi.

– Tinchimni yo‘qotdim, azizim Kishvardi! Onasining bezovta nigohi o‘ngimdayam, tushimdayam namoyon bo‘lyapti... Uning ovozi har qadamda meni ta‘qib qiladi... Uni olib ketgan kuningizdan beri yuragim sug‘urib olinganday tentirab yuraman... Bolani menga qaytaring, azizim Kishvardi!..

– Him... U, azizam, sizdan olgan vaqtimda bola edi. Hozir – kap-katta yigit, hamma narsani o‘zi hal qiladi. Agar siz bilan ketishni istasa men hech qanday qarshilik bildirmayman.

– U mendan xafa... Uni men bilan qaytishga ko‘ndira oladigan yagona odam sizensiz, azizim Kishvardi!..

– Axir unga o‘xshaganidan sizda yana ikkita bor-ku, qadrdonim Yuliya... Hech bo‘lmasa bittasini menga qoldiring!

– Nahotki, gap sonda bo‘lsa?! O‘nta bo‘lsa o‘rni, qirqta bo‘lsa qilig‘i boshqa. U mening nabiram, qadrdonim Kishvardi!

– Shundayku-ya... Lekin men nima qilishim kerak?

Axir o'limimdan keyin avlodimizni davom ettiradigan yagona merosxo'rim u...

– Men uning familiyasini o'zgartirmayman! Mayli, ikkita Lomjariya bo'laqolsin, lekin uni menga qaytaring.

– Demak, bolani olib ketgani kelibsiz-da, azizam Yuliya?!

– Narigi dunyoga gunoh bilan ketishimga yo'l qo'y-mang! U yerda onasining ko'ziga qanday qarayman?!

– E, azizam Yuliya, Xudo bilar kim oldin ketar. Agar-da men sizdan oldinroq o'lsam, onasi bilan dadasining ko'ziga qanday qarayman?

– Xudo umringizni uzun qilsin, azizim Kishvardi.

– Dalam ham, uzumzorim ham, tegirmonim ham, qabrim ham, xokim ham mana shu bolaniki... Yo'q, o'lsam ham uni sizga bermayman!

– Bo'lmasa men o'zimni o'ldiraman. Hoziroq, ko'zingizning oldida!

– Xudo xayringizni bersin, azizam Yuliya, nimalar deyapsiz!.. Buving bilan ketasanmi, o'g'lim?

– Rostini aytarmidi... U sizdan iymanyapti!

– Shunaqami, o'g'lim?!

– Unga onaning mehri kerak, azizim Kishvardi! Oq yuvib, oq tarash lozim. Siz onasining o'rnini bosa olar-midingiz?..

– Nimalar deyapsiz... Men u bilan shu paytgacha, Xudoga shukr, yomon yashamadim... Loqaqal sizni yor-damga ham chaqirmadim-ku...

– Siz haqsiz, siz haqsiz, azizim Kishvardi. Lekin bari-bir... Bolaning oyoqlarini uyqudan oldin yuvish, mak-tabga kuzatib qo'yish... Bular erkaklarning ishi emas!..

– Bizning maktab azobxona emas... Unaqa narsalar sizlarning maktablaringda edi, bolani yovvoyiga chiqarishgandi, eslashimcha, siz ham ularning fikriga qo'shil-gan edingiz...

- Nega o‘shanda tilim uzilib tushmadi ekan-a!
- U mening qo‘limda farishtaga aylanib qolmagan, shaftoli o‘g‘irlashniyam tashlagani yo‘q...
- Quyilib qolar!
- Yo endi un ulashmay qo‘ydi deb o‘ylayapsizmi?
- E, uniyam boshida qolsin! Hamma narsam uniki, menga desa xonumonimga o‘t qo‘yib yubormaydimi – g‘iring demayman!
- Chekyaptiyam, yaramas!
- Shunaqami, o‘g‘lim?!
- Siz, mana, mendan so‘rang! Tamaki xaltamniyam, hamyonimniyam ship-shiydam qildi!
- Mayli, sog‘lik uchun oz-moz chekib tursa hech-qisi yo‘q. Axir o‘zingiz aytdingiz-ku – u endi kap-katta yigit!
- Yana bir oy sabr qiling. Pilla tutganim uchun mukofot puli olaman, bolani kiyintiraman... Bunaqa juldurvoqi ahvolda siznikiga ketmaydi!
- Siz faqat javob bering. Kiyim, poyabzal olib berish – mening ishim! O‘zimmikini yechib bo‘lsa ham unga kiydiraman!
- Him, sizning kiyimlaringiz unga rosa loyiq tushadi!
- Albatta, Sizga hazil, o‘yin-kulgi bo‘lsa... Mening esa yuragim qon bo‘lib ketyapti!
- Axir, aytdim-ku: u allaqachon kap-katta yigit bo‘lgan. O‘zi hal qilsin!
- Siz – uning uchun avliyo darajasidasiz, nima desa-ngiz ishonadi, nimani qil desangiz qiladi... Ayting unga, azizim Kishvardi!..
- Xudodan qo‘rqsangiz-chi, azizam Yuliya. Axir qanday qilib o‘z jigarbandimga, tomirida qonim oqib turgan bolaga uyimdan ket deb ayta olaman?!
- Nima, men unga begonamanmi? Axir u mening ham jigarbandim, yuragimning bir parchasi. Xudo biladi, bir

yil umrim qoldimi-yo'qmi. O'tinaman sizdan, ajalimdan besh kun burun o'ldirmang, bolani menga ber!

– Azizam Yuliya!

– Oldingizda tiz cho'kaman, tiz cho'kaman!..

– Nimalar qilyapsiz! Turing o'rningizdan! Xudo xay-ringizni bersin!..

– Ey, qodir Xudoyim, unga baxt-u saodat in'om et!

– Endi mening ortiq shodligim ham, baxtim ham qolmadi...

– Ey, bor Xudoyim...

– Buving bilan ket, o'g'lim...

Mazkur suhbat biz boshda hikoya qilgan bobo-buvi ishtirokidagi voqealardan roppa-rosa bir yil keyin sodir bo'ldi. Bu galgi jarayon oldi-berdi marosimi emasdi. Bu ikki qaynoq qonning to'qnashuvi, ikki otash qalbning volasi edi. Bu ikki mehr o'tining kurashi sabab bolaning yuragi shiddat bilan tepa boshladi, tomog'iga allanarsa tiqilgan-day bo'ldi, tanasini sovuq ter bosdi, titroq butun vujudini lovullatib yubordi. Qandaydir ko'rinmas kuch uni zarb bilan buvisi tomon tortardi, biroq xuddi shunday shiddatkor ohanrabo uni bobosi tomon yetaklardi. Bola bir necha bor shunday og'riqni his qildi – go'yo uning vujudi qaynoq suv ichida qoldi. Chol bilan kampir o'rtasida kechgan qizg'in, shiddatli bahs tugamaguncha bolani qandaydir qo'rquv, allaqanday ko'ngilsizlik azobi tark etmadi.

Buvi o'rnidan turib bolaga yaqin keldi, uni quchog'iga oldi.

– Bolaginamdan yodgorim, ko'zlarimning nuri, yurmen bilan, kemtik bag'rimni to'ldir, bolajonim!..

Kampir yig'ladi, uning issiq ko'z yoshlari bolaning boshiga tomchiladi. O'pkasini bo'shatib olgach, bolani sekingina bag'riga tortdi, biroq u xuddi temir qoziqday, tomirlari yerning qa'r-qa'riga singib ketgan daraxt singari joyidan jilmay, harakatsiz turardi.



– Buving bilan ket, o‘g‘lim, bechora buvingni xafa qilma... Diydoringga to‘yib olsin, keyin mening oldimga yana qaytib kelasan... Men ungacha seni kutib o‘tiraman, g‘amga to‘lib o‘tiraman... Sen nima deb o‘ylaganding? Mana shunaqa, nevara bo‘lish osonmas! Og‘ir, juda og‘ir, ayniqsa men bilan buvingga o‘xshagan dardi bedavolarning nevarasi bo‘lish qiyin... Boltang, belkuraging, ketmoning, to‘qmog‘ing, savating, sigiring, aravang hech qayoqqa ketmaydi, qaytishingni kutadi...

Bola boboning so‘zlarini eshitib hayron qoldi: bolta, ketmon, belkurak, savat hovlining boshqa-boshqa tomonida ag‘anab yotardi, sigir, arava, echki bo‘lsa umuman boshqa tarafda edi, lekin bobo ularga qaramay qo‘li bilan turgan joylarini aniq ko‘rsatib berardi.

Bobo so‘zida davom etdi:

– Mana sumkang, darsliklaring – gruzin tili, tarix... Yana nimang qoldi? Hech nima... Shiming, ko‘ylaging, shippaging – o‘zingda. Samtrediagacha yalangoyoq ketgin, bo‘lmasa shippaklaring uygacha yetib bormaydi. Bo‘pti... Bo‘l endi tezroq!

\*\*\*

Kishvardi Lomjariya nevarasi hozir temir qoziqqa, tomirlari yerning qa‘r-qa‘rigacha singib ketgan daraxtga aylanganini tushundi, juda-juda chuqur ketgan bu tomirlarni oddiy nasihat bilan sug‘urib bo‘lmasdi. Boshqacha yo‘l tutish kerak edi. Lekin qanaqa?

Kishvardi Lomjariya nevarasi girdobning o‘rtasida chirpirak bo‘layotganini, ikki avlodning shiddatkor, jangovar qoni uni ikki tomonga zarb bilan tortayotganini ham angladi. Ularning qaysi biri ustun keladi? Qay bir tomon g‘alaba qozonadi? Bu kurash nima bilan tugashini kutish foydasiz... Ularning qaysidir biri qaynoq qonlar

ko'pirayotgan kurash daryosini yorib chiqishi, yangi o'zanga qarab oqib ketishi kerak.

Va nihoyat... Kishvardi Lomjariya buvidan oldinroq harakat qildi:

– Xo'sh, yana nimani kutyapsan? Sen bilan aytishish-dan charchadim!

Bola bobosiga qo'rqa-pisa qaradi.

– Jo'na, orqangga qayrilib qarama! Tushundingmi?!

Bolaning qalbini bobosiga nisbatan qattiq achinish va buvisiga bo'lgan shafqat hislari birvarakayiga zabt etdi. Ich-ichidan to'lib kelayotgan yoshlar bolaning ko'zini xira parda bilan qopladi, boshi o'z-o'zidan ko'ksiga egilib qoldi, bir og'iz so'z aytmasdan xuddi yuki og'ir aravaday Choxataurining tuproq yo'liga burildi. Qarib-munkillab qolgan, boshdan-oyoq qora kiyingan buvisining ortidan ergashdi...

Kishvardi Lomjariya toshning ustiga borib o'tirdi-da, mis idishdagi suvning qaynashini kuta boshladi.

Kishvardi Lomjariya olovga tikilganча xayol surardi. Ayni damda noxush o'ylardan qutulishga, ulardan yashirinishga urinardi. Lekin o'zingdan qayga qochib berkinasan? Axir odam ojiz banda-ku... «Bolani berib yubormaslik kerak edi... Lekin kampirning anduhiga dosh bera olmadim... Endi bo'lsa o'zim xuddi o'shanday holatga tushib o'tiribman. Keyingi hafta kampirnikiga boraman, bolani qaytarib berishini so'rayman. Bermasa, kuch bilan bo'lsa ham olaman... «Aytaman, jigarbandimni, yuragimning bir parchasini, tomirimdagi qonimni tortib olishga qanday haqqing bor?! Axir sen Xudo emassan!» Lekin... u ham menga xuddi shu so'zlar bilan javob qaytarishi mumkin-ku! Axir men ham ojiz bandaman... Axir bola menga qanday rishtalar bilan bog'langan bo'lsa unga ham shunday yaqin-ku. Eh, odam bo'lish qiyin, judayam

qiyin. Ahvolim Yaratganga ayon, bandangga o'zing rahm qil Xudoyim... Keyingi hafta boraman-da, kampirning oyoqlariga yiqilaman. Yo'q, bir haftagacha sabr qilolmayman... Ertadan keyin boraman... Yo'q, ertagayoq! Ertaga azon payti yo'lga tushaman. Ey Xudo, tezroq tong ota qolsaydi...»

Kishvardi Lomjariya toshda o'tirib shunday o'ylar surardi. Mis idishdagi suv qaynagan payti darvoza to'satdan ochildi, bo'sag'ada bolaning egilgan boshi va yelkasiga boylangan shippaklari ko'rindi.

- Ey Xudo! O'zingga shukur!
- Men qaytdim, - pichirladi nevara.
- Qaytishingni bilardim, - dedi bobo.

So'ng mis tog'oraga qozonchadan issiq suv quydi-da, nevarasining horg'in oyoqlarini uzoq yuvdi. Keyin unga deb so'riga joy soldi, o'zi bo'lsa kichkinagina uychasiga uxlagani kirib ketdi.

Cholni yarim kechasi bolaning ovozi bezovta qildi:

- Bobo, siz bilan yotsam maylimi?
- Kel, o'g'lim.

Bola bobosini quchoqlab oldi.

«Bechora, hamma yog'i muzlab qolibdi!» - o'yladi nevara.

«Qanaqa tafti bor, a!» - o'yladi bobo.

Biroz vaqt o'tgandan keyin bobo so'radi:

- Bilasanmi, seni nima qaytardi?
- Yo'q!

- Bilib ol, o'g'lim, tomiringda oqib turgan qon seni men tomon yetakladi. Qon, yurak qoni shunaqangi katta kuch, o'g'lim!..

Keyin butun tun davomida ular bir og'iz ham gapirishmadi. Hech nima haqida o'ylamadilar, hech nima haqida gapirmadilar.

Bobo va nevara shirin uyquga ketdi...

Ikki tanada oqqan bir xil qon – mehr qoni o‘yladi, gapirdi. Lekin u nimalar haqida o‘yladi, nimalar haqida gapirdi – yolg‘iz Xudogagina ayon!..

– So‘z o‘yini: Nodari – erkaklar ismi, nadiri – yovvoyi degani.

– Lineyka – ko‘p o‘rinli uzun arava.



**ANTUAN  
DE SENT-EKZYUPERI  
KICKINA SHAHZODA**

*Qissa*

**I**

Olti yashar paytimda, osuda o'rmonlar haqida hikoya qiluvchi «Bo'lgan voqealar» degan kitobda g'alati bir suratga ko'zim tushib qoldi. Suratda bahaybat bo'g'ma ilonning bir yirtqich hayvonni tiriklay yutayotgani aks ettirilgan edi. Mana o'sha surat:

Surat tagiga shunday deb yozilgan edi: «Ilon o'ljasini chaynab o'tirmay but-butunisicha yutib yuboradi. Shundan keyin u joyidan qimirlayolmay qoladi va to o'ljasini hazm qilib bo'lgunicha surunkasiga yarim yil dong qotib uxlaydi».

Men junglidagi sarguzashtlarga to'la hayot haqida uzoq xayol surdim, so'ng rangli qalam bilan umrimda birinchi marta rasm chizdim. Bu mening 1-raqamli rasmim edi. Mana, men chizgan narsa:

Ijodim namunasini kattalarga ko'rsatib, qo'rqinchli emasmi, deb so'radim.

– Shlapaning nimasi qo'rqinchli ekan? – deb e'tiroz bildirishdi menga.

Ammo rasmdagi narsa sirayam shlapa emas edi. Bu – filni tiriklay yutib yuborgan bo'g'ma ilon edi. O'shanda,

kattalarga tushunarli bo'lsin, deb, ilonning ichki ko'rinishini ham chizdim. Axir, kattalarga hamma narsani doim tushuntirib borish kerak-da. Bu mening 2-raqamli rasmim edi.

Kattalar menga ilonlarning ichki-yu tashqi ko'rinishini chizish o'rniga jug'rofiya, tarix, arifmetika va husnixatni ko'proq o'rganishni maslahat berishdi. Ana shundan keyin, olti yashar paytimda rassomlikning porloq istiqbolidan voz kechishga majbur bo'ldim. 1-va 2-raqamli rasmlarim muvaffaqiyatsizlikka uchragach, o'zimga nisbatan ishonchimni yo'qotdim. Kattalar hech qachon o'zlaricha biron narsani tushuna olmaydilar, ularga hadeb hijjalab tushuntirib beraverish esa oxir-oqibat bolalarning ham joniga tegib ketadi.

Shunday qilib, boshqa kasb tanlashimga to'g'ri keldi-yu, uchuvchilikni o'rganib oldim. Osmoni falak bo'ylab qariyb butun dunyoni kezib chiqdim. Ochig'ini aytish kerak, jug'rofiya menga juda qo'l keldi. Bir qarashdayoq Xitoyni Arizona viloyatidan ajrata oladigan bo'ldim. Kechasi samoda adashib ketsang, bu benihoya asqotadi-da.

Umrim davomida turli-tuman jiddiy odamlarni uchratdim. Kattalar orasida uzoq vaqt yashadim. Ularni yaqindan ko'rdim, bildim. Va bundan, tan olishim kerakki, ular haqidagi fikrim yaxshi tomonga o'zgarmadi.

Kattalar orasida boshqalardan ko'ra aqlli va farosatliroq biror kishini uchratganimda unga 1-raqamli rasmimni ko'rsatardim – men uni asrab qo'ygan edim, doim yonimda olib yurardim. Bu odam chindan ham biror nimani tushunadimi-yo'qmi, sinab ko'rmoqchi bo'lardim. Ularning barchasi rasmga qarab turib: «Shlapa-ku, bu», derdi. Shundan keyin men ularga na bo'g'ma ilonlar, na junglilar, na yulduzlar haqida og'iz ochardim. Ularning tushunchalariga moslashardim-da, brij va golf o'yinlari haqida, siyosat va bo'yinbog'lar haqida gap boshlardim.

Shunda kattalar menday bama'ni odam bilan tanishganlaridan behad mamnun bo'lar edilar.

## II

Men shu tariqa yolg'izlikda yashardim, dilimni anglaydigan biror hamdardim yo'q edi... Olti yil muqaddam samolyotimning motori buzilib, Sahroi Kabirga qo'nishga majbur bo'ldim. Yonimda na mexanik, na bironta hamroh bor edi. Qanchalik qiyin bo'lmasin, samolyotni amallab bir o'zim tuzatishga ahd qildim. Yo motorni tuzataman, yo halok bo'laman. Bir haftaga bazo'r yetadigan suv qolgan.

Shunday qilib, birinchi kechani huvillab yotgan saharda, qum ustiga uzala tushib o'tkazdim. Minglab chaqirim narida ham tirik jon asari sezilmasdi. Kemasi halokatga uchrab, bepoyon okeanda sol uzra suzib borayotgan odam ham menchalik yolg'iz bo'lmagandir. Shu bois, tong saharda meni kimningdir ingichka ovozi uyg'otib yuborganda, naqadar hayratga tushganimni tasavvur ham qilolmasangiz kerak.

– Iltimos... menga qo'zichoq chizib ber! – degan qo'ng'iroqdek tovush yangradi yonginamda.

– A?..

– Menga qo'zichoq chizib ber...

Tepamdan go'yo yashin urgandek, sapchib o'rnimdan turdim. Apil-tapil ko'zlarimni ishqalab, atrofga alangladim. Qarasam – ro'paramda allaqanday g'aroyib bir bolakay menga jiddiy tikilib turibdi. Mana, uning eng yaxshi surati, men uni keyin chizishga muvaffaq bo'ldim:

Albatta, bu rasmda u aslidagidek yaxshi chiqmagan. Nachora, bunga men aybdor emasman. Olti yashar paytimda kattalar, sendan rassom chiqmaydi, deb rosa miyamga quyishgani uchun men bo'g'ma ilonlarning ichki va tashqi ko'rinishidan boshqa narsani chizishni o'rgana olmadim.

Shunday qilib desangiz, ko'zlarimni katta-katta ochgancha bu g'aroyib bolakayga qarab turardim. Odamzod makonidan minglab chaqirim olisdagi yaydoq biyobonda ekanim yodingizdan chiqmagandir. Shunisi g'aratiki, bu bolaning aft-angoriga qarab, adashib qolgan yoki nihoyatda horib-charchagan, qo'rquvdan yuragi yorilib, ochlik va tashnalikdan o'lar holga yetgan, deb bo'lmasdi. Kimsasiz sahroda, inson qadami tegmagan cho'l-u biyobonda daf'atan paydo bo'lib qolgan bu bolaning ko'rinishidan bunday fikrlarni xayolga ham keltirish mumkin emasdi. Nihoyat, menga yana til ato bo'lib, asta so'radim:

– Lekin... sen bu yerda nima qilib yuribsan?

U tag'in ohistalik bilan va g'oyat jiddiy ohangda:

– Iltimos... qo'zichoq chizib ber... – dedi.

Bularning barchasi shu qadar sirli, anglab bo'lmas bir tarzda ro'y berayotgan ediki, rad qilishga jur'atim yetmadi. Jazirama sahro qo'ynida, hayotim qil ustida turgan bir pallada qanchalik bema'ni ko'rinmasin, cho'ntagimdan qog'oz-qalam oldim-u, lekin shu zahoti o'zimning asosan jug'rofiya, tarix, arifmetika va husnixatni o'rganganim lop etib esimga tushdi-da, bolakayga qarab (hatto biroz achchiqlanib) rasm chizishni bilmasligimni aytdim. Bu gapimga u:

– Bari bir qo'zichoq chizib ber, – deb javob qildi.

Men umrimda qo'zichoq rasmini chizib ko'rmaganim uchun, o'zim bilgan o'sha eski ikkita suratdan birini – bo'g'ma ilonning tashqi ko'rinishini chizib ko'rsatdim.

Ammo bolakay rasmni ko'rib:

– Yo'q, yo'q! Menga ilon ham, fil ham kerak emas! Ilon haddan tashqari xavfli, fil esa haddan tashqari katta. Mening uyimdagi narsalarning hammasi kichkina. Menga qo'zichoq, kerak, qo'zichoq chizib ber, – deb xitob qilganida nihoyatda hayron qoldim-da, shu rasmni chizib berdim.



U rasmni sinchiklab koʻzdan kechirgach:

– Yoʻq, bu qoʻzichoq judayam oriq-ku, – dedi. – Boshqasini chizib ber.

Men boshqa qoʻzichoq rasmini chizdim.

Yangi doʻstim xushfeʼllik bilan muloyim jilmayib qoʻydi.

– Bu qoʻzichoq emas-ku, – dedi u. – Oʻzing ham koʻrib turibsan-a, qoʻchqor-ku bu. Ana, shoxiyam bor...

Men qoʻzichoqni tagʻin boshqatdan chizdim. Biroq bu rasm ham unga maʼqul boʻlmadi:

– E, bu oʻlguday qari-ku. Menga uzoq yashaydigan qoʻzichoq kerak.

Endi sabr-toqatim tugadi. Axir, tezroq motorni tuzatish kerak edi-da! Shuning uchun apil-tapil mana shu narsani chizib tashladim.

Keyin bolaga qarab:

– Mana senga quticha. Qoʻzichogʻing shuning ichida yotibdi, – dedim.

Shunda meni butkul lol qoldirib, bu talabchan hakam gul-gul yashnab ketdi:

– Menga xuddi shunaqasi kerak edi-da! U koʻp oʻt yermikan, nima deysan-a?

– Nima edi?

– Axir mening uyimda unchalik serobgarchilik emas-da.

– Unga koʻp narsa kerak emas. Men senga judayam kichkina bir qoʻzichoq beraman.

– U judayam kichkina emas... – dedi u boshini egib, rasmga termilarkan. – Qara! U uxlab qoldi...

Men Kichkina shahzoda bilan shu tariqa tanishdim.

### III

Uning qayerdan paydo boʻlganini hadeganda bilib ololmadim. Kichkina shahzoda meni savollarga koʻmib tashlar, ammo oʻzidan biror nimani soʻrasam, eshitmaganga

olar edi. Faqat, anchadan keyin, gap orasida tasodifan aytib qolgan ba'zi so'zlaridan uning sirli tashrifi birmuncha oydinlashdi. Masalan, samolyotimni birinchi marta ko'rganida (samolyot rasmini chizib o'tirmayman, negaki, buni bari bir eplayolmayman), u shunday deb so'radi:

– Bu qanaqa narsa?

– Bu narsa emas, samolyot. Mening samolyotim, u uchadi.

Keyin unga, osmoni falakda uchish qo'limdan kelishini faxrlanib aytdim. Shunda u:

– E, shoshma! Sen hali osmondan qulab tushdingmi?

– deya xitob qilib qoldi.

– Ha, – dedim kamtarlik bilan.

– Ana xolos! Qiziq-ku!..

Kichkina shahzoda shunday deb qo'ng'iroqdek tovush bilan kulib yubordi. Buni ko'rib picha achchig'im chiqdi: axir men, boshimga kulfat tushganda, odamlar bunga jiddiy munosabatda bo'lishlarini yoqtiramanda. Birozdan keyin u:

– Demak, sen ham osmondan tushib kelibsan-da, – dedi. – Xo'sh, qaysi sayyoradan kelding?

«E, bu kimsasiz sahroda to'satdan qayerdan paydo bo'lib qoldi, desam, gap buyoqda ekan-da!» deb o'yladim, o'zimcha va dabdurustdan:

– Bundan chiqdiki, sen bu yerga boshqa sayyoradan tushib kelibsan-da? – deb so'radim.

Biroq u savolimga javob bermadi. Samolyotimni ko'zdan kechirarkan, asta bosh chayqadi:

– He, buning bilan uzoqdan uchib kelolmaysan, ko'rinib turibdi...

So'ng nima haqdadir xiyla o'ylanib qoldi. Keyin cho'ntagidan men chizib bergan boyagi qo'zichoqni olib, uni go'yo qimmatbaho xazinadek tomosha qilishga kirishdi.

«Boshqa sayyoralar» xususidagi bu chala-yarim e'tirofdan so'ng ko'nglimdagi qiziqish hissi naqadar alanga olib ketganini tasavvur qila olsangiz kerak. Iloji boricha ko'proq narsa bilib olish niyatida ustma-ust savol yog'dira ketdim:

– Sen qayoqdan uchib kelding, bolakay? Uying qayerda o'zi? Qo'zichog'imni qayoqqa olib ketmoqchisan?

U o'yinga cho'mganicha jimib qoldi-da, keyin:

– Menga quticha berganing juda soz bo'ldi-da, qo'zichoq kechasi uning ichida uxlaydi, – dedi.

– Albatta. Agar aqlli bola bo'lsang, senga arqon ham hadya qilaman – qo'zichoqni kunduzlari bog'lab qo'yasan. Qoziq ham beraman.

Kichkina shahzodaning qoshlari chimirildi:

– Bog'lab qo'yasan? Nima keragi bor buning?

– Chunki, bog'lab qo'yasang, u biron yoqqa ketib, adashib qoladi.

Buni eshitib do'stim xandon otib kulib yubordi:

– E, qayoqqayam ketardi u?

– Bilib bo'lmaydi-da. Boshi oqqan tomonga ketaveradi, ketaveradi.

Shunda kichkina shahzoda jiddiy tortib:

– Mayli, hechqisi yo'q, – dedi. – Axir, men yashaydigan joy nihoyatda kichkina... – Birozdan so'ng anduh bilan qo'shib qo'ydi: – Boshing oqqan tomonga ketaverganing bilan uzoqqa ketolmaysan...

#### IV

Shu tariqa men yana bir muhim yangilikni kashf etdim: uning ona sayyorasi bor-yo'g'i bir uydek kelar ekan!

Ochig'ini aytganda, bu narsa meni unchalik hayratlantirmadi. Chunki men Yer, Yupiter, Mars, Zuhra singari ulkan sayyoralardan tashqari, yana yuzlab boshqa sayyoralar mavjudligini, aksariyatiga hatto nom ham berilmaganini, ular orasida teleskopda ham ko'rish mushkul

bo'lgan mittivoylari ham borligini bilar edim. Astronom olim ana shunday jimit sayyorani kashf etarkan, unga nom qo'yib o'tirmaydi, balki raqam bilan atab qo'yaqoladi. Masalan: 3251-asteroid, degandek.

Menda, Kichkina shahzoda B-612 deb atalmish mo'jaz sayyoradan tushib kelgan, deb hisoblashga imkon beruvchi jiddiy asoslar bor. Bu asteroid teleskopda faqat bir marta – 1909-yili, bir turk astronomi tomonidan kuza-tilgan edi.

O'shanda astronom ajoyib kashfiyoti haqida xalqaro astronomiya kongressida ma'ruza qilgan, ammo uning gapiga biror kimsa ishonmagan, chunki u turkcha kiyingan edi. Ana shunaqa g'alati xalq bu kattalar!

Buni qarangki, B-612 deb atalmish asteroidning baxtiga, turk sultoni o'z fuqarolariga, o'lim jazosi tahdidi bilan, yevropacha kiyinishni joriy etdi. O'sha astronom 1920-yili kashfiyoti haqida tag'in ma'ruza qildi. Bu safar u eng so'nggi modada kiyingan edi – hamma uning gapini ma'qulladi.

B-612 deb atalmish asteroid haqida sizga bunday batafsil so'zlab o'tirganimga, hatto uning tartib raqamini keltirganimga kattalar sabab. Chunki kattalar raqamlarni juda yaxshi ko'rishadi. Agar ularga yangi do'st orttirganingiz xususida aytib qolsangiz, ular hech qachon eng asosiy narsa haqida so'ramaydilar. Ular hech qachon: «Uning ovozi qanaqa? Qanaqa o'yinlarni yaxshi ko'radi? U kapalak tutadimi-yo'qmi?» deb surishtirmaydilar. Ular: «Yoshi nechada? Nechta og'a-inisi bor? Og'irligi qancha ekan? Otasi qancha moyana oladi?» deya so'ray ketadilar. So'ng shu tariqa o'zlaricha odamni bilib olgan bo'ladilar. Mabodo kattalarga: «Men qizg'ish g'ishtli chiroyli bir uyni ko'rdim, derazasida yorongul ochilib turibdi, tomida kaptari bor», deb aytsangiz, ular bu imoratni sira ham ko'z o'ngilariga keltira olmaydilar. Ularga: «Men yuz

ming franklik uyni ko'rdim», deb aytish lozim – shundagina ular: «Ana go'zallig-u mana go'zallik!» deya xitob qiladilar.

Xuddi shuningdek, agar ularga: «Kichkina shahzoda chindan ham mavjud edi, u nihoyatda ajoyib bolakay edi, yayrab kulardi, bir qo'zichog'im bo'lsa, derdi. Qo'zichog'im bo'lsin degan odam, rostdan mavjud bo'ladi-da», desangiz, hayron yelka qisib qo'yadilar-da, sizga xuddi esi past go'dakka qaragandek qaraydilar. Ammo bordi-yu: «U B-612 degan sayyoradan uchib kelgan edi», deb tushuntirsangiz, bu gapga uzil-kesil ishonishadi va ortiq turli-tuman savollar bilan sizni bezor qilishmaydi. Ana shunaqa g'alati xalq bu kattalar. Ular xafa bo'lib o'tirishga arzimaydi. Bolalar kattalarga nisbatan kengfe'l va kechirimli bo'lishlari lozim.

Ammo bizlar, ya'nikim, hayotning nima ekanini angelaydigan kishilar, nomerlar va raqamlar ustidan qah-qah urib kulamiz! Men, masalan, o'zimga qolsa, ushbu qissani xuddi sehrlil ertakdek boshlagan bo'lurdim:

«Bor ekanda, yo'q ekan, bir Kichkina shahzoda bo'lgan ekan. U nihoyatda kichkina – o'zining tanasidan salgina katta bir sayyorada yashar, birorta ham do'sti yo'qligidan qattiq iztirob chekar ekan...» Hayotning nimaligini angelaydigan kishilar buning ertakdan ko'ra ko'proq haqiqatga o'xshashini darhol payqagan bo'lur edilar.

Zero men kitobimning shunchaki ermak uchungina o'qilishini aslo istamayman. Bo'lib o'tgan u voqealarni qayta eslash men uchun g'oyat og'ir, ularni hikoya qilish ham oson emas. Do'stim qo'zichog'i bilan birga meni tark etganidan buyon oradan olti yil o'tdi. Uni unutib yubormaslik uchun ham u haqda so'ylamoqchiman. Chunki dunyoda do'stlarni unutib yuborishdan ham qayg'uliroq narsa yo'q, axir do'st bo'lish har kimga ham nasib etavermaydi-da. Qolaversa, men, yorug' olamda

raqamdan boshqa narsaga qiziqmaydigan kattalarga o'xshab qolishni sira-sira istamayman. Mana shu boisdan ham men rangli qalamlar bilan birga bo'yoqlar solingan quticha sotib olgan edim. Mening yoshimda qayta boshdan rasm chizishga kirishish – aytishga oson, xolos, chunki men butun umrim davomida bo'g'ma ilonning tashqi-yu ichki ko'rinishidan boshqa narsa (uni ham olti yashar paytimda chizganman) chizmagan edim-da! Albatta, hozir iloji boricha asliga o'xshatishga harakat qilaman, biroq bu ishni qoyilmaqom qilib bajaraman, deb kafillik berolmayman. Shuning uchun portretlarning biri binoyidek chiqsa, ikkinchisi mutlaqo o'xshamasligi ham mumkin. Kichkina shahzodaning bo'yi to'g'risida ham shu gapni aytish lozim: rasmlarning birida u haddan tashqari ulkan, boshqasida esa – haddan tashqari kichkina bo'lib ko'rinadi. Shuningdek, kiyimining rangi ham yodimda yo'q. Shu bois esimda qolganicha, tasmollab, xayolan chizaveraman. Nihoyat, men ba'zi bir muhim tafsilotlar tasvirida xatoga yo'l qo'yishim ham mumkin. Ammo sizlar meni ma'zur tutarsizlar, deb umid qilaman. Do'stim menga hech qachon biror narsani tushuntirib bergan emas edi. Ehtimol, u meni ham xuddi o'zi qatori deb hisoblagandir. Biroq, afsuski, men quticha devorlari aro qo'zichoqni ko'rishga qodir emasman. Balki men kattalarga ozroq o'xshab ketarman. Chamasi, qariyotgan bo'lsam kerak.

Kun sayin men Kichkina shahzodaning sayyorasi haqida, do'stim uni qanday qilib tark etgani-yu safar chog'i qanday sarguzashtlarni boshidan kechirgani haqida yangi-yangi ma'lumotlarni bilib ola boshladim. Xonasi kelib qolganida u shu haqda ozmi-ko'pmi gapirib qolardi. Shu tariqa, uchinchi kuni Kichkina shahzodaning sayyorasida ro'y bergan baobab balosidan voqif bo'ldim.

Bunga ham aslida o'sha qo'zichoq rasmi sabab bo'ldi. Kichkina shahzoda, chamasi, nimadandir qattiq shubhaga tushgandek edi, to'satdan menga qarab:

– Ayt-chi, qo'zichoq-lar rostdan o't yeydi-mi? – deb so'radi.

– Ha, rostdan.

– E, zo'r ekan unda!

Qo'zichoqning o't yeyishi nega bunchalik muhim ekanini, tabiiyki, tushunmadim. Lekin Kichkina shahzoda shunday deb qo'shimcha qildi:

– Bundan chiqdiki, ular baobablarni ham yer ekan-da?

Men bu gapga e'tiroz bildirib aytdimki, baobab degani o't-o'lan yoki buta emas – minora bo'yi keladigan bahaybat daraxt; agar u sayyorasiga butun boshli fil podasini haydab borganida ham, ular birorta baobabni yeya olmaydi.

Kichkina shahzoda bu gapni eshitib, miyig'ida jilmaydi:

– Unda, fillarni bir-biriga mingashtirib qo'yish kerak...

– So'ng picha o'ylanib, mulohazakor ohangda davom etdi: – Baobablar endi unib chiqqan paytida judayam kichkina bo'ladi.

– To'g'ri, lekin nega endi qo'zichog'ing baobabni yeyishi kerak?

– E, yemasa bo'lmaydi-da! – deya xitob qildi u, go'yo benihoya oddiy, ibtidoiy bir haqiqat xususida so'zlayotgandek.

Gap nimadaligini anglab yetguncha rosa boshim qotdi.

Kichkina shahzodaning sayyorasida ham boshqa sayyoralardagi kabi foydali va zararli o't-o'lanlar o'sar ekan. Demak-ki, u yerda dorivor, shifobaxsh o'tlarning urug'i bilan birga, zararkunanda va begona o'simliklarning urug'lari ham mavjud. Ammo urug'hali tuproq tagida mudrab yotarkan, ko'zga ko'rinmaydi, shu bois uning zararlimi, foydali

ekanini bilish ham mushkul. Faqat yer uyg'ongachgina urug' ham asta-sekin nish urib yorug' olam sari talpinadi, kurtak ochib barg yozadi-da, quyoshga bo'y cho'zadi. Qattiq yerdan qaltirab chiqqan chog'ida u nimjongina, beozor bir giyoh bo'ladi. Agar u bo'lg'usi gulko'chat yoki maymunjon bo'lsa, mayli, bemalol o'sib-unaversin, bordi-yu qandaydir zararkunanda o'simlik bo'lsa, tag-tomiri bilan yulib tashlash kerak. Kichkina shahzodaning sayyorasida ana shunday zararli mudhish urug'lar bor ekan – baobablarning urug'i. Sayyoraning tuprog'ida shu yovuz urug' to'lib-toshib ketgan ekan. Agar baobabni o'z vaqtida payqab yulib tashlanmasa, keyin undan qutulishning iloji bo'lmaydi. U butun sayyorani egallab oladi, bahaybat, quturgan tomirlari bilan uni har tomondan chirmab eza boshlaydi. Mabodo sayyora mo'jazgina bo'lsa-yu, baobablar son-sanoqsiz bo'lsa, u holda ular uni tilka-pora qilib tashlashi ham hech gap emas.

– Bizda shunday bir qoida bor, – dedi Kichkina shahzoda keyinchalik menga. – Ertalab uyqudan turib, yuz-qo'lingni yuvgach, u yoq-bu yoqni yig'ishtirgandan so'ng, darhol sayyorangni tozalashga kirishmog'ing lozim. Baobablarni har kuni, kanda qilmay yo'q qilib turish kerak. Ammo ularni gul ko'chatidan ajrata bilish kerak: ikkalasining niholi bir-biriga judayam o'xshaydi. Bu haddan tashqari zerikarli ish, lekin sirayam qiyin emas.

Bir gal u menga, mana shu gaplarni bizning bolalar ham tushunsin, desang, bir rasmini chizib ko'rmaysanmi, deb maslahat berdi.

– Agar ular qachondir safarga chiqmoqchi bo'lsalar, bu narsa g'oyat qo'l keladi, – dedi u. – Boshqa ishlar biroz kechiksa ham ziyon qilmaydi, ammo baobablarni o'z holiga qo'yib berilsa, oxiri voy bo'ladi. Men bir sayyorani bilaman, u yerda bir dangasa yashardi. U uch tup niholni vaqtida qo'porib tashlamadi, oqibatda...



Kichkina shahzoda bu haqda batafsil soʻzlab berdi, men esa oʻsha sayyoraning rasmini chizdim. Birovga aql oʻrgatishni yomon koʻraman, ammo baobablarning naqadar xavfli ekanini juda oz odamgina biladi, vaholanki, asteroidga qadam qoʻyadigan har bir kishi muqarrar ravishda bu dahshatli xatarga duchor boʻladi. Shu sababdan men hozir odatimga xilof tarzda: «Bolalar, baobablardan ehtiyot boʻlinglar!» deb hayqirgim keladi. Barcha doʻstlarimni koʻpdan buyon tahdid solib turgan shu balo-qazodan ogoh qilib qoʻymoqchiman, chunki ular shunday xatar borligini bir paytlar men ham mutlaqo bilmaganimdek, hatto xayollariga ham keltirmaydilar. Shuning uchun ham men ovora boʻlib shu rasmni chizdim, shuning uchun ham qilgan mehnatinga zarracha achinmayman. Ehtimol, siz, nima uchun bu kitobda manavi baobablarning tasviridan boshqa birorta ham taʼsirli rasm yoʻq, deb soʻrarsiz. Bunga men oddiygina qilib shunday javob qaytaraman: boshqa rasmlar ham taʼsirchanroq chiqsin, deb rosa urindim, biroq, afsuski, qoʻlimdan kelmadi. Baobablarni chizayotgan paytimda esa, bu chindan ham mudhish xatar, uni daf etishni aslo kechiktirib boʻlmaydi, degan fikr menga ilhom bagʻishlagan edi...

## VI

Eh, Kichkina shahzoda! Asta-sekin men sening naqadar gʻamgin va yakrang hayot kechirganingni anglab yetdim. Uzoq yillar mobaynida yagona dilxush ermaging quyosh botar payt – gʻurubni tomosha qilishdan iborat boʻlgan ekan. Men buni toʻrtinchi kuni ertalab, oʻzing soʻz orasida:

– Gʻurubni judayam yaxshi koʻraman. Yur, quyoshning botishini tomosha qilamiz, – deb qolganingda sezdim.

– E, unda biroz kutish kerak.

– Nimani?

– Quyosh botishini-da.

Bu gapni eshitib, avval behad hayron bo‘lib qolding, keyin esa o‘zingning ustingdan o‘zing kulib:

– Nazarimda, haliyam uyimda yurgandekman! – deding.

Haqiqatan ham, Amerikada kun choshgoh bo‘lganda Fransiyada kun botishini hamma biladi. Agar u yerdan bir lahzaning ichida Fransiyaga yetib borilsa, quyosh botishini ham tomosha qilish mumkin. Baxtga qarshi, Fransiya bu yerdan uzoq, benihoya uzoq. Sening sayyorangda esa tagingdagi kursichani bir necha qadam nari sursang, bas – g‘urubga istagancha uzluksiz maftun bo‘lib termilaverish mumkin edi...

– Bir safar men bir kunda qirq uch marta quyosh botishini tomosha qilganman!

Oradan sal o‘tgach, xiyol anduh bilan yana shunday deding:

– Bilasanmi... ba‘zan yuraging nimadandir g‘ussaga to‘lib ketganda, botayotgan quyoshga birpas termilib o‘tirsang bormi...

– Demak, g‘urubni qirq uch marta tomosha qilgan kuning judayam xafa bo‘lgan ekansan-da?

Ammo Kichkina shahzoda bunga javoban indamadi.

## VII

Beshinchi kuni ertalab, tag‘in o‘sha qo‘zichoq sabab bo‘lib, Kichkina shahzodaning sir-u asrorini bilib oldim. U, go‘yo uzoq vaqt sukut ichra o‘ylab shu xulosaga kelgandek, dabdurustdan:

– Qo‘zichoq o‘t yer ekan, bundan chiqdi, gulni ham yeyishi mumkin ekan-da? – deb so‘radi.

– Ha, to‘g‘ri kelgan narsani yeyaveradi.

– Hatto tikanli gulniyam yeydimi?

– Ha, tikanli gulniyam.

– Unday bo'lsa, gulga tikanning nima keragi bor?

Buni men ham bilmasdim. Hozir judayam band edim: motorning bir gaykasi yeyilib ketgan, shuni burab chiqarolmay, qonimga tashna bo'lib turardim. Avzoyim buzuq edi – ahvol tobora og'irlashib bormoqda, suv deyarli tamom bo'ldi, bu majburiy qo'nishning oxiri rasvo bo'lmasa edi, degan g'ulg'ula yuragimga o'rmalay boshlagan edi.

– Xo'sh, tikanning nima keragi bor?

Kichkina shahzoda biron-bir savol berarkan, javob olmaganicha qo'ymas edi. Tosh qotib ketgan gayka hadeganda buralavermagach, fig'onim falakka chiqib, og'zimga kelgan gapni g'o'ldiradim:

– Gulga tikanning sirayam keragi yo'q, azbaroyi yomonlikka chiqaradi.

– Shunaqami?!

Jimlik cho'kdi. Anchadan keyin u ranjigan ohangda:

– Gapingga ishonmayman, – dedi. – Axir, gullar judayam zaif, oqko'ngil-ku. O'zlarini botir ko'rsatish uchun ham tikan chiqarishadi, go'yo shunda ulardan hamma qo'rqadigandek...

Indamadim. Hozir o'zimcha jahl bilan g'o'ldirab qasam ichmoqda edim: bu la'nati gayka shu safar ham chiqmasa, bolg'a bilan shunday aylantirib solamanki, mayda-mayda bo'lib ketadi!.. Biroq Kichkina shahzoda tag'in xayolimni buzdi:

– O'ylaysanki, gullar ...

– E, hech narsani o'ylamayman-e, men! Kallamga kelgan gapni aytdim-qo'ydim-da. Ko'rib turibsan-ku, jiddiy ish bilan bandman.

U menga hayratdan dong qotib tikildi:

– Qanaqa jiddiy ish?!

U hamon mendan nigohini uzmasdi: men esa, aft-basharam qop-qora moy, qo'limda bolg'a, uning

ko'ziga nihoyatda notavon bo'lib ko'rinayotgan manavi shaldiroq arava – samolyot uzra engashgancha asabiy tutaqib turardim.

– Xuddi kattalarga o'xshab gapirasana! – dedi u.

Uyalib ketdim. U esa ayab-netib o'tirmay, gapida davom etdi:

– Hammasini chalkashtirib yubording... hech narsani tushunmas ekansan!

Chindan ham uning qattiq jahli chiqqan edi. Achchiqlanib boshini chayqarkan, tillarang sochlari shamolda to'zg'ib ketdi.

– Men bir sayyorani bilaman, u yerda yuzi bo'zargan bir janob yashaydi. U umrida biror marta gul hidlab ko'rmagan, biror marta yulduzlarga tikilmagan. U hech qachon birovni sevgan ham emas, umrida biron-bir yumushni ham bajargan emas. U faqat bir ish bilan – raqamlarni bir-biriga urishtirish bilan ovora. Erta-yu kech xuddi senga o'xshab yakkash: «Men jiddiy odamman! Men jiddiy odamman!» deb takrorlagani-takrorlagan. Tag'in gerdayib-kekkayib yurishini aytmaysanmi! Aslida u odam emas, qo'ziqorin.

– Nima deding?

– Qo'ziqorin, deya pman! – Kichkina shahzoda azbaroyi achchiqlanganidan, rangi bo'zdek oqarib ketdi. – Million yillardan buyon gullarning tanasida tikan o'sadi. Va million yillardan buyon qo'zichoqlar gullarni bari bir yeb qo'yadi. Shunday ekan, hech qanday naf ko'rmasa hamki, gullarning tikanga bunchalik zo'r berishining boisi nimada? Nahot mana shu jumboqni anglash zarur ish bo'lmasa? Nahotki gullar bilan qo'zichoqlar o'rtasidagi asriy adovat siri muhim narsa bo'lmasa? Axir bu o'sha yuzi bo'zargan janobning hisob-kitobidan ko'ra jiddiyroq va zarurroq emasmi? Aytaylik, men dunyoda na tengi, na o'xshashi bo'lgan bir gulni bilaman, u faqat

mening sayyoramdagina o'sadi. Endi bir kuni jimitgina qo'zichoq shartta borsa-yu uni paqqos yeb bitirsa! Nima ish qilib qo'rganini hatto xayoliga ham keltirmasa... Balki bu ham seningcha muhim narsa emasdir?

U qip-qizarib ketdi, bir zumdan keyin tag'in davom etdi:

– Agar boshqa millionlab yulduzlarda uchramaydigan bir gulni yaxshi ko'rsang, shuning o'zi ham kifoya: os-monga boqqaning zamon o'zingni baxtiyor his etasan. «Olislarda, qaydadir mening ham gulim bor», deb shivirlasang bas – ko'ksing tog'dek yuksalib ketadi. Bordi-yu qo'zichoq to'satdan uni yeb qo'ysa bormi, olamdagi jamiki yulduz birdaniga so'ngandek bo'ladi-qoladi! Senga qolsa, bu sirayam muhim narsa emas!

U ortiq gapirolmadi, nafasi tiqilib, ho'ngrab yubordi. Atrofni qorong'ilik chulg'adi. Qilayotgan ishinni shartta tashladim, badbaxt gayka-yu bolg'a ham, tashnalig-u o'lim vahmi ham daf'atan unut bo'ldi.

Mening yulduzimda, Yer atalmish mening sayyoramda Kichkina shahzoda o'ksib-o'ksib yig'lar – uni yupatmoq darkor edi. Men uni bag'rimga bosgancha qo'limda al-lalay boshladim: «Sen ko'ngil qo'rgan gulga hech kim tegmaydi... qo'zichog'ingning tumshug'iga o'zim no'xta chizib beraman... men...». Bundan bo'lak nima deyarimni bilmasdim, aql-u hushim tamoman boshimdan uchgan, o'zimni behad beo'xshov va o'ng'aysiz sezardim. Nima qilsam, u dilimni anglarkin? Tutqich bermay mendan lahza sayin uzoqlashib borayotgan bu beg'ubor ko'ngil sadosini qanday quvib yetsam ekan? Axir, aslida ko'zyosh degani – anglab bo'lmas, sirli bir saltanat emasmi?

## VIII

Hademay bu gulni yaxshilab bilib oldim. Kichkina shahzodaning sayyorasida hammavaqt oddiygina, beha-

sham gullar o'sardi. Ular kambarg, beozorgina bo'lib, nihoyatda kam joyni egallar, ertalab ochilib, oqshom chog'i so'lib qolar edi. Bu gul esa, kunlarning birida shamolda qaydandir uchib kelib sayyora tuprog'iga tushib qolgan urug'dan unib chiqqan edi. Kichkina shahzoda boshqa o't-o'lan, gulchechaklarga aslo o'xshamagan bu mo'jaz niholdan ko'zini uzolmasdi. Bordi-yu u baobabning biror yangi xili bo'lsa-chi? Ammo nihol tez orada yuqoriga qarab bo'y cho'zishdan to'xtadi-da, g'uncha tugdi. Kichkina shahzoda umri bino bo'lib bunday katta g'unchalarni ko'rmagan edi, g'aroyib mo'jiza ro'y berajagini ko'ngli sezib, betoqat kuta boshladi. Notanish, noma'lum g'uncha esa hamon yuz ochishni xayoliga keltirmas, yashil gumbaz ichra pinhon o'tirgancha hanuz o'ziga oro berar edi. U qunt bilan rang tanlar, gulbarg liboslarni nozik badaniga bir-bir o'lchab ko'rardi – yorug' olamga allaqanday lolaqizg'aldogga o'xshab, hurpaygan, to'zg'igan holda diydor ko'rsatishni sira-sira istamasdi-da. U husni jamolini bor latofati-yu butun jozibasi bilan namoyon etmoqni orzu qilardi. Ha, ana shunday o'ziga bino qo'ygan go'zal edi u!

Sirli tayyorgarlik shu yo'sin uzoq davom etdi. Va, nihoyat, bir sahar chog'i, quyoshning ilk nurlari ko'rinishi bilanoq gulbarglar ohista ochildi, bu lahzaga shu qadar uzoq taraddud qilgan go'zal esa shirin esnab:

– Eh, esizgina, barvaqt uyg'onib ketibman-ku... Afv eting meni... – dedi. – Hammayog'im to'zg'ib yotuvdi-ya...

Kichkina shahzoda hayrat va zavqini yashirolmadi:

– Naqadar chiroylisiz-a!

– Yo'g'-e, rostdanmi? – dedi gulg'uncha bunga javoban astagina. – Ha, balki sezgandirsiz, men quyosh bilan birga tug'ilganman-a.

Kichkina shahzoda bu g'unchaning kamtarlik bobida namuna bo'lolmasligini payqadi, biroq u shunchalar dilbar va latif ediki, odamni beixtiyor dovdiratib qo'yardi!

– Nonushta vaqtiyam bo‘lib qoldimi deyman, – dedi u saldan keyin. – Baraka topkur, menga yordam qilarsiz-a?

Kichkina shahzoda behad xijolat bo‘ldi, ko‘zachada muzdek buloq suvidan keltirib uni sug‘ordi.

Ko‘p o‘tmay go‘zal gulg‘un-chaning xiyla mag‘rur va arazchiligi ham ma‘lum bo‘lib qoldi-yu Kichkina shahzoda u bilan til topishaman, deb rosa qiynaldi. Bir kuni gul poyasidagi to‘rtta tikanni ko‘rsatib:

– Qani, yo‘lbars zo‘r bo‘lsa, bu yoqqa kelsin, men uning o‘zidan ham, o‘tkir tirnog‘idan ham qo‘rqmayman! – dedi.

– Mening sayyoramda yo‘lbars yashamaydi, – deb e‘tiroz bildirdi Kichkina shahzoda. – Keyin, yo‘lbarslar o‘t yemaydi.

– Men o‘t emasman-ku, – dedi gulg‘uncha ranjib.

– Kechiring meni...

– Yo‘q, men yo‘lbarsdan sirayam qo‘rqmayman, ammo yelvizak degan narsadan yuragim chiqib ketadi. Sizda parda yo‘qmi, meni shamoldan to‘sib qo‘ysangiz?

“G‘alati-ya, o‘simlik bo‘laturib yelvizakdan qo‘rqadi...– deb o‘yladi Kichkina shahzoda.– Judayam ko‘nglini topish qiyin ekan bu gulning...”

– Bu yer rosa sovuq ekan. Kechqurun meni shisha qalpoq bilan o‘rab qo‘ying, xo‘pmi? Sayyorangiz haddan tashqari befayz ekan. Men kelgan joyda-chi...

Gulg‘uncha gapini tugatmay jimib qoldi. Chunki bu yoqqa u hali urug‘ chog‘ida uchib kelgan edi-da. O‘zga olamlar haqida shu bois hech narsa bilmasligi tabiiy edi. Osongina fosh bo‘lishing muqarrar vaziyatda esa yolg‘on gapirmoq – borib turgan ahmoqlikdir! Gulg‘uncha xijolat tortdi, so‘ng go‘yo Kichkina shahzoda, o‘zini uning oldida qanchalar gunohkor ekanini sezsin, degan ma‘noda ustma-ust yo‘taldi:

– Qani parda, bormi?

– Men boya borib olib kelmoqchi edim, lekin gapingizni bo‘lishga...

Shunda gulg‘uncha yana qattiqroq yo‘tala boshladi: mayli, uning vijdoni battar qiynalsin!

Kichkina shahzoda, garchi bu feruza gulni yaxshi ko‘rib qolgan, unga xizmat qilishdan baxtiyor bo‘lsa-da, ko‘p o‘tmay ko‘nglida shubha uyg‘ondi. U shunchaki aytilgan havoyi gaplarni yuragiga yaqin olar, shu sabab o‘zini benihoya baxtsiz sezar edi.

– Bekor uning gapiga quloq solgan ekanman, – deb qoldi u bir kuni menga. – Hech qachon gullarning aytganiga quloq solmaslik kerak ekan, ularga termilib, hidlaridan bahramand bo‘lish lozim ekan, xolos. Mening gulim butun sayyorani xush bo‘ylarga burkagan edi, men esa bundan faqat quvonish zarurligini bilmasdim. Yo‘lbars haqidagi, tirnoq haqidagi anavi gaplarga kelsak... ulardan odamning ko‘ngli zavq-shavqqa to‘lishi kerak edi, men bo‘lsam achchiqlanib o‘tiribman-a... – Bir muddat sukut saqlab, anduh bilan e‘tirof etdi: – O‘shanda hech nimani tushun- magan ekanman! Og‘izdagi so‘zga emas, amaldagi ishga qarab baho berish kerak edi. U menga o‘zining muattar bo‘ylarini armug‘on etdi, hayotimni nurga chulg‘adi. Men undan qochmasligim kerak edi! O‘sha qovushmagan hiyla-nayranglar zamirida nozik bir latofat mujassam ekanini payqashim kerak edi. Axir, gullar shunchalik beqarorki!.. Ammo men nihoyatda yosh edim, muhabbat sir-asroridan bexabar edim.

## IX

Anglashimcha, u jahongashta qushlar bilan birga parvoz qilishga qaror bergan. Oxirgi kuni ertalab u odatdagidan ko‘ra boshqacharoq g‘ayrat bilan sayyorasini tozalashga kirishdi. Qunt va zo‘r hafsala bilan uyg‘oq vulqonlarni tozalay boshladi. Sayyorada ikkita uyg‘oq vulqon



bo'lib, ular nonushta tayyorlashga judayam qulay edi. Bundan tashqari, yana bitta so'ngan vulqon ham bor edi. Biroq, bu so'ngan-ku, deb xotirjam yurib bo'lmaydi-da, dedi u. Shu sababdan uni ham erinmay tozalab chiqqan. Vulqonlarni chinni-chiroqdek ozoda qilib tozalasangiz, ular tutun-u qurum chiqarmay bir maromda biqirlagan-cha qaynab yotadi... Albatta, biz – Yerdagi ahli zamin, g'oyat kichkina odamlarmiz, vulqonlarimizni tozalashga kuchimiz yetmaydi. Shuning uchun ham ular bizga shu qadar ko'p ziyon-zahmat yetkazadi.

Kichkina shahzoda bao bablarning so'nggi nihollarini yularkan, xiyol g'ussaga ham botdi. Balki endi sirayam bu yerlarga qaytmasman, deb o'yladi. Ammo bu tongning har kungi odatiy yumushlari unga g'ayrioddiy zavq bag'ishlamoqda edi. Ajoyib feruza gulni oxirgi bor sug'orib, ustini shisha qalpoq bilan yopib qo'yishga chog'lanarkan, o'pkasi to'lib, hatto yig'lagisi kelib ketdi.

– Xayr, yaxshi qoling, – dedi u. Gul churq etmadi.

– Xayr sizga, – deb takrorladi Kichkina shahzoda.

Feruza gul yo'talib qo'ydi. Sovuq qotganidan emas, albatta.

– Ahmoqlik qilgan ekanman, – dedi u nihoyat. – Kechir meni. Baxting yor bo'lsin...

Tovushida ta'na-dashnomdan asar ham sezilmasdi. Kichkina shahzoda qo'lida shisha qalpoq, lol-u hayron qotib qolgan edi. Bu latofat, bu mehr qayoqdan paydo bo'ldi ekan?

– Ha, men seni yaxshi ko'raman, ha... – degan titroq ohang yangrardi quloqlari ostida. – Aybim shundaki, sen buni bilmasding. Bu unchalik muhim ham emas aslida. Lekin sen ham xuddi mendek tentak eding. Mayli, baxtingni top, omadingni bersin... Qalpoqni chetroqqa qo'y, u endi menga kerakmas.

– Ammo, shamol...

– Yo‘q, unchalik shamollamaganman... Tungi shabnam menga naf keltiradi. Axir, men – gulman-ku.

– Ammo, hayvonlar, hasharotlar...

– Agar men kapalaklar bilan tanishmoqchi bo‘lsam, bir-ikkita g‘umbakning zulmiga dosh berishim kerak-ku, kapalaklar chiroyli bo‘lsa kerak. Bo‘lmasa, endi mening oldimga kim ham kelardi? Sen uzoqqa ketayotgan bo‘lsang... Hayvonlardan esa qo‘rqmayman. Meniyam o‘tkir tirnoqlarim bor. – U soddadillik bilan to‘rttala tikkanini ko‘rsatdi-da, shunday deb qo‘shib qo‘ydi: – Bo‘ldi, bas, ortiq cho‘zaverma, bardosh berish qiyin, axir! Modomiki ketar bo‘lsang – xayr, yaxshi bor.

U o‘zining silkinib-silkinib yig‘layotganini Kichkina shahzoda ko‘rishini istamasdi. Bu judayam mag‘rur gul edi...

## X

Kichkina shahzodaning sayyorasiga 325, 326, 327, 328, 329 va 330-asteroidlar eng yaqin edi. Shu bois u dastlab ularga tashrif etishga ahd qildi: ham ermak, ham nimadir o‘rganadi.

Birinchi asteroidda qirol yashardi. Ipak-shohi liboslarga burkanganicha, u nihoyatda oddiy va ayni paytda ulug‘vor taxtda savlat to‘kib o‘tirardi.

– E, mana, fuqaro ham kelib qoldi! – deb xitob qildi qirol Kichkina shahzodani ko‘rishi bilan.

«U meni qayoqdan bilarkin? – deb o‘yladi Kichkina shahzoda. – Axir umrida birinchi marta ko‘rib turibdi-ku!»

Bilmasdiki, qirollar dunyoga jo‘ngina qaraydilar ular uchun jamiki odam – fuqaro.

– Yaqinroq kel, qani, seni bir yaxshilab ko‘rib olay-chi, – dedi qirol nihoyat kimgadir qirollik qilishi mumkinligidan o‘lgudek taltayib.

Kichkina shahzoda o'tirishga joy izlab yon-veriga alangladi, biroq qirolning hashamdor jubbasi butun sayyorani qoplab olgan edi. Tik turaverishga to'g'ri keldi. Benihoya qattiq charchaganidan bir payt asta homuza tortdi.

– Hukmdorlar huzurida esnash mumkin emas, – dedi qirol. – Men senga esnashni man qilaman.

– Men... to'satdan, bilmay qolib...– dedi Kichkina shahzoda qattiq xijolat tortib.– Men uzoq yo'l yurib keldim, uxlaganim yo'q edi...

– Hay, unday bo'lsa, esnashingga ruxsat beraman, – dedi qirol. – Ko'p yillar bo'ldi o'zim ham birorta esnagan odamni ko'rmaganimga. Mana, hozir rosa qiziqib qoldim. Demak, qani, esna! Buyrug'im shunday.

– Ammo... uyalyapman endi... boshqa qilolmayman, – deya g'oldiradi Kichkina shahzoda va qip-qizarib ketdi.

– Himm... himm... Unda, unda... senga buyruq shu: goh esna, goh...

Qirol gapini chalkashtirib, hatto birmuncha ranjigandek ham bo'ldi. Chunki qirol uchun eng muhimi – o'ziga so'zsiz itoat qilinishi edi, u itoatsizlik va shakkoklikka toqat etolmasdi, chunki mutlaq hukmdor edi-da. Biroq u g'oyat oqko'ngil edi va shu vajdan faqat oqilona farmoyishlargina berardi.

«Agar men generalimga, dengizdagi oq chorloqqa aylanasan, deb amr etsam-u general buyrug'imni bajar-masa, – derdi u, – bu uning emas, mening aybim bo'ladi».

– O'tirsam maylimi? – deya bo'shshibgina so'radi Kichkina shahzoda.

– Amr etaman: o'tir! – deb javob berdi qirol va viqor bilan hashamdor jubbasing bir etagini picha yig'ishtirdi.

Lekin Kichkina shahzoda hayron edi: sayyora-ku shunday jimit ekan, qirol kimning ustidan hukmronlik qilarkin?

– A'lo hazratlari, – deb soʻz boshladi u, – bir narsani soʻrasam maylimi?

– Amr etaman: soʻra! – dedi qirol shosha-pisha.

– A'lo hazratlari... siz kimning, nimaning ustidan hukmronlik qilasiz?

– Hammasining, – deb javob berdi qirol oddiygina qilib.

– Hammasining?

Qirol kamtarona bir harakat bilan oʻz sayyorasiga, shuningdek, tevarakdagi boshqa barcha yulduz va sayyoralar-ga ham ishora qildi.

– Siz shularning hammasiga hukmdorlik qilasizmi? – deb qayta soʻradi Kichkina shahzoda.

– Ha, – deb javob qaytardi qirol. Zero u chindan ham qonuniy mutlaq hukmdor boʻlib, hech qanday toʻsiq va cheklanishlarni bilmasdi.

– Yulduzlar ham sizga boʻysunadimi? – deb soʻradi Kichkina shahzoda.

– Boʻlmasam-chi, – dedi qirol. – Yulduzlar bir zumda boʻysunadi. Men itoatsizlikka chidab turolmayman.

Kichkina shahzoda benihoya hayratga tushdi. Eh, qaniydi, uning shunday qudrati boʻlsa edi, quyosh botishini toʻyib-toʻyib tomosha qilardi! Kuniga qirq ikki marta emas, balki yetmish ikki, yuz, hattoki ikki yuz marta gʻurubga termilarkan, kursichasini nari-beri qoʻzgʻatishga ham hojat qolmasdi! Birdaniga u oʻzi tark etgan sayyorasini eslab, gʻussaga choʻmdi, birozdan keyin jurʻat toʻplab:

– Men quyosh botishini tomosha qilmoqchi edim. Bir marhamat qiling, quyosh botsin, deb farmon bering, – dedi.

– Bordi-yu men birorta generalimga kapalak boʻlib guldand-gulga uchib yurishni yoki fojiaviy asar yaratishni, yo boʻlmasa, oq chorloqqa aylanishni buyursam-u general buni bajarmasa, kim aybdor boʻladi – menmi, umi?

– Siz, a'lo hazratlari, – deya bir lahza ham ikkilanmay javob qildi Kichkina shahzoda.

– Mutlaqo to'g'ri, – deb tasdiqladi qirol. – Har kimdan qurbi yetadigan narsani talab qilish kerak. Hokimiyat eng avvalo oqilona bo'lishi lozim. Agar xalqingga, dengizga tashlashni buyursang, u isyon ko'tarib inqilob qilib yuborishi mumkin. Shuning uchun ham men so'zsiz itoatni talab eta olaman, chunki amr-farmonlarimning barchasi oqilonadir.

– Quyosh-chi, quyosh botishi nima bo'ladi endi? – deb so'radi Kichkina shahzoda. U to savoliga javob olmaguncha tinchimas edi.

– Quyosh botadi, shoshmay tur. Men bu haqda tegishli buyruq beraman. Ammo oldin qulay vaziyat yetilishini kutib turaman, zero hukmdorlik hikmati ham ana shunda.

– Xo'sh, qulay vaziyat qachon yetiladi? – deb surishtirdi Kichkina shahzoda.

– Himm... hozir... him... – deya qalin kalendarni titkilay boshladi qirol. – Qulay vaziyat... himm... mana bugun kechqurun soat yettidan qirq minut o'tganda yetiladi. Amr-farmonimning qanchalik so'zsiz bajarilishini ko'rasan ana shunda.

Kichkina shahzoda tag'in esnadi. Afsus, bu yerda g'urubni istagan vaqtingda tomosha qilolmas ekansan!.. Ochig'ini aytganda, u endi zerika boshlagan edi.

– Men boray, – dedi u qirolga. – Boshqa qiladigan ishim ham qolmadi.

– Yo'q, ketma! – dedi qirol. U o'ziga fuqaro topib olganidan nihoyatda xursand edi va undan ayrilishni sira-sira istamasdi. – Qol, men seni vazir etib tayinlayman.

– Qanaqa vazir?

– Himm... bor ana, adliya vaziri bo'laqol.

– Ammo bu yerda sud qiladigan birorta ham odam yo'q-ku?

– Kim biladi deysan,– deb e'tiroz bildirdi qirol.– Axir men hali butun qirolligimni sinchiklab ko'zdan kechirib chiqmaganman-da. Ko'rib turibsan, ancha qarib qolganman, arava qo'yadigan joyim yo'q, yayov yurishga esa chog'im kelmaydi.

Kichkina shahzoda asta egilib, sayyoraning narigi chekkasiga nazar tashladi.

– Men allaqachon sinchiklab qarab chiqdim! – deb xitob qildi u. – Uyoqda ham hech zog' yo'q.

– Unday bo'lsa, o'zingni o'zing sud qilaqol, – dedi qirol. – Bu dunyodagi eng og'ir ish. O'zingni tergash, sud qilib hukm chiqarish o'zgalarni sud qilishdan ko'ra ming karra qiyinroq. Agar o'zingni to'g'ri sud qila bilsang, demak, chindan ham donishmand odam bo'lib chiqasan.

– O'zimni istagan joyda sud qila olaman, – dedi Kichkina shahzoda. – Buning uchun huzuringizda qolishimga aslo hojat yo'q.

– Himm... himm... – dedi qirol chaynalib. – Nazarimda, sayyoramning allaqaysi yerida bir qari kalamush yashasa kerak. Kechalari bir balolarni qitirlatib yurganini eshitaman. Mana shu kalamushni sud qilsang ham bo'la-veradi. Vaqti-vaqti bilan uni o'limga hukm qilib turasan. Uning hayot-mamoti senga bog'liq bo'ladi. Ammo har safar keyin uni afv etish lozim. Bu qari kalamushni asrab-avaylash kerak, axir o'zi bor-yo'g'i bitta-ya...

– Men birovlarini o'limga hukm qilishni yoqtirmayman, – dedi Kichkina shahzoda. – Umuman, mening ketar vaqtim bo'ldi.

– Yo'q, bo'lmadi, – deb e'tiroz bildirdi qirol.

Kichkina shahzoda yo'lga ravona bo'lmoqchi edi-yu, lekin keksa hukmdorni xafa qilishni istamasdi.

– Agar a'lo hazratlari amr-farmonlarining so'zsiz bajarilishini xohlasalar, – dedi u, – u holda, menga hozir oqilona farmoyish berishlari lozim. Masalan, siz menga

bir lahza ham hayallamay yo'lga tushishni buyurish-ingiz mumkin. Sezishimcha, buning uchun nihoyat qulay shart-sharoit muvjud...

Qirol indamadi. Kichkina shahzoda xiyla kutib tur-di-da, asta xo'rsinib, yo'lga tushdi.

– Seni elchi qilib tayinlayman! – deb qichqirdi qirol uning ortidan shosha-pisha. Shu tobda u go'yo umrida gapini birov ikki qilmagandek mamnun va xotirjam ko'rinardi.

«G'alati xalq-da, bu kattalar», deb qo'ydi Kichkina shahzoda o'zicha, yo'lida davom etarkan.

## XI

Ikkinchi sayyorada shuhratparast yashardi.

– O, ana, muxlis ham kelib qoldi! – deb xitob qildi u Kichkina shahzodani uzoqdan ko'rishi bilan.

Axir, izzattalab odamlarga hamma ularning muxlisi bo'lib ko'rinaveradi-da.

– Salom, – dedi Kichkina shahzoda. – Shlapangiz ju-dayam antiqa ekan-a?

– Bu – ta'zim bajo keltirishga, – deb tushuntirdi shuhratparast. – Meni olqishlashgan paytda ta'zim bajo aylashim lozim. Baxtga qarshi, buyoqqa biror kimsa qadam ranjida qilmayapti.

– E, shundaymi? – deb qo'ydi Kichkina shahzoda, u hech narsani tushunmagan edi.

– Bir chapak chalgin, – dedi shuhrat-parast unga.

Kichkina shahzoda kaftlarini bir-biriga urib chapak chaldi. Shuhratparast shlapasini boshidan olib, tavoze bilan ta'zim qildi.

«Qari qirolning yurtidan ko'ra bu yer qiziqroq ekan», deb o'yladi Kichkina shahzoda va tag'in chapak chaldi. Shuhratparast yana shlapasini boshidan olib ta'zim bajo keltirdi.

Besh minutcha shu taxlitdagi qarsak-ta'zimdan so'ng Kichkina shahzoda bundan ham zerikdi.

– Nima qilsa, shlapangiz boshingizdan uchib tushadi?  
– deb so'radi u.

Ammo shuhratparast bu gapni eshitmadi. Izzattalab odamlar maqtovdan boshqa hech narsani eshitishmaydi-da.

– Sen rostdan ham mening chin muxlisim bo'lasanmi?  
– deb so'radi u Kichkina shahzodadan.

– Muxlis bo'lish degani nima?

Muxlis bo'lish degani – bu sayyorada mening eng go'zal, eng bashang, hammadan boy va hammadan ham aqlli ekanimni tan olish demakdir.

– Lekin sayyorangda o'zingdan boshqa zog'ham yo'q-ku!

– Bari bir. Kel, menga bir yaxshilik qil, yayrab qolay: meni bir maqtagin!

– Maqtashga-ku, maqtayman-a, – dedi Kichkina shahzoda xiyol yelka qisib, – ammo bundan senga nima naf?

Shunday deb shuhratparastni ham asta tark etdi.

«Haqiqatan ham, kattalar juda g'alati xalq-da», deb o'yladi yo'lga tusharkan, soddalik bilan.

## XII

Keyingi sayyorada piyonista yashardi. Kichkina shahzoda u yerda ko'p bo'lmadi, biroq shu qisqa vaqt ichidayoq yuragi g'ash tortib chiqdi.

U sayyoriga qadam qo'yganida, piyonista oldidagi bo'sh va to'la shishalar safiga jimgina tikilib o'tirardi.

– Nima qilyapsan? – deb so'radi Kichkina shahzoda.

– Ichyapman, – dedi piyonista xo'mrayib.

– Nega?

– Unutmoqchiman.



– Nimani? – deb so‘radi Kichkina shahzoda piyonis-  
taga rahmi kelib.

– Shu ishimning uyatligini, – dedi piyonista tan olib  
va boshini quyi soldi.

– Qaysi ishing? – deb so‘radi Kichkina shahzoda, boya-  
qishga yordam berishni jon-dilidan istab.

– Ichishim uyat! – dedi piyonista va qaytib og‘iz ochmadi.  
Anchadan so‘ng Kichkina shahzoda lol-u hayron bo‘lib, tag‘in  
yo‘lga tushdi.

«Ha, shubhasiz, kattalar juda-juda g‘alati xalq», deb  
xayolidan kechirdi yo‘lida davom etarkan.

### XIII

To‘rtinchi sayyora korchalon odamga qarashli edi. U  
shu qadar band ediki, Kichkina shahzoda huzuriga kirib  
kelganida hatto bosh ko‘tarib ham qaramadi.

– Salom, – dedi Kichkina shahzoda. – Papirosingiz  
o‘chib qolibdi.

– Ikkiga uch – besh. Beshga yetti – o‘n ikki. O‘n ikkiga  
uch – o‘n besh. Salom. O‘n beshga yetti – yigirma ikki.  
Yigirma ikkiga olti – yigirma sakkiz. Gugurt chaqishgayam  
vaqt yo‘q. Yigirma oltiga besh – o‘ttiz bir. Uf! Jami, de-  
makkim, besh yuz bir million-u olti yuz yigirma ikki ming  
yetti yuz o‘ttiz bitta.

– Nima u – besh yuz bir million?..

– A? E, haliyam shu yerda turibsanmi? – Nimaligini  
bilmay ham qoldim... Ishim shu qadar ko‘pki! Men jiddiy  
odamman, valaqlab o‘tirishga vaqtim yo‘q! Ikkiga besh  
– yetti...

– Nima u – besh yuz million?.. – deb takrorladi Kich-  
kina shahzoda. U biror narsa haqida so‘rarkan, to javob  
olmaganicha tinchimasdi.

Korchalon odam boshini ko‘tardi.

– Ellik to‘rt yildan buyon shu sayyorada yashayman. Shuncha vaqt mobaynida menga bor-yo‘g‘i uch marta xalaqit berishdi. Birinchi gal, yigirma ikki yil muqaddam qayoqdandir bir tillaqo‘ng‘iz uchib kelib qolganida shunday bo‘lgan edi. U shunaqangi shovqin solib vizilladiki, men beixtiyor qo‘shuvda to‘rtta xato qilib qo‘ydim. Ikkinchi gal esa o‘n bir yil burun birdaniga meni bod tutib qoldi. Hadeb qadalib o‘tiravergandan keyin... Meni sayr-tomoshga qilib yurishga fursatim yo‘q. Men jiddiy odamman. Uchinchi gal... mana endi! Demak, jami bo‘lishi kerak edi besh yuz million-u...

– Besh yuz million nima, axir?

Korchalon odam javob bermasa qutulmasligini payqadi.

– Besh yuz million bu, haligi... bor-ku har zamonda osmonda ko‘rinib qoladigan?

– Nima ekan u, pashshami?

– E, yo‘g‘-e, bor-ku kichkina, yaltiroq...

– Arimi?

– Yo‘g‘-e! Mitti-mitti, tilladek charaqlaydi, istagan tentak unga boqishi bilan xayoli qochib ketadi. Men jiddiy odamman. Xayol surishga aslo vaqtim yo‘q.

– Ha, yulduzlarmi?

– E, topding, yulduz.

– Besh yuz million yulduz, degin? Nima qilasan ularni?

– Besh yuz millionu olti yuz yigirma ikki ming yetti yuz o‘ttiz bitta. Men jiddiy odamman, aniqlikni yoqtiraman.

– Xo‘sh, shuncha yulduzni nima qilasan?

– Nima qilasan, deysanmi?

– Ha.

– Hech narsa qilmayman. Men ularga egalik qilaman, xolos.

– Yulduzlarga egalik qilasanmi?

– Ha.

– Lekin men yo‘lda bir qirolni ko‘rdim, u...

– Qirollar hech kimga egalik qilolmaydi. Ular faqat hukmronlik qiladi. Bu butunlay boshqa narsa.

– Yulduzlarga egalik qilishning senga nima keragi bor?

– Boy bo‘lish uchun-da, nimaga bo‘lardi.

– Boy bo‘lishning nima keragi bor?

– Boy bo‘lish, kimdir yangi yulduzlarni kashf etsa, ularga ham egalik qilish uchun kerak.

«Buyam xuddi boyagi piyonistaga o‘xshab fikrlayabdi», deya ko‘nglidan o‘tkazdi Kichkina shahzoda va yana so‘roqni davom ettirdi:

– Yulduzlarga qanday egalik qilish mumkin?

– Yulduzlar kimniki? – deb so‘radi korchalon ensasi qotib.

– Bilmadim. Hech kimniki.

– Demak, meniki bo‘ladi. Chunki men buni birinchi bo‘lib o‘ylab topdim.

– Shuning o‘zi basmi?

– Albatta-da. Aytaylik, ko‘zadan olmos topib olsang-u egasi bo‘lmasa, u seniki bo‘ladi. Agar miyanga to‘satdan biron-bir fikr kelib qolsa, darrov unga patent olasan: u endi butkul seniki. Men yulduzlarga shuning uchun ham egalik qilamanki, mengacha hech kim ularga egalik qilishni xayoliga ham keltirmagan edi.

– To‘g‘ri, – dedi Kichkina shahzoda. – Har qalay, aytchi, sen ularni nima qilasan?

– Ular ustidan hukmimni yurgizaman, – dedi korchalon. – Tinimsiz sanab turaman. Bu judayam qiyin ish. Ammo men jiddiy odamman.

Biroq Kichkina shahzodaga bu izoh kifoya qilmadi.

– Deylik, mening shohi ro‘molcham bo‘lsa, uni bo‘ynimga o‘rab o‘zim bilan olib ketishim mumkin, – dedi u. – Mabodo, mening bir gulim bo‘lsa, uzib olib ketishim

mumkin. Lekin sen yulduzlarni o'zing bilan birga olib ketolmaysan-ku!

– To'g'ri, ammo men ularni bankka qo'yishim mumkin.

– Qanday qilib?

– Mana bunday qilib: qog'ozga qancha yulduzim borligini yozib chiqaman-da, keyin shu qog'ozni tortmaga solib qulflab qo'yaman.

– Bo'ldimi shu bilan?

– Shuning o'zi kifoya.

«Qizig'-a! – deb o'yladi Kichkina shahzoda. – Hatto shoirona ham. Ammo unchalik jiddiy ish emas».

Nima jiddiy, nima nojiddiy – buni Kichkina shahzoda kattalar singari emas, o'zicha tushunardi.

– Mening feruza gulim bor, uni har kuni ertalab sug'oraman, – dedi u. – Uchta vulqonim bor, har haftada ularni tozalab turaman. Bittasi so'ngan, uni ham tozalayman, har ehtimolga qarshi. Gulimga ham, vulqonlarimga ham mening ularga egalik qilishimdan naf bor. Yulduzlarga esa sening egaligingdan zig'irdek ham naf yo'q...

Korchalon nimadir demoqchi bo'lib og'iz juftladi-yu, biroq javob topolmadi. Kichkina shahzoda yo'lga jo'nadi.

«Yo'q, kattalar chindan ham nihoyatda antiqa xalq», deya soddalik bilan ko'nglidan kechirdi u yo'lida davom etarkan.

#### XIV

Beshinchi sayyora judayam g'aroyib edi. U boshqa sayyoralarning hammasidan kichkina bo'lib, sathiga bor-yo'g'i bitta fonus chiroq bilan charog'bon joylashgan edi. Kichkina shahzoda, bepoyon koinot qa'rida garddek bo'lib ketgan, na birorta uy, na birorta tirik jon bo'lgan bu mitti sayyorada chiroq bilan charog'bonning nima keragi borligiga mutlaqo tushuna olmadi.

«Ehtimol, bu odam ham tentakdir. Ammo u qirol, shuhratparast, piyonista va korchalon singari tentak emas. Uning ishida, har qalay, ma'no bor. U fonusini yoqqan paytda go'yo yana bir yulduz chaqnagandek yoki yana bir gul ochilgandek bo'ladi. Chirog'ini o'chirgan paytda esa, go'yo yulduz so'ngandek yoki gul so'lgandek bo'ladi. Judayam ajoyib mashg'ulot ekan. Bu chinakamiga foydali bo'lsa kerak, chunki go'zal ish».

Sayyoraning ro'parasiga yetib kelgach, u ehtirom bilan charog'bonga ta'zim qildi.

– Salom, – dedi u. – Nega hozir chirog'ingni o'chirding?

– Shart shunday, – deb javob berdi charog'bon. – Salom.

– Qanaqa shart?

– Chiroqni kechqurun o'chirishim kerak. Oqshoming xayrli bo'lsin!

U shunday deb chiroqni yana yoqdi.

– Unday bo'lsa, nega tag'in yoqding?

– Shart shunday, – deb takrorladi charog'bon horg'in.

– Tushunmadim, – dedi Kichkina shahzoda tan olib.

– Tushunadigan narsaning o'zi yo'q, – dedi charog'bon.

– Shart bo'lgandan keyin bajarish kerak. Salom!

Shunday deb chiroqni o'chirdi-da, qizil katakli ro'molcha bilan peshonasini artib:

– Kasbim juda og'ir, – dedi. – Bir paytlar buning ma'nosi bor edi. Chiroqni kechqurun yoqardim, ertalab o'chirardim. Ixtiyorimda dam olishga bir kun, uxlashga bir kecha qolardi...

– Xo'sh, keyin shart o'zgarib qoldimi?

– Shart o'zgarmadi, – dedi charog'bon. – Hamma balo shunda-da! Mening sayyoram kundan-kunga tezroq aylanmoqda, shart esa hamon o'sha eskiligicha qolyapti.

– Endi nima qilasan? – deb so'radi Kichkina shahzoda.

– Nimayam qilardim? Sayyora bir daqiqa ichida to‘la aylanib chiqadi, nafas rostdashga bir soniya ham fursatim qolmaydi. Chiroqni har daqiqada yoqib-o‘chirishga majburman.

– Ana xolos! Rosa qiziq-ku! Demak, sening sayyorang-da kunning uzunligi bor-yo‘g‘i bir daqiqa ekan-da!

– Nimasi qiziq ekan buning, – dedi charog‘bon e‘tiroz bildirib. – Mana, hozir ikkalamiz bir oydan buyon gaplashib turibmiz.

– Bir oydan buyon?!

– Ha-da. O‘ttiz daqiqa. O‘ttiz kun. Oqshoming xayrli bo‘lsin! U shunday deb yana chiroqni yoqdi.

Kichkina shahzoda charog‘bonga tikilib qoldi. Ahdiga sodiq bu odam unga hammadan ko‘ra ko‘proq yoqqan edi. Bir paytlar o‘zining quyosh botishini yana bir marta tomosha qilish uchun kursichani nari-beri surib yurganlari yodiga tushib ketdi-yu bu yangi do‘stiga yordam bergisi keldi.

– Menga qara, – dedi u charog‘bonga, – bir yo‘li bor: sen xohlagan paytingda dam olishing mumkin, faqat...

– Mening doim dam olgim keladi, – dedi charog‘bon. Ahdga sodiq qolib ham dangasa bo‘lish mumkin-da, axir!

– Sening sayyorang shunchalik kichkinaki, – deb davom etdi Kichkina shahzoda, – uch hatlab uni aylanib chiqishing mumkin. Bilasanmi, shunday tezlik bilan yurishing kerakki, quyosh hamisha sen tarafda bo‘lishi lozim. Qachon dam olging kelsa, ketaverasan, ketaverasan... Shunda kunning uzunligi sen xohlaganicha davom etadi.

– E, buning foydasi kam, – dedi charog‘bon. – Men dunyoda hamma narsadan ham uyquni yaxshi ko‘raman.

– Unda, ahvoling chatoq, – dedi Kichkina shahzoda achinib.

– Ahvolim chatoq, – deb tasdiqladi charog‘bon. – Salom. Shunday deb tag‘in chiroqni o‘chirdi.

«Ana odam! – dedi Kichkina shahzoda o‘zicha, yo‘lida davom etarkan. – Hoynahoy qirol ham, shuhratparast-u piyonista ham, korchalon ham undan nafratlangan bo‘lurdi. Ammo, menimcha, ularning orasida eng rasosi shu. Ehtimol, faqat o‘zi haqidagina o‘ylamasligi uchun ham u shunaqadir».

Kichkina shahzoda asta xo‘rsindi.

«Mana men do‘st tutinishim mumkin bo‘lgan odam, – deb o‘yladi yana. – Lekin uning sayyorasi shu qadar kichkinaki, ikki kishi sig‘maydi...»

Bu ajoyib sayyoriga boshqa bir sabab tufayli ham achi-nayotganini tan olmoqqa u botinolmadi: bu yerda yigirma to‘rt soat mobaynida quyosh botishini bir ming to‘rt yuz qirq marta tomosha qilish mumkin edi-da!

## XV

Oltinchi sayyora avvalgisidan o‘n barobar katta edi. Unda yostiqdek-yostiqdek kitoblar yozadigan chol yashardi.

– Ana buni qarang-a! Sayyoh keldi! – deb xitob qildi u Kichkina shahzodani ko‘rib.

Kichkina shahzoda nafas rostdash uchun stol yoniga o‘tirdi. Benihoya ko‘p yo‘l yurib obdan charchagan edi u!

– Qayerdansen? – deb so‘radi chol.

– Bu katta kitobingiz nimasi? – deb so‘radi Kichkina shahzoda. – Bu yerda nima qilib o‘tiribsiz?

– Men geografman, – dedi chol.

– Geograf degani nima?

– Bu degani – daryo-yu dengizlarning, shahar va tog‘larning, cho‘l-u biyobonlarning qayerda joylashganini biladigan odam.

– E, zo‘r ekan! – dedi Kichkina shahzoda. – Chindan ham, mana buni haqiqiy ish desa arziydi!

U shunday deb geografning sayyorasiga nazar tashladi. U umrida hech qachon bunday katta sayyorani koʻrmagan edi.

– Sayyorangiz judayam chiroyli ekan, – dedi u. – Ayt-ing-chi, okeanlar bormi bu yerda?

– Bunisini bilmadim, – dedi geograf.

– E-e, – dedi Kichkina shahzoda hafsalasi pir boʻlib. – Togʻ bormi, togʻ?

– Bilmayman, – dedi geograf.

– Shaharlar, daryolar, sahrolar-chi?

– Buniyam bilmayman.

– Axir siz geografsiz-ku!

– Boʻlmasa-chi! – dedi chol viqor bilan. – Gap shunda-da: men sayyoh emas, geografman. Menga sayyohlar juda-juda yetishmaydi. Chunki shaharlar, daryo-yu togʻlar, dengiz-u okeanlarni, choʻl-u biyo-bonlarni geograflar hisoblab qayd etmaydi. Geograf – bu katta odam, uning sangʻib yurishga vaqti yoʻq. U oʻz kabinetidan chiqmaydi, ammo sayyohatchilarni qabul qilib, ularning hikoyalarini yozib oladi. Agar ularning birortasi qiziqroq voqeani aytib bersa, geograf hujjat toʻplab, shu sayyohning bamaʼni odammi yoki betayin-ligini tekshiradi.

– Nima uchun?

– Chunki sayyoh aldab uydirmalarni soʻzlagan boʻlsa, geografiya darsliklari chalkashib ketadi-da. Agar u koʻproq ichadigan boʻlsa, tagʻin tashvish ortdi, deyaver.

– Nega?

– Negaki, piyonistalarning koʻziga hamma narsa ikkita boʻlib koʻrinadi. Uning gapiga ishonib, geograf bitta togʻni ikkita deb yozib qoʻyishi mumkin.

– Men bir odamni bilardim... Undan yomon sayyoh chiqardi, – deb qoʻydi Kichkina shahzoda.



– Bo‘lsa bordir. Xo‘sh, shunday qilib, agar sayyoh bama‘ni odam bo‘lib chiqsa, keyin uning kashfiyoti tekshiriladi.

– Qanday tekshiriladi? Borib ko‘rib kelinadimi?

– E, yo‘q. Bu judayam murakkab ish. Shunchaki, sayyohdan kashfiyotini tasdiqlaydigan ashyoviy dalil talab etiladi, xolos. Masalan, agar u ulkan bir tog‘ni kashf etgan bo‘lsa, undan katta-katta xarsangtoshlarni olib kelib ko‘rsatishi kerak. – Geograf birdaniga hayajonga tushdi. – E, aytmoqchi, o‘zing ham sayyohsan-ku! Hoyna-hoy, g‘oyat uzoqdan kelgandirsan. Menga o‘z sayyorang haqida gapirib ber!

Geograf oldidagi qalin daftarini ochdi-da, qalam yo‘na boshladi. Sayyohlarning hikoyalari avval qalamda yozib olinadi, kashfiyotni tasdiqlaydigan ashyoviy dalil keltirgachgina, ularning xotiralarini siyoh bilan yozish mumkin.

– Qulog‘im senda, – dedi geograf.

– He, mening sayyoramda unchalik qiziq narsa yo‘q, – dedi Kichkina shahzoda. – U yerda hamma narsa nihoyatda kichkina. Uchta vulqon bor, ikkitasi uyg‘oq, bittasi allaqachon so‘ngan. Lekin bilib bo‘lmaydi-da.

– Ha, bilib bo‘lmaydi, – deb ma‘qulladi geograf.

– Keyin, mening bir gulim bor.

– Gullarni hisobga olmaymiz, – dedi geograf.

– Nimaga?! Axir, u judayam chiroyli-ku!

– Chunki, gullar efemer sanaladi.

– «Efemer»ingiz nimasi?

– Gegrofiya kitoblari – dunyodagi eng qimmatbaho kitoblardir? – deb tushuntirdi chol. – Ular hech qachon eskirmaydi. Zero, tog‘ning o‘z o‘rnidan qo‘zg‘alishi kamdan-kam uchraydigan hodisa. Yoki okeanning qurib qolishi... Biz faqat mangu va turg‘un narsalar xususidagina yozamiz.

– Biroq, so‘ngan vulqon qaytib uyg‘onishi mumkin-ku,  
– deb uning gapini bo‘ldi Kichkina shahzoda. – «Efemer»  
degani nima o‘zi?

– Vulqon uyg‘oqmi, so‘nganmi, buni biz, geograflar  
uchun ahamiyati yo‘q, – dedi geograf. – Muhimi shundaki,  
u tog‘. Tog‘ esa o‘zgarmaydi.

– «Efemer» degani nima? – deb tag‘in takrorladi Kich-  
kina shahzoda.

– Bu – hademay yo‘q bo‘ladigan narsa, degani.

– Mening gulim ham hademay yo‘q bo‘ladimi?

– Albatta.

«Mening feruza gulim, mening yagona quvonchim  
mangu emas ekan, – deb anduh bilan shivirladi Kichkina  
shahzoda. – U balo-qazolardan, ofat-u to‘fonlardan o‘zini  
qanday asraydi? Bor-yo‘g‘i to‘rttagina tikani bo‘lsa. Men  
uni tashlab ketdim, huvillagan sayyoramda yolg‘iz o‘zi  
qolgan edi-ya!»

Shundagina u tark etilgan guliga behad achinib ket-  
di, dilini g‘ussa chulg‘adi. Ammo shu ondayoq jur‘atini  
to‘plab:

– Endi men qayoqqa borsam ekan, nima maslahat be-  
rasiz? – deb so‘radi.

– Yer degan bir sayyora bor, shunga borib ko‘r, – deb  
javob berdi geograf. – Uning nufuzi chakki emas...

Kichkina shahzoda yo‘lga tushdi, ammo fikri-yodi  
sayyorasida qolgan yolg‘izgina gulda edi.

## XVI

Shunday qilib, u qadam ranjida qilgan yettinchi sayyora  
Yer edi.

Yer – oddiy sayyoralardan emas! Bunda bir yuz yigir-  
mata qirol (negr qirollari ham shunga kiradi, albatta), yet-  
ti ming geograf, to‘qqiz yuz ming korchalon, yetti yarim

million piyonista, uch yuz o'n bir million shuhratparast, xullas, jami ikki milliardga yaqin katta odam mavjud.

Yerning naqadar kattaligi haqida sizga birmuncha tasavvur bermoq uchun shuni aytish bilangina kifoyalanaman: elektr kashf etilguniga qadar olti qit'ada charog'bonlarning to'rt yuz oltmish ikki ming besh yuz o'n bir kishidan iborat ulkan lashkari tutib turilardi.

Agar chetdan razm solinsa, bu qoyilmaqom bir tomosha bo'lardi. Bu ulkan lashkarning xatti-harakatlari go'yo baletdagidek aniq bir qoidaga bo'ysunardi. «Sahna»ga birinchi bo'lib Yangi Zelandiya va Avstraliyadagi charog'bonlar chiqishardi. Ular chiroqlarini yoqib, uxlagani ketishardi. Keyin Xitoy charog'bonlarining navbati kelardi. O'z «raqsi»ni ado etib, ular ham parda ortiga g'oyib bo'lishardi. Ulardan so'ng Rossiya va Hindiston charog'bonlariga gal tegardi. Keyin esa – Afrika va Yevropa, undan so'ng Janubiy Amerika va nihoyat, Shimoliy Amerikadagi charog'bonlarning navbati yetardi. Shu tariqa hech kim hech qachon adashib ketmas, hamma «sahna»ga o'z vaqtida chiqardi. Ha, bu chindan ham qoyilmaqom tomosha edi!

Faqat, shimoliy qutbdagi yagona fonusni yoqishi lozim bo'lgan charog'bon bilan uning Janubiy qutbdagi hamkasbiga hammadan ham maza edi, ikkalasi ham ortiqcha tashvish-taraddudsiz yashardi: ular o'z hunarini yilda ikki martagina ko'rsatardi, xolos.

## XVII

Ba'zan haddan tashqari suxandonlik qilging kelib qolganda ozmi-ko'pmi mubolag'a qilasan kishi. Mana, men ham charog'bonlar haqida so'zlayturib, haqiqatga birmuncha xilof ish tutdim. Ishqilib, sayyoramizni yaxshi bilmaydiganlarda u haqda noto'g'ri tushuncha paydo bo'lmasa

bas! Aslida odamlar Yer yuzida unchalik ko'p joyni egal-lamaydi. Agar unda istiqomat qiladigan ikki milliard odam to'planib, xuddi mitingdagidek yelkama-yelka tursa, ular ortiqcha qiynalib-netmay, uzunasiga kengligi yigirma mil keladigan maydonga bermalol joylashgan bo'lur edi. Butun insoniyatni Tinch okeandagi tangadekkina orolchaga ham sig'dirib yuborish mumkin.

Kattalar, albatta, bu gapingizga ishonmaydilar. Ular o'zlarini juda ko'p joyni egallaydigan chog'laydilar, o'zlarini xuddi baobablardek bahaybat va ulug'vor hisoblaydilar. Siz shunda ularga aniq hisob-kitob qilib chiqishni taklif eting. Bu gap ularga ma'qul bo'ladi, axir ular raqam desa o'lib qolishadi-ku. Siz esa bu bo'lmag'ur arifmetika bilan boshingizni qotirib yotmang. Uning sariq chaqalik ham foydasi yo'q. Bilaman, siz shundoq ham menga ishonasiz.

Alqissa, Kichkina shahzoda Yerga tushgach, atrof-javonibda biror tirik jonni ko'rmay, behad hayron bo'ldi. Hatto, adashib boshqa sayyoraga kelib qoldim-mikin, degan xayolga ham bordi. Biroq shu payt oyog'i ostida, qum uzra kulcha bo'lib yotgan allaqanday kulrang narsa qo'zg'alib qo'ydi.

– Salom, – dedi Kichkina shahzoda har ehtimolga qarshi.

– Salom, – deb javob berdi ilon.

– Men qanday sayyoraga kelib qoldim?

– Yerga, – dedi ilon. – Afrikada turibsan hozir.

– Shunaqami? Nima, Yerda odam yashamaydimi?

– Bu joy – sahro. Sahroda hech kim yashamaydi. Ammo Yer katta.

Kichkina shahzoda tosh ustiga o'tirib, osmonga tikildi.

– Qani endi, yulduzlarning nega charaqlashini bilsam, – dedi u o'ychan ohangda. – Chamasi, ular, ertami-kechmi har kim o'z yulduzini topib olishi uchun charaqlab tursa

kerak. Ko'ryapsanmi, huv ana mening sayyoram – shundoqqina tepamizda... Ammo u qanchalar uzoqda, eh-he!

– Chiroyli sayyora ekan, – dedi ilon. – Yerga nega kelding, nima qilasan bu yerda?

– Men feruza gulim bilan urishib qoldim, – deya iqrор bo'ldi Kichkina shahzoda.

– E, shunday degin...

Ikkovi ham jimib qoldi.

– Odamlar qayoqda, odamlar? – deb tag'in so'radi nihoyat Kichkina shahzoda. – Sahroda, har qalay, o'zingni yolg'iz sezarkansan kishi...

– Odamlar orasida ham o'zingni yolg'iz sezaverasan, – deb qo'ydi ilon.

Kichkina shahzoda unga sinchiklab tikildi.

– G'alati jonivor ekansan, – dedi u. – Yo'g'onliging barmoqdek kelmaydi-yu...

– Ammo men qirolning barmog'idan ko'ra ko'proq qudratga egaman, – deb e'tiroz bildirdi ilon.

Kichkina shahzoda kulimsiradi:

– Nahotki sen shu qadar qudratli bo'lsang? Loaqal panjang ham yo'q-ku. Sen hatto sayohat qilishga ham yaramaysan...

– Men seni birorta kema yetolmaydigan olis manzillarga olib ketishim mumkin, – dedi ilon, so'ng Kichkina shahzodaning boldiriga halqa bo'lib chirmashdi. – Kinga-ki tegsam, uni asliga – tuproqqa aylantiraman, – dedi u. – Ammo sen yulduzdan tushib kelgansan, yulduzdek poksan...

Kichkina shahzoda indamay turaverdi.

– Senga rahmim keladi, – deya davom etdi ilon. – Tosh-metin bu zaminda sen shu qadar zaif, ojizsanki... Yodingda bo'lsin, qachonki olisda qolgan say yorangni eslab yuraging g'ussaga to'lsa, men senga yordam qilishim mumkin. Men...

– Gapingni juda yaxshi tushundim, – dedi Kichkina shahzoda. – Ammo nega doim jumboq bilan soʻzlaysan?  
– Men hamma jumboqlarni hal etaman, – dedi ilon.  
Ikkalasi tagʻin jimib qoldi.

## XVIII

Kichkina shahzoda sahroni kesib oʻtdi-yu, hech kimni uchratmadi. Yoʻlda faqat nimjongina, rangpar bir gulga duch keldi.

– Salom, – dedi Kichkina shahzoda.

– Salom, – deb javob qaytardi gul.

– Odamlar qayoqda? – deb muloyim ohangda soʻradi Kichkina shahzoda.

Kunlarning birida yonginasidan oʻtib ketayotgan karvonga gulning koʻzi tushgan edi.

– Odamlar deysanmi? Ha-a... Ular, chamasi, beshtami-oltita edi. Men ularni koʻp yil burun koʻrgan edim, Ammo ularni qayerdan izlash kerakligini bilmayman. Shamoldek uchib yurishadi, ildizi yoʻq ularning, shuning uchun ham topish qiyin.

– Xayr, yaxshi qol, – dedi Kichkina shahzoda.

– Xayr, – dedi gul.

## XIX

Kichkina shahzoda baland toqqa chiqib borardi. Shu paytgacha u oʻzining tizzasidan keladigan uchta vulqonidan boshqa birorta togʻni koʻrmagan edi. Soʻngan vulqon unga kursi boʻlib xizmat qilardi. Shu sababli, u hozir bu yuksak togʻdan turib sayyorani boshdan-oyoq koʻzdan kechirsa boʻlar, undagi jamiki odamlarni ham koʻrsam kerak, degan fikrga keldi. Biroq togʻ tepasiga chiqib borgach, ignadek oʻtkir va ingichka choʻqqilargagina koʻzi tushdi, xolos.

– Salom, – dedi u har ehtimolga qarshi.  
– Salom,.. salom... lom... – deya aks-sado yangradi.  
– Siz kimsiz? – deb so‘radi Kichkina shahzoda.  
– Siz kimsiz? kimsiz... kimsiz... – deya aks-sado yangradi yana.

– Kelinglar, do‘st bo‘laylik, men yakka-yu yolg‘izman, – dedi u.

– Yakka-yu yolg‘iz... yolg‘iz..., – deya aks-sado yangradi. «Shunchalik ham g‘alati sayyora bo‘ladimi! – deb o‘yladi Kichkina shahzoda. – Yap-yalang‘och, tap-taqir, hamma tomoni igna. Odamlarida quvvai hofiza ham yetishmas ekan. Aytgan gapingni takrorlashdan boshqa narsani bilmaydi... Uyimda feruza gulim bor edi, u mening ko‘rar ko‘zim, quvonchim edi, u hamisha birinchi bo‘lib so‘ylardi».

## XX

Kichkina shahzoda qum barxanlari aro, qoya va muzliklar aro uzoq kezib yurdi va nihoyat, yo‘lga tushib oldi. Har qanday yo‘l esa odamzod huzuriga eltadi.

– Salom, – dedi u.

Uning qarshisida gul-chechaklarga to‘la bir chamanzor yastanib yotardi.

– Salom, – deb javob qaytarishdi gullar.

Shunda Kichkina shahzoda bu gullarning barchasi uning feruza guliga o‘xshash ekanini payqadi.

– To‘xtang, sizlar kimsiz? – deb so‘radi u lol bo‘lib.

– Bizlar – gulmiz, – deb javob berishdi gullar.

– Shunaqami... – dedi Kichkina shahzoda bo‘shashib.

So‘ng daf‘atan o‘zini benihoya baxtsiz sezdi. Feruza gul unga, butun olamda men kabi zebo sanam yo‘q, deb aytgan edi. Mana, hozir poyidagi bu chamanzorda erka guli yanglig‘ gullarning besh mingtasi yal-yal tovlanib turibdi!

«Agar buni ko'rsa, u qanchalar xafa bo'lardi-ya! – deb o'yladi Kichkina shahzoda. – Chamasi, kulgili ko'rinmaslik uchun u zo'r berib yo'tala boshlagan, o'zini hatto jon taslim qilayotgandek ko'rsatgan bo'lur edi. Men esa uning ortidan xuddi bemorning ortidan yurgandek ergashib, taskin-tasalli berishga majbur bo'lardim, aks holda, meni tashvish-u uyatga qo'yish uchun ham u jon taslim qilardi...»

Keyin xayoliga yana shunday fikr keldi: «Men, o'zimcha dunyoda tanho gulga egaman, deb yurardim, hech qayda uning tengi-yu o'xshashi yo'q, deb o'ylardim, vaholan-ki, u oddiygina bir gul ekan. Mening bor bud-shudim o'sha oddiygina gul-u bo'yi tizzamdan keladigan uchta vulqondan iborat edi, uning ham bittasi so'ngan, kim bilsin, balki abadiy uyg'onmas... endi mening podsholigim qoldimi...»

U maysa uzra yuztuban tushgancha, yig'lab yubordi.

## XXI

Xuddi shu payt ro'parasida Tulki paydo bo'ldi.

– Salom, – dedi u.

– Salom, – deya alik oldi Kichkina shahzoda xushfe'llik bilan, biroq tevarak-atrofiga alanglab, hech kimni ko'rmadi.

– Men bu yerdaman, – degan ovoz eshitildi yana. – Daraxtning tagidaman...

– Sen kimsan? – deb so'radi Kichkina shahzoda. – Bunchayam chiroylisan!

– Men – Tulkiman, – dedi Tulki.

– Men bilan o'ynagin, – deb o'tindi Kichkina shahzoda. – Bilsang, hozir shu qadar xafamanki...

– Sen bilan o'ynayolmayman, – dedi Tulki. – Men qo'lga o'rgatilmaganman.



– E, kechirasan, bo‘lmasa, – dedi Kichkina shahzoda, ammo biroz o‘ylanib: – «Qo‘lga o‘rgatilmagan» degani nima? – deb so‘radi.

– Bu yerlik emas ekansan-da, – dedi Tulki. – Nima izlab yuribsan bu joylarda?

– Odamlarni izlayapman, – dedi Kichkina shahzoda.

– «Qo‘lga o‘rgatish» degani nima?

– Odamlarni izlayapman degin? Ularning yonida quroli bo‘ladi, shuni taqib ovga chiqishadi. Juda chatoqda, shuni. Ular tovuq ham boqishadi. Yagona ma‘qul ishi shu ularning. Sen tovuq izlamayapsanmi?

– Yo‘q, – dedi Kichkina shahzoda. – Men do‘st izlab yuribman. Xo‘sh, «qo‘lga o‘rgatish» degani nima? ·

– Bu allaqachonlar unut bo‘lib ketgan tushuncha, – deb tushuntirdi Tulki. – Bu degani – rishta bog‘lamoq demakdir.

– Rishta bog‘lamoq?

– Xuddi shunday, – dedi Tulki. – Hozir sen men uchun dunyodagi o‘zingga o‘xshagan yuz ming bolaning birisan, xolos. Hozircha sen menga kerak emassan, men ham senga kerak emasman. Men ham senga hozir dunyodagi yuz minglab tulkining biriman, xolos. Ammo bordi-yu sen meni qo‘lga o‘rgatsang, ikkimiz bir-birimizga kerak bo‘lib qolamiz. Sen men uchun dunyodagi yagona odamga aylanasan. Men ham sen uchun dunyoda yagona aylanaman...

– Tushungandek bo‘lyapman, – dedi Kichkina shahzoda. – Bir gul bor edi... chamasi, u meni qo‘lga o‘rgatgan ekan...

– Bo‘lishi mumkin, – deb tasdiqladi Tulki. – Yer yuzida nimalar bo‘lmaydi, deysan.

– Bu voqea Yerda bo‘lmagan, – dedi Kichkina shahzoda. Tulki hayron qoldi:

– Qayerda bo‘lgan? Boshqa sayyoradami?

– Ha.

– O‘sha sayyorada ham ovchilar bormi?

– Yo‘q.

– E, soz ekan-ku! Tovuq bormi?

– Yo‘q.

– Bir kam dunyo degani shu ekan-da! – deb xo‘rsindi Tulki. Ammo zum o‘tmay, tag‘in so‘z boshladi: – Hayotim judayam zerikarli. Men tovuqni poylayman, odamlar esa meni poylaydi. Tovuqniyam hammasi bir xil, odamniyam. Shuning uchun hayotim mudom zerikish bilan o‘tadi. Agar sen meni qo‘lga o‘rgatsang, qorong‘i turmushimga nur kirardi. Shunda sening oyoq tovushlaringni men minglab odam ichidan ajrata oladigan bo‘laman. Hozir odam sharpasini sezsam, bas, darhol bekinish payiga tushaman. Ammo meni qo‘lga o‘rgatsang bormi, qadam olishing xuddi ohanrabo musiqa yanglig‘ meni o‘ziga chorlaydi-yu yashirib yotgan joyimdan istiqbolingga yugurib chiqaman. Undan keyin, huv anavi bug‘doyzorni ko‘ryapsanmi? Qara, bug‘doy g‘arq pishib yotibdi. Men don-dun yemayman, g‘alla bilan ishim yo‘q. Bug‘doyzor dalalarning men uchun hech qanday ma‘nosi yo‘q. Buning qanchalar qayg‘uli ekanini bilsang edi! Sening sochlaring ajoyib, tillarang tovlanadi. Agar meni qo‘lga o‘rgatsang, shunday soz bo‘ladiki! Oltin tusli bug‘doyzor endi menga seni eslata boshlaydi. Va shunda men boshhoqlarning shamolda chayqalishini yaxshi ko‘rib qolaman...

Tulki jimib qoldi, Kichkina shahzodaga uzoq termildi, nihoyat:

– Iltimos... meni qo‘lga o‘rgatgin, – dedi.

– Jonim bilan o‘rgatardim-u, – dedi Kichkina shahzoda, – lekin vaqtim ziqroq-da. Men hali do‘stlar orttirishim, juda ko‘p narsalarni bilib olishim kerak.

– Faqat qo‘lga o‘rgatilgan narsalarnigina bilib olish mumkin, – dedi Tulki. – Hozir odamlarning biror narsani

bilishga vaqti qolmagan. Hamma narsani tayyorligicha magazindan olishadi. Lekin do'st sotadigan magazin yo'q-da, shuning uchun ham odamlar endi do'st orttirmaydi. Agar do'st orttirmoqchi bo'lsang, meni qo'lga o'rgataqol!

– Xo'p, buning uchun nima qilish kerak? – deb so'radi Kichkina shahzoda.

– Sabr-toqatni bir joyga yig'ish kerak, – deb javob berdi Tulki. – Dastlab sal uzoqroqda, huv anavi yerdagi maysaning ustiga kelib o'tirasan. Men senga avval biroz hadiksirab qarayman, sen bunga indamaysan, maylimi? Chunki so'z bir-birimizni anglashimizga xalaqit beradi, xolos. Keyin esa kun sayin asta-sekin yaqinroq kelib o'tiraverasan...

Ertasiga Kichkina shahzoda yana shu joyga keldi.

– Yaxshisi, har kuni bir paytda kela qolgin, – deb iltimos qildi Tulki. – Masalan, agar soat to'rtida keladigan bo'lsang, men soat uchdan o'zimni baxtiyor his qila boshlayman. Muddat yaqinlashgan sari bu quvonch orta boradi. Soat to'rtida esa yuragim hayajonga to'lib shodumonlik bilan tepa boshlaydi. Ana shundagina men baxt-saodatning qadrini sezaman! Bordi-yu sen har kuni har xil vaqtda keladigan bo'lsang, meni bu baxtiyorlik tuyg'usidan mahrum qilasan... Rasm-rusumni to'g'ri bajo keltirish kerak.

– Rasm-rusum nima? – deb so'radi Kichkina shahzoda.

– Buyam allaqachon unutilgan narsa, – deya tushuntirdi Tulki. – U shunday bir narsaki, u tufayli qaysidir bir kun boshqa kunlarga mutlaqo o'xshamaydi, u tufayli qaysidir davr boshqa davrlarga mutlaqo o'xshamaydi. Masalan, mening payimda yuradigan ovchilarda shunday rasm-rusum bor: ular payshanba kunlari qishloqi oyimqizlar bilan ko'ngilxushlik qilishadi. Shuning uchun ham payshanba degani juda ajoyib kun-da! Shu kunlari men asta sayr qilgani chiqaman, hatto uzumzorning chekkasigacha bemalol boraman. Agar ovchilar ma'lum kunlarda emas,

xohlagan paytlarida ko'ngilxushlik qilaversalar, hamma kunlar bir xil bo'lib qolardi, unda men hordiq nimaligini bilmay o'tib ketardim.

Shu tariqa Kichkina shahzoda Tulkini qo'lga o'rgatdi. Mana, nihoyat ayriliq chog'i ham yetdi.

– Endi seni eslab yig'lab yuraman, – deya xo'rsindi Tulki.

– Ayb o'zingda, – dedi Kichkina shahzoda. – Seni ranjitishni sira-sira istamasdim, axir, o'zing aytgan eding-ku, meni qo'lga o'rgat, deb...

– Ha, albatta, – dedi Tulki.

– Lekin yig'layman, deyapsan-ku!

– Albatta yig'layman-da.

– Demak, seni qo'lga o'rgatib noto'g'ri qilibman-da.

– Yo'q, – deb bosh chayqadi Tulki, – bundan xafa emasman. Esingdami, oltin boshqoq haqida senga aytgan gaplarim? – U jimib qoldi, oradan sal o'tgach, tag'in qo'shib qo'ydi: – O'sha gulzorga yana bir marta borib qaragin, feruza gulingning olamda chindan ham yagona ekaniga ishonch hosil qilasan. Qaytib kelganingdan so'ng, xayrlashar chog'i seni yana bir sirdan ogoh etaman. Mayli, bu senga mendan hadya bo'lsin.

Kichkina shahzoda chamanzorga qarab ketdi.

– Sizlar mening feruza gulimga sirayam o'xshamay-sizlar, – dedi ularga. – Sizlar hali hech nima emassizlar, chunki sizlarni biror kimsa qo'lga o'rgatgan emas, sizlar ham biror kimsani qo'lga o'rgatgan emassizlar. Mening Tulkim ham avval shunday edi, yuz minglab boshqa tulkilardan aslo farqi yo'q edi. Ammo men u bilan do'st tutindim, endi u men uchun yorug' olamdagi yagona tulkiga aylandi.

Gullar xijolatdan qip-qizarib ketishdi.

– Sizlar chiroylisizlar, ammo dilingiz bo'm-bo'sh, – deya davom etdi Kichkina shahzoda. – Sizlarni deb

odamning qurbon bo'lgisi kelmaydi. Albatta, feruza gulimga tasodifan ko'zi tushib qolgan o'tkinchi uni so'zsiz sizlarga o'xshaydi, deb aytishi mumkin. Ammo uning yolg'iz o'zi menga sizlarning barchangizdan ko'ra qadrliroq. Chunki men har kuni sizlarni emas, uni sug'organman-da. Parda tortib, shisha qalpoq tutib sizlarni emas, uni izg'irin-u sovuqlardan asrab-avaylaganman. Uni deb, kapalaklar tezroq ochib chiqib u bilan o'ynasin, deb g'umbaklar olib kelganman. Men uning arz-u dodini ham, noz-u firog'ini ham eshitganman, hatto sukutga cho'mgan chog'larida ham ko'nglini sezib turganman. U – meniki, u mening yolg'izim, yagonam...

Shundan so'ng Kichkina shahzoda Tulkining yoniga qaytib keldi:

– Xayr, yaxshi qol... – dedi u.

– Xayr, yaxshi bor, – dedi Tulki. – Mana senga aytmoqchi bo'lgan sirli gapim: faqat ko'ngil ko'zigina ochiq, eng asosiy narsani ko'z bilan ko'rolmaysan.

– Eng asosiy narsani ko'z bilan ko'rolmaysan, – deb takrorladi Kichkina shahzoda, bu hikmatni eslab qolish uchun.

– Guling senga shuning uchun ham qadrliki, unga ko'nglingni bergansan.

– Chunki unga ko'nglimni berganman ... – deb takrorladi Kichkina shahzoda yaxshiroq eslab qolish uchun.

– Odamlar bir haqiqatni unutdilar, – dedi Tulki, – ammo sen aslo yodingdan chiqarma: kimniki qo'lga o'rgatgan bo'lsang, uning taqdiriga hamisha javobgarsan. Unutma, feruza guling uchun ham javobgarsan.

– Feruza gulim uchun javobgarman ... – deb takrorladi Kichkina shahzoda yaxshiroq eslab qolish uchun ...

– Salom, – dedi Kichkina shahzoda.

– Salom, – deb javob qildi bekat nazoratchisi.

– Nima qilib turibsan bu yerda? – deb so‘radi Kichkina shahzoda.

– Yo‘lovchilarni saralayapman, – dedi nazoratchi. – Mingta-mingta qilib poyezdga o‘tkazaman-da, birini o‘ngga, ikkinchisini so‘lga jo‘nataman.

Shu payt yop-yorug‘ derazalarining oynalarini yarqiratgancha tezyurar poyezd gumburlab o‘tib qoldi. Bekat nazoratchisining do‘konchasi ham zirillab ketdi.

– Namuncha shoshadi bu? – deb hayron bo‘ldi Kichkina shahzoda. – Shunchalik oshiqib nimani izlaydi?

– Buni hatto mashinistning o‘ziyam bilmaydi, – dedi nazoratchi.

Ikkinchi tomonga ham tezyurar bir poyezd pishqirgancha shovqin solib o‘tib ketdi.

– Bu boya o‘tib ketganga yetib olmoqchimi? – deb so‘radi Kichkina shahzoda.

– E, qayoqda, – dedi nazoratchi. – Vagonning ichida hozir hamma yo uxlab yotibdi, yo deraza oldida qo‘l qovushtirgancha esnab o‘tiribdi. Faqat bolalargina burnilarini oynaga tirab tashqariga tikilib ketayotgan bo‘lsa kerak.

– Faqat bolalargina nima izlab yurganini biladi, – dedi Kichkina shahzoda o‘zicha. – Ular latta qo‘g‘irchoqqa ham yurak-bag‘rini berib mehr qo‘yadi, shu sababli u ularga benihoya qadrlil bo‘lib qoladi. Shu sababli ham boladan qo‘g‘irchog‘i tortib olinsa, o‘ksib-o‘ksib yig‘laydi...

– Ularning baxti-da, – dedi nazoratchi.

## XXIII

– Salom, – dedi Kichkina shahzoda.

– Salom, – dedi savdogar.

U tashnalikni bosuvchi, takomillashtirilgan qandaydir bir ichimlik sotib o‘tirardi. Shu ichimlikdan besh-olti qultum ichilsa bas, keyin bir hafta chanqov nimaligini bilmay yuraverish mumkin.

– Buni sotishdan ma’ni nima? – deb so‘radi Kichkina shahzoda.

– Bu narsa vaqtni juda qattiq tejashga yordam beradi, – dedi savdogar. – Mutaxassislarning hisobiga qaraganda, shu ichimlik tufayli haftasiga ellik uch daqiqa tejash mumkin ekan.

– Xo‘sh, o‘sha ellik uch daqiqada nima qilinadi keyin?

– Xohlagan ishingni qilaverasan.

«Agar mening ellik uch daqiqa ortiqcha vaqtim bo‘lsa edi, – deb ko‘nglidan o‘tkazdi Kichkina shahzoda, – to‘ppa-to‘g‘ri buloq boshiga borardim-u...»

## XXIV

Falokatga uchraganimga rosa bir hafta bo‘lgan edi, g‘aroyib ichimlik sotadigan savdogar haqida eshitgach, so‘nggi qultum suvimni ichib tugatdim.

– Ha-a, – dedim Kichkina shahzodaga qarab, – bu aytgan gaplaring hammasi qiziq, ammo men hali samolyotimni tuzatolganim yo‘q, mana, ko‘rding, oxirgi tomchi suvni ham quritdim, agar to‘ppa-to‘g‘ri buloq boshiga borib qolsam, men ham o‘zimni behad baxtiyor hisoblardim.

– Men do‘st bo‘lgan Tulki aytardiki...

– Azizim, hozir tulki-pulking qulog‘imga kirmaydi!

– Nega?

– Chunki tashnalikdan o‘lib ketishimga ko‘zim yetib turibdi...

U gap nimadaligini bari bir tushunmadi-da, yana e’tiroz bildirdi:

– Do‘sting bo‘lsa yaxshi-da, qo‘rqmay o‘limga ham boraversang bo‘ladi. Mana men Tulki bilan do‘st bo‘lganimdan shunday xursandmanki...

«Qanday dahshatli balo xavf solib turganini u sezmay-diyam, bilmaydiyam. Umrida hech qachon na ochlikni, na tashnalikni ko‘rgan. Unga quyosh nurining o‘zi kifoya...»

Men buni tovush chiqarib aytmadim, o‘zimcha o‘yladim, xolos. Biroq, Kichkina shahzoda menga qaradi-da, to‘satdan:

– Men ham chanqadim... yur, quduq qidirib ko‘ramiz, – dedi.

Men horg‘in qo‘l siltadim: bu poyonsiz sahroda tasmollab quduq izlashdan nima ma‘no bor? Ammo bari bir yo‘lga tushdik.

Uzoq vaqt bir-birimizga churq etmay bordik; nihoyat, qorong‘i tushib, osmonda birin-ketin yulduzlar charaqlay boshladi. Tashnalikning zo‘ridan meni biroz bezgak ham tutmoqda edi, shu bois yulduzlarni tushdagidek elas-elas ko‘rardim. Kichkina shahzodaning gapi yodimga tushib, so‘radim:

– Demak, tashnalik nimaligini sen ham bilar ekan-sanda?

Biroq u indamadi, faqat shunchaki so‘zlagandek:

– Suv ba‘zan yurakka ham kerak bo‘ladi... – deb qo‘ydi. Uning nima demoqchiligini tushunmadim-u so‘rab ham o‘tirma-dim – uni so‘roq qilishning behuda ekanini yaxshi bilardim.

U nihoyat holdan toyib, qumga muk cho‘kdi. Men ham yoniga ohista cho‘zildim. Allamahalgacha hech birimiz churq etmadik. Bir payt u sekingina:



– Yulduzlar judayam chiroyli, chunki qayeridadir guli bor, faqat ko‘rinmaydi, xolos, – deb qoldi.

– Ha, albatta, – dedim men, oy yog‘dusida tovlanib yotgan qum to‘lqinlariga tikilgan.

– Sahro ham chiroyli... – deb qo‘shib qo‘ydi Kichkina shahzoda.

Bu gap chindan ham to‘g‘ri edi. Sahro menga hamisha yoqadi. Qum barxaniga chiqib o‘tirasan, hech narsa ko‘rinmaydi, hech narsa eshitilmaydi, ammo bari bir sahro qo‘ynida nimadir bilinar-bilinmas yaltiraydi...

– Bilasanmi, sahro nima uchun yaxshi? – dedi u. – Chunki uning bag‘rida, ko‘z ilg‘amas allaqayerlarda bu loqlar yashiringan bo‘ladi...

Hayratdan qotib qoldim. Birdaniga qumlardan taralib yotadigan sirli yog‘duning nima ekanini angladim. Bir paytlar, yosh bola chog‘imda ko‘hna bir uyda yashardim. Naql qilishlaricha, bu uyga katta bir xazina ko‘milgan ekan. Ravshanki, uni biror kimsa hech qachon topib ololmadi, kim bilsin, balki biror kimsa hech qachon qidirib ham ko‘rmagandir. Ammo o‘sha mish-mish tufayli uy go‘yo tilsim qilingandek sehrli ko‘rinardi – uning bag‘rida sir pinhon edi...

– Ha-a, – dedim ohista. – Yulduzmi, uymi, sahromi, nimaiki bo‘lmasin, undagi eng go‘zal narsa – ko‘zga ko‘rinmaydigan narsadir.

– Do‘stim Tulki bilan hamfikir ekansan, judayam xursand bo‘ldim, – dedi Kichkina shahzoda quvonib.

Saldan keyin u uxlab qoldi. Men uni qo‘limda ko‘targancho yo‘lda davom etdim. O‘z-o‘zimdanda hayajonlanib ketgan edim. Nazarimda, qo‘limda nafis bir xazinani ko‘tarib borayotgandek edim. Nazarimda, Yer yuzida bundan ko‘ra nozik va nafisroq hech narsa yo‘qdek tuyulardi. Oy yog‘dusida uning bo‘zdek oqargan manglayiga, yumuq mijjalariga, shamolda to‘zg‘ib yotgan tillarang kokillariga

termilib borarkanman, o'zimga-o'zim, bularning barchasi – shunchaki qobiq, der edim. Eng asosiy narsani ko'z ilg'amaydi, u siyratda, botinda pinhon...

Uning xiyol ochiq lablarida tabassum o'ynardi, ularga tikilib turib o'zimcha yana shunday deb o'yladim: mana, Kichkina shahzoda, beozorgina uxlab yotibdi, feruza guliga shunchalar sadoqatliki, odamning beixtiyor ko'ngli erib ketadi, gulining yodi-xayoli, sham shu'lasining sharpa-sidek, uni biron zum, hatto uyqusida ham tark etmaydi... Va shunda men uning aslidagidan ham ko'ra nozikroq ekanini angladim. Axir, sham shu'lasini ehtiyot qilish kerak – quturgan shamol uni o'chirib qo'yishi mumkin...

Alqissa, shu tariqa yo'l yurdim-u mo'l yurdim va tong chog'i bir quduq boshiga yetib bordim.

## XXV

– Odamlar jon-jahdi bilan tezyurar poyezdlarga oshiqib nima izlayotganini o'zlari ham bilmaydi, – dedi Kichkina shahzoda. – Shuning uchun ham orom neligini bilmay goh bir-tomonga, goh ikkinchi tomonga zir yuguradilar... – Xiyol o'tgach, shunday deb qo'shib qo'ydi: – Lekin bari behuda...

Biz topgan bu quduq Sahroi Kabirdagi boshqa quduqlarga o'xshamasdi. Odatda, bu yerdagi quduq qumni nari-beri o'yib yasalgan chuqurchadan iborat bo'ladi. Bu esa qishloqlarda uchraydigan haqiqiy quduq edi. Ammo atrof-javonibda qishloqning asari ham yo'qligi uchun men buni tushga yo'yib qo'yaqoldim.

– G'alati-ya, – dedim Kichkina shahzodaga, – hammasi tayyor – chambarak ham, chelak ham, arqon ham...

U kulimsirab qo'ydi-da, arqonni tortib, chambarakni buradi. Chambarak xuddi shalog'i chiqqan charxpalakdek g'ichirlab aylana boshladi.

– Eshityapsanmi? – deb so‘radi Kichkina shahzoda.  
– Quduqni uyg‘otib yubordik, ana, endi xirgoyi qilishga tushdi...

Men, u charchab qoladi, deb xavotirda edim.

– Suvni o‘zim tortaman, – dedim shosha-pisha, – sening kuching yetmaydi.

Suv to‘la chelakni sekin tortib chiqardim-da, quduqning tosh qirg‘og‘iga avaylab qo‘ydim. Qulog‘imda hamon chambarakning g‘ichirlab aylanishi aks-sado berar, chelakdagi suv ohista chayqalar, mavjlarida quyosh shu‘lasi o‘ynar edi.

– Shu suvdan ichgim kelyapti, – deya menga javdirab boqdi Kichkina shahzoda. – Bir qultum ber...

Shunda men uning nima izlab yurganini tuyqusdan angladim! Chelakni ko‘tarib, asta labiga tutdim. U ko‘zlarini yumib olgan, huzur qilib obihayot simirar edi. Bu chinakam bir shodiyona edi. Chunki bu oddiy suv emasdi. U sahroda, yulduzlar ostidagi uzoq sargardonlikdan so‘ng, chambarakning g‘ichirlab aylanishidan so‘ng, qo‘llarimning harakatidan so‘ng bizga muyassar bo‘lgan noyob, ilohiy bir ne‘mat edi. Go‘yo yurakka tengsiz malham edi u...

– Sening sayyorangda, – dedi Kichkina shahzoda, – odamlar bir chamanzordan besh mingta gul o‘stirar ekan-u izlaganini topolmas ekan...

– Topolmaydi, – deb ma‘qulladim men.

– Holbuki, ular izlagan narsani bir dona guldandan, bir qultum suvdan ham topish mumkin.

– To‘g‘ri aytasan, – deb tasdiqladim yana.

Kichkina shahzoda tag‘in o‘yga cho‘mdi:

– Afsuski, ko‘zlar basir. Ko‘ngil ko‘zi bilan izlash lozim.

Suvdan miriqib ichdim. Nafas olishim yengillashdi. Sahar chog‘i qum xuddi asaldek tillarang tovlanadi, unga

tikilgan sari o'zimni baxtiyor sezardim. Chindan ham, nega, nedan qayg'u chekay?..

– Sen va'dangning ustidan chiqishing kerak, – dedi Kichkina shahzoda muloyimlik bilan, tag'in yonimga kelib o'tirarkan.

– Qanaqa va'da?

– Esingdami, qo'zichog'ingga no'xta... beraman, degan eding?.. Axir, men o'sha gulga javobgarman-ku...

Cho'ntagimdan chizgan rasmlarimni oldim. Kichkina shahzoda ularni ko'zdan kechirarkan, kulimsiradi:

– Baobablaring xuddi karamga o'xshaydi-ya...

Men bo'lsam, baobabni boplab chizganman, deb gerdayib yuribman-a!

– Tulkingning qulog'i bo'lsa... shoxning o'zi! Uzunligini qara-yu! – U yana kulib yubordi.

– Bu gaping insofdan emas, og'ayni. Axir, men umrimda bo'g'ma ilonning ichki-yu tashqi ko'rinishidan boshqa narsa chizgan emasman-da.

– Mayli, hechqisi yo'q, – dedi u meni yupatib. – Bolalar shundoq ham tushunib olishadi.

Keyin men uning qo'zichog'iga no'xta chizib berdim. Suratni Kichkina shahzodaga berdim-u negadir yuragim zirqirab ketdi:

– Nimanidir o'ylab qo'ygansan-u menga aytmayapsan...

Biroq u indamadi.

– Bilasanmi, – dedi nihoyat, – ertaga sizlarning huzuringiz-ga – Yerga kelganimga bir yil to'ladi... – U tag'in jimib qoldi, bir zum o'tgach: – Men mana shu atrofga tushgan edim... – dedi. Shunday dedi-yu duv qizarib ketdi.

Negaligini Xudo biladi-yu dilimni yana qo'rg'oshindek g'ashlik qopladi. Lekin bari bir yurak yutib so'radim:

– Bundan chiqdiki, bir hafta avval, ikkalamiz tanishgan tongda, odamzod makonidan ming-ming chaqirim uzoq

bu ovloq yerlarda sen yolg'iz o'zing bejiz kezib yurmag-an ekansan-da? Osmondan tushgan joyingga qaytib kelayotganmiding?

Kichkina shahzoda battarroq qizarib ketdi.

Men endi hadiksirab so'radim:

– Balki, bir yil to'lgani uchun shunday qilmoqchidir-san?

U yana loladek qizardi. U birorta savolimga javob bermadi, ammo qip-qizarib ketgani – «ha» degani emasmi?

– Qo'rqib ketyapman...– deya so'z boshladim xo'rsinib.

Ammo u gapimni kesdi:

– Ishga kirishadigan vaqting bo'ldi. Turaqol, mashinangning yoniga bor. Men seni shu yerda kutaman. Ertaga kechqurun qaytib kelgin...

Ammo bari bir ko'nglim tinchimadi. Beixtiyor Tulkini esladim. Qo'lga o'rganib qolganingdan keyin ba'zan ko'zyosh to'kishga ham to'g'ri keladi.

## XXVI

Quduqdan sal narida ko'hna tosh qo'rg'onning vayronalari saqlanib qolgan edi. Ertasi oqshom ishni tugatib qaytarkanman, uzoqdan Kichkina shahzodaning choldevor ustida oyog'ini osiltirib o'tirganini ko'rdim. Yaqinlashgach, ovozini ham eshitdim.

– Esingdan chiqdimi? – derdi u. – Bu gap xuddi shu yerda bo'lmagan edi-yu, lekin...

Chamasi kimdir unga javob qaytarmoqda edi, chunki shunday deb e'tiroz bildirdi:

– To'g'ri, bu gap bundan roppa-rosa bir yil avval bo'lgan edi, lekin boshqa joyda...

Qadamimni tezlatdim. Ammo devorning tagida zog' ham ko'rinmasdi. Biroq Kichkina shahzoda hamon kim bilandir gaplashib o'tirardi:

– Albatta-da. Mening izimni qumdan osongina topasan. Keyin kutib turgin, bugun kechasi men o'sha yerga kelaman.

Devorning oldigacha yigirma qadamlar chamasi qoldi, lekin men hanuz hech narsani ko'rmadim.

Biroz jimlikdan so'ng Kichkina shahzoda:

– Zaharing o'tkirmi o'zi? Ishqilib, meni ko'p qiynamaysan-mi? – deb so'radi.

Turgan joyimda qotib qoldim, yuragim orqamga tortib ketdi, biroq hamon biror nimani tushunmas edim.

– Ketaqol endi, – dedi Kichkina shahzoda. – Men pastga sakramoqchiman.

Shunda oyoq ostiga qaradim-u ikki gaz nariga sapchib tushdim! Devorning shundoqqina tagida, odamni chaqsa, yarim minutda til tortmay o'ldiradigan bir ilon bo'ynini gajak qilganicha Kichkina shahzodaga tikilib turardi. Cho'ntagimdagi to'pponchani paypaslaganicha unga qarab yugurdim, ammo ilon sharpamni sezib, qurib borayotgan jilg'adek, qum uzra asta sirg'alganicha, bilinar-bilinmas ohanrabo sas chiqarib toshlararo g'oyib bo'ldi.

Rosa vaqtida yetib kelgan ekanman, boyaqish Kichkina shahzodamni dast ko'tarib oldim. Rangi qordek oqarib ketgan edi.

– Nima qilganing bu, bolakay! – dedim nafasim tiqilib.  
– Nega ilon bilan suhbat qurib o'tiribsiz?

Shunday deb, uning doimiy yo'ldoshi – tillarang sharfini bo'yniga taqib qo'ydim, yuz-ko'zini yuvib, majburan suv ichirdim. Ammo boshqa biror narsani so'rashga yuragim dov bermadi. U menga sinchiklab tikildi-da, bo'ynimdan mahkam quchdi. Yuraginging yarador qushdek betoqat tipirchilayotganini yaqqol eshitib turardim.

– Nihoyat mashinangni tuzatib olibsiz, judayam xursand bo'ldim, – dedi u. – Endi bemalol uyingga qaytishing mumkin...

– Shoshma, sen buni qayoqdan bilding?!

Chunki, barcha balolarni dog‘da qoldirib, samolyotimni tuzatishga muvaffaq bo‘lganimni aytmoq uchun endigina og‘iz juftlagan edim-da!

U, savolimni odatdagidek javobsiz qoldirib, shunday dedi:

– Men ham bugun uyimga qaytaman. – Keyin g‘amgin ohangda qo‘shib qo‘ydi: – Lekin mening safarim senikidan uzoqroq... senikidan qiyinroq...

Bularning barchasi allanechuk g‘alati edi. Men uni xuddi go‘dak boladek mahkam bag‘rimga bosib turardim-u, lekin, nazarimda, u go‘yo og‘ushimdan sirg‘alib chiqqancha bo‘shliqqa singib ketayotgandek tuyulardi, uni tutib qolishga o‘zimni ortiq qodir emasdek his qilardim...

U olis-olislarga horg‘in, o‘ychan termilarkan:

– Menda sening qo‘zichog‘ing qoladi. Qutichayam. No‘xta ham... – dedi, dedi-yu g‘amgin kulimsirab qo‘ydi.

Men uzoq kutdim. U go‘yo asta-sekin o‘ziga kelayotgandek edi.

– Biror narsadan qo‘rqqanga o‘xshaysan, bolakay...

Qo‘rqmay ham bo‘ladimi! Ammo u ohistagina kulimsiradi:

– Bugun kechqurun bundan battar qo‘rqsam kerak...

Muqarrar falokat tuyg‘usi tag‘in vujud-vujudimni muzlatib, karaxt qilib tashladi. Nahot, nahotki, uning jarangdor kulgisini qayta eshitmasam? Axir, bu kulgi men uchun sahrodagi pokiza buloq bilan barobar-ku!

– Bolakay, kulgingni sog‘indim, bir kulgin...

Ammo u bunga javoban:

– Bugun bir yil to‘ladi, – dedi. – Yulduzim bir yil avval men qulab tushgan joyga rosa ro‘baro‘ keladi...

– Menga qara, bolakay, axir, bularning barchasi – ilon ham, yulduz bilan uchrashuv ham ahmoqona bir tush-ku, to‘g‘rimi?

Biroq u gapimga indamadi.

– Eng asosiy narsa – ko‘z bilan ko‘rib bo‘lmaydigan narsa... – dedi u.

– Ha, albatta.

– Bu ham xuddi gulga o‘xshaydi. Agar olis yulduzlardan birida o‘sadigan gulni yaxshi ko‘rsang, kechasi osmonga boqib huzur qilasan. Ko‘z o‘ngingda yulduzlarning jami guldek ochilib yotadi...

– Albatta...

– Kechasi yulduzlarga termilasan. Mening yulduzim benihoya kichkina, uni senga ko‘rsatolmayman. Shunday bo‘lgani tuzuk. U sen uchun osmon to‘la yulduzning biri bo‘lib qolgani ma‘qul. Shunda sen osmonga boqishni yaxshi ko‘rib qolasan... Jamiki yulduz senga oshno bo‘lib qoladi. Keyin, men senga nimadir sovg‘a ham qilmoqchiman...– U shunday deb kulib yubordi.

– Eh, bolakay, bolakay, kulgilaringni qanchalar yaxshi ko‘rishimni bilsang edi!

– Senga bermoqchi bo‘lgan sovg‘am ham mana shu-da...

– Yo‘g‘-e?

– Har kimning o‘z yulduzi bor. Ba‘zilarga, aytaylik sarbon-u sayyohlarga – ular yo‘l ko‘rsatuvchi, ba‘zilarga esa shunchaki mitti shu‘la, xolos, olimlarga – yechish lozim bo‘lgan masala, men ko‘rgan korchalonga esa – oltin bo‘lib ko‘rinadi ular. Ammo bu odamlarning barchasi uchun yulduzlar bezabon. Sening yulduzlaring esa butunlay o‘zgacha bo‘ladi...

– O‘zgacha deysanmi?

– Kechalari osmonga boqasan-u men yashaydigan, mening kulgim yangrayotgan yulduzlarning barchasi jilmayib kulayotgandek tuyuladi. Ha, sening kula biladigan yulduzlaring bo‘ladi!

U shunday dedi-yu, kulib yubordi.



– Yupanganingdan keyin esa (oxir-oqibat doim yupanasan bari bir) qachondir men bilan oshna boʻlganingni eslab, yuraging quvonchga toʻladi. Sen hamisha mening doʻstim boʻlib qolasan, hamisha menga qoʻshilib kulishni istab yurasan. Baʼzan derazangni mana shunday lang ochib yuborasan-u shodumon boʻlib ketasan... Shunda doʻstlaring, nega u osmonga boqib bunchalar xursand boʻlayotgan ekan, deb qattiq hayron boʻladilar. Sen boʻlsa ularga: «Ha, ha, men doimo yulduzlarga boqib xushxandon kulaman!» deysan. Ular esa seni aqldan ozib qoldimikan, deb gumon qilishadi... koʻrdingmi, qanday chatoq hazil boshladim sen bilan...

U yana qoʻngʻiroqdek tovush bilan kulib yubordi.

– Goʻyo yulduzning oʻrniga senga bir shoda jarangdor qoʻngʻiroq sovgʻa qilgandek boʻldim...

Yana xandon tashlab kuldi, soʻng tagʻin jiddiy tortdi:

– Bilasanmi... bugun kechasi... yoʻq, yaxshisi kelmay qoʻyaqol.

– Men seni yolgʻiz qoldirmayman.

– Senga, biror joyim ogʻriyotgandek... hatto jon berayotgandek boʻlib tuyulishim ham mumkin. Shunaqa boʻladi oʻzi. Kelmay qoʻyaqol, kerakmas.

– Men seni yolgʻiz qoldirmayman.

U nimadandir qattiq tashvishmand koʻrinardi.

– Bilasanmi... haligi... ilonni oʻylayapman. Tagʻin u seni chaqib olsa-ya? Axir u yovuz hayvon-ku. Birovni chaqsa, huzur qiladi.

– Men seni yolgʻiz qoldirmayman.

U birdan xotirjam tortdi:

– Ha, aytmoqchi, uning zahri ikki kishiga yetmaydi.

Kechasi uning qanday turib ketganini sezmay qolibman. U sassiz-sharpasiz sirgʻalib ketib qolgan edi. Nihoyat, uni quvib yetganimda, u jadal, dadil odim otib borardi. Meni koʻrib:

– Ha, senmisan... – dedi, xolos.

Soʻngra asta qoʻlimdan tutdi-yu, allanimadan choʻchi-gandek darrov tortib oldi:

– Bekor kelyapsan men bilan. Ahvolimni koʻrib qiynalasan. Nazaringda oʻlayotgandek koʻrinaman, lekin bu yolgʻon boʻladi...

Men indamay boraverdim.

– Bilasanmi... yoʻlim nihoyatda olis, jismim esa nihoyatda ogʻir. Men uni olib ketolmayman.

Men indamay boraverdim.

– Bu xuddi eski qobiqni tashlagandek bir gap. Hech bir qaygʻuradigan joyi yoʻq buning.

Men indamay boraverdim.

Uning biroz ruhi tushdi, ammo bari bir zoʻr berdi:

– Mana koʻrasan, juda soz boʻladi hali. Men ham yulduzlarga termilaman. Shunda jamiki yulduz gʻichirlab aylanadigan chambarakli koʻhna quduq boʻlib koʻrinadi. Va ularning har biri menga ichgani suv beradi...

Men indamay boraverdim.

– Bir oʻylab koʻrgin-a, qanchalik soz boʻladi oʻshanda! Senda besh million qoʻngʻiroq boʻladi, menda esa – besh million buloq...

U birdan jimib qoldi – boʻgʻziga yigʻi tiqilib keldi.

– Mana, yetib ham keldik. Qoʻy endi meni, buyogʻiga oʻzim boray.

Shunday deb qum uzra bemajol choʻkdi – yuragini qoʻrquv chulgʻadi. Xiyol oʻtgach, sekingina shivirladi:

– Bilasanmi... gulim... men gulimga javobgarman. Chunki u shunchalar zaif, nochorki! Soddaligini ayt-maysanmi? Oʻzini himoya qilmoqqa toʻrttagina arzimas tikanidan boshqa narsasi yoʻq...

Men ham qumga muk tushdim, oyoqlarimdan mador qochib, chalishib ketmoqda edim.

– Mana... tamom endi... – dedi u.

Bir lahza tek qoldi-yu, so'ng o'rnidan turdi. Bir qadam ilgari bosdi...

Men esa hamon joyimdan qo'zg'alolmas edim.

Oyoqlari ostida go'yo sariq yashin chaqnagandek bo'ldi, bir daqiqa qotib qoldi. Yig'lamadi, bo'zlamadi. So'ng xuddi bolta urilgan daraxtdek ohista quladi: na bir sharpa, na bir sas... Illo, qum zarralari tiq etgan tovushni ham yutib yuboradi-da.

## XXVII

Mana, o'shandan buyon olti yil o'tdi... Hanuzgacha bu haqda biror kimsaga churq etib og'iz ochganim yo'q. Qaytib kelganimda, do'stlarim meni tag'in eson-omon ko'rib sevindilar, biroq, ko'nglim benihoya g'ash edi, so'ragan odamga:

– Charchabman shekilli... – deb qo'ya qolardim.

Lekin, asta-sekin bari bir yupana boshladim. Batamom emas, albatta. Biroq shu narsani yaxshi bilamanki, u o'z sayyorasiga qaytib ketgan, chunki tong yorishgach, qum ustida jasadini ko'rmadim. Uning jismi unchalik og'ir ham emasdi-da.

Kechalari yulduzlarga quloq tutib o'tirishni yaxshi ko'raman. Go'yo besh million qo'ng'iroq shodumon jiringlayotgandek...

Lekin, buni qarangki, qo'zichoqqa no'xta chizib berayot-ganimda, tasmachasini unutgan ekanman. Endi Kichik shahzoda uni qo'zichoqqa taqa olmaydi. Shu bois goh-goh o'zimdanda so'rayman: uyoqda, do'stimning sayyorasida ahvol qalay ekan? Tag'in qo'zichoq gulni yeb qo'ygan bo'lsa-ya?

Ba'zan esa o'zimga-o'zim: «Yo'g'-e, unday emasdir! Kichkina shahzoda kechalari feruza gulni shisha qalpoq bilan yopib qo'yardi, qo'zichoqqa ham ko'z-quloq bo'lib

tursa kerak», deb taskin beraman-u birdan quvonib ketaman. Shunda yulduzlar ham ohista jilmayib kulayotgandek tuyuladi.

Gohida esa: «Ba'zan nimadir xotirdan faromush bo'ladi-ku, axir... Unda, har balo ham bo'lishi mumkin! Bordi-yu, Kichkina shahzoda bir kuni shisha qalpoqni esidan chiqarib qo'ysa yo qo'zichoq kechasi sezdirmay qutichasidan chiqib ketib qolsa-ya...» deb o'ylayman vahimaga tushib. Shunda osmondagi qo'ng'iroqlarim ham unsizgina yig'layotgandek tuyuladi...

Bularning barchasi allanechuk aql bovar etmaydigan sirli hodisalardir. Aminmanki, sizga ham, Kichkina shahzodani yaxshi ko'rib qolgan boshqa har qanday odamga ham, xuddi men kabi, koinotning allaqaysi burchagida biz hech qachon ko'rmagan bir qo'zichoq bizga notanish bir gulni yeb qo'ygan-qo'ymagani aslo baribir bo'lmasa kerak; dunyoning ko'zimizga qanday ko'rinishi ana shunga juda-juda bog'liq...

Boshingizni ko'tarib, bepoyon osmonga boqing. So'ngra o'zingizdan: «O'sha feruza gul omon bormikan? Bordi-yu qo'zichoq uni yeb qo'ygan bo'lsa-ya?» deb so'rang. Ana shunda ko'rasiz – olam ko'z o'ngingizda butkul boshqacha jilvalana boshlaydi...

Va birorta katta odam buning qanchalar muhim ekani-ni hech qachon tushuna olmaydi!

Bu yer, meningcha, dunyodagi eng go'zal va eng hasratli makon bo'lsa kerak. Sahroning bu kimsasiz parchasi sal yuqorida ham tasvirlangan edi, ammo uni yaxshiroq ko'rib olishingiz uchun yana qaytadan chizmoqchiman. Huddi shu joyda Kichkina shahzoda Yer yuzida birinchi bor paydo bo'lgan, keyin xuddi shu joyda g'oyib bo'lgan edi. Diqqat bilan qarab eslab qoling, agar qachonlardir Afrikaga, sahroga borib qolsangiz, bu joyni tanishingiz oson bo'ladi. Mabodo shu yerdan o'tar bo'lsangiz, o'tinib

so'rayman, mana shu yulduz ostida bir nafas to'xtang!  
Bordi-yu shu payt tillarang sochli bir bola yoningizga  
kelib, qo'ng'iroqdek tovush bilan kula boshlasa, birorta  
savolingizga javob bermasa, o'ylaymanki, kimga duch  
kelganingizni albatta sezsangiz kerak. O'shanda, sizdan  
o'tinib so'rayman, dardli dilimga yupanch berish esi-  
ngizdan chiqmasin: uning qaytib kelganini menga zudlik  
bilan xabar qiling.

---



## EZOP MASALLARI

### BURGUT BILAN TULKI

Burgut bilan Tulki do'st tutinishdi va qo'shni bo'lib o'zlariga ahd qilishdi. Burgut azim tup daraxtning qirg'ochiga uya qurdi. Tulki esa, shu daraxt tagida butalar orasida bolaladi. Oradan bir qancha vaqt o'tib, kunlarning o'tirida Tulki ovga chiqdi. Shunda o'z poloponlarini nimalar bilan boqishni bilmay, ochiqib o'tirgan Burgut pastga tushib tushib, butalar orasida yotgan tulkivachchalarni o'z qo'liga olib uyasiga olib chiqdi-da ularni o'z poloponlarini bilan baham ko'rdi. Mana, Tulki iniga qaytib keldi, kelgach, u bir qarashda ne hol yuz berganini fahmladi. U juda g'amtliq qayg'urdi – nafaqat bolalarining nobud bo'lganini, balki qotildan qasos olaolmasligidan ich-etini yeb izroq chekdi, zero yerdagi hayvon osmondagi qushni tutamasligini u yaxshi bilar edi. Notavon va nochor hayvonlar nima ham qila olardi? G'animini faqat uzoqdan turib qarashgagina kuchi etardi uning. Biroq oradan ko'p ham vaqt o'tmay Burgut do'stlik ahdiga hiyonat qilgani uchun qasosini oldi. Bir odam dalada echki so'yib, xudolar yo'lga qurbonlik qildi; Burgut buni ko'rib, uchib keldi-da qurbonlikda laqqa cho'g' bo'lib yonayotgan kalla-pochchalarni o'z qo'liga olib chiqib ketdi. Xuddi shu payt birdan g'amtliq shamol turib, nozik shox-shabballardan qurilgan daraxtning boyagi kalla-pochchalar orasidagi cho'g'lardan "pov" bo'lib alanga oldi. Hali uchishni o'rganmagan temirqanot, hali poloponlar kabob bo'lib erga tushishdi; shunda Tulki

yugurib kelib, Burgutning ko'zi oldida uning poloponlarini yamlamay yutib yubordi.

Masaldan hissa shuki, do'stlikka hiyonat qilgan odam dili og'rikan do'stining qasosidan qutilib qolgan taqdirda ham, xudolar qahridan qochib qutila olmagay.

## **BURGUT, ZOG'CHA VA CHO'PON**

Bir Burgut baland qoya boshidan uchib tushib, yaylovda o'tlab yurgan qo'zichoqni changaliga ilib uchib ketdi. Buni ko'rgan Zog'cha Burgutga hasad qildi va u ham shunday ish tutmoqchi bo'ldi. Mana, u hamma yoqni boshiga ko'targancha qag'illab, bir qo'chqorga tashlandi. Biroq uning tirnoqlari qo'chqorning qalin yungiga ilashib, nuqul qanot qoqib qag'illayvedi-yu ammo uchib ketolmadi. Bu holni ko'rgan Cho'pon masala nimada ekanligini tushundi: yugurib kelib Zog'chani ushlab oldi-da qanotlarini kesib, kechqurun bolalariga olib borib berdi. Bolalari: "Bu qanaqa qush?" deb so'rashdi. Cho'pon bo'lsa: "Men-ku buning Zog'cha ekanini bilaman, lekin u o'zini burgut deb hisoblayotibdi-yov", dedi.

Iqtidorli odamlar bilan tenglashmoqchi bo'lganlar hech nimaga erisha olmaydilar, aksincha, ularning noshudligi boshqalarning kulgisini keltiradi.

## **BURGUT VA QO'NG'IZ**

Burgut bir quyonning payiga tushdi. Jon saqlash uchun kimdan yordam so'rashini bilmagan quyon yo'li-da ro'para kelgan yagona jonzodga – go'ng Qo'ng'iziga yolbordi. Qo'ng'iz unga dalda berdi va qarshisida paydo bo'lgan yirtqich qushga, mendan panoh izlab kelgan jonvorga tegma, deya iltijo qildi. Burgut bu jinqarcha himoyachining gapiga parvo ham qilmay quyonni tutib

edi. Lekin Qo'ng'iz bu razilona tahqirni unutmadi: endi u kun-uzzukun Burgutning uyasini qidirib, har safar u tuxum qo'ygan paytda tuxumlarini dumalatib erga tushirib sindiraverdi. Nihoyat, hech yerdan panoh topa olmagan Burgut oliy tangri Zevsga iltijo qilib, tuxum qo'yib bola ochishi uchun bexavotirroq joy ko'rsatishni so'radi. Zevs Burgutning bola ochishi uchun o'z qo'ynini ochib berdi. Buni ko'rgan Qo'ng'iz bir parcha go'ngni dumalatib soqqa qildi-da Zevs oldiga – arshi a'loga uchib chiqib, o'shal soqqani buzurg tangrining qo'yniga tashlab yubordi. Zevs qo'ynidagi go'ng parchasini qoqib yuborish uchun birdaniga o'rnidan turib ketdi va Burgutning tuxumlarini tushirib yubordi. Turgan gapki, barcha tuxumlar singan edi. Aytishlaricha, shu paytdan boshlab burgutlar qo'ng'izlar tuxumdan chiqqan chog'da uya qurmaydigan va tuxum ochmaydigan bo'lishganmish.

Masaldan hissa shuki, kichkinalarni mensimaslik yaxshi emas, zero o'zini tahqirlagandan o'ch olmoqchi bo'lgan jonivorni zaif deb bo'lmaydi. Axir aytganlar-ku: "O'zingni er bilsang, o'zgani sher bil", deb.

## BULBUL VA QARCHIG'AY

Bulbul daraxt shoxiga qo'nib olib, o'z odati bo'yicha xonish qilardi. Uni qorni och bir Qarchig'ay ko'rib qoldi va "shuv" etib uchib kelib, bechora qushchani changaliga oldi. Shunda kuni bitib ajali etgan Bulbul Qarchig'ayga yolvorib, dedi: "Jon aka, meni yemang, axir men zig'irdak-kinaman – tishingizning kavagida yo'q bo'lib ketaman. Agar qorningiz ochgan bo'lsa, yaxshisi, yirikroq qushlarni tutib eng". Lekin Qarchig'ay unga e'tiroz bildirib dedi: "Agar changalimdagi o'ljani tashlab, qorasiyam ko'rinmagan o'ljani qidiradigan bo'lsam, g'irt ahmoq bo'lgan bo'lardim".



Bu masal, ahmoq odamlargina mavhum kattakon o'lja ilinjida o'z qo'liga tushirgan boylikdan voz kechadi, demoqchi. Axir aytganlar-ku: "Ertangi tovuqdan bugungi tuxum yaxshi", deb.

## QARZDOR

Afinada bir odam boshqa bir odamdan qarz oladi. Mana, fursat etib, qarz bergan odam, qarzni to'la, deb talab qila boshlaydi. Qarzdor avvaliga, hozircha yonida puli yo'qligi sababli qarzni to'lash uchun yana bir oz muhlat so'raydi. Lekin iltimosi erda qoladi. Shunda qarzdor odam bittayu bitta sigirini bozorga olib chiqib sotmoqchi bo'ladi va qarz bergan odamning ko'zi oldida sigirini xaridorlarga maqtay boshlaydi. Bir xaridor kelib undan: "Sigiring qisir emasmi?" deb so'raydi. "Yo'q, – deydi qarzdor, – har yili qish chillasida tanacha tug'ib beradi, hayit kunlariga bor-ganda buqacha tug'adi". Xaridor bu gapni eshitib hayron qoladi. Shunda qarz bergan odam qarzdorning gapini ilib ketib, deydi: "Nega hayron bo'lyapsiz? Shoshmay turing, hali bu sigir ayyomi ajuzga1 borib qo'zichoq ham tug'ib beradi".

Ha, shunday odamlar borki, ular o'z foydalarini ko'zlab, har qanday yolg'on-yashiq gaplarni qasam ichib tasdiqlashdan ham toymaydilar.

## YOVVOYI ECHKILAR VA CHO'PON

Bir cho'pon echkilarini har kuni yaylovga haydar va kechqurun ularni yana qo'rasiga qaytarib kelardi. Mana, u echkilarini qo'raga qaytargani o'tloqqa bordi. Qarasa, bir gala yovvoyi tog' echkilarini uning echkilarini bilan o'tlab yurganmish. Cho'pon ularni ham o'z echkilariga qo'shib qo'raga haydab kiritibdi. Ertasi kuni havo aynib jala quya

boshlabdi, shu bois u jonivorlarni qo‘radan chiqarmay shu erda boqa boshlabdi. Qizig‘i shundaki, u o‘zining echkilariga nomiga bir siqim-bir siqimdan xashak solsa, begona echkilar oldiga, ularni qo‘lga o‘rgatish niyatida, pichan va emni uyib tashlabdi. Lekin ertasi kuni havo yurishib ketib, u barcha echkilarni o‘tloqqa haydab chiqqanida, yovvoyi echkilar tog‘ tomon shataloq otib chopib ketibdilar. Bu holni ko‘rgan cho‘pon ta‘na qilib, ularga debdi: “Eh noshukur maxluqlar, axir men sizlarni yaxshilab boqdim, parvarish qildim-ku, nega mendan qochib ketyapsizlar?” Shunda yovvoyi echkilar orqalariga o‘girilib cho‘ponga debdilar: “Biz senikiga kechagina kelgandik, sen bizni o‘zingning qadrdon echkilaringdan afzal ko‘rib rosa siylading. Bundan chiqdi, agar senikiga yana yangi echkilar kelgudek bo‘lsa, bizni nazardan qoldirib, ularni e‘zozlar ekansan-da? Mana shuning uchun ham o‘zimizni sendan ehtiyot qilmoqdamiz”.

Masal deydiki, o‘ziga yangi do‘st orttirganida eski qadrdon do‘stlarini mensimay qo‘yadigan odam bilan do‘st tutunmaslik kerak, zero unday odam har gal yangi do‘st topganida eskilaridan yuz o‘giraveradi.

## MUSHUK VA TOVUQLAR

Bir Mushuk tovuqxonadagi tovuqlarning kasal ekanligini eshitib qoldi. U darhol egniga tabib libosini kiyib, qo‘liga muolaja ashyolarini oldi-da tovuqxonaga eshigi oldiga keldi va tovuqlardan, ahvolinglar qalay, deb so‘radi. “Ahvolimiz yaxshi! – deb javob qilishdi tovuqlar. – Lekin sen bu yerdan qorangni o‘chirsang, yanayam yaxshi bo‘lardi”.

Ha, donishmand kishilar, o‘zini yaxshi xulq sohibi qilib ko‘rsatuvchi badniyat shaxslarni bir qarashdayoq tanib oladilar.

## EZOP KEMASOZLIK KORXONASIDA

Masalnavis Ezop kunlarning birida sayr qilib yurib, kemazozlik korxonasi oldiga borib qoladi. Kemazozlar uning beo'xshov vazohatini, tasqara basharasini ko'rib, mazah qilib kula boshlaydilar. Shunda Ezop ularga javoban deydi: "Dastavval olamda faqat g'ayrimutashakkil – Xaos va suv bo'lgan ekan. Keyin tangri Zevs yana bir tabiat yangiligi – Yerni yaratishni ixtiyor qilibdi. Yerni yaratibdi-yu unga uch ho'plashda dunyodagi barcha suvni ichib bitirishni amr etibdi. Va Yer Zevsning amrini bajarishga kirishibdi: bir marta xo'plagan ekan – tog'lar paydo bo'libdi; ikkinchi marta ho'plaganida – dala-dashtlar namoyon bo'libdi; shuni bilinclarki, agar Yer uchinchi marta ho'plasa, bu kasb-koringizning hech kimga keragi bo'lmay qoladi".

Masaldan xulosa shuki, yaxshi odamlar ustidan kulgan yomon odamlar bir kun kelib, o'zlarining butun el oldida sharmanda bo'lganlarini sezmay qoladilar.

## TULKI BILAN TAKA

Bir Tulki bexosdan quduqqa tushib ketdi va u yerdan chiqolmay, noiloj o'tiraverdi. Shu payt quduq boshiga chanqagan bir Taka keldi; u quduq ichida turgan Tulkini ko'rib, undan, "suv qalay ekan, muzdaymi?" deb so'radi. Ayyor Tulki suvni og'iz ko'pirtirib maqtay ketdi va uni ham quduq ichiga taklif qildi. Chanqog'ini qondirishdan o'zga narsani o'ylamagan Taka quduqqa sakrab tushdi va miriqib suv ichdi. Ana shundan keyingina bu yerdan qanday qutilib chiqish haqida Tulki bilan maslahatlasha boshladi. Tulki: "Menda ajoyib bir fikr paydo bo'ldi, agar uni amalga oshirsak, ikkalamiz ham bu yerdan eson-omon qutilib chiqib ketamiz, – dedi. – Bunday qilamiz: sen oldingi oyoqlaringni ko'tarib devorga tiraysan va shox-

laringni egib turasan. Men sening yelkangdan tirmashib yuqoriga chiqaman; keyin seni ham tortib olaman”. Tulking bu taklifini ham Taka o‘ylab-netib o‘tirmay qabul qildi; Tulki Takaning dumg‘azasiga, keyin elkasiga chiqib, orqa oyoqlarini uning shoxlariga tiradi-da old oyoqlari bilan quduq og‘ziga tirmashib, bir irg‘ishda yuqoriga chiqib oldi va orqasiga qayrilib ham qaramay, o‘z yo‘lida ketaverdi. Taka lafzida turmagan Tulkini bo‘ralab so‘ka boshladi, Tulki esa orqasiga o‘girilib, dedi: “Voy ovsar-e! Agar miyangda soqolingning tukichalik aql bo‘lganida, quduqqa tushishdan oldin, u yerdan qanday chiqishni o‘ylagan bo‘larding”.

Shuningdek, aqli raso odam ham bir ishni boshlashdan oldin uning oqibati qanday tugashi haqida o‘ylab ko‘rishi kerak.

## **TULKI VA SHER**

Tulki hech qachon Sherni ko‘rmagan edi. Bir kuni u tasodifan unga ro‘para kelib qoldi va ko‘rib shunaqangi qo‘rqib ketdiki, yuragi o‘ynab, sal bo‘lmasa o‘layozdi; u Sherni ikkinchi marta ko‘rganida ham ancha vahimaga tushdi-yu, birinchi galdagichalik qattiq qo‘rqmadi; mana, Tulki Sherni uchinchi marta uchratdi va endi o‘zini dadil tutib, u bilan suhbatlashishga ham jur‘at etdi.

Masal demoqchiki, eng qo‘rqinchli narsaga ham bora-bora ko‘nikish mumkin.

## **BALIQCCHI**

Bir baliqchi qamish nay chalishda beqiyos usta edi. Bir kuni u shu nayini va baliq tutadigan yoyma to‘rini olib dengiz bo‘yiga bordi-da qoya ustiga chiqib olib nay chala boshladi – baliqlar nayim navosiga mast bo‘lib suvdan

sakrab-sakrab chiqishadi, deb o‘ylagan edi u. Lekin qancha ter to‘kib nay chalmasin, baliqlardan darak bo‘lmadi. Shunda u nayni bir chetga qo‘yib, yoyma to‘rini suvga tashladi va bir zumda ancha-muncha turfa toifa baliqlarni suvdan tortib chiqardi. U to‘rdagi baliqlarni qirg‘oqqa ag‘dargan edi, ular jon holatda pitirlashib dik-dik sakray boshladilar. Buni ko‘rgan baliqchi, dedi: “Obbo yaramas maxluqlar-e, ataylab sizlar uchun nay chalganimda o‘ynamovdinglar, endi bo‘lsa nay chalmaganimda raqs tushib yotibsizlar”.

Bu masal hayotda butun qilmishi telba-teskari bo‘lgan odamlarga qaratilgan.

## **TULKI BILAN QOPLON**

Tulki bilan Qoplon, qay birimiz go‘zalroqmiz, deb tortisha boshlashdi. Qoplon o‘z terisining naqadar bejirim ekanligi haqida rosa maqtandi; shunda Tulki unga javoban dedi: “To‘g‘ri, mening vujudim senikichalik bejirim emas, lekin aql-u zakovatim benazirdirki, shu bois yuz chandon go‘zalroqman sendan!”

Bu bilan masal, aqlning teranligi jismning ko‘rkamligidan afzal ekanligini bildiradi.

## **BALIQCILAR**

Bir jamoa baliqchilar suvga tashlagan to‘rlarini torta boshlabdilar; to‘r juda og‘ir emish. Buni ko‘rgan baliqchilar, ovimiz baroridan keldi, deb o‘ylashib, qo‘shiq ayta va o‘yin tusha boshlashibdi. Lekin to‘rni tortib chiqarishgandan keyin qarashsa, unga baliq emas, toshlar va suv o‘tlari ilashgan ekan. Baliqchilar qattiq kuyuna boshlashibdi; ular nafaqat ovlari yurmaganidan, balki, umidlari puchga chiqqanidan xafa bo‘lishibdi. Bu baliqchilar jamoasida bir

keksa odam bor ekan, shu odam ularga debdi: “Qayg‘uni bas qiling, birodarlar: bilishimcha, quvonch bilan qayg‘u – aka-uka, binobarin, biz qancha quvongan bo‘lsak, shuncha qayg‘urishimiz ham kerak”.

Shu singari, bizlar ham hayotning o‘zgaruvchan ekanligini unutmasligimiz va basharti biron yutuqqa erishgudek bo‘lsak, endi umrbod saodat bizni tark etmaydi, deb o‘zimizni o‘zimiz aldamasligimiz lozim. Axir aytganlar-ku: “Har tongning bir shomi bo‘ladi”, deb.

## TULKI BILAN MAYMUN

Yo‘lda hamroh bo‘lib ketayotgan Tulki bilan Maymun, qay birimiz mashhurroqmiz, deb bahslasha boshlashibdi. Unisi ham, bunisa ham rosa og‘iz ko‘pirtirib maqtanibdi. Shu mahal ular bir qabriston yonidan o‘ta boshlashibdi. Maymun u yerdagi sog‘analarga ko‘z tashlab, og‘ir-og‘ir xo‘rsina boshlabdi. “Ha, nima bo‘ldi, nega xo‘rsinyapsan? – deb so‘rabdi undan Tulki; shunda Maymun qabr toshlarini ko‘rsatib: “Nega xo‘rsinmay! – debdi. – Axir mana shu qabr toshlari tagiga ota-bobolarimning qullari dafn etilgan”. Tulki unga javoban debdi: “Ha, maqtan-a, maqtan! Axir bu mayyitlarning birontasi ham qayta tirilib seni yolg‘onchiga chiqaraolmaydi-da”.

Odamlar orasida ham shunday yolg‘onchilar topiladiki, ular sirlarini fosh qiladigan kishi yo‘q paytida maqtanishadi. Shuning uchun ham, maqtanishga musofir yurt yaxshi, deb bekorga aytishmagan.

## TULKI VA UZUM

Qorni och Tulki bir bog‘ yonidan o‘tib keta turib, uzumlari shovul bo‘lib osilib turgan tokni ko‘rdi; ko‘rdiyu uzumini emoqchi bo‘ldi. Lekin qancha urinsa, qancha

sakrasa ham uzumga bo‘yi etmadi. Shunda hafsalasi pir bo‘lib nari ketarkan, o‘ziga o‘zi dedi: “Hali xom – yeb bo‘lmaydi”.

Odamlar ichida ham ba‘zi birovlar borki, jazm qilgan ishlarini uddalay olmasalar, vaziyatni, sharoitni bahona qilib ko‘rsatadilar.

## MUSHUK BILAN XO‘ROZ

Mushuk bir Xo‘rozni tutib oldi va chiroyli bahona ishlatib, uni yemoqchi bo‘ldi. Avvaliga uni, kechalari bemahalda qichqirib odamlarni bezovta qilasan, ularni uxlagani qo‘ymaysan, deb koyidi. Lekin Xo‘roz bu ta’naga javoban: “Axir men aynan o‘sha odamlarning foydasini ko‘zlab qichqiraman-ku, ularni uyg‘otib ishga borishga undayman”, dedi. Shunda topgan bahonasi o‘tmagan Mushuk: “Ammo sen gunohga botgan murtadsan: tabiat qonuniga rioya qilmay, onangniyam, opa-singillaring-niyam patira-putir bosaverasan”, deb Xo‘rozga yana ayb qo‘ydi. Xo‘roz bo‘lsa: “Men bu ishni ham odamlarning manfaatini ko‘zlab qilaman – shunday qilsam tovuqlar ko‘proq tuxum tug‘ib berishadi”, dedi. Bu javobdan esankirab, gap topolmay qolgan Mushuk Xo‘rozga o‘shqirib berdi: “Nima, “ali” desam, “bali” deb mendan qochib qutilmoqchimisiz? Ovora bo‘lasan!”

Masal demoqchiki, niyati buzuq odam biron yovuz ishga jazm qildimi, xoh qandaydir “olijanob” vajni bahona qilib, xoh dangal ochiqchasiga ish ko‘rib, ko‘zlagan shum niyatini amalga oshirmay qo‘ymaydi.

## DUMSIZ TULKI

Tulki bir tuzoqqa tushib dumidan ayrilib qoldi-yu bunday sharmanda bo‘lib yashashdan istihola qildi.

Shunda u ayyorlik qilib, hamma tulkilarni o'z dumlarini kesib tashlashga undamoqchi bo'ldi: ko'p qatori bo'lsam aybim sezilmaydi, deb o'ylagan-da. Mana, u butun tulki qavmini yig'ib: "Kelinglar, birodarlar, dumlarimizni kesib tashlaylik. Sababki, birinchidan, qomatimizni buzadi; ikkinchidan, u biz uchun ortiqcha yuk". Bu va'zni eshitgan tulkilardan biri dedi: "Seni qara-yu! Agar o'z foydangni ko'zlamaganingda, bizlarga bunday maslahat bermagan bo'larding".

Bu masal, o'z yaqin xeshlariga chin dildan emas, balki o'z shaxsiy manfaatini ko'zlab maslahat beruvchi odamlarga qaratilgan.

## BALIQCCHI BILAN BALIQCHA

Baliqchi suvga tashlagan to'rini tortgan ekan, unga bitta kichkina baliq ilinibdi. Sho'rlik Baliqcha tilga kirib, Baliqchiga yolvora boshlabdi: "Ey saxovatli Baliqchi, sen hozir meni qo'yib yubor – hali juda kichkinaman, keyinroq, o'sib katta bo'lganimda tutsang, o'zingga foyda bo'ladi". Lekin Baliqchi unga javoban debdi: "Qo'limga ilinib turgan o'ljani tashlab, yo'q yerdagi narsaga umid bog'laydigan ahmoq emasman!"

Bu masal, kelajakdagi katta foydadan, kichkina bo'lsa ham, qo'lga kirib turgan o'lja afzal, deb saboq beradi. Axir aytganlar-ku, uzoqdagi quyruqdan, yaqindagi o'pka yaxshi, deb.

## TULKI VA TIKANLI BUTA

Tulki devorga chiqmoqchi bo'ldi va yiqilib ketmaslik uchun tikanli Butadan ushladi. Butaning o'tkir tikanlari uning badanini tilib og'ritdi, shunda Tulki Butaga ma'lomat qilib, dedi: "Axir men sendan yordam tilab qo'l



choʻzgan edim-ku, sen boʻlsang yordam koʻrsatish oʻrniga badanimni tilka-pora qilding”. Buta unga eʼtiroz bildirdi: “Sen, tasadduq, menga yopishib xato qilding, sababki, men oʻzim oʻtgangayam, ketgangayam yopishishga odatlanganman”.

Ha, odamlar orasida ham kasbi faqat ziyon etkazish boʻlgan badniyat kishilardan yordam soʻraydigan nodonlar topiladi.

## BALIQCILAR

Baliqchilar jamoa boʻlib baliq ovlagani dengizga chiqishdi, lekin qancha urinishmasin, qancha kutishmasin, qarmoqlariga bironta ham baliq ilinmadi. Ular qayiqda kayfiyatlari buzilib oʻtirisharkan, shu yerdan suzib oʻtayotib nimadandir choʻchib ketgan Tunes1 bir sakrab baliqchilar qayigʻiga tushdi. Baliqchilar uni bozorga olib borib pulladilar.

Shunaqa, hunar va kasb bilan erishib boʻlmagan ishni koʻpincha tasodif amalga oshiradi.

## TULKI VA DARAXT KESUVCHI

Ovchilar taʼqibidan qochib kelayotgan Tulki oʻrmonda bir daraxt kesuvchiga roʻpara keladi va unga, meni yashir, deb iltijo qiladi. Daraxt kesuvchi unga, bor, kulbamga kirib berkinaqol, deydi. Bir ozdan soʻng bu erga ovchilar yetib kelishadi va daraxt kesuvchidan: “Koʻrmadingmi, shu yerdan bir tulki yugurib oʻtmadimi?” deb soʻraydilar. Daraxt kesuvchi baland ovoz bilan: “Koʻrmadim”, deb aytadi, ammo ayni paytda Tulkining qayerga berkinganini qoʻli bilan koʻrsata boshlaydi. Lekin ovchilar uning ishorasini tushunishmaydi; qisqasi, ovchilar uning gapiga ishonishib, joʻnab ketishadi. Nihoyat, Tulki ovchilarning ot

choptirib ketishganini eshitib kulbadan chiqadi va churq etmay keta boshlaydi. Bu holni ko'rgan daraxt kesuvchi unga: "Hoy, noshukur jonzod, axir men seni o'limdan qutqarib qoldim-ku! Sen bo'lsang menga rahmat ham aytmay, juftakni rostlab qolyapsan-a!" deb malomat qiladi. Unga javoban Tulki deydi: "Rahmat aytardim, agar aytgan so'zing bilan imo-ishorang bir-biriga mos bo'lganida".

Bu masalni tili bilan bir gapni aytib, qo'li bilan mutlaqo teskari ishni qiluvchi odamlarga nisbatan qo'llasa bo'ladi.

## XO'ROZLAR VA KAKLIK

Bir odam bozordan qo'lga o'rgatilgan Kaklik sotib olib, uni uyidagi Xo'rozlari yoniga qo'yib yuboradi. Lekin Xo'rozlar uni tepkilay, cho'qiy boshlaydilar. Shunda Kaklik qattiq xafa bo'lib, o'ziga o'zi deydi: "Xo'rozlar meni yoqtirishmayapti, chunki ularning qavmidan emasman-da". Ammo sal vaqtdan keyin Xo'rozlar bir-birlarini ayamay, o'zaro qonli jang qila boshlaydilar. Buni ko'rgan Kaklik o'ziga taskin berib deydi: "Yo'q, Xo'rozlar meni cho'qilashdi, deb noliyman endi, qarasam, ular o'zlarini ham ayamasa ekanlar".

Bu masalni tili bilan bir gapni aytib, dilida boshqa narsani niyat qiluvchi odamlarga tatbiq etish mumkin.

## BEMAVRID SEMIRGAN TULKI

Bir kuni qorni och Tulki daraxt kavagida podachilar, ehtiyot shart qo'yib ketgan non bilan go'shtni ko'rib qoldi. Shu zahoti kavakka kirib olib hamma yegulikni yeb tugatdi. Keyin tashqariga chiqmoqchi bo'lgan edi, ko'p ovqat yegani uchun qorni do'mbira bo'lib shishib ketganidan, qancha kuchanib ixramasin, ingramasin, hech kavak og'ziga sig'madi. Shu mahal bu yerdan chopib o'tib ketayotgan boshqa bir Tulki uning oh-u nolasini eshitib qoldi

va yaqin kelib kavakdagi tulkidan hol-ahvol so‘radi; nima bo‘lganini bilgach, hamjinsiga shunday dedi: “Endi kavakka kirayotganingdagi holingga qaytguningcha shu yerda o‘tirasan. Faqat shundagina kavakdan chiqa olasan”.

Bu masaldan xulosa shuki, qiyin vaziyatlar ham fursati kelganda o‘zidan o‘zi engillashishi mumkin.

## KO‘KTORG‘OQ

Ko‘ktorg‘oq – xilvat joylarni yoqtiradigan qush, shu sababli u hamisha dengizda yashaydi. Aytishlaricha, u o‘zini qush ovlovchilardan olib qochish maqsadida uyasini sohildagi qoya toshlar ustiga qo‘yar ekan. Mana, uning tuxum qo‘yib bola ochadigan payti kelibdi; u dengiz uzra turtib chiqib turgan bir qoyani tanlab, o‘shaning ustiga in quribdi. Lekin kunlarning birida u ovqat izlab uchib ketganida, ko‘tarilgan kuchli shamoldan dengiz qattiq to‘lqinlanib, Ko‘ktorg‘oqning inigacha ko‘tarilibdi va uni yuvib yuboribdi; hamma poloponlar suvga cho‘kib nobud bo‘libdi. Ko‘ktorg‘oq iniga qaytib kelib yuz bergan falokatni ko‘ribdi va debdi: “Sho‘rginam qurisin! Men quruqlikdagi xatardan qo‘rqib, dengizdan panoh izlagandim, ammo dengiz yanada qabihroq, makkorroq bo‘lib chiqdi”.

Odamlar ham shunday, dushmani ta‘qibidan qochib qutilish uchun, bilmasdan, ichi qora, badniyat do‘stlaridan panoh izlaydilar.

## ALDAMCHI

Bir kambag‘al odam kasal bo‘lib qoldi. U kun sayin dardi og‘irlashayotganini sezib, agar tangrilar dardimga shifo bersalar, ularga hekatomba qurbonlik qilgan bo‘lardim, deb qasam ichdi. Tangrilar bu odamni sinab ko‘rmoq-

chi bo'ldilar va dardini yengillashtirdilar. Kambag'al sog'ayib oyoqqa turdi va qurbonlik qilish uchun bironta ham buqasi bo'lmagani sababli, cho'chqa yog'idan yuzta buqaning haykalchalarini yasadi-da, ularni qurbongohda kuydirarkan, dedi: "Yo tangrilar, qilgan qurbonligimni qabul qilinglar!" Ana shunda tangrilar ham bu yolg'onchini aldamoqchi bo'ladilar va u uxlab yotganida, tushida, agar dengiz bo'yiga borsang, ming draxma pul topasan, dedilar. Sevinchi ichiga sig'magan kambag'al dengiz bo'yiga yugurib bordi va qaroqchilar qo'liga tushdi. Keyin qaroqchilar uni olib ketib, boshqa yurtda qul qilib sotdilar.

Bu masal qallob odamlarni fosh qiladi.

## **KO'MIRCHI BILAN BO'ZCHI**

Ko'mirchi bir uyda ijaraga turardi. Bir kuni u o'z tanishi Bo'zchini uchratib qolib, unga: "Men bilan birga tursang-chi, – deb taklif qildi, – bir-birimizga hamdam bo'lardik, ijara haqi ham ikki marta arzonlashardi". Lekin Bo'zchi unga e'tiroz bildirib, dedi: "Yo'q, o'rtoq, bunday qilolmayman: men oqlagan bo'zga sen qora yuqtirib qo'lasan".

Bu masal nomuvofiq narsalarning hech ham o'zaro qovusha olmasligini bildiradi.

## **KEMA HALOKATIGA UCHRAGAN ODAM**

Afinalik bir badavlat odam ko'pchilik yo'lovchilar bilan dengizda suzib borardi. Bir payt qattiq to'fon ko'tarilib, kemani ag'darib yubordi. Kemada bo'lgan barcha yo'lovchilar jon saqlab suvda suza boshladilar, faqat afinalik boy tangri Zevsga sig'inib, unga bemisl va'dalar qila boshladi. Shu payt uning yonidan suzib o'tayotgan yo'lovchilardan biri: "Zevsdan madad so'rashga so'ra-yu, lekin o'zing ham harakat qilgin-da", dedi.

Bizlar ham xudolarga sig'inishga sig'inaylik, ammo o'zimiz ham harakat qilaylik-da. Harakatda barakat, deganlar axir.

## QOTIL

Bir odam qotillik sodir etdi. O'ldirgan odamning qarindoshlari uni ta'qib qila boshladilar. Qotil qochib Nil daryosi bo'yiga keldi, lekin bu yerda u bir bo'rini uchratib, qo'rqqanidan shoxlari daryo uzra egilgan kattakon daraxtga tirmashib chiqib oldi va uning qalin novdalari orasiga yashirindi. Qarasa... shundoqqina ko'zi oldida kattakon bir ilon tebranib turganmish. U ilondan qochib o'zini suvga otdi; lekin suvda uni timsoh poylab turgan edi – shu zahoti uni yutib yubordi.

Masal deydi, jinoyat qilib gunohga botgan odam yerda ham, ko'kda ham, suvda ham o'ziga panoj topa olmaydi.

## MAQTANCHOQ SPORTCHI

Beshkurash1 musobaqasida qatnashuvchi bir sportchini hamyurtlari “qo'rqoq” deb mazax qilishadi. Shunda u o'z shahridan bosh olib chiqib ketadi va ancha vaqtdan keyin qaytib kelib, boshqa shaharlarda ko'p yutuqlarga erishganini, Rodos shahrida esa, bironta ham olimpiada g'olibi sakray olmagan masofaga sakrab, hammaning og'zini ochirib qo'yganini aytib maqtanadi; keyin: “Agar o'sha sakraganimni ko'rgan odamlar bu yerga kela olishganda edi, gapimning rostligini tasdiqlagan bo'lishardi”, deydi. Lekin sportchining gapini eshitib turganlardan biri unga deydi: “Tasadduq, agar gaping rost bo'lsa, uni tasdiqlash na hojat? Kel, yaxshisi, sen bu yerni Rodos deb hisoblagin-da, ko'rsat o'sha uzoqqa sakrashingni”.

Masal deydiki, agar biron harakatni amalda isbotlash mumkin ekan, uni ijro etish o'rniga og'iz ko'pirtirib maqtanish shart emas.

## VA'DABOZ ODAM

Bir g'arib odam kasal bo'lib yotib qoldi va o'zini juda yomon his qila boshladi. Bora-bora shu ahvolga tushdiki, hatto tabiblar ham uni davolashdan bosh tovladilar. Ana shunda G'arib tangrilarga yolvorib, agar sog'ayib ketsa, ular uchun Hekatomba qurbonlik qilishga, yana ko'p boyliklarini tangrilarga baxshida qilishga so'z berdi. Shu yerda erining va'dalarini eshitib turgan xotini undan: "Voy, qaysi pulingga qilasan bu qurbonlik va ehsonlarni?" deb so'radi. Er xotiniga: "Nima, mening sog'ayib ketishimdan maqsad faqat tangrilarga qurbonlik qilishim ekan-da seningcha?" dedi.

Masal deydiki, ba'zi odamlar, aslida bajarishni xayollariga ham keltirmagan narsalarni ijro etishga osonlikcha va'da qilaveradilar.

## MAKKOR

Bir makkor odam, Delfadagi ilohiy bashoratgohning hamma karomatlarini yolg'on va soxta; men buni isbotlayman, deb o'rtog'i bilan garov o'ynabdi. Keyin u bir chumchuqni tutib olib, egnidagi ridosi yengiga yashirgancha ibodatgohga kiribdi-da, karomatgo'y iloh qarshisida turib so'rabdi: "Qo'limdagi narsa nima – jonlimi yo jonsizmi?" Bunday savoldan maqsad: agar tangridan, "jonsiz", degan kalom eshitilsa, u tirik chumchuqni ko'rsatmoqchi, bordi-yu "jonli", degan vahiy kelsa, chumchuqni o'ldirib, o'ligini ko'rsatmoqchi edi. Vale tangri bu makkorning nopok niyatini fahmlab shunday javob qilibdi: "Bas qil

mug'ombirlikni, nodon banda! Qo'lingdagi narsaning jonli yo jonsiz bo'lishi o'z ixtiyoringda-ku".

Bu masal, tangrilarni aldab bo'lmaydi, demoqchi.

## SO'QIR ODAM

Ko'zi ko'rmaydigan bir odam qo'liga tutqazilgan har qanday jonivorni paypaslab turib, uning qanday jonzod ekanini aniq ayta olardi. Mana, bir kuni uning qo'liga bo'ri bolasini tutqazishdi; so'qir uni paypaslab ko'rdi-da sal o'ylanib turib, dedi: "Aniq aytolmayman, balki bu bo'ri-ning, tulkining yo shu toifadagi boshqa bir jonivorning bolasidir; lekin shuni yaxshi bilamanki, buni qo'y-qo'zilar suruviga yaqin yo'latmaganlari ma'qul".

Masal, ichi qora odamning yovuz ekanligini uning sirtiga qarab ham bilish mumkin, demoqchi.

## YULDUZSHUNOS

Bir yulduzshunos olim har kuni kechqurun uyidan chiqib, osmondagi yulduzlarni kuzatardi. Mana, bir kuni u shunday sayrga chiqib, butun xayoli osmondagi yulduzlar bilan band bo'lgan holda yo'l yoqalab ketaverdi va bexosdan bir quduqqa tushib ketdi. Shu zahoti u uvvos solib, odamlarni yordamga chaqira boshladi. Bu yerdan o'tib ketayotgan bir kishi olimning dod-voyini eshitib, quduq boshiga keldi va ne hol yuz berganini bilib, unga dedi: "Seni qara-yu! Osmonda nimalar bo'layotganini bilmoqchi bo'lasan, yerda, oyog'ing ostida nimalar borligini ko'rmasan".

Bu masalni hamma osongina bajara oladigan eng oddiy ishni ham uddalay olmaydigan, lekin olamshumul mo'jizalar haqida bilag'onlik qilib katta, nutqlar so'zlaydigan odamlarga nisbatan qo'llasa bo'ladi.

## DEHQON VA UNING BOLALARI

Vaqtı qazosi etib qolganini sezgan bir keksa dehqon oʻzidan keyin bolalarining yaxshi mirishkor dehqon boʻlib, yaxshi hayot kechirishlarini xohlabdi-da, ularni oʻz qoshiga chorlab shunday debdi: “Bolalarim, bogʻimizdagi toklarning tagiga men xazina koʻmganman”. Chol qazo qilibdi, oʻgʻillari uni dafn etib ketib, darhol belkurak va ketmonlar bilan butun bogʻni kavlab, chopib chiqishibdi, ammo hech qanday xazina topmabdilar. Vale yaxshi ishlov berilgan toklar koʻz koʻrib quloq eshitmagan bemisl moʻl hosil keltiribdi.

Ushbu masal, mehnatning mevasi – odamlar uchun xazinadir, demoqchi.

## QURBAQALAR

Ikkita Qurbaqa oʻz maskanlari boʻlmish koʻlmakda suv qurib qolganidan keyin boshqa suvli yerni qidirib yoʻlga tushadilar. Mana, ular bir quduq oldiga keladilar; shunda birinchi qurbaqa: “Kel, tezroq quduqqa sakrab tushaqolaylik – oʻylab oʻtiramizmi?” deydi. Lekin ikkinchi qurbaqa hamrohiga javoban shunday deydi: “Bordi-yu bu yerda ham suv qolmasa, unda qanday chiqamiz quduq ichidan?”

Bu masal bizga har qanday ishga kirishishimizdan oldin qilmoqchi boʻlgan ishimizni puxta mulohaza qilib koʻrmogʻimiz lozimligini oʻrgatadi.

## HOʻKIZLAR VA ARAVANING OʻQI

Bir juft Hoʻkiz yuk ortilgan aravani tortib borardi, aravaning Oʻqi esa tinmay gʻijirlardi. Shunda Hoʻkizlar boshlarini oʻgirib dedilar: “Ey Oʻq! Axir butun ogʻir yukni tortib ketayotgan bizlar-ku, sen nega ingraysan?”



Ba'zi odamlar ham shunaqa! Ter to'kib ishlaydiganlar boshqa-yu, ular o'zlarini ishlayverib qiynalib ketgandek qilib ko'rsatadilar.

## BOREY VA QUYOSH

Borey bilan Quyosh, qay birimiz kuchliroqmiz, deb bahslashib qolishdi va, kimki yo'lovchi odamni yechinishga majbur qila olsa o'sha bu bahsda yutadi, degan qarorga kelishdi. Birinchi bo'lib Borey ishga kirishdi. U kuchanib sovuq havo puflay boshladi, lekin odam egnidagi kiyimiga o'ranib oldi. Borey yana-da kuchliroq puflashga tushdi, odam sovuq qotib, bisotida bo'lgan hamma kiyim-kechaklarni ustiga yopib mahkamroq o'ranib oldi. Nihoyat Borey puflashdan charchab, navbatni Quyoshga berdi. Quyosh oldiniga iliq tafti bilan odamni asta-asta isita boshladi, shunda odam ustidagi ortiqcha kiyimlarni yechishga tushdi. Keyin Quyosh taftini zo'raytirib, odamni cho'g'day qizdira boshladi; ana shunda bu jazirama issiqqa dosh bera olmagan odam qip-yalang'och bo'lib yechinib, shu yaqin o'rtadagi daryo bo'yiga yugurib borib o'zini suvga tashladi.

Masalning ta'kidlashicha, ko'pincha kuch-qudratdan ko'ra e'tiqod salmoqli samara berarkan.

## SA'VA

Derazaga osib qo'yilgan qafasdagi Sa'va kechasi bilan tinmay sayrab chiqardi. Uning xonishini eshitgan Ko'rshapalak uchib kelib: "Nima uchun kun bo'yi churq etmaysan-u nuqul kechasi sayraysan?" deb so'radi. Sa'va unga javob berdi: "Buning sababi bor: men ilgari kunduzi sayrab yurgan chog'imda nogahon to'rga ilinib qolgandim. Shundan keyin esim kirib, faqat kechalari

sayraydigan bo'ldim". Ko'rshapalak unga shunday tanbeh berdi: "Sen ilgari, to'rga ilinmasingdan oldin shunaqa ehtiyotkor bo'lishing kerak edi. Esingning endi kirganidan foyda yo'q".

Masal, falokat sodir bo'lganidan keyingi pushaymon hech kimga hech qanday naf keltirmaydi, demoqchi.

## PODACHI

Podachi poda boqib yurganida bir buzog'i yo'qolib qoldi. U hamma yoqni qidirib chiqdi, lekin topolmadi. Shunda u, agar o'g'rini topsa, ulug' tangri Zevsga bag'ishlab bir uloq so'yishga ahd qiladi. Mana, u tasodifan bir quyuq daraxtzorga kiradi-yu yo'qotgan buzog'ini bir Sher g'ajib yeyayotganini ko'radi. Ko'radi-yu qattiq vahimaga tushib, ikki qo'lini ko'kka cho'zganicha tavallo qilib deydi: "Yo buzurg Zevs! O'g'rini topsam sen uchun bir uloqni qurbon qilishga va'da bergandim; endi agarda men o'g'ridan jon saqlab qololsam, senga bag'ishlab ho'kiz so'ygum, albatta".

Bu masalni o'zlarida yo'q narsani qidirgan, topgach esa, undan qanday qutilish yo'lini bilolmay mushkul ahvolga tushgan omadsiz odamlarga nisbatan qo'llash mumkin.

## SUVSAR VA AFRODITA

Suvsar bir barno yigitni astoydil sevib qoladi va Afroditaga, meni ayol kishiga aylantir deb iltijo qiladi. Ma'buda ishq alangasida lov-lov yonayotgan Suvsarga rahmi kelib, uni sohibjamol qizga aylantiradi. Yigit bir ko'rishdayoq bu qizni sevib qoladi, so'ng uni o'z uyiga boshlab keladi. Mana, ular xobxonaga kirishadi. Shunda Afrodita, Suvsar o'z qiyofasi bilan birga tug'ma xulq-atvorini ham o'zgartirdimikin, deb uni sinab ko'rmoqchi

bo'ladi va xobxonaga bir sichqonni kiritib yuboradi. Ana shunda Suvsar o'zining qayerda va kim ekanligini unutib qo'yib, to'shakdan sakrab turadi-yu sichqonni tutib yeyish uchun unga tashlanadi. Bu holni ko'rib jahli chiqib ketgan Afrodita go'zal qizga aylangan Suvsarni yana avvalgi qiyofasiga qaytaradi.

Odamlar ham shunaqa; ular tabiatan nodon bo'lsalar, tashqi qiyofalari o'zgarganida ham fe'l-atvorlari o'sha-o'shaligicha qoladi.

## DEHQON VA ILON

Bir Ilon asta o'rmalab kelib, Dehqonning o'g'ilchasini chaqib o'ldirdi. Bu og'ir musibatdan alamdiyda bo'lgan Dehqon qo'lga bolta olib, Ilonni inidan bosh chiqargani hamono chopib o'ldirmoqchi bo'lib poylay boshladi. Mana, Ilonning boshi ko'rindi, Dehqon uni boltasi bilan chopmoqchi bo'ldi, ammo Ilon chap berib qoldi, bolta esa uya og'zidagi katta toshni yorib yubordi. Shu voqeadan keyin Dehqon yurak oldirib qo'ydi va Ilonga yolborib, kel, yarashaylik, dedi. "Yo'q, – deb javob qildi unga Ilon, – yorilgan toshni ko'rib men ham, o'g'lingning qabrini ko'rib sen ham bir-birimizga yaxshilik tilay olmaymiz".

Bu masal, mudhish adovatdan keyin bitim tuzish oson bo'lmasligini bildiradi.

## DEHQON VA UNING O'G'ILLARI

Bir Dehqonning o'g'illari doim bir-birlari bilan nizolashgani-nizolashgan edi. Dehqon necha-necha bor, ahil bo'linglar, deb o'g'illariga yaxshilikcha nasihat qilib ko'rdi, ammo ular quloq solishmadi. Shunda chol bolalariga daraxt chiviqlarini bir dasta qilib yig'ib kelishni buyurdi. O'g'illar buyruqni bajarishdi. Dehqon o'g'illariga,

shu bir dasta chiviqni bir yo‘la sindiringlarchi, dedi. Lekin o‘g‘illari, qancha urinishmasin, chiviq dastasini sindira olmadilar. Shunda ota chiviqqlar bog‘ichini echib, o‘g‘illariga bittadan chiviq ulashdi; o‘g‘illar chiviq donalarini osongina sindirishdi. Dehqon dedi: “Sizlar ham, bolalarim, bir-biringiz bilan ahil bo‘lsangiz, hech qanday g‘anim sizlarni yenga olmaydi, bordi-yu hadeb nizolashaversangiz, har qanday ojiz odam ham mahv etishi mumkin sizlarni”.

Masaldan hissa shuki, ahillik, totuvlik naqadar qudratli bo‘lsa, nizo-yu nifoq shu qadar zaifdir. Axir, ayrilgan ozar, birlashgan o‘zar, deb bekorga aytmaganlar-ku.

## KAMPIR VA TABIB

Kampirning ko‘zi og‘rib qoldi, u Tabibni chaqirib, agar ko‘zimni davolab tuzatsang, yaxshi haq to‘layman, deb va‘da qildi. Tabib muolajani boshladi. Lekin u har gal kelib Kampirning ko‘ziga dori surkaganida, uning ko‘zini chirt yumib o‘tirganidan foydalanib, uydagi buyumlardan biron-tasini olib ketaverdi. Nihoyat, u Kampir uyidagi jamiki qaqir-ququr va anjomlarni olib ketib bo‘lgach, muolaja tugaganini aytib, va‘da qilingan xizmat haqini talab qildi. Kampir haq to‘lashdan bosh tortdi; shunda Tabib Kampirni hakamlar oldiga sudrab borib, uning ustidan arz qildi. Kampir esa shunday bayonot berdi: “Haq rost, muhtaram hakamlar, men bu Tabibga, agar ko‘zimni davolab tuzatsa, haq to‘lamoqchi bo‘luvdim. Holbuki, uning muolajasidan keyin ko‘zlarim hech nima ko‘rmay qoldi: men ilgari o‘z uyimdagi hamma buyumlarni ko‘rardim, endi u yerda hech nima ko‘rmayapman”.

Hayotda ham shunday: badbin va badniyat kishilar ko‘pincha katta manfaat ketidan quvib, o‘z illatlarini oshkor qilib qo‘yganlarini sezmay qoladilar.

## BEVA AYOL VA TOVUQ

Bir beva ayolning har kuni tuxum tugʻadigan bitta tovugʻi bor edi. Beva, agar unga koʻproq don bersam, kuni-ga ikkitadan tuxum tugʻib beradi, deb oʻyladi va shunday qildi ham. Lekin Tovuq bunday boquvdan semirib ketib, butunlay tuxum qilmay qoʻydi.

Masal aytmoqchiki, aksar ziqna odamlar boriga qanoat qilmay, tezroq boyib ketmoqchi boʻladilar va oqibatda bor boyliklaridan ham judo boʻladilar.

## DEHQON VA TAQDIR

Bir Dehqon oʻz chorbogʻida yer chopib turib, xazina topib oldi. Shundan keyin u bu chorbogʻni, hojatbarorim, deb eʼzozlab, har kuni yangi-yangi turfa gullar bilan bezatib turdi. Dehqonning bu amalini koʻrgan Taqdir uning yoniga kelib shunday dedi: “Birodarim, nima uchun sen Yerga minnatdorchilik bildirmoqdasan? Axir xazinani senga Yer emas, men baxsh etdim-ku, sening boy boʻlishingni xohlab! Bordi-yu ishlaring behosdan chappasiga ketib, nochor va notavon ahvolga tushsang, unda yana meni – Taqdiringni qargʻay boshlaysanmi?”

Masaldan hissa shuki, har bir inson oʻz valineʼmatini bilmogʻi va mudom unga minnatdorchilik izhor qilib turmogʻi lozim.

## IKKI OʻRTOQ VA AYIQ

Ikki oʻrtoq oʻrmondagi soʻqmoq yoʻldan ketib borardi, kutilmaganda oldilaridan bir bahaybat Ayiq chiqib qoldi. Yigitlardan biri shu zahoti daraxtga tirmashib chiqib novdalar orasiga berkinib oldi. Lekin ikkinchi yigit qochishga ulgira olmadi, shu bois yerga uzala tushib xuddi oʻlikday

qimir etmay yotdi. Ayiq unga yaqin kelib, aftini hidlay boshlaganida, yigit nafas ham olmadi; chunki, aytishlaricha, ayiqlar o'laksalarga tegmas ekan. Mana, Ayiq orqasiga o'girilib jo'nab ketdi, shunda daraxtga chiqib olgan o'rtoq yerga tushdi va: "Ayt-chi, Ayiq qulog'ingga nimalarni pichirladi?" deb so'radi. O'rtog'i unga javoban bunday dedi: "Bundan keyin safarga chiqqaningda, seni mushkul ahvolda tashlab qochadigan odam bilan hech ham hamroh bo'lma, deb shipshidi".

Masaldan xulosa shuki, haqiqiy do'st boshga og'ir musibat tushganda bilinadi.

## IKKI YIGIT VA QASSOB

Ikki yigit qassobdan go'sht xarid qila boshladi. Qassob ish bilan alahsigan paytda yigitlardan biri peshtaxtada yotgan bir bo'lak go'shtni olib, o'rtog'ining qo'yniga solib qo'ydi. Qassob o'girilib go'shtning yo'qolganini sezdi va yigitlarni ayblay boshladi. Lekin go'shtni olgan yigit, xudolar shohid, menda sizning go'shtingiz yo'q, deb, go'sht bo'lagini qo'yniga yashirgan yigit esa, men go'shtingizni olmadim, deb qasam icha boshladilar. Ularning nayrang ishlatayotganini fahmlagan qassob dedi: "Hay, mayli, yolg'on qasam ichib mendan qutilib ketyapsizlar; ammo, baribir, bunday qasamxo'rlik qilganingiz uchun xudolar g'azabidan qutilolmagaysiz".

Masaldan hissa shuki, soxta qasam, uni nechog'liq niqoblashga urinmasinlar, baribir hamisha u qabihdir.

## RAQIBLAR

O'zaro yovlashib qolgan ikki raqib bir kemada suzib borardi. Ular bir-biridan uzoqroq bo'lish maqsadida, biri kemanding quyrug'iga joylashdi, ikkinchisi kema tum-

shug'iga o'tirib oldi. Ular hamisha shu alpozda o'tirishdi. Bir mahal dengizda dahshatli to'fon ko'tarilib, kema cho'ka boshladi. Shunda kema quyrug'ida o'tirgan odam darg'adan, kemanding qay qismi oldin suvga cho'kadi, deb so'radi. "Tumshug'i", deb javob qildi darg'a. Buni eshitib, quyruqdagi odam dedi: "Unday bo'lsa o'limimga roziman, faqat dushmanimning mendan oldin suvga g'arq bo'lishini ko'rsam armonim qolmaydi – ko'nglim taskin topib o'laman".

Shunday odamlar borki, g'animining iztirob chekishini ko'rish uchun o'zlari ham badtarroq azobga duchor bo'lishdan qaytmaydilar.

## QO'SHNI QURBAQALAR

Bir-biriga qo'shni ikki Qurbaqa bor edi. Ularning biri yo'ldan chetroqdagi hovuzda, ikkinchisi shundoqqina katta yo'l bo'yidagi ko'lmak suvda yashardi. Hovuzda yashovchi Qurbaqa qo'shnisini o'zi bilan birga yashashga taklif qilib dedi: "Kelsang yaxshi bo'lardi, egachi, bu yerda xo'rak ko'p, birgalikda tinch-totuv bo'lib yashardik". Lekin yo'l yoqasida yashovchi Qurbaqa bo'lsa unga: "Yo'q, qo'shnijon, men o'z ko'lmagimga ko'nikib qolganman, uni tashlab ketolmayman", deb qo'shnisining hovuziga borishga rozi bo'lmadi va oqibat, kunlarning birida yo'ldan o'tib borayotgan arava g'ildiragi uni majaqlab yubordi.

Odamlar orasida betuturuq odatga qul bo'lib yashovchilar topiladiki, undaylar orzu qilgan ezgu niyatlariga eta olmay dunyodan ko'z yumadilar.

## EMAN DARAXTI VA QAMISH

Eman bilan Qamish, qay birimiz kuchliroqmiz, deb bahslasha boshladilar. Shu bahs paytida kuchli shamol

ko'tarildi va Qamish bir seskanib ketib, bu shamolga bosh egib ta'zim qildi; ammo Eman shamolga qarshi ko'ksini qalqon qilib turaverdi, oqibatda ildizi bilan qo'porilib yerga quladi.

Ushbu masal, kuchlilar bilan bahslashmaslik kerak, deb uqdiradi.

## **SHERNING OLTIN HAYKALINI TOPGAN QO'RQOQ BOY**

Pulni ko'rsa o'zini tomdan tashlaydigan bir Qo'rqoq boy tilladan quyilgan sher haykalini topib oldi va o'zicha shunday mulohaza yurita boshladi: "Endi nima qilsam ekan buni, hayronman. Esim og'ib dovdirab qoldim. Ochko'zligim meni bir tomonga, qo'rqoqligim ikkinchi tomonga tortib, holi jonimga qo'yishmayapti. Qanday qismat yo qaysi tangri yaratdiykin bu tilla sherni menga azob berish uchun? Parokanda qalbim o'z yog'iga o'zi qovrilib yotibdi: o'zim oltinni jonimdan ortiq yaxshi ko'raman, lekin mana bu oltinning qiyofasi meni qattiq vahimaga solmoqda. Dilim bu topilmani tezroq o'ziga olishni xohlayapti-yu, ammo diyonat unga qo'l tek-kizmaslikka da'vat etmoqda. Ey yovuz qismat! Bu nima qilganing – berishga berib, olishga oldirmayapsan! Eh, bu qanday boylikki ko'ngilni quvontirmayapti! Ey tangrilar-ning falokatli saxovati, nima qilsam ekan seni? Qanday qilib qo'lga kiritsam ekan-a bu topilmani? Men biron nayrang ishlatishim kerak!.. Bo'ldi, topdim: hozir borib bu yerga qullarimni boshlab kelaman – ular baravariga qo'lga ko'tarishadi bu tilla sherni; men bo'lsam, ularni uzoqdan kuzatib turaman".

Bu masal, o'z mol-davlatidan huzur qilib, zavqlanib foydalana olmaydigan noshud boylar haqida.



## ASALARI BOQUVCHI ODAM

Bir kishi asalari uyalari turgan o'tloqqa egasi yo'qligida kelib, asalari uyalaridagi mo'mkatalarni ancha-muncha asali bilan o'g'irlab ketdi. Xo'jalik egasi kelganida uyalar bo'm-bo'sh bo'lib qolgan edi; shunda asalarichi uyalarni birma-bir ko'zdan kechira boshladi; bu payt daladan asalarilar uchib kelishdi va uylarini titkilayotgan asalarichini ko'rib, uni chaqa boshlashdi. Bu chaquvlar azobiga chiday olmagan asalarichi ularga dedi: "Voy, yaramaslar-e! Bu nima qilganlaring? Nega sizlarni parvarishlab boqib kelayotgan meni ayamay chaqib yotibsiz? Axir sizlar mo'mkatalaringiz bilan g'amlagan asalingizni o'g'irlab ketgan odamni chaqishingiz kerak edi-ku!"

Shunday kishilar bo'ladiki, do'stni dushmandan farq qila olmaydilar va o'zlarini dushmandan himoya qilish o'rniga, asl do'stlarini dushman bilib, ularni o'zlaridan quvadilar.

## DELFIN BILAN MAYMUN

Sayr qilgani dengiz sayohatiga chiqqan odamlar, odatda, o'zlari bilan maymun olishardi. Shunday sayyohlardan biri safarga bir maymunni etaklab chiqqan edi. Mana, sayyohlar tushgan kema Afina yaqinidagi Suniy buruni yonidan o'ta boshlaydi; shunda birdan kuchli to'fon ko'tarilib, kema suvga cho'ka boshlaydi va undagi barcha odamlar, shu jumladan maymun ham, jon shirin emasmi, dengizda suza boshlaydilar. Shu mahal bir Delfin Maymunni ko'rib qoladi, uni odam deb o'ylab, yaqin boradi-da, cho'kib ketishdan asrab, sohil tomon o'z ustida olib keta boshlaydi. Mana, ular Afinaning Pirey limaniga yaqinlashadilar. Shunda Delfin Maymundan: "Sen o'zi afinalikmisan?" deb so'raydi. Maymun javob beradi: "Ha,

afinalikman, u yerda nomi ulug' boobro' qarindoshlarim ko'p". Shu javobdan keyin Delfin: "Pireyni ko'ryapsanmi?" deb so'raydi. Maymun, bu Pirey bironta odam bo'lsa kerak, deb o'ylab: "Ha, ko'rib turaman, u mening yaqin qarindoshim", deydi. Yolg'onchining bu gapidan achchig'i chiqib ketgan Delfin Maymunni dengiz o'rtasiga sudrab borib cho'ktirib yuboradi.

Masal yolg'on so'zlovchi odamlarni qoralaydi.

## BUG'U VA SHER

Qattiq suvsagan bir Bug'u chanqog'ini qondirgani buloq boshiga keladi. U huzur qilib suv icharkan, o'zining suvdagi aksini tomosha qiladi: tarvaqaylab o'sgan yirik-yirik bejirim shoxlariga zavqlanib qaraydi, lekin qiltiriq, nimjon va cho'pday oriq oyoqlarini ko'rib ta'bi xiralashadi. Bug'u shunday xayolga g'arq bo'lib turganida Sher paydo bo'ladi va uni quva boshlaydi. Bug'u qocharkan, Sherdan ancha oldinlab ketadi. (Zero Bug'uning kuchi oyoqlarida, Sherniki – yuragidadir.) Bug'u ochiq dalada Sherni ancha orqada qoldirib ketadi, lekin o'rmonga kirib borganida, shoxlari daraxt navdalariga ilashib, tez yugurolmaydi, oqibat, Sher uni tutib oladi. Shunda Bug'u ajali etganini sezib o'ziga o'zi deydi: "Shunchali badbaxt ekanman! Xiyonat qilishadi, deb gumonsiraganim – oyoqlarim meni bir o'limdan qutqardilar, ammo xaloskorim deb umidvor bo'lganim – shoxlarim meni halok etdilar".

Ko'pincha falokat sodir bo'layotgan paytda yordam qo'lini cho'zishlariga hech ko'zimiz etmagan do'stlarimiz bizni xatardan omon saqlab qoladilar, vale madadkorimiz deb umid bog'laganimiz do'stlarimiz nobud bo'lishimizga yo'l qo'yib beradilar.

## BUG‘U VA ARSLON

Bir Bug‘u ovchilar ta‘qibidan qochib, Arslon in qurgan g‘or og‘ziga borib qoladi va o‘zini panaga olish uchun shu g‘orga kiradi. Lekin bu erda u Arslonning panjasiga ilinadi; u o‘z o‘limi oldidan deydi: “E voh! Sho‘rim quridi mening! Vahshiy hayvonning changaliga ilinish uchun qochibman-da odamlardan?”

Xulosa: ba‘zi kishilar kichik bir xatardan o‘zlarini olib qochib katta falokatga ro‘para bo‘lganlarini sezmay qoladilar.

## BUG‘U VA UZUM TOKI

Bir Bug‘u ovchilardan qochib uzumzorga yashirindi. Ovchilar uni ko‘rmay bog‘ yonidan o‘tib ketishdi. Shunda, falokatdan qutildim, deb ko‘ngli taskin topgan Bug‘u Tok barglarini yeya boshladi. Lekin ovchilardan biri shu payt tasodifan orqasiga o‘girilib, Bug‘uni ko‘rib qoldi va kamonidan o‘q otib uni yaraladi. Ajali yetganini sezgan jonivor og‘ir bir nola chekib o‘ziga o‘zi dedi: “Eh, qanday sho‘rpehonaman! Qilmishimga yarasha jazoimni oldim: bu Tok meni o‘limdan qutqarib qolgan edi, men bo‘lsam uni nobud qildim”.

Bu masalni o‘z yaqinlarining dilini og‘ritgani uchun xudoning qahriga uchragan odamlarga nisbatan qo‘llash mumkin.

## MUSHUK VA SICHQONLAR

Bir xonadonda Sichqonlar ko‘payib ketgan edi. Buni eshitib qolgan Mushuk shu uyga kelib, Sichqonlarni bit-tama-bitta tutib yeya boshladi. Nihoyat, bunaqada ham-malari qirilib ketishi mumkinligini o‘ylagan Sichqonlar

jon saqlab in-inlariga berkinib oldilar. Endi Mushuk ularni tuta olmay qoldi. Ana shunda u hiyla-nayrang ishlatib, Sichqonlarni inlaridan chiqarmoqchi bo'ldi: u bir qoziqqa xuddi o'lib qolgandek osilib turdi. Lekin inidan boshini chiqarib mo'ralagan bir Sichqon osilib turgan Mushukni ko'rdi-da, shunday dedi: "Yo'q, egachi, hatto qopga aylanib osilganingda ham senga yaqin yo'lamayman".

Masal deydi, biron kimsaning makr-u hiylasiga uchrab pand egan dono odam, bir toshga ikki marta qoqilmaganidek, boshqa hech qachon aldovga uchmaydi.

## PASHSHALAR

Bir omborxonada asal to'kilib ketdi; Pashshalar uni tatib ko'rib, shirin ekanligini bilishgach, hammalari unga vij-vij bo'lib yoprilishdi. Lekin oyoqlari asalga botib ucha olmaganlaridan keyin, totli asalga g'arq bo'larkanlar deyishdi: "Eh, attang, bir zumli lazzatli hayot deb joni-mizdan judo bo'lyapmiz".

Masal deydi, shahvoniy lazzatga mukkasidan ketgan odamlarning ko'pchiligi mash'um baxtsizlikka uchrashlari muqarrardir.

## ESHAK, XO'ROZ VA SHER

Qorni och Sher bir og'ilxonada Eshak turganini ko'rib, uni yemoqchi bo'ldi va asta pusib kela boshladi. Shu payt uy egasining Xo'rozi qichqirib yubordi (aytishlaricha, Sher Xo'roz qichqirig'idan qo'rqar ekan); Sher qo'rqib ketib yerga qapishib yotib oldi, so'ng tiraqaylab qocha boshladi. Sherining Xo'roz ovoziidan qo'rqib qochganini ko'rgan Eshakning g'ayrati jo'shib ketdi va Sher orqasidan quva boshladi; ana shunda ancha nariga borib qolgan Sher orqasiga o'girilib, Eshakni tutib edi.

Eshakka o'xshagan nodonlar odamlar orasida ham uchrab turadi. Raqibining o'zini past olayotganini ko'rgan bunday odam, men zo'r ekanman, deb kerila boshlaydi va halokatga uchrayotganini sezmay qoladi.

## TULKI BILAN MAYMUN

O'rmonda barcha hayvonlar katta anjumanga yig'ilib, o'zlariga podshoh saylamoqchi bo'libdilar. Bu yig'inda Maymun o'ynoqlab raqs tushib hammani qoyil qoldiribdi; shu bois hayvonlar uni o'zlariga podshoh etib saylabdilar. Biroq Tulkining bunga g'ayirligi kelibdi; bir kuni u o'rmonda bir bo'lak go'sht ilingan qopqonni ko'rib qolibdi va Maymunni bu erga boshlab kelib, debdi: "Bu o'ljani kamina topdim, vale uni o'zimga olmadim – sizga ilindim, podshohim, marhamat, o'z qo'lingiz bilan olib tanovul qiling". Hech qanday shubha sezmagani g'ofil Maymun qopqonga yaqin borib unga ilinib qolibdi va Tulkidan bu razil qilmishi uchun o'pkalana boshlabdi. Tulki esa unga javoban: "Voy, pandavoqi-e, hali shu farosating bilan barcha hayvonlar ustidan hukmronlik qilmoqchi bo'ldingmi?" debdi.

Biron bir ishga bemulohazalik bilan kirishgan kishilar muvaffaqiyatsizlikka uchrab, el orasida sharmanda bo'ladilar.

## TILLA TUXUM TUG'UVCHI G'OZ

Bir odam xudolar mujdachisi Hermesga astoydil sig'inar va uni e'zozlardi. Shu izzat-ikromi uchun Hermes unga tilla tuxum tug'uvchi bir G'oz tuhfa qildi. Lekin bu odamning oz-ozdan boyishga sabri chidamadi: u, G'ozning ichi oltinga to'la bo'lishi kerak, deb o'ylab, uni shartta so'ydi. Ammo niyati puch chiqdi – G'ozning qorni-

da ichak-chavaqlardan bo‘lak hech narsa yo‘q edi. Oqibat, noshukur banda kunda topib turgani tilla tuxumdan ham mahrum bo‘ldi.

Manfaatparast, qurumsoq odamlar ham shunday: katta boylik ketidan quvib, bor boyliklaridan ayrilib qoladilar.

## IKKI IT

Bir odamning ikkita iti bor ekan: u bir itini ov qilishga, ikkinchisini – uyni qo‘riqlashga o‘rgatibdi. Har safar ovchi it egasiga o‘lja tutib kelganida, egasi o‘ljaning bir bo‘lagini qo‘riqchi itga ham tashlar ekan. Bu nohaqlikka chidolmagan Ovchi it Qo‘riqchi itga minnat qilib, debdi: “Men har kuni ertadan-kechgacha yelib-yugurib, horib-charchab ov qilib kelaman, ammo sen hech ish qilmay, birovning topganini yeb, qorin qappaytirib yotibsan”. Qo‘riqchi it unga shunday javob qilibdi: “Sen bu minnatingni menga emas, xo‘jayinga qil, chunki meni mehnat qilmay, birovlar hisobiga kun kechirishga o‘sha o‘rgatgan”.

Biz ham ishyoqmas, yalqov bolalarni emas, balki ularni shunday qilib o‘stirgan ota-onalarini koyishimiz kerak.

## OTA VA UNING QIZLARI

Bir odamning ikki qizi bor edi. U bir qizini polizchi dehqonga, ikkinchi qizini kulolga erga berdi. Oradan vaqt o‘tib, bir kuni ota polizchi kuyovinikiga bordi va qizidan hol-ahvol so‘radi. Qizi: “Binoyiday yashab turibmiz, hamma narsamiz yetarli, – dedi, – faqat tez-tez yomg‘ir yog‘ishini tangrilardan iltijo qilib yotibmiz: ekan sabzavot-u ko‘katlarimiz suvga qonsinlar uchun”. Keyin ota ikkinchi qizidan xabar olgani kulol kuyovinikiga ham bordi. Bu qizi ham: “Hech nimadan kamimiz yo‘q, – deb javob qildi otasiga, – faqat ob-havo yaxshi bo‘lsa,

quyosh charaqlab qizdirib tursa bo'lgani: yasagan sopol idishlarimiz tezroq quriydi. Biz tangrilardan faqat shuni so'raymiz doim". Bu gapni eshitib, ota qiziga dedi: "Sen ob-havo yaxshi bo'lishini istasang, opang tez-tez yomg'ir yog'ishini xohlasa, unda men tangrilarga sig'inganimda qay biring uchun madad so'rayman?"

Masal deydiki, agar odam bir-biriga zid bo'lgan ikkita ishga baravar kirishsa, uning hech qanday samaraga erisha olmasligi muqarrardir.

## **BO'RI BILAN ULOQCHA**

Podadan orqada qolgan bir Uloqchani Bo'ri quva boshlabdi. Uloqcha undan qocharqan, orqasiga o'girilib, debdi: "Bo'ri, Bo'ri, bilaman, hozir sen meni yeysan. Kel, o'limim oldidan seni bir xursand qilay: sen surnay chal, men raqsga tushay". Mana, Bo'ri surnay chala boshlabdi. Uloqcha esa o'ynay boshlabdi. Shunda podani qo'riqlovchi itlar surnay ovozini eshitib, Bo'rini quva ketishibdi. Bo'ri dumini xoda qilib qocharkan, debdi: "Bu kunimdan battar bo'lmaymanmi, axir men qassobman-ku... Kim qo'yibdi menga mashshoqlik qilishni?"

Odamlar ham shunday: agar biron ishga bemavrid qo'l ursalar, erishgan o'ljalardan ham quruq qoladilar.

## **BO'RI VA TOMDAGI ULOQCHA**

Bo'ri bir uy yonidan o'tib borayotganida shu uy tomiga chiqib olgan Uloqcha uni bo'ralab so'ka boshladi. Bo'ri unga qarab: "Meni sen emas, sen turgan joy so'kyapti", dedi.

Masal deydiki, vaziyatning qulayligi o'zidan kuchli bo'lgan odamga dag'allik qilish uchun imkon yaratarkan.

## ZEVS, PROMETHEY, AFINA VA MOM

Oliy tangri Zevs buqani, titan Prometey – odamni yaratdilar, Zevsning qizi ma'buda Afina – uy bunyod etdi. So'ng tangrilar bu ijodlariga baho berish uchun Momni hakam etib tayinladilar. Ichi qora Momning rashki kelib, ilohiy ijodlarni shunday baholadi: "Zevs xatoga yo'l qo'ygan: buqaning ko'zi shoxiga o'rnatilmagan, axir bunaqada buqa nimani suzayotganini ko'rmaydi-ku; Prometey yaratgan odamining yuragini sirtga chiqarishi kerak edi, hozir bu odam yaxshini yomondan darrov farq qila olmaydi, kimning ko'nglida nima borligini ko'ra olmaydi; Afina bo'lsa, yaratgan uyini g'ildiraklarga o'rnatishi kerak edi, shunda bu uy egasi agar yomon odamga qo'shni bo'lib qolsa, osongina ko'chib ketishi mumkin bo'lardi". Bunday tuturuqsiz, g'iybat gapdan qattiq g'azabi qaynagan Zevs Momni Olimpdan haydab tushirib yuborgan ekan.

## ZOG'CHA VA QUSHLAR

Zevs qushlar ustidan shoh tayinlamoqchi bo'ldi va buning uchun jamiki parrandalar yig'iladigan anjuman kunini belgiladi. O'zining xunuk qush ekanligini yaxshi bilgan Zog'cha hamma yoqdan har turli qushlarning patlarini terib ular bilan bezandi. Mana, anjuman kuni keldi, shunda ko'zni qamashtiradigan bo'lib bezangan Zog'cha o'zini Zevsga ko'z-ko'z qila boshladi. Zevs Zog'chani husndorligidan maroqlanib, uni shoh etib tayinlamoqchi bo'ldi, lekin hamma qushlar bundan norozi bo'lib chug'ullashdi va Zog'chani o'rab olib, har bir qush uning ustidagi o'z patini yulib ola boshladi. Ana shunda yalang'och bo'lib qolgan qush yana avvalgi oddiy Zog'chaga aylandi-qoldi.



Odamlar ham shunday: ularning bu foniy hayotda erishgan boyliklari vaqtinchalikdir. Ha, bizlar qarzga olgan boyliklarimiz bilan kerilib yashaymiz, vale qazo qilganimizda ularning baridan mosuvo bo‘lamiz. Binobarin, biz orttirgan mol-davlatimiz bilan faxrlanish o‘rniga, boqiy mulkimiz bo‘lmish – ruhimizni pok saqlash haqida qayg‘urmog‘imiz kerak.

## ZEVS VA TOSHBAQA

Oliy tangri Zevs to‘y qilmoqchi bo‘libdi va jamiki joni-vorlarni bu to‘yga taklif qilibdi. To‘yga hamma hayvonlar kelishibdi, faqat Toshbaqa kelmabdi. Buning sababini tushunmagan Zevs ertasi kuni Toshbaqadan, nechun to‘yimga faqat sen kelmading, deb so‘rabdi. “O‘z uyim – o‘lan to‘shagim”, deb javob qilibdi Toshbaqa. Bunday javobni eshitib qahri qaynagan Zevs: “Bas shunday ekan, bundan buyon o‘z uyingni o‘zing bilan olib yurgaysan!” debdi.

Shuningdek, ko‘p odamlar ham birovning shohona ziyofatida mehmon bo‘lishdan o‘z uylarida kamtarona kun kechirishni afzal ko‘radilar.

## HERAKL VA PLUTOS

Herakl Olimpda tangrilar jamoasiga qabul qilinganida, Zevs ziyofat beradi va Herakl bu yerdagi jamiki ilohlarning har biri bilan samimiy ehtirom ila ko‘rish boshlaydi, lekin bu ko‘rishuv oxirida oldiga Plutos<sup>1</sup> kelganida, Herakl undan yuzini teskari o‘giradi. Buni ko‘rgan Zevs hayron bo‘lib so‘raydi: “Nima uchun barcha ilohlar bilan ochiq chehrada ko‘rishding-u, faqat Plutos kelganida unga qayrilib ham qaramading?” Herakl javob beradi: “Men odamlar orasida yashaganimda Plutosning ko‘proq bad-

xulq kishilar bilan aloqa qilganini ko'rgandim, shu bois u bilan ko'rishishni xohlamayman".

Ushbu masalni puli ko'p badavlat, ammo xulqi yomon odamlarga nisbatan qo'llash mumkin.

## CHUMOLI VA QO'NG'IZ

Yozning issiq kunlarida Chumoli yolg'iz dalani aylanib, qishga g'amlash uchun bug'doy va arpa donlarini terib yurardi. Uni Qo'ng'iz ko'rib qoldi va rahmi kelib, dedi: "Voy, sho'rlik-e, shunday jazirama issiqda ham ishlab yotibsanimi, nega boshqa jonzodlarga o'xshab sen ham yayrab dam olmaysan, vaqtixushlik qilmaysan?" O'shanda Chumoli Qo'ng'izga hech nima demagan edi. Oradan vaqt o'tib qish keldi, daladagi go'nglarni yomg'ir yuvib atala qilib yubordi va Qo'ng'iz och qoldi. Mana u Chumolining oldiga, biron yegulik ber, deb tilanchilik qilib keldi. Shunda Chumoli unga dedi: "Eh, Qo'ng'iz, Qo'ng'iz, yozda mehnat qilib yurganimda, menga aql o'rgatib nasihat qilish o'rniga, o'zing ham ishlaganingda edi, hozir och o'tirmagan bo'larding".

Mol-dunyosi badastir odamlar ham ertangi kunlari haqida o'ylashlari kerak. Kim bilsin, hayotda birdan vaziyat o'zgarib, ular mushkul ahvolga tushib qolishlari ham mumkin.

## TABIB VA BEMOR

Mayyitni tobutga solib qabristonga olib keta boshladilar. Yo'lda Tabib mayyitning qarindoshlaridan biriga shunday dedi: "Bilasizmi, agar rahmatli kamroq sharob ichganida va ko'proq huqna qilganida hali beri o'lmasdi. Qarindosh unga shunday javob qildi: "Birodari aziz, sen bu maslahatingni unga tirikligida berishing kerak edi, endi bundan nima foyda?"

Masal deydiki, yordamga muhtoj bo'lgan bemor do'stga o'z vaqtida ko'mak berish kerak, uning tuzalishiga umid qolmagandan keyin berilgan maslahat befoyda.

## **POLIZCHI**

Bir Polizchi dehqon ekinlarini sug'orardi. Shu mahal bu yerga kelgan bir odam undan so'radi: "Nima uchun begona o'tlar durkun va baquvvat o'sadilar-u, biz ekkan o'simliklar zaif va qiltiriq bo'lishadi?" Polizchi unga javob qildi: "Negaki, yer ularning ba'zilari uchun – ona, boshqalari uchun – o'gay onadir".

Ona parvarishida bo'lgan bolalar bilan o'gay ona qo'lida o'sgan bolalar ham bir-birlaridan xuddi shunday farq qiladilar.

## **DEHQON VA UNING ITI**

Bir Dehqonning Iti quduqqa tushib ketadi. Dehqon uni olib chiqqani quduqqa tushadi. Lekin It egasining nega oldiga tushayotganini tushunmaydi va, meni suvga cho'ktirmoqchi, deb o'ylab, Dehqonni tishlab oladi. Og'riqqa chiday olmagan Dehqon deydi: "Ajab bo'ldi, xo'b bo'ldi, ayb o'zimda hamonki, It o'zi suvga cho'kmoqchi ekan, nima qilardim uni qutqarishga urunib?"

Bu masal yaxshilikka yomonlik qiluvchi noshukur odam haqida.

## **O'G'RILAR VA XO'ROZ**

Bir uyga o'g'irlikka tushgan o'g'rilar u yerda bitta Xo'rozdan boshqa hech vaqo topmadilar va uni tutib olib jo'nab qoldilar. O'zining so'yilishini sezgan Xo'roz o'g'rilarga yolborib dedi: "Xudo xayringizni bersin, meni

qo'yib yuboringlar. Axir mening odamlarga ko'p foydam tegadi. Ularni kechalari uyg'otaman, ishga borishsin, deb". O'g'rilar unga dedilar: "Ana shu qilmishing – odamlarni uyg'otib, bizning o'g'irlik qilishimizga imkon bermaganing uchun ham seni so'yamiz".

Masaldan hissa shuki, yaxshi odamlar uchun foydali bo'lgan har qanday amalni yovuz niyatli kishilar manfur ish deb biladilar.

## ZOG'CHA VA QARG'ALAR

Bir Zog'cha o'z qavmidagi boshqa zog'chalardan bo'ydorroq, bo'laliroq edi. Shu bois u o'z urug'idan jirkanib, qarg'alar jamoasi huzuriga bordi va ular bilan birga yashamoqchi bo'lganini aytdi. Ammo Zog'chaning turqi ham, ovozi ham qarg'alarga yot edi, shuning uchun bu qushga ro'yxush bermay, cho'qib-cho'qib haydab yuborishdi. Quvilgan Zog'cha o'z urug'lari oldiga qaytib keldi, lekin zog'chalar bu takabbur qushdan nafratlanib, uni jamoalariga qo'shmadilar.

O'zga yurtni afzal ko'rib, o'z vatanini tark etgan kishilar shu Zog'chaga o'xshaydilar: begona yurtda qadr-qiymat topmaydilar, o'z vatanlarida esa odamlar ulardan yuz o'giradilar.

## QARG'A BILAN TULKI

Qayerdandir bir bo'lak go'sht olib qochgan Qarg'a uchib kelib daraxt shoxiga qo'ndi. Uni Tulki ko'rdi va daraxt tagiga kelib, Qarg'a tumshug'idagi go'sht ilinjida, unga: "Oh, Qarg'ajon, sen eng ulug', eng go'zal qushsan, aslida, barcha parrandalarga faqat sen shoh bo'lishing kerak edi-yu lekin ovozing uncha jarangdor emas-da", deb xushomad qila boshladi. Shunda Qarg'a o'zining

yangroq ovozini Tulkiga namoyish qilish uchun, tumshug'idagi go'shtni tushirib yuborib, ovozining boricha qag'illay boshladi. Tulki shu zahoti go'shtni ilib oldi-da, Qarg'aga dedi: "Eh, nodon, agar kallangda yana aqling ham bo'lganida edi, boshqa hech nima kerak bo'lmasdi senga qushlarning shohi bo'lishing uchun".

Masal nodon odamlar haqida.

## ZOG'CHA VA KAPTARLAR

Kaptarxonadagi Kaptarlarni yaxshi boqishayotganini ko'rgan Zog'cha shu qushlar jamoasida yashamoqchi bo'lib, o'zini oq bo'yoqqa bo'yab oldi. U tovush chiqarmagan chog'da Kaptarlar uni o'z toifalaridan deb bilishdi, lekin u bir payt o'zining kaptar emasligini unutib qo'yib, birdan qag'illab yubordi. Shunda Kaptarlar Zog'chani tanib qolib, oralaridan haydab yubordilar. Kaptarlar xo'ragidan mahrum bo'lgan Zog'cha o'z hamjinslari yoniga qaytib keldi, lekin bu oq patli qushni zog'chalar tan olmay, yonlariga yaqin yo'latmadilar. Oqibat, ikki oxurdan yem yeyishni ko'zlagan Zog'cha har ikkisidan ham quvildi.

Binobarin, bizlar ham o'zimizda boriga shukur qilmog'imiz va ochko'zlik tufayli butun bor-budimizdan mosuvo bo'lishimiz mumkinligini unutmasligimiz kerak.

## IT VA TULKI

Bir ovchi It sherni ko'rib qolib, uni quvishga tushdi. Sher orqasiga o'girilib bir o'kirgan edi, It tiraqaylab qocha boshladi. Buni ko'rgan Tulki dedi: "Voy tentak-e, sherning faqat ovozidan qo'rqib qochyapsan-u, kim qo'yibdi senga uning orqasidan quvishni?"

Shunday odamlar bo'ladiki, ular o'zlaridan boobro'roq, qudratliroq kishilarni yomonlab g'iybat qila boshlaydilar,

ammo ularning dag'dag'alarini eshitib, zumda damlari ichlariga tushib jim bo'lib qoladilar. Masal shunday g'iy-batchilarga qarshi qaratilgan.

## GO'SHT TISHLAGAN IT

Og'zida bir bo'lak go'sht bilan ko'prikdan o'tayotgan It suvda o'z aksini ko'rib qoladi. U, boshqa bir it katta bo'lak go'sht tishlab ketyapti, deb o'ylab, og'zidagi go'shtdan voz kechadi-da, suvdagi o'z aksiga tashlanadi. Natijada, ikkala go'shtdan ham quruq qoladi: katta go'sht bo'lagini topolmaydi, chunki u yo'q edi va o'z go'shtini yo'qotib qo'yadi, chunki uni suv oqizib ketgan edi.

Bu masal ochofat odamlarga qarshi qaratilgan.

## IT BILAN BO'RI

Bir It o'z xo'jasining uyi oldida mudrab yotardi; Bo'ri uni ko'rib tutib oldi va yemoqchi bo'ldi. It Bo'ridan, bu safar uni qo'yib yuborishni iltimos qildi. "Hozir men ozg'in, qoq suyakman, – dedi u, – lekin yaqinda xo'jayinim to'y qilmoqchi, agar hozir menga tegmay, to'ydan keyin biqqa semirganimda yesang rosa maza qilasan". Bo'ri uning gapiga ishonib qo'yib yubordi. Oradan bir necha kun o'tgach, Bo'ri yana keldi. Qarasa, It endi tom boshida mudrab yotibdi; Bo'ri Itga o'zaro tuzilgan bitimni eslatib, uni pastga tushishga unday boshladi. It esa unga shunday javob qildi: "Senga maslahatim shuki, azizim, agar yana mening uy oldida uxlab yotganimni ko'rsang, to'y bo'lishini kutib o'tirmay qo'yaqol!"

Dono odamlar ham shunday: boshlariga tushgan katta xatardan bir marta qutilib omon qolsalar, keyin umrbod hushyor bo'lib yashaydilar. Axir ko'r hassasini bir marta yo'qotadi, demaganmilar?

## CHIVIN VA BUQA

Bir Chivin uchib kelib, Buqaning shoxiga qo'ndi va ancha vaqt shu yerda o'tirdi, keyin uchib ketishga shaylanib, Buqadan so'radi: "Balki uchib ketmaganim ma'quldir senga?" Buqa unga javob qaytardi: "Eh azizim, kelib shoximga qo'nganingni ham sezmagani edim, uchib ketsang ham hech nima sezmayman".

Ushbu masalni, bor yo yo'qmiligiga hech kim e'tibor bermaydigan, hech kimga hech qanday nafi ham, ziyoni ham tegmaydigan kishilarga nisbatan qo'llash mumkin.

## QUYONLAR VA QURBAQALAR

O'zlarining o'lgudek qo'rqqoq ekanliklarini tushungan Quyonlar, bu kunimizdan ko'ra suvga cho'kib o'lganimiz yaxshi, degan qarorga keladilar va ko'l yoqasidagi jar labiga boradilar, Ko'ldagi Qurbaqalar Quyonlarning oyoq tovushini eshitishib, cho'chib ketadilar va cho'lp-cho'lp etib suvga sho'ng'iydilar. Buni bir quyon ko'rib qoladi va hamjinslariga: "Shoshmanglar, bizdan ham battarroq qo'rqqoqlar bor ekan-ku dunyoda, shartmikin o'zimizni suvga g'arq qilish?" deydi.

Odamlar ham shunday: mushkul ahvoldagi kishilarni ko'rishganda o'z qayg'u-hasratlarini unutib ko'ngillari taskin topadi.

## SHER VA DEHQON

Sher bir Dehqonning qizini sevib qoladi va uyiga sovchi bo'lib keladi. Dehqon bu vahshiy hayvonga qizini berishni ham xohlamas, ayni paytda, uning talabini rad etishdan ham qo'rqardi. Mana, u o'ylab-o'ylab shunday qarorga keldi: Sher qizning uyiga hadeb tanda qo'yaverganidan keyin

Dehqon unga ushbu shartni aytdi: “Bilaman, sen qizimga munosib qayliqsan, albatta, lekin qizimga uylanishingdan oldin sen tishlaringni sugʻirib olishing, tirnoqlaringni kesib tashlashing kerak, boʻlmasa qizim sendan qoʻrqadi. sevgidan telba boʻlib qolgan Sher Dehqonning shartiga bajonidil rozi boʻlib tishlari va tirnoqlarini oldirib tashlaydi. Ana shunda Dehqon Sherdan qoʻrqmay qoʻyadi va u qizga uylangani kelganida tayoq bilan urib haydab yuboradi.

Masal deydi, gʻanimini dagʻ-dagʻ titratgan vajohati vahimali odam, agar dushmanining shartiga oʻylamay-netmay rozi boʻlib, oʻzining eng dahshatli jihatlardan voz kechsa, zumda gʻanimining asiriga aylana-di-qoladi.

## **SHER VA QURBAQA**

Qurbaqaning qurillaganini eshitgan Sher, bu qanday vahimali hayvon boʻldi, deb ovoz kelgan tomonga oʻgirilib qaradi. Qarab endigina suvdan sakrab chiqqan Qurbaqani koʻrib, uni ezgʻilab tashladi va dedi: “Ovoz emas, vajohat qoʻrqinchli boʻladi”.

Bu masal jovrashdan boshqa ishni bilmaydigan mahmadona odam haqida.

## **SHER BILAN TULKI**

Sher qarib qoldi. Endi u oʻzi ov qilib qornini toʻydira olmasdi, shunda u ayyorlik qilib kun kechirmoqchi boʻldi: U oʻz gʻoriga kirib goʻyo kasal boʻlgandek yotib oldi. Shunda hayvonlar uning holidan xabar olgani kela boshladilar, Sher esa ularni tutib yeyaverdi. Bu orada ancha-muncha hayvon patarat topdi. Nihoyat, Sherning nayrang ishlayotganini Tulki sezib qoldi. Mana, u gʻor ogʻziga kelib,



uzoqdan turib, Sherdan hol-ahvol so‘radi. “Ahvolim og‘ir, – deb javob qildi Sher, – iye, nega tashqarida turibsan? Kir ichkariga!” Tulki unga shunday javob qildi: “Kirardim-u, lekin qarasam, g‘orga yo‘nalgan oyoq izlari ko‘p bo‘lsa ham, ichkaridan chiqqan bironta iz yo‘q”.

Aqli bor odam ayrim belgi va alomatlarga qarab, xavf yaqinligini sezadi va o‘zini ehtiyot qiladi.

## **SHER BILAN BUQA**

Sher bahaybat bir Buqani yeyishga chog‘lanib, uni shirin so‘zlar bilan o‘ziga og‘dirmoqchi bo‘ldi. U qurbonlikka qo‘y so‘yganligini aytib, Buqani ziyofatga taklif qildi. Niyati – mehmonni dasturxon yoniga cho‘k tushgan paytida yeyish edi. Mana, Buqa keldi. Qarasa, doshqozonlarda suv qaynayotganmish, bir qancha uzun-uzun sixlar ham kabob qilishga shaymish-u ammo qo‘ydan darak yo‘qmish. Buqa bu holni ko‘rdi-yu churq etmay, orqasiga qaytib keta boshladi. Sher undan o‘pkalanib: “Nima, biron gap bilan dilingni og‘ritdimmi, nega indamasdan orqangga qaytib ketyapsan? – dedi. Buqa javob berdi: “Bunday qilishimga sabab bor: qarasam, bu yerda qurbonlikka qo‘y emas, buqa atalgan ko‘rinadi”.

Masaldan hissa shuki, yovuz kishilar qancha urinishmasin, o‘z nayranglarini dono odamlar nazaridan yashira olmaydilar.

## **SHER BILAN DELFIN**

Dengiz bo‘yida aylanib yurgan Sher to‘lqinlar ichra o‘ynoqlab suzayotgan Delfinni ko‘rib, kel, bir-birimiz bilan ittifoq tuzaylik, deb taklif qildi unga. “Sen dengiz hayvonlari podshosisan, – dedi Sher, – men esam zamin hayvonlari podshosiman, bas, shunday ekan, o‘zaro do‘st,

inoq bo'lib yashasak yaxshi emasmi?" Bu taklifni Delfin bajon-u dil qabul qildi. Oradan bir necha kun o'tib, Sher bir yovvoyi buqaga ro'para keldi va u bilan olisha boshladi. O'ljasini yenga olishiga ko'zi etmagan Sher na'ra tortib, Delfindan yordam so'ray boshladi. Delfin do'stiga yordam berish uchun quruqlikka chiqmoqchi bo'ldi, ammo chiqa olmadi. Shunda Sher uni xiyonatkor deb ayblay boshladi. Delfin unga javoban dedi: "Sen aybni menga emas, meni quruqlikka chiqa olmaydigan dengiz hayvoni etib yaratgan tabiatga qo'y".

Shuningdek, bizlar ham boshimizga og'ir musibat tushganida, yordam qo'lini cho'za oladigan odamlar bilangina do'st tutinmog'imiz kerak.

## **SICHQONDAN CHO'CHIGAN SHER**

Uxlab yotgan Sherning basharasidan bir sichqon pildirab o'tib ketadi. Sher sakrab turib ketib, kim yuzimga tegdi, degandek atrofga alanglab qaraydi. Buni ko'rgan tulki: "Seni qara-yu, kimsan Sher bo'la turib sichqondan qo'rqib ketding-a!" deb Sherni mazah qiladi. "Yo'q, men sichqondan qo'rqqanim yo'q, – deb javob qiladi Sher, – balki uning surbetligi g'azabimni qaynatdi".

Bu masal, aqlli odamlar hatto ikir-chikir narsalarga ham befarq qaramaydilar, demoqchi.

## **SHER BILAN AYIQ**

Sher bilan Ayiq bir yosh bug'uni tutib olishdi va uni talashib jang boshlashdi. Ular to sillalari qurib, ko'zlari tinguncha jon-jahdlari bilan olishib, axiyri holdan toyib yiqilib qolishdi. Shu mahal bu yerdan o'tib ketayotgan tulki bug'u jasadining ikki yonida cho'zilib yotgan Sher bilan Ayiqni ko'rdi va ularning beholligidan foydalanib,

bug'uni sudrab olib qochib ketdi. Shunda qimirlashga ham madorlari qolmagan Sher bilan Ayiq: "Sho'rimiz qurisin! Bundan chiqdi, hali biz tulki uchun ter to'kib harakat qilgan ekanmiz-da?" deyishdi.

Axir, yugurganniki emas, buyurganniki, deb bekorga aytishmagan-da!

## SHER BILAN QUYON

Bir kuni Sher uxlab yotgan Quyonni topib oldi va uni yemoqchi bo'lib, endi og'ziga olib borgan edi, shu payt kutilmaganda uning yonginasidan bir bug'u yugurib o'tdi. Sher Quyonni tashlab, bug'u orqasidan quva ketdi, lekin ming quvlagani bilan unga yeta olmadi va, topgan Quyonimdan qo'ymasin, deb orqasiga qaytib keldi. Lekin Quyon uyg'onib, allaqachon juftakni rostlab qolgan edi. Shunda Sher Quyondan ham ayrilganini ko'rib, dedi: "Ming la'nat! Uzoqdagi o'ljani deb, qo'limdakisini qo'yvorib o'tiribman men, ahmoq!"

Ba'zi odamlar ham shunday: doimo kelib turgan mo'tadil daromadga qoniqmay, kattaroq o'ljaga ko'z tikadilar va bor boyliklaridan ham mosuvo bo'ladilar. Vaholanki elda, uzoqning xazinasidan yaqinning nasibasi yaxshi, degan dono gap bor.

## SHER, ESHAK VA TULKI

Sher, Eshak va Tulki hamjihat bo'lib yashashga qaror qilishdi va birgalikda ov qilgani ravona bo'lishdi. Ularning ovlari baroridan kelib, bir talay o'lja to'plashdi. Sher o'ljani taqsimlashni Eshakka buyurdi. Eshak o'ljani teng uchga bo'ldi va Sherga, tanla, deb aytdi. G'azabi qaynagan Sher Eshakni g'ajib yeb qo'ydi va endi o'ljani bo'lishni Tulkiga buyurdi. Tulki jamiki o'ljani bir to'p qilib uydi, o'ziga esa,

qittakkina narsa qoldirib Sheriga, tanla, deb aytdi. Shunda Sher Tulkidan: “O’ljani bunday yaxshi taqsimlashni kimdan o’rganding?” deb so’radi. “Marhum Eshakdan”, deb javob qildi Tulki.

Binobarin, yaqin kishilarining boshiga tushgan baxtsizlik odamlar uchun saboq bo’lar ekan.

## SHER VA SICHQON

Bir Sichqon uxlab yotgan Sherning ustidan pildirab o’ta boshladi. Sher uyg’onib ketib, Sichqonni tutib oldi va uni yemoqchi bo’ldi. “Sen, yaxshisi, meni qo’yib yubor, – deb yolbordi Sichqon, – kezi kelganda men ham bu yaxshiliging uchun seni falokatdan qutqaraman”. Sher bu gapni eshitib, xaxolab kuldi va Sichqonni qo’yib yubordi. Lekin oradan bir oz vaqt o’tgach, Sichqon, chindan ham, Sheriga bergan so’zining ustidan chiqdi – uni bir o’limdan asrab qoldi. Gap shundaki, Sher ovchilar tuzog’iga ilinib qolgan va ular Sherni arqon bilan daraxtga bog’lab qo’yishgan edi. Sherning nola chekib o’kirganini Sichqon eshitib qoldi va darhol uning oldiga yugurib keldi-da arqonni kemirib, Sherni tuzoqdan ozod qildi. So’ng dedi: “U kuni ustimdan kulgan eding – senga yaxshilik qilishimga go’yo ishonmaganday. Mana, endi Sichqon ham minnatdorlik bildirishga qodir ekanligini bilib olding”.

Bu masal, ba’zida eng qudratli, zabardast odamlar ham, taqdir taqozosi bilan, eng zaif kishilar yordamiga muhtoj bo’lishlari mumkinligini ko’rsatadi.

## SHER BILAN ESHAK

Sher bilan Eshak birgalikda yashashga qaror qilishdi va ovga ketishdi. Ular yovvoyi tog’ echkileri yashaydigan g’orga kelishdi. Sher g’or og’zida turib ichkaridan qochib

chiqayotgan echkilarni tutib oladigan bo'ldi, Eshak esa g'or ichida bor ovozi bilan hangrab echkilarni cho'chitib quva boshladi. Mana, Sher bir talay echkini tutib oldi, shunda g'ordan chiqqan Eshak: "Qalay, zo'r bo'ldimi jangim, bopladimmi echkilarni quvishni?" deb maqtandi. Sher unga javob qildi: "Voy, bo'lmasamchi! O'zim ham vahimaga tushib qochgan bo'lardim, agar hangrayotgan sen – Eshak ekaningni bilmaganimda".

Maqtanchoqlik dardiga uchragan odam ham ba'zida bu dardidan xabardor bo'lgan do'stlari oldida maqtana boshlaydi va ularga kulgi bo'ladi, albatta.

## QAROQCHI VA TUT DARAXTI

Qaroqchi katta yo'lda bir odamni o'ldiradi. Buni ko'rganlar uning orqasidan quva boshlaydilar. Hamma yog'i qonga belangan qaroqchi o'likni tunashga ulgurmay, oyog'ini qo'lga olib qochadi. Yo'lda uchragan odamlar undan: "Nega qo'llaring qon?" deb so'raydilar. "Tut daraxtiga chiqayotganimda qonab ketdi", deb javob qiladi qaroqchi. Bu asnoda uni ta'qib qilayotganlar yetib keli-shadi va tutib shu yerdagi Tut daraxtiga osishadi. Shunda Tut tilga kirib, Qaroqchiga deydi: "Seni qatl etishlarida dor bo'lib xizmat qilganim uchun afsuslanmayman, zero sen odam o'ldirding, bu ham yetmagandek, o'z aybingni menga ag'darmoqchi bo'lding".

Tabiatan oqko'ngil, mehribon bo'lgan odamlar ham ko'pincha tuhmat gapni eshitganlarida darg'azab bo'lib ketadilar.

## BO'RILAR VA QO'YLAR

Bo'rilar Qo'ylarni talamoqchi bo'lib ko'p harakat qilishdi, lekin eplay olishmadi, chunki Qo'ylarni soqchi

itlar qo'riqlar edilar. Shunda Bo'rilar o'z niyatlariga yetish uchun nayrang ishlatmoqchi bo'ldilar: ular Qo'ylar oldiga elchi yubordilar. "Itlaringizni bizga bering, – deb taklif qildi elchi, – axir sizlar bilan bizlarning o'rtamizda adovat paydo bo'lishiga shu itlar sababchi-ku. Agar ularni bizga bersangiz, keyin hammamiz tinch-totuv yashagan bo'lardik". Befahm Qo'ylar oqibati nima bo'lishini o'ylab ham o'tirmay, itlarini Bo'rilarga topshirdilar. Ana shunda Bo'rilar himoyasiz qolgan Qo'ylarni osongina tutib yeyaverdilar.

O'zidagi xalq sardorlarini hech bir mone'lik ko'rsatmay dushman qo'lga topshiruvchi davlatlar ham shunaqa: oradan sal vaqt o'tar-o'tmay, kutilmaganda, ular dushmanga tobe bo'lib qolganlarini sezmay qoladilar.

## BO'RI BILAN OT

Dalada tentirab yurgan Bo'ri bir arpazorga borib qoldi. Arpa uning yemishi emas edi, shu bois teskari burilib, o'z yo'lida ketaverdi. Yo'lida u daf'atan bir Otni uchratdi va uni arpazorga boshlab kelib, dedi: "Qara, qancha arpa, o'zim emay senga ilindim, chunki otlarning "kasir-kusir" qilib arpa yeyishi qulog'imga juda yoqadi-da. Unga javoban Ot dedi: "Yo'q, birodar, agar bo'rilar arpani tamaddi qila olganlarida, sen qulog'ingnimas, qorningni quvon-tirgan bo'larding".

Masal demoqchiki, tabiatan nobakor va soxtadil kishilarning so'zlariga hech kim ishonmaydi.

## BO'RI BILAN QO'ZICHOQ

Bo'ri anhordan suv ichayotgan Qo'zichoqni ko'rib qoldi va qulay bir bahona bilan uni yemoqchi bo'ldi. Mana, u oqimning yuqorirog'ida turib olib: "Hey, suvni loyqalat-

ma, men icholmayapman”, deb Qo‘zichoqni koyiy boshladi. Qo‘zichoq unga javoban dedi: “Men suvga labimning uchinigina tekkizyapman, undan keyin, qanaqasiga loyqalatay suvni, axir men sizdan pastroqda turibman-ku”. Qo‘zichoqqa ayb qo‘ya olmagan Bo‘ri dedi: “Esingdami, o‘tgan yili sen mening otamni bo‘ralab so‘kkan eding!” – “Voy, nima deyapsiz o‘zi, o‘tgan yili men hali tug‘ilmagan edim-ku”, dedi Qo‘zichoq. Ko‘zlagan niyati amalga oshmagan Bo‘ri: “Bo‘ldi, bas, – dedi, – o‘zingni oqlashga usta bo‘lsang ham, baribir yeyman seni!”

Masal deydi, biron yovuzlikni oldindan ko‘zlab qo‘ygan odamni hech qanday adolatli oqlov dalili ham shum niyatidan qaytara olmaydi.

## BO‘RI BILAN QARQARA

Bo‘rining tomog‘iga suyak tiqilib qoldi va u o‘ziga yordam beradigan biron jonzodni qidira boshladi. Mana, u bir Qarqarani uchratib qoldi va unga, agar tomog‘imga tiqilgan suyakni tortib olsang, seni yaxshi bir tuhfa bilan xursand qilaman, dedi. Qarqara uzun tumshug‘ini Bo‘rining og‘ziga tiqib, suyakni tortib oldi va undan va‘da qilingan tuhfani talab qildi. Bo‘ri unga shunday javob qildi: “Bo‘ri og‘zidan boshingni omon tortib olganingga shukur qilsangchi, nodon – yana qanaqa tuhfa kerak senga?”

Masal demoqchiki, badniyat kishilar, agar birovga yomonlik qilmasalar, bu qilmishlarini saxovat deb hisoblaydilar.

## BO‘RI BILAN ECHKI

Bo‘ri teran jar labida o‘tlab yurgan Echkini ko‘rib qoldi. U Echkinining oldiga chiqolmasdi, shuning uchun uni pastga tushishga undab dedi: “Jar yoqasi xatarli, falokat

bosib yiqilib tushishing mumkin. Bu yerda, pastda yam-yashil dala, barra o‘tlar, mazza qilasan”. Lekin Echki unga bunday javob qildi: “Yo‘q, gap pastdagi o‘tloqda o‘tlash “mazza” ekanligida emas, balki sening qorning ochligida. Zero, sen mening emas, o‘z qorningning g‘amini yeyapsan”.

Hayotda ham shunday, yomon niyatli kishilar, agar oqil odamlarga biron bir yovuzlik qilmoqchi bo‘lsalar, ko‘zlagan barcha makr-u hiylalari, baribir, albatta fosh bo‘lgay.

## BO‘RI VA KAMPIR

Yegulik o‘lja qidirib izg‘ib yurgan qorni och Bo‘ri bir uy oldiga kelganida ichkaridan go‘dak bolaning chinqirib yig‘laganini va Kampir buvisining: “Bo‘ldi, bas qil, bo‘lmasa, seni Bo‘riga berib yuboraman!” deb qo‘rqitayotganini eshitib qoldi va, Kampirning gapi rostga o‘xshaydi, deb o‘ylab, bolani unga tashlashlarini kuta boshladi. Kech kirib qorong‘i tushdi, lekin Kampir hanuz va‘dasini bajarmasdi. Bir payt ichkaridan Kampirning ovozi eshitildi: “Voy, o‘zim o‘rgulay erkatoyimdan, nega endi seni bo‘riga berarkanman, undan ko‘ra, o‘zimiz tutib olib o‘ldiramiz o‘sha Bo‘rini!”

Bu gapni eshitgan Bo‘ri tezroq bu yerdan juftakni rostlab nari ketarkan dedi: “Bu uyda betayin odamlar yasharkan – aytgan gaplari boshqa-yu qiladigan ishlari uning teskarisi”.

Bu masal gapi bilan qilayotgan ishi bir-biriga zid bo‘lgan odamlar haqida.

## BO‘RI VA QO‘Y

Itlarga talanib chalajon bo‘lib yotgan Bo‘rining o‘ziga biron yegulik o‘lja izlashga ham madori qolmagan edi. Mana, u nariroqda o‘tlab yurgan bir Qo‘yni chaqirib, un-



dan shu yerdagi jilg'adan suv olib kelib berishni iltimos qildi va dedi: "Menga faqat suv bersang bo'lgani, ovqatni o'zim topib eyman". Lekin Qo'y unga shunday javob qildi: "Agar senga suv bersam, unda o'zim sening ovqating bo'laman".

Masal makkorlik va munofiqlik bilan ish ko'ruvchi mug'ombir odamlarni fosh qiladi.

## FOLBIN

Folbin bozor maydonida o'tirib olib, odamlarga fol ochar va shu yo'l bilan pul topardi. Bir payt uning oldiga hovliqib yugurib kelgan odam baqirib dedi: "Ey Folbin, o'g'rilar eshigingni buzib kirib uyingdagi hamma mol-davlatini o'g'irlab ketishdi". Vahimaga tushgan Folbin sakrab o'rnidan turib ketdi va bozorni boshiga ko'tarib dod solgancha uyi tomon yugurib ketdi. Uni yo'lda uchratgan bir odam so'radi: "Ey birodar, o'z uyingda nimalar bo'layotganini bilmas ekansan-u, qanday qilib o'z galar hayotida yuz berishi mumkin bo'lgan ishlarni bashorat qila olasan?"

Shunday odamlar bo'ladiki, o'zlari qanday yashash lozimligini bilmaydilar-u boshqalarga aql o'rgatmoqchi bo'ladilar. Bu masal ana shunday noshud kimsalar haqida.

## ASALARILAR VA ZEVS

Asalarilar o'z asallarini odamlardan qizg'anishardi. Shu bois bir kuni ular Zevs huzuriga kelib: "Yo oliy tangrimiz, bizga shunday qudrat ato etgilki, uyalarimizdagi asalimizni olmoqchi bo'lgan kimsalarni o'z nishlarimiz bilan mahv eta olaylik", deb iltijo qildilar. Zevs o'z bandalariga mehribon edi, binobarin u yomon niyatda bo'lgan Asalarilardan g'azablanib, shunday qildiki, ular biron

kimsani chaqqanlarida, nishlaridan ayriladigan va o'zlari ham shu zahoti jon taslim qiladigan bo'ldilar.

Bu masal qizg'anchilik qilish oqibatida o'zlari balo-qazoga uchrab qoluvchi odamlarga qaratilgan.

## SICHQONLAR VA SUVSARLAR

Sichqonlar bilan Suvsarlar o'rtasida urush borar edi va Sichqonlar mag'lubiyatga uchrayotgan edilar. Mana, bir kuni ular yig'ilishib, jangda yutqazayotganimizga sabab – bizga rahbarlik qiladigan sarkardalar yo'q, deb aytishdi va o'z ichlaridan lashkarboshilar saylashdi. Bu lashkarboshilar jangohda sovlattroq ko'rinish va o'z askarlaridan ajralib turish uchun boshlariga shoxlar bog'lab oldilar. Jang boshlandi va Sichqonlar yana mag'lubiyatga uchradilar. Shunda oddiy askarlar darrov in-inlariga kirib berkinib oldilar, ammo lashkarboshilar boshlariga bog'lagan shoxlar tufayli inlariga qochib kirolmadilar va Suvsarlarga yem bo'ldilar.

Masaldan hissa – shuhratparastlik ko'p odamlarga baxtsizlik keltiradi.

## CHUMOLI

Bir zamonlar Chumoli odam bo'lgan va g'allakorlik bilan shug'ullangan ekan, lekin o'z mehnati bilan etishtirgan hosilga qanoat qilmay, boshqa dehqonlarga doim hasad qilar va ularning g'allalarini o'g'irlar ekan. Shunda Tangri Zevs bu yeb to'ymas, ochko'z odamning qing'ir ishlaridan darg'azab bo'lib, uni, hozir biz Chumoli deb yurituvchi xasharotga aylantirgan ekan. Ammo u endi boshqacha qiyofaga kirgan bo'lishiga qaramay, fe'li o'sha-o'shaligicha qolibdi: hali ham uzdu kun dalama-dala kezib, xirmonlar va omborxonalaridan bug'doy, arpa donlarini o'z iniga tashib g'amlash bilan ovora.

Masal deydi, tabiatan qurumsoq bo'lib yaralgan odam o'la-o'lgunicha tuzalmaydi.

## ISHRATPARAST VA QALDIRG'OCH

Bir ishratparast yigit butun boyligini maishatga sarfladi. Axiyri uning egnidagi choponidan bo'lak hech vaqosi qolmadi. Shunda u ancha barvaqt uchib kelgan bir Qaldirg'ochni ko'rib qoldi-da, mana, yoz ham kelibdi, deb o'ylab, choponini bozorga olib borib sotib yubordi. Lekin hali qish tugamagan edi, yana ayozli kunlar boshlandi. Bir kuni yigit sovuqdan dag'-dag' qaltirab, ko'chada tentirab yurganida yerda o'lib yotgan Qaldirg'ochni ko'rib qoldi va unga qarab dedi: "Seni qara-yu! O'zingniyam, meniyan xarob qilding-a!"

Ushbu masal, bemavrid qilingan har qanday ish xatarli bo'lishini bildiradi.

## YOG'OCH KESUVCHI VA HERMES

Bir yog'och kesuvchi odam daryo bo'yida o'tin tayyorlayotgan ekan, bexosdan qo'lidagi boltasi suvga tushib ketibdi. Bundan qattiq xafa bo'lgan o'tinchi suv bo'yiga o'tirib olib yig'lay boshlabdi. Tangrilar mujdachisi ma'bud Hermesning unga rahmi kelibdi va oldiga kelib, nima uchun yig'layotgani sababini so'rab bilibdi. So'ng u daryoga sho'ng'ib oltin sopli bolta olib chiqibdi va yog'och kesuvchidan, shumi boltang, deb so'rabdi. Yog'och kesuvchi, yo'q, bu bolta meniki emas, deb javob qilibdi. Hermes daryoga yana sho'ng'ib, endi kumush sopli bolta olib chiqibdi va, yo'qotgan boltang bu emasmi, deb so'rabdi. Yog'och kesuvchi bu boltani ham tan olmabdi; shunda Hermes uchinchi marta sho'ng'ib, yog'och sopli bolta olib chiqibdi. Bu safar Yog'och kesuvchi o'z boltasini darrov tanibdi. Shunda

Hermes Yog'och kesuvchining diyonatli halol odam ekanligini ko'rib, unga uchala boltani ham tuhfa etibdi. Yog'och kesuvchi yigit Hermes tuhfalarini olib hamkasb o'rtoqlari oldiga boribdi va hamma bo'lgan voqeani so'zlab beribdi. Bir o'tinchining unga havasi kelib u ham do'stiga taqlid qilmoqchi bo'libdi. U boltasini qo'lga olib, daryo bo'yiga boribdi va u yerda daraxt kesa turib, atayin boltasini suvga tushirib yuboribdi. Keyin suv bo'yiga o'tirib yig'lay boshlabdi. Shunda Hermes paydo bo'lib undan, nima bo'ldi, nega yig'layapsan, deb so'rabdi. Daraxt kesuvchi yigit boltasi yo'qolib qolganini aytibdi. Hermes unga suvdan oltin sopli bolta olib chiqib, yo'qotgan boltang shu emasmi, deb so'rabdi. O'tinchi yigitning xasisligi qo'zib: "Ha, ha, shu mening boltam", debdi. Lekin ma'bud Hermes bu o'tinchiga yolg'onchiligi uchun sovg'a ham taqdim etmabdi, o'zining boltasini ham qaytarib bermabdi.

Masaldan hissa shuki, xudolar diyonatli, nomusli odamlarga qancha yaxshilik qilsalar, betavfiq, bediyonat kishilarga nisbatan shuncha yomonlikni ravo ko'rurlar.

## YO'LOVCHI VA TAQDIR

Yo'lovchi uzoq yo'l yurib qattiq charchadi va bir quduq yaqiniga kelib, o'zini tappa yerga otdi-yu pinakka ketdi, keyin uyqusirab ag'darildi-da, sal bo'lmasa quduqqa tushib ketayozdi. Shu chog' tepasiga kelgan Taqdir unga dedi: "Ey birodar, agar hozir bexosdan quduqqa tushib ketganingda edi, o'zingdanmas, mendan noligan bo'larding!"

Ko'pchilik odamlar ham shunaqa: qilg'iliqni o'zlari qilib qo'yadilar-da, doim Tangrilarni ayblaydilar.

## YO'LOVCHILAR VA CHINOR DARAXTI

Bir guruh yo'lovchilar saratonda tush paytida jazirama issiqdan lohas bo'lib oyoqlarini zo'rg'a sudrab borardilar.

Shu payt yo‘llarida bir Chinor daraxti uchrab qoldi. Ular shu daraxt tagiga kelib, soyasida yotib dam ola boshladilar. Bir ozdan so‘ng sal o‘zlariga kelishgach, tepalaridagi Chinorga qarab bir-birlari bilan gurunglasha boshladilar: “Qara, tog‘dek bo‘yi bor-u qisir daraxt: meva bermaydi, foydasi ham tegmaydi odamlarga!” Chinor ularga javoban dedi: “Ey noshukur bandalar, o‘zlaring-ku mening soyamda yotib hordiq chiqaryapsanlar. Bas, shunday ekan, foydasi yo‘q, meva bermaydi, deb mendan noliganlaring insofdanmi?”

Ba‘zi odamlar ham shunaqa omadsiz bo‘ladilar: ular odamlarga qancha yaxshilik qilishmasin, hech kim minnatdorlik bildirmaydi.

## YO‘LOVCHI VA ILON

Bir Yo‘lovchi qish paytida ketaturib, sovuq qotib sulayib o‘lar holda yotgan Ilonni ko‘rib qoladi va rahmi kelib, uni qo‘yniga solib isintira boshlaydi. Ilon sovuq qotgan paytida Yo‘lovchining qo‘ynida jimgina yotadi, ammo isinib joni kirganidan keyin o‘z xaloskorining qornini chaqib zaharlaydi. Yo‘lovchi joni uzilar ekan, deydi: “Ayb o‘zimda, axir tirikligida ko‘rganimda ham yanchib o‘ldirishim kerak bo‘lgan bu gazandani sulayib yotganida qutqarib nima qilardim – o‘lsa o‘lib ketavermasmidi!”

Masal deydiki, ichi qora, qilmishi faqat yovuzlik bo‘lgan odamlarga qancha yaxshilik qilma, undaylar, baribir, yaxshilikka yomonlik qilaveradilar.

## YO‘LOVCHI VA HERMES

Uzoq safarga chiqqan Yo‘lovchi, agar shu safarim chog‘ida yo‘lda biron buyum topsam, yarmini ma‘bud Hermesga baxsh etardim, deb ahd qilgan edi. Mana, u

yo'lda bir xalta topib oldi va, ichida pul bo'lsa kerak, deb shosha-pisha uning ichidagi narsani yerga to'kdi. Xaltda bir hovuch bodom bilan bir nechta xurmo bor ekan; Yo'lovchi ularning hammasini yedi, so'ng bodomning po'chog'ini va xurmoning danaklarini yo'l yoqasidagi mehrobgga qo'yarkan dedi: "Mana, Hermes, topilmamning senga baxsh etmoqchi bo'lganim yarmi: ham sirtidagini, ham ichidagini baham ko'ryapman sen bilan".

Bu masal o'z manfaatini ko'zlab Tangrilarni ham aldashdan o'zini tiya olmaydigan ziqna odamlar haqida.

## USTIGA HAYKAL ORTILGAN ESHAK

Bir odam Eshagi ustiga tangrilardan birining haykalini turg'azib qo'yib shaharga yo'l oldi. Yo'lda uchragan odamlar Eshak ustidagi tangri haykalini ko'rib, egilib ta'zim qila boshladilar. Eshak, bu odamlar menga ta'zim qilishyapti, deb o'ylab g'ururlanib ketdi va baralla ovozi bilan hangray boshladi, so'ng tixirlik qilib bir yerda oyoq tirab turib oldi. Eshak egasi gap nimada ekanini tushundi va uni tayoq bilan savalar ekan, dedi: "Voy, xomkalla-e! Endi shu yetmay turgandi: nima, xudojo'y odamlar kelib-kelib sen – Eshakka ta'zim qilisharkanmi?"

Masal deydi, begonalar xizmatini o'ziniki deb keriluvchi odamlar o'z tanishlari oldida kulgi bo'lgaylar.

## ESHAK VA UNING EGASI

Bir odam yo'lda Eshagini haydab ketayotgan edi, Eshakning jini qo'zidimi, birdaniga katta yo'ldan chetga burilib, to'g'ri ro'paradagi chuqur jar tomon yugurib ketdi; Shu ketishda uning jarga qulashi aniq edi. Egasi uning dumidan ushlab orqaga tortmoqchi bo'ldi, lekin qaysar eshak oyoq tirab turib oldi. Shunda egasining hafsalasi

pir bo‘lib, Eshakning dumini qo‘yib yuborar ekan, dedi: “E, bilganingni qilmaysanmi! Axir o‘zingga yomon bo‘ladi-ku, ahmoq!”

Bu masal qaysar odam haqida.

## ESHAK BILAN BO‘RI

Yaylovda o‘tlab yurgan Eshak o‘zi tomon yugurib kelayotgan Bo‘rini ko‘rib qoldi va darhol oqsoqlana boshladi. Bo‘ri kelib undan, nega oqsoqlanyapsan, deb so‘radi. Eshak unga javob qildi: “E, so‘rama, chetan devordan hatlab o‘tayotgan edim, falokat bosib, oyog‘imga zirapcha kirib ketsa bo‘ladimi... Bilaman hozir sen meni yeysan. Iltimos, oldin zirapchani sug‘irib ol, tag‘in tomog‘ingga tiqilib qolmasin”. Bo‘ri uning gapiga ishondi. Eshak oyog‘ini ko‘tardi, Bo‘ri esa sinchkovlik bilan Eshakning tuyog‘ini ko‘zdan kechira boshladi. Shunda Eshak payt poylab turib, Bo‘rining jag‘iga chunonam tepdiki, yirtqichning hamma tishi duv to‘kilib tushdi. Og‘riqqa chidolmagan Bo‘ri nola qilib dedi: “Sho‘rginam qurisin mening! Axir otam meni qassoblikka o‘rgatgan edi-ku – tabiblik qilishimga balo bormidi!”

Ba‘zi odamlar ham shunday: o‘zlari uddalay olmaydigan ishga qo‘l uradilar-da falokatga uchraydilar.

## ESHAK, TULKI VA SHER

Eshak bilan Tulki do‘st tutinishdi va ov qilgani birgalikda yo‘lga chiqishdi. Yo‘lda ularning ro‘parasidan Sher chiqib qoldi. Shunda Tulki katta xatarga uchrashlari mumkinligini sezib, Sher oldiga yugurib bordi va unga, agar menga tegmasang, Eshakni senga ilintirib berardim, deb va‘da qildi. Sher Tulkini qo‘yib yuborishga so‘z berdi. Shunda Tulki Eshakni boshlab kelib Sherning domiga

ilintirdi. Eshakning endi hech qayoqqa keta olmasligini ko'rgan Sher oldin Tulkini tilka-pora qilib edi, so'ng Eshakka tashlandi.

Yaqin do'stlariga yomonlik qilgan odamlar ham ko'pincha o'z boshlariga balo orttirayotganlarini sezmay qoladilar.

## TOVUQ VA QALDIRG'OCH

Tovuq ilon qo'yib ketgan tuxumlarni topdi va o'zi ularni bosib o'tirib bola ochirmoqchi bo'ldi. Mana, tuxumlar birin-ketin chirs-chirs yorila boshladi. Buni ko'rib qolgan Qaldirg'och Tovuqqa dedi: "Voy, ovsar-e! Nima qilarding bunaqa bolalarni ochirib, axir sal katta bo'lishsa, dastavval sening boshingni yeydilar-ku bular!"

Masal deydiki, badniyat kishilarga qanchali ko'p himmat va xayr-u saxovat ko'rsatma, baribir ular shum niyatlarini tashlamaydilar.

## O'G'RI BOLA VA UNING ONASI

Bir bola maktabda o'rtog'ining dars yozadigan taxtakachini o'g'irlab onasiga olib kelib berdi. Onasi uni urishish o'rniga maqtadi. Shundan keyin bola kimningdir jubbasini o'g'irlab olib keldi. Onasi jubbani mamnuniyat bilan qabul qildi. Kundan kun, oydan oy o'tib, bola yigit bo'ldi. Endi u yirikroq, qimmatroq narsalarni o'g'iray boshladi. Nihoyat uni jinoyat ustida qo'lga oldilar va qo'llariga kishan solib, qatlgohga olib ketdilar. Onasi uning orqasidan o'z ko'kragiga mushtlab, sochlarini yulib, faryod chekib bordi. Shunda o'g'il onasining qulog'iga bir gap aytmoqchi bo'lib, uni yoniga chaqirdi. Ona o'g'liga yaqin keldi, o'g'il onasining qulog'idan g'archcha tishlab uzib oldi. Onasi: "Badbaxt bola, shuncha qilgan jinoyatlaring



etmaganday, endi o‘z tuqqan onangni ham joniga qasd qilyapsanmi?” deb uni koyidi. Bola onasining so‘zini eshitishni xohlamay, shunday dedi: “Agar sen, ona, birinchi marta taxtakach o‘g‘irlab kelganimda meni koyib to‘g‘ri yo‘lga solganingda edi, bugungi mash‘um ahvolga tushmasdim va meni qatlgoh sari olib bormagan bo‘lur edilar”.

Masaldan hissa: agar gunoh ishning oldi avval boshdan olinmasa, u bora-bora zo‘riqib, falokat domiga tortishi mumkin.

## BOYLAR VA GO‘YANDALAR

Bir boyning ikki qizi bor edi. Ulardan biri o‘lib qoldi. Boy qiziga aza tutib yig‘lash uchun Go‘yanda ayollarni yolladi. Ikkinchi qiz onasiga dedi: “Biz sho‘rliklarga qiyin bo‘ldi, opamiz o‘lib teran g‘amga botganmiz-u yig‘lay olmaymiz, lekin anavi Go‘yandalar bizga etti yot begona bo‘lishsa ham, ko‘kraklariga musht urib, jon-jahdlari bilan o‘ksib-o‘ksib yig‘lashyapti”. Ona qiziga dedi: “Sen ularning bunchalik o‘ksib yig‘lashiga ajablanma, qizim: biz ularga pul to‘laymiz yig‘laganlari uchun”.

To‘g‘ri, shunday tamagir odamlar ham bo‘ladiki, ular birovning g‘amga botganidan foydalanib, o‘z manfaatlarini ko‘zlaydilar va har qanday nomaqbul ishni qilishdan ham qaytmaydilar.

## XAZILKASH CHO‘PON

Bir Cho‘pon har kuni qo‘ylarini qishloqdan ancha nariga haydab borib o‘tlatardi va ko‘pincha xazil qilib, go‘yo qo‘ylariga bo‘rilar hujum qilganday, dod solib qishloq ahlini yordamga chaqirardi. Ikki-uch marta dehqonlar vahimaga tushib cho‘ponning oldiga yugurib borishdi, lekin uning xazil qilganini eshitib, hafsalalari pir bo‘lib

uylariga qaytib ketishdi. Nihoyat bir kuni bo'ri chindan ham bostirib kelib, qo'ylarni bo'g'ib o'ldira boshladi. Cho'pon ayyuhannos solib odamlarni yordamga chaqirdi, lekin dehqonlar, bu cho'pon tushmagur yana xazil qilyapti shekilli, deb uning dod-voyiga parvo qilmadilar. Cho'pon bir suruv qo'yidan ana shu xazilkashligi tufayli judo bo'lgan edi.

Masalning ta'biricha, yolg'onchi odam bunaqada faqat bir narsaga erishadi, ya'ni endi rost gapirsa ham, hech kim unga ishonmaydi.

## **CHO'MILAYOTGAN BOLA**

Daryoda cho'milayotgan bir bola suvga cho'ka boshladi va sohilda ketayotgan bir odamni ko'rib uni yordamga chaqirdi. Lekin bu odam, o'ylamay-netmay chuqur daryoga cho'milgani tushgani uchun Bolaga tanbeh bera boshladi. Bola unga bunday dedi: "Siz oldin menga yordam berib suvdan tortib oling, ana undan keyin bemalol koyiyvering".

Masal deydiki, bemavrid tanbeh bergan odamning o'zi pand eb qolishi ham mumkin.

## **MAYMUNNING BOLALARI**

Deydilarki, maymunlar har gal ikkitadan bola tug'arkanlar, bitta bolasini ular ardoqlab yaxshilab parvarish qilarkanlar-u, ikkinchi boladan irganib holidan xabar olmay qarovsiz qoldirarkanlar. Shunga qaramay, qandaydir ilohiy qismatning xohish-istagi bilan papalab parvarish qilingan bola yoshligida o'lib ketarkan, ammo qarovsiz bo'lgan bola o'lmay katta bo'larkan.

Masal deydiki, qismat har qanday mehribonona parvarishdan qudratliroqdir, zero xalq hikmatlarida: "ayagan

ko'zga cho'p tushar" va "tashlaganga tosh tegmas", deb bekorga aytilmagan-da.

## TOVUS BILAN ZOG'CHA

Jami parrandalar katta mashvaratga yig'ilib, o'zlariga podshoh saylamoqchi bo'ldilar. Shunda Tovus, meni saylanglar, men chiroyliman, deb talab qila boshladi. Qushlar uni saylashga rozi ham bo'la boshlagan edilar, shu payt Zog'cha so'z olib, dedi: "Agar sen podshoh bo'lsang-udaf'atan bizlarga burgut hamla qilib qolsa, qanday himoya qilasan hammamizni?"

Masaldan hissa shuki, hukmdorlarni husn emas, iqtidor-qudrat bezamog'i kerak.

## ZEVS VA ILON

Zevs to'y qilayotgan ekan. Hamma hayvonlar baholi qudrat, sovg'a ko'tarib kelishibdi. Ilon esa og'zida bir dona gul bilan o'rmalab kelibdi. Zevs uni ko'rib, debdi: "Hammaning sovg'asini qabul qilaman, ammo sen og'zingda olib kelgan sovg'ani olmayman".

Masal, yovuz niyatli kishilarning iltifoti ham xavfli bo'ladi, demoqchi.

## QOBON BILAN TULKI

Qobon bir daraxt tagida so'yloq tishlarini qayrardi. Buni ko'rib qolgan Tulki undan so'radi: "Tevarak-atrofdavovchilar ham, boshqa xatarli narsalar ham ko'rinmaydi-ku, nega buncha zo'r berib tishlaringni qayrab yotibsan?" Qobon javob qaytardi: "Bekorga qayrayotganim yo'q; biron kor-hol yo falokat yuz bergudek bo'lsa, tishlarim jangga tayyor bo'lib turadi".

Yuz beradigan xavf-xatarga qarshi oldindan shay bo‘lib turish kerak, deb o‘rgatadi bu masal.

## QURUMSOQ

Bir qurumsoq odam barcha mol-u davlatini sotib, puliga tilla yombi xarid qildi. Keyin u yombini devor tagiga ko‘mdi-da har kuni kelib undan xabar olib turdi. Sal nariroqda bir necha odam ishlayotgan ekan. Shu ishchilardan bittasi Qurumsoqning devor tagiga serqatnov bo‘lib qolganini payqab, buning bir siri bor, deb o‘yladi va hech kim yo‘qligida kelib, tilla yombini o‘g‘irlab olib ketdi. Yombi egasi kelib, boyligining yo‘qolganini ko‘rdi va bu baxtsizlikka chidolmay, sochlarini yulib faryod cheka boshladi. Uning oh-u zorini eshitgan bir kishi unga dedi: “Qo‘y, kuyunma, yaxshisi, sen biron-bir toshni olib, o‘sha chuqurga ko‘mgin-da, yombi ko‘mdim, deb o‘ylab bahuzur yuraver. Axir bu yerda yotgan oltiningdan zarracha ham foydalanmas eding-ku! Binobarin, ko‘mganing toshmi yo oltinmi – senga baribir emasmi?”

Masal, foydalanilmaydigan boylikdan hech qanday naf yo‘qdir, demoqchi.

## TOSHBAQA BILAN QUYON

Toshbaqa bilan Quyon, qay birimiz chopqirroqmiz, deb bahslashib qolishdi. Keyin musobaqa vaqti va joyini belgilashib tarqalishdi. Quyon o‘zining tabiatan chopqirligiga ishonib, chopishga shoshilmadi va yo‘l yoqasiga yotib pinakka ketdi. Lekin Toshbaqa o‘zining imillab sudralib yurishini bilardi, shuning uchun u bir lahza ham dam olmay yugurgilab ketaverdi. Natijada, u uxlab yotgan Quyondan o‘zib ketib marraga etib bordi va poygada yutib chiqdi.

Masal demoqchiki, tirishqoqlik bilan qilingan mehnat e'tiborsiz qoldirilgan tabiiy layoqatdan ustun kelishi mumkin.

## **QALDIRG'UCH VA ILON**

Qaldirg'och sud mahkamasi bo'g'otiga uya qurib bola ochdi. Kunlarning birida u poloponlari uchun ozuqa topgani uchib ketganida bir Ilon uning iniga o'rmalab chiqib, hamma bolalarini eb qo'ydi. Qaytib kelgan Qaldirg'och uyasining bo'm-bo'sh qolganini ko'rib, o'ksib-o'ksib yig'lay boshladi. Shunda boshqa qaldirg'ochlar kelib unga taskin berib dedilar: "Bo'ldi, ko'p kuyunaverma, bitta senmi bolalaridan judo bo'lgan? Na iloj, qismatimiz shu ekan". Qaldirg'och hamjinslariga javoban dedi: "Bolalarimdan judo bo'lganim – bu mening sho'r peshanam, ammo men kelib-kelib zo'rvonlar zulmiga uchragan odamlar o'zlari uchun madad topadigan bu dargohda shunday og'ir baxtsizlikka uchraganimga hech chidolmayapman".

Masal deydi, agar o'z yaqin kishing deb hisoblaganing kimsa seni xafa qilib dilingni og'ritsa, bu sen uchun eng og'ir azobdir.

(Variant: Panogohim deb umid bog'laganing dargoh senga xiyonat qilib dilingni og'ritarkan, shudir sen uchun eng og'ir azob, deb ta'kidlaydi mazkur masal.)

## **QALDIRG'UCH BILAN QARG'A**

Qaldirg'och bilan Qarg'a, qay birimiz chiroyliroq, deb tortisha boshlashdi. Shunda Qarg'a Qaldirg'ochga dedi: "Sening chiroying faqat bahorda ko'rinadi. Men bo'lsam qish ayoziga ham chidab yashayveraman".

Masal demoqchiki, uzoq umr kechirish go'zallikdan afzaldir.

## TOSHBAQA BILAN BURGUT

Toshbaqa osmonda uchib yurgan Burgutni ko‘rib, o‘zining ham uchgisi keldi va Burgut yerga qo‘nganida uning oldiga borib: “Qancha xizmat haqi so‘rasang beraman, faqat meni uchishga o‘rgat”, deb yobordi. Garchi Burgut, buning iloji yo‘q, sen ucha olmaysan, deb qancha uqtirsa ham, Toshbaqa qo‘yarda-qo‘ymay, unga yolvora-verdi. Axiri bo‘lmagach, Burgut Toshbaqani changaliga olib osmon-falakka ko‘tarildi va o‘sha yerdan uni qoya toshlar ustiga tashlab yubordi. Shunda Toshbaqaning kosalari chilparchin bo‘lib joni uzildi.

Masal deydiki, ko‘pchilik odamlar o‘zlarini boshqalardan kam yeri yo‘q deb hisoblab, raqobatga ruju qo‘yadilar va dono kishilarning o‘gitiga quloq solmay, o‘zlarini nobud qiladilar.

## BURGA VA PAHLAVON

Bir kuni Burga bellashuvga hozirlanayotgan Pahlavonning oyog‘iga sakrab kelib qo‘ndi-yu uni chaqib oldi. Pahlavonning g‘azabi qaynab, Burgani tirnoqlari orasiga olib qirsillatib o‘ldirmoqchi bo‘ldi, lekin Burga, tabiatan faqat sakrash uchun yaratilgan emasmi, bir sakrab Pahlavon hujumidan jon saqlab qoldi. Shunda u nola chekib dedi: “Ayo Herakl! Baski, Burgani mahv etishimda menga ko‘maklashmas ekansan, unda raqiblarim bilan olishganimda qanday qo‘llab-quvvatlaysen meni?”

Arzimas, ikir-chikir ishlarni bartaraf qilish chog‘idasamas, balki eng muhim, yirik amallarni bajarayotgandagina tangrilardan madad so‘rash joizdir, deb uqtiradi bu masal.

## BO'RI VA CHO'PON

Bir Bo'ri Cho'pon haydab ketayotgan qo'ylarga ergashib boraverdi. Cho'pon oldiniga uni yirtqich dushman deya xavotirlanib, orqasiga qarab-qarab qo'ya boshladi, lekin Bo'ri hanuz qo'ylar ortidan ergashib kelardi-yu hujumga o'tish niyati sezilmasdi. Nihoyat Cho'pon, bu Bo'ri dushman emas, balki qo'ylarimning soqchisi bo'lishi mumkin, deb o'ylay boshladi. Mana, bir kuni u shaharga borib kelmoqchi bo'ldi va qo'ylarini shu Bo'ri ixtiyoriga qoldirib jo'nab ketdi. Shunda Bo'ri ovi yuradigan payt kelganini tushundi va qo'ylarni paydar-pay qiyrata boshladi. Cho'pon shahardan qaytib kelib, qo'ylarining qirilib ketganini ko'rib, shunday dedi: "Ayb o'zimda, ahmoq bo'lmasam, kelib-kelib qo'ylarni Bo'riga ishonib topshirarmidim?"

Shunaqa odamlar bo'ladiki, o'z boyliklarini ochko'z kishilarga ishonib qo'yadilar-da, keyin taassuf qilib barmoqlarini tishlaydilar.

## CHUMOLI VA KAPTAR

Chumoli chanqab suv ichmoqchi bo'ldi va jilg'a labiga tushdi, lekin suv ichmoqchi bo'lganida bexosdan jilg'aga tushib ketdi. Shu yerdagi daraxt shoxiga qo'nib o'tirgan bir Kaptar daraxtdan barg uzib Chumoliga tashladi. Chumoli shu bargga chiqib jon saqlab qoldi. Bu payt shu yerda paydo bo'lgan bir ovchi Kaptarni tutib olish niyatida tuzoq chiviqlarini shaylay boshladi. Xuddi shu mahal Chumoli kelib ovchining oyog'ini tishladi. Ana shunda uning qo'lidagi chiviqlar sochilib, Kaptar uchib ketdi.

Kezi kelganda zaif odamning ham yordami asqotib qolishi mumkin, deb saboq beradi bu masal.

## ESHAK XARID QILUVCHI

Bir odam eshak xarid qilmoqchi bo'ldi va bir eshakni, sinab ko'rish uchun, uyiga Yetaklab kelib, og'ilxonadagi boshqa eshaklari orasiga qo'yib yubordi. Shunda yangi kelgan eshak bu Yerdagi eshaklarga qayrilib ham qaramay, darrov har qanday ishga yaroqsiz bo'lgan o'ta yalqov va ochofat eshakning yoniga borib turdi. Bu holni ko'rgan xaridor eshakni yetaklab yana egasiga olib borib berdi. Eshak egasi sinov qanday o'tganini so'radi, xaridor unga javob qildi: "hech qanday sinovning hojati yo'q, qarasam, bu eshaging mening eshaklarim ichidan faqat o'ziga o'xshagan bittasi bilan zumda inoqlashib oldi".

Odamning qandayligini uning do'stlariga qarab bilsa bo'ladi, deydi bu masal.

## ASRAGANI PUL OLGAN ODAM VA QASAM

Bir odamga do'sti asrab qo'yish uchun pul berdi, lekin pul olgan odamning niyati buzuq edi – u bu pulni o'zlash-tirish haqida o'ylay boshladi. Pul bergan do'sti esa, mendan paloncha pul olganing haqida qasam ich, deb talab qildi. Shunda pul olgan odam bezovta bo'lib, o'z qishlog'iga borish uchun yo'lga chiqdi. Shahar darvozasi yaqinida u shahardan chiqib kelayotgan bir cho'loq odamni ko'rib, undan kimligi va qayoqqa ketayotganini so'radi. Cho'loq, ismi Qasam ekanligini va bir qasamxo'r orqasidan quvib ketayotganini aytdi. Odam bu cho'loqdan qachon yana shaharga qaytib kelishini so'radi. U javob qildi: "Qirq yildan keyin, ba'zida o'ttiz yildan keyin". Shunda pul olgan odam o'z kelajagidan xotirjam bo'ldi va mehrob oldiga borib: "Hech kimdan saqlab qo'yish uchun hech qanday pul olmadim", deb qasam ichdi. Ammo shu gapni aytishi bilan, darhol Qasam paydo bo'lib, unga hamla qildi va jarga itarib yuborgani orqasidan quva boshladi. Qasamxo'r esa: "Axir



o'ttiz yildan keyin qaytaman devding-ku, nega bir kun ham o'tmay darrov kelding?" deb ta'na qildi. Qasam javob berdi: "Shuni bilki, kimki menga qarshi qattiq jinoyat qilsa, bir kun ham kutmay darrov etib kelaman".

Masalning ta'kidlashicha, og'ir jinoyatga qo'l urgan badniyat odamlarga yuboriladigan ilohiy jazolarning muddati yo'qdir.

## PROMETHEY VA ODAMLAR

Prometey tangri Zevs amri bilan loydan odamlar va jonivorlarni yasadi. Va lekin Zevs nodon hayvonlar juda ham ko'p yasalganini ko'rib, ularning bir qismini qayta zuvala qilib, u zuvaladan odamlar yasashni amr etdi. Prometey Zevs amrini bajardi Oqibatda shunday bo'ldiki, hayvonlar zuvalasidan yasalgan odamlar, garchi inson qiyofasida bo'lsalar ham, hayvoniy xislatlari va ruhiyatlarini saqlab qolgan edilar.

Masal bu bilan dag'al va ongsiz odamlarga ishora qilmoqda.

## CHIRILDOQ VA TULKI

Hasharot Chirildoq azim daraxt shoxiga qo'nib olib, tinimsiz chirillab qo'shiq kuylardi. Tulki nayrang ishlatib uni tutib yemoqchi bo'ldi: daraxt qarshisida turib oldi-da, uning ajib xush ovozigga maftun bo'lganini va bunday maroqli qo'shiqni ijro etayotgan lobar xilqatni bir ko'rish ishtiyoqida yonayotganini aytib, undan pastga tushishni iltimos qildi. Tulkining ayyorlik qilayotganini Chirildoq darrov fahmladi va bitta yaproqni uzib pastga tashladi. Tulki yaproqni Chirildoq deb o'ylab unga tashlandi. Shunda Chirildoq dedi: "Sen, tasadduq, meni oldingga tushadi deb xato qilding. Tulkilarning tezagida chirildoq

qanotini ko‘rib qolganimdan beri men o‘zimni ehtiyot qiladigan bo‘lganman”.

Masaldan hissa: dono odamlar o‘z yaqin kishilari boshiga tushgan baxtsizlikdan saboq olurlar.

## **DIOGEN VA KAL ODAM**

Boshi kal bir odam faylasuf Diogenni<sup>1</sup> bo‘ralab so‘ka boshladi. Lekin Diogen unga shunday javob qildi: “Men seni so‘kmayman, hech ham haqorat qilmayman, aksincha, hatto maqtamoqchiman sening sochingni – ahmoq boshingni tark etib to‘kilib ketgani uchun”.

## **YONG‘OQ DARAXTI**

Yong‘oq daraxti yo‘l yoqasida o‘sardi. O‘tgan ham, ketgan ham tosh otib, uning mevasini qoqardi. Shu bois, Yong‘oq doim nola chekib derdi: “Chunonam baxtiqaroman men sho‘rlik! Yil sayin o‘z boshimga yangi dard, yangi balo orttiramam”.

Bu masalni, qilgan yaxshiliklari evaziga faqat tahqir va malomat eshituvchi, mudom azob chekuvchi odamlarga nisbatan qo‘llash mumkin.

## **BO‘RI BILAN QO‘ZICHOQ**

Bo‘ri bir Qo‘zichoqning payiga tushib, uni quva boshladi. Qo‘zichoq ibodatxonaga qochib kirdi. Bo‘ri uni chaqirib dedi: “Chiq bu yoqqa tezroq! Bo‘lmasa, seni kohin tutib olib, Xudo yo‘liga qurbon qiladi”. Qo‘zichoq unga javob qildi: “Sening changalingda o‘lganimdan xudo yo‘lida qurbon bo‘lganim afzal”.

Masal, agar kishi o‘ladigan bo‘lsa, biron ezgu amal qilib o‘lgani ma‘qul, demoqchi.

## QUSH TUTUVCHI VA KAKLIK

Qushlarni tutish bilan shug'ullanuvchi bir odamning uyiga bemahalda mehmon kelib qoldi. Mehmonni siylash uchun ro'zg'orida hech vaqosi yo'q edi. Shunda u o'zining o'rgatilgan Kakligini so'yishga qaror qildi. Kaklik: "Ey, yaxshilikni bilmagan odam, – deya yuzlandi xo'jayiniga, – axir sayrab-sayrab, qanchadan-qancha kakliklarni to'ringga ilintirgan men emasmidim? Endi shu yaxshiliklarim evaziga meni o'ldirmoqchi bo'lyapsan-a!" Qush tutuvchi Kaklikka shunday javob qildi: "Ana, o'zing tilingdan ilinding, seni o'z naslingga xiyonat qilganing uchun ham so'yaman!"

O'z qabiladoshlariga sotqinlik qilgan kishidan nafaqat xiyonat qilingan odamlar, shuningdek, bu sotqinlikdan foydalanganlar ham nafratlanurlar.

## XURJUN

Ma'bud Prometey odamlarni loydan yasab, har birining yelkasiga xurjun ilib qo'yibdi. Xurjunning bir ko'ziga u o'zgalarning qusur va illatlarini, ikkinchi ko'ziga – xurjun egasining shaxsiy nuqsonlarini solibdi. Prometey xurjunning xususiy nuqsonlar solingan ko'zini odamning orqasiga, o'zgalar qusuri solingan ko'zini oldiga qilib ilibdi.

Ana shuning uchun ham odamlar birovning aybi va kamchiligini darrov ko'rar ekan-u o'z nuqsonlarini hech payqamas ekan.

## QOBON, OT VA OVCHI

Qobon bilan Ot bir yaylovda o'tlab yurardilar. Lekin Qobon har doim Ot yeydigan o'tlarni bulg'atar, ichadigan suvni loyqalatar edi. Shunda Ot Qobondan qasd olish

uchun Ovchidan yordam soʻradi. Ovchi: “Mayli, agar yugan taqishga rozi boʻlsang va meni ustingga mindirsang, yordam qilganim boʻlsin”, dedi. Ot uning bu shartlariga rozi boʻldi. Shunda Ovchi Otga minib olib Qobonni yengdi, Otni esa oʻz uyiga yetaklab kelib oxur oldiga bogʻlab qoʻydi.

Baʼzi odamlar ham shunday: jahllari chiqqanda aqllari ketib, dushmanlaridan oʻch olishga chogʻlanadilar-da, oʻzganing izmiga tushib qolganlarini oʻzlari ham sezmay qoladilar.

## QUYONLAR VA TULKILAR

Burgutlar bilan urushayotgan Quyonlar Tulkilardan yordam soʻradilar, Tulkilar ularga shunday javob qilishdi: “Biz-ku sizlarga yordam bergan boʻlardik, agarda qanday jonzotlar ekaningizni va dushmaningiz kimligini bilganimizda”. (Variant: “Biz sizlarga yordam berardik-ku, lekin toifangiz qanaqaligini va dushmaningiz kimligini bilamiz-da”).

Masal deydi, kuchli raqib bilan dovlashgan odamlar albatta magʻlubiyatga uchraydilar.

## CHIVIN BILAN SHER

Chivin Sher oldiga uchib kelib chinqirdi: “Men sendan qoʻrqmayman, sen menchalik kuchli emassan! Qani, aytchi, kuching nimada oʻzi sening? Bir oʻylab koʻr: tirnogʻing bilan tindalay olganing, tishlaring bilan tishlay olganing-dami? Eri bilan oʻchakishgan har bitta xotinning ham qoʻlidan keladi bu. Yoʻq, men sendan ancha kuchliman! Agar xohlasang, mayli, jang qilamiz!” Chivin shunday dedi-da, bor ovozi bilan chiyillaganicha Sherga tashlandi va uning burun kataklari oldidagi tuk oʻsmagan joyga qoʻnib, qonini soʻra boshladi. Sher ogʻriqqa chiday olmay boʻkirib

yubordi, g'azabi qaynab tirnoqlari bilan tumshug'ini tindalashga tushdi. Xullas, Chivin Sherni yengdi va zafar qo'shig'ini g'ing'illab kuylagancha uchib ketdi. Lekin u uchib bora turib bexosdan o'rgimchak to'riga ilindi va jon taslim qilarkan, dedi: "E voh, men kuch-qudratda tengi yo'q dushmanimni ham yengdim-u, kelib-kelib shu jin-qarcha o'rgimchakning to'riga tushib o'layotganim alam qiladi menga!"

Masal zabardast polvonlar ustidan g'alaba qozongan, ammo eng zaif kimsadan yengilgan maqtanchoq odamlar-ni nazarda tutyapti.

## **IKKI XO'ROZ VA BURGUT**

Bir tovuqxonada ikkita xo'roz tovuqlarni talashib jang qildi va biri ikkinchisini yengdi. Yengilgan xo'roz boshini egib astagina qorong'i hujraga kirib ketdi, g'olib xo'roz esa, qanot qoqib uchib baland devor boshiga qo'ndi-da ovozini yangratib qichqira boshladi. Shu payt bir Burgut osmondan uchib tushib Xo'rozni changaliga oldi-da yana ko'kka uchib ketdi. Qorong'i hujrada yashirinib o'tirgan Xo'roz bo'lsa, shu paytdan boshlab barcha tovuqlar us-tidan bahuzur hukmronlik qila boshladi.

Masal deydi, tangri mutakabbir odamlardan nafrat-lanur, mo'min bandalariga esa muruvvat qilur.

## **IT, TULKI VA XO'ROZ**

It bilan Xo'roz do'st bo'lib yashashga ahd qilishdi va birgalikda safarga chiqishdi. Kech kirib qosh qoraygan paytda ular bir daraxtzorga yetib kelishdi. Xo'roz tepaga uchib chiqib daraxt novdasiga qo'ndi, It bo'lsa pastda, daraxt kavagiga kirib uxladi. Ular tunni shu zaylda o'tkaz-dilar; tong ota boshladi. Xo'roz, o'z odatiga ko'ra, birdan

baralla qichqirib yubordi. Xo‘rozning qichqirig‘ini Tulki eshitib qoldi va uni tutib yemoqchi bo‘ldi. Mana, u daraxt yaqiniga kelib, tepaga ko‘z tikkancha yaltoqlanib, dedi: “Ey Xo‘rozjon, sen juda ajoyib qushsan, hamma odamlar seni qadrlaydilar, chunki ularga sening ko‘p foydang tegadi! Iltimos, pastga tush, ikkovimiz jo‘r bo‘lib bu o‘tgan tun haqida qo‘shiq aytamiz – bu qo‘shiq sening ham, mening ham dilimizni xushnud etadi!” Xo‘roz Tulkiga javoban bunday dedi: “Sen, azizim, yaqinroq kelgin-da, daraxt kavagida yotgan qorovulni uyg‘ot – u daraxtni gursillatib ursa men tushaman”. Tulki qorovulni uyg‘otgani daraxtga yaqin kelgan edi, It kavakdan otilib chiqib, Tulkini xippa bo‘g‘di va zumda g‘ajib tashladi.

Masal deydi, biron bir xavf-xatarga duch kelgan odamlar, agar aql bilan ish ko‘rsalar, dushmanlariga zarba berishda hech ham qiynalmaydilar.

## **ASKAR VA QARG‘ALAR**

Bir qo‘rzoq Askar urushga borardi. Yo‘lda Qarg‘alar uning tepasiga uchib kelib qag‘illay boshladilar. Askar qurolini yerga otib o‘zini panaga oldi. Keyin qurolini olib yana yo‘lga tushdi. Yana Qarg‘alar uning boshi uzra qag‘illay boshladilar, askar yana to‘xtab qoldi, lekin endi qurolini tashlamadi, biroz o‘ylanib turdi-da, dedi: “E, menga desa, kechgacha qag‘illamaysanlarmi, baribir meni yeyolmaysanlar!”

Bu masal qo‘rzoq odam haqida.

## **SHER, PROMETHEY VA FIL**

Sher bir-ikki marta Prometeyga zorlanib dedi: “Sen Zevs amri bilan meni ulkan va ko‘rkam xilqat qilib yaratding, og‘zimni o‘tkir tishlar bilan to‘ldirding, panjalarimga

changaksimon tirnoqlar baxsh etib, meni barcha hayvonlardan qudratliroq qilding, lekin shunday vajohatim bilan men nega xo'rozdan qo'rqaman?" Prometey unga javob qildi: "Sen bekorga mendan noliyapsan! Men seni yaratishda qo'limdan kelgan barcha ishni qilganman, biroq gap shundaki, sen ruhi zaif hayvon bo'lib yaralding!" Shunda Sher o'zining ayanchli taqdiridan zor-zor yig'lay boshladi, qo'rqoqligidan o'pkalandi va nihoyat, bu kunimdan o'lganim yaxshi, deb o'z joniga qasd qilmoqchi bo'ldi. Shu niyat bilan u yo'lda ketayotganida Filni uchratib qoldi, salomlashdi, yo'lidan to'xtab uyoq-buyoqdan gaplasha boshladi. Qarasa, Fil quloqlarini tinmay yelpig'ich qilib silkitardi. "Nima bo'ldi senga? – deb so'radi Sher Fildan. – Nega quloqlaring nuqul yelpinib turibdi?" Bu mahal Filning boshi atrofida bir chivin g'ing'illab gir-gir uchayotgan edi. "Tepamda g'ing'illayotgan manavi zig'irdakkina maxluqchani ko'ryapsanmi? – dedi Fil. – Agar u qulog'imga kirib olsa – mening o'lganim". Bu gapni eshitgan Sher o'ziga o'zi dedi: "Nega endi men o'lishim kerak ekan? Iye, bunaqada, xo'roz chivindan qancha kuchli bo'lsa, men ham Fildan shuncha omadliroq bo'lishim kerak-ku!"

Ko'ryapsanmi, o'quvchi, chivinning qudratini – u hatto fildan ham kuchliroqdir.

## BO'RI BILAN IT

Bo'ri bo'ynida bo'yinbog'i bo'lgan va zanjirga bog'langan xirsdan keluvchi bir Itni ko'rib undan so'radi: "Iye, kim seni to'ydirib boqib zanjirga bog'lab qo'ydi?" – "Ovchi", – deb javob qildi It. "Yo'q, – dedi shunda Bo'ri, – bunaqa "izzat" biz bo'rilarga to'g'ri kelmaydi! Zildan og'ir bo'yinboq taqib to'q yashaganimdan ko'ra, erkinlikda och yurganim yaxshi".

Zero, tutqinlik taomi bemaza bo'ladi.

## ESHAK BILAN IT

Eshak bilan It birgalikda yo'lda ketaturib surg'uch bilan muhrlangan bir xat topib oldilar. Eshak xatning muhri- ni sindirdi-da, uni Itga eshittirib o'qiy boshladi. Xatda molxona to'g'risida, undagi pichan, poxol g'aramlari hamda qop-qop arpa haqida yozilgandi. Bu narsalar It- ning qulog'iga yoqmadi, albatta, va u Eshakka dedi: "Sen, birodar, bu yerini biroz tashlab o't, shoyad bu xatda go'sht yo suyaklar haqida ham biron xushxabar yozilgan bo'lsa!" Eshak xatning boshidan oxirigacha ko'z yugurtirib chiqib, It aytgan narsalar to'g'risida hech nima topolmadi. Haf- salasi pir bo'lgan It, dedi: "Qo'y, do'stim, tashlab yubor bu xatni, boshimizga uramizni biron ma'nili gapi bo'lmasa?"

## QISH VA BAHOR

Qish Bahor ustidan kulib, unga malomat qila boshlabdi: "Voy, tavba. Sen kelding deguncha odamlarning tinchi yo'qoladi; birov dalaga chiqib, qo'sh haydab ekin ekadi, birov chamanzorlarga borib, turfa xil gullardan gulcham- barlar yasaydi, yana boshqa bir odamlar kemalarga chi- qishib, olis-olis o'lkalarga sayohat qilishadi – ular na ayozli bo'ronning, na qor-yomg'irning tashvishini qilishadi. Aslida, mana, menman haqiqiy hukmdor. Men kishilarni ko'kka emas, oyoq ostlariga qarashga majbur qilaman, ularni dag'-dag' qaltirataman, titrataman. Shu bois ular uzzukun uylariga qamalib o'tiradilar". "Ana shuning uchun ham, – deb javob qilibdi unga Bahor, – odamlar sen bilan jon-jon deb vidolashadilar. Mening esa hatto ismim ham odamlarni xushnud qiladi. Zevs haqqi qasamki, bu ism dunyodagi barcha ismlardan zarifroq, go'zalroqdir. Men yo'q paytimda odamlar hamisha meni yodlab tilga olishadi, kirib kelganimda esa, shod-xurramlik bilan qarshi olishadi.



## SHER, BO'RI VA TULKI

Qartaygan Sher dardga chalinib o'z g'orida yotib qoldi. Podshohlarining holidan xabar olgani hamma hayvonlar birin-ketin kelib, undan ko'ngil so'ray boshladilar. Faqat Tulkidan darak bo'lmadi. Bu vaziyatdan foydalangan Bo'ri Tulkining ustidan g'iybat qila boshladi: "Bu Tulki ulug' hukmdorimizni zarracha hurmat qilmaydi, shuning uchun ham u sizni ko'rgani kelmagan". Bu payt g'or og'zida paydo bo'lgan Tulki Bo'rining oxirgi so'zlarini eshitib qoldi. Sherning ko'zi Tulkiga tushib, unga o'dag'aylab o'kirdi. Tulki darhol yaltoqlanib o'zini oqlashga tushdi: "Aytingchi, olampanoh, bu yerga to'planganlarning qaysi biri sizga menchalik yordam qilaoldi? Bilingki, men hamma yoqqa yelib-yugurib, siz uchun shifobaxsh dori axtardim va tabiblardan so'rab-surishtirib uni axiyri topdim". Shu zahoti Sher, u qanday shifobaxsh dori ekan – qani ayt, deb talab qildi. Tulki dedi: "Siz Bo'rining terisini tirikligida shilib olib, unga o'ranishingiz kerak ekan!" Keyinchalik, Tulki Bo'rining o'lik jasadiga qarab miyig'ida kulganicha, dedi: "Har doim hukmdorni yovuzlikka emas, ezgulikka da'vat etmoq lozim".

Bu bilan masal, birovga choh qazigan odam u chohga o'zi tushadi, demoqchi.

## KUCHUK BOLA VA QURBAQALAR

Kuchuk bola bir begona odamga ergashib borardi. Yo'l uzoq, saraton kuni jazirama issiq bo'lganidan u charchab qoldi va bir hovuz bo'yiga etganida namiqqan maysalar ustiga yotib uxlab qoldi. Bir payt hovuzdagi Qurbaqalar, kundalik odatlariga ko'ra, baravariga qurillashib hamma yoqni boshlariga ko'tardilar. Kuchuk bola uyg'onib ketdi, jahli chiqib, shirin uyqusini buzgan Qurbaqalarga tanbeh

berish niyatida hovuz bo'yiga borib akillay boshladi. Lekin qancha jon-jahd bilan akillamasin, Qurbaqalar parvo qilmay qo'shiqlarini kuylayverdilar. Shunda Kuchuk bolaning xunobi chiqib nari ketarkan dedi: "Bu beta-yin nodon baqiroqlarga aql, odob o'rgataman deb ming harakat qilganim bilan hech narsaga erisholmasman-u, ammo o'zim ham ularga o'xshab shang'i bo'lib qolishim hech gap emas".

Masaldan hissa: agar odam takabbur, dimog'dor bo'lsa, u o'zining eng yaqin kishilariga ham hech qachon hech bir gapni uqtira olmaydi.

## CHO'PON VA BO'RI

Cho'pon yangi tug'ilgan bo'ri bolasini topib oldi va uni uyiga olib kelib o'zining qo'riqchi itlari bilan birga boqib parvarish qila boshladi. Bo'ri bolasi katta bo'ldi. lekin o'g'ri bo'rilar suruvdagi qo'ylardan olib qochgan paytlarida u ham itlar bilan birgalikda bo'rilar ketidan quvardi-yu, ammo itlar bo'rilarini quvib yetolmay orqalariga qaytishganida, Bo'ri bolasi bitta qo'yni ortmoqlab hamjinslari – bo'rilariga ergashib ketaverar va o'zi olib borgan o'ljani ular bilan baham ko'rardi, faqat shundan keyingina orqasiga qaytib kelib itlar to'dasiga qo'shildirdi. Hech qanday bo'rilar hech bir yoqdan qo'ylarga hujum qilishmagan paytlarda esa, uning o'zi qo'ylarni bo'g'ib o'ldirib, ularni yeyishda itlarni o'ziga sherik qilardi. Nihoyat, Cho'pon bir kuni falokat qayoqdan kelayotganini payqab qoldi va o'zi tarbiya qilgan bu Bo'rini tutib oldi-da, daraxt shoxiga osib o'ldirdi.

Bu bilan masal, mash'um niyatli maxluqni qancha papalab parvarish qilsang ham, baribir u zotiga tortaveradi, demoqchi. Zero, sut bilan kirgan faqat jon bilan chiqur.

## OQQUSH

Bir boy odam uyida g'oz bilan Oqqushni ikki xil maqsadda boqardi: g'ozni dasturxon ko'rki uchun, Oqqushni esa sayrashini eshitish uchun. Mana, g'ozni so'yib, go'shtini dasturxonga tortadigan payt keldi. Qorong'ida qushlar turgan xonaga kirgan qassob qaysi qush qayerdaligini bilolmay, g'oz o'rniga Oqqushni tutib so'ymoqchi bo'ldi.

Shunda bu qush ajali yetganini sezib, birdan sayrab yubordi va shu sayrashi bilan o'zining Oqqush ekanligini sezdirib bir o'limdan qolgandi.

Masal deydiki, muzalar baxsh etgan nafis layoqat ko'pincha bunday layoqat sahibini halokatdan asrab qolur.

## XOTIN VA UNING ICHKILIKXO'R ERI

Bir xotinning eri ichkilikka mukkasidan ketgan edi. U Erini bu yaramas odatdan bezdirish uchun bir hiyla ishlatmoqchi bo'ldi. Bir kuni u Erining to'ygunicha ichib, g'irt mast bo'lib uxlab qolishini kutdi. Nihoyat, Er hech nimani sezmaydigan o'likday bo'lib yotganida, Xotin uni opichlab mozorga olib borib tashladi-da, o'zi uyiga qaytib keldi. Keyin u Erining kayfi tarqab hushiga keladigan paytini taxminan ko'zlab yana qabristonga bordi-da, darvozani taqillatdi. "Kim u darvozani taqillatgan?" deb qichqirdi ichkaridan Er. "Bu men, – dedi Xotin, – mayitlarga egani ovqat olib keldim!" Er bo'lsa: "Sen menga egulik ovqatmas ichkilik olib kel, jonidan! – deb qichqirdi. – "Ovqat" so'zini eshitish men uchun eng og'ir azob, sen sharob olib kel menga, sharob!" Erining bu gapini eshitgan Xotin peshanasiga mushtlarkan, dedi: "Muncha sho'r bo'lmasa bu peshanam! Hiylam ish bermadi. Ey er, esing

kirmabdi, bu gapingga qaraganda, yana ham beshbattar ahvolga tushibsan. Hamonki, ichkilikka shunchali ko'ngil qo'yibsan, endi o'lsang ham tashlolmaysan bu odatingni".

Masal demoqchiki, yomon amallarga odatlanmaslik kerak, zero bunday bad odat bora-bora odamni jilovlab olib, o'z istagan tomoniga yo'rg'alatajak.

## ECHKI BILAN ESHAK

Birovga yomonlikni ravo ko'rgan odam albatta o'z boshiga balo orttirajak.

Bir odamning Echkisi va Eshagi bor edi. Eshakni doim to'ydirib boqishlarini ko'rgan Echkining g'ayrligi kelib unga shunday dedi: "Sen sho'rlikni shunaqayam qiynashadiki! Dam charxpalakni aylantirib daryodan suv chiqarasan, dam har yoqqa og'ir-og'ir yuk tashiysan. Sen, yaxshisi, bunday qil: go'yo tutqanog'ing tutayotganday chuqurga qulab tushgin-da, mazza qilib damingni ol". Eshak, eshak emasmi, echkining gapiga laqqa ishondi va chuqurga yiqilib tushib yomon lat edi. Egasi tabibni chaqirib kelib, Eshagini davolash uchun undan maslahat so'radi. Tabib Echkining o'pkasidan dori tayyorlab, Eshakning lat egan eriga surishni tayinladi va: "Faqat shundagina eshagingiz dard ko'rmaganday bo'lib sog'ayib ketadi", dedi. Mana, xo'jayin Eshagini davolash uchun Echkisini so'ydi.

## CHO'PON VA ECHKI

Aniq ko'rinib turgan aybni yashirib bo'larmidi?

Cho'pon echkilarini qo'tonga haydab kiritib boshladi, lekin bir Echki hanuz totli o'tlarni chimdib uzib yeyishini qo'ymasdi. Cho'ponning jahli chiqib unga tosh otgan edi, tosh Echkining shoxiga tegib sindirdi. Shunda Cho'pon

qo‘rqib ketib: “Shoxingni men sindirganimni xo‘jayin-ga aytma!” – deya yolbordi Echkiga. Echki unga dedi: “Qiziqsan-a, aytmaganim bilan shoximning singanini undan yashira olmayman-ku!”

## ODAM VA TULKI

Odam degan muloyim tabiat bo‘lishi, hadeb sal narsaga g‘azablanavermasligi kerak. G‘azabini jilovlay olmagan odam bu qusuri kasriga qolib, katta baxtsizlikka uchrashi mumkin.

Odam bir Tulkini o‘lgudek yomon ko‘rardi, Chunki bu hayvon uning ekinlarini payhon qilgani-qilgan edi. Mana, Odam o‘sha Tulkini tutib oldi va uni eng dahshatli jazo-ga giriftor qilib o‘ldirmoqchi bo‘ldi. U Tulkining dumiga moyga bo‘ktirilgan bir bog‘ zig‘irpoyani bog‘lab unga o‘t qo‘ydi-da, Tulkini qo‘yib yubordi. Lekin yovuz taqdir Tulkini yana shu Odamning ekinzori tomon haydadi... Oqibat, Odam shum taqdirdan zorlanib achchiq-achchiq ko‘z yosh to‘kdi, zero u o‘z dalasidan bir siqim ham don terib ololmadi.

## MERGAN VA SHER

Bir ishni boshlar ekansan, uning natijasi qanday bo‘li-shi haqida o‘yla va o‘zingni shikast yemay omon saqlab qolishga harakat qil.

Mohir Mergan ov qilgani tog‘ga chiqib ketdi. Barcha hayvonlar uni ko‘rib har tomonga qochib ketdilar. Faqat Sher Mergan bilan olishuvga jazm qildi. Lekin Mergan kamonidan o‘q otib Sherni yaraladi va dedi: “Hozircha mening elchimni qabul qil va uning qanaqaligini ko‘rib ol; keyin o‘zim ham huzuringga yetib boraman”. Yaralangan Sher qocha boshladi. Tulki uni qochmaslikka, esini yig‘ib

olishga unday boshladi, lekin Sher unga dedi: “Yo‘-o‘q, meni go‘l qilolmaysan. Uning elchisiki badanimni shunchalik zirqiratarkan, o‘zi kelsa holim nima kechadi?”

## AYIQ VA TULKI

Bu masal o‘ziga bino qo‘ygan maqtanchoq va riyokor odamlarni fosh qiladi.

Ayiq: “Men odamlarni yaxshi ko‘raman, shuning uchun ularning o‘ligiga tegmayman”, deb maqtandi. Tulki unga shunday javob qildi: “Undan ko‘ra, tiriklariga tegmay, faqat o‘liklarini g‘ajisang yaxshi bo‘lardi”.

## DEHQON VA BURGUT

Dehqon tuzoqqa ilingan bir Burgutni ko‘rib qoldi va uning xushsuvrat qush ekanligidan hayratga kelib, tuzoqdan ozod qildi. Keyinchalik Burgut ham Dehqonning himmatiga yaxshilik bilan javob qaytardi. Bir kuni u Dehqonning omonatgina chayqalib turgan bir devor tagida o‘tirganini ko‘rdi va uchib kelib, uning kallapo‘shini changaliga ildi-da, olib qochdi. Dehqon irg‘ib o‘rnidan turdi va Burgutni quva ketdi. Burgut kallapo‘shni tashlab yubordi. Dehqon kallapo‘shni olib, orqasiga o‘girilsa, o‘zi tagida o‘tirgan devor qulab tushibdi. Dehqon Burgutning bu qilgan yaxshiligidan behad to‘lqinlanib ketdi.

Kimga yaxshilik qilsangiz, o‘sha odam sizga ham yaxshilik qilmog‘i kerak, kimki yovuzlik qilsa, o‘zi ham shunday yovuzlikka duchor bo‘lgay.

## HERAKL, AFINA VA ADOVAT

Janjal, adovat katta yovuzlikning boshlanishiga sabab bo‘ladiki, buni hamma yaxshi biladi.

So‘qmoq yo‘ldan ketayotgan Herakl yerda yotgan olmasimon yumaloq bir narsani ko‘rib qoldi. U o‘sha narsani oyog‘i bilan bosib ezib tashlamoqchi bo‘lgan edi, u bir zumda shishib, ikki hissa kattalashdi. Shunda Herakl tayoq olib o‘sha narsani urgandi, u battar shishib so‘qmoq yo‘lni butunlay to‘sib qo‘ydi. Herakl tayoqni chetga otib hayron bo‘lib turib qoldi. Shu payt uning yoniga ma‘budada Afina keldi va dedi: “Qo‘y, o‘zingni bos, og‘ajon! Bu narsa – Nifoq va Adovat: unga tegmasang, shishmay, jim yotaverdi, vale u bilan olishadigan bo‘lsang, mana shunaqa zo‘rayib hamma yoqni bosib ketadi”.

## IT BILAN OSHPAZ

Nomaqbul qilig‘i uchun mehmondorlikdan quvilgan odam, odatda, o‘z aybini yashirib maqtanishga o‘tadi.

Bir xonadonda ziyofat bo‘layotgan edi. Uy sohibining iti bu ziyofatga o‘z o‘rtog‘i – Itni taklif qildi. U keldi. Lekin xo‘jayinning Oshpazi uni ko‘rib qoldi-yu oyog‘idan ushlab tashqariga uloqtirdi. U o‘z tanishlari – qo‘shni itlar oldiga qaytib bordi. Ular bu itdan, xo‘sh, qalay bo‘ldi mehmondorchilik, deb surishtira boshlashdi. “Voy, shunaqa zo‘r bo‘ldiki, – deb javob qildi It, – hatto chiqadigan eshikniyam topolmay qoldim”.

## QALDIRG‘OCH VA QARG‘A

Og‘iz ko‘pirtirib quruq maqtanadigan odamlarning gapiga hech kim ishonmay qo‘yadi.

Bir kuni Qaldirg‘och Qarg‘aga: “Men iffatli qizman, afinalik malikaman, Afina shohining qiziman!” dedi, keyin u gapini davom ettirib, Terey degan zolim uni qattiq azoblaganini, hattoki tilini ham sug‘urib olganini gapirib berdi. Qarg‘a unga javoban shunday dedi: “Hali sen tilsiz

bo‘lgan paytingda shuncha javrayapsan, tiling bo‘lganida rosa quloq-miyani yer ekansan-da!”

## XACHIR

Arpali yem yeb semirib, bosar-tusarini bilmay qolgan Xachir shataloq otib yugura boshladi va ovozing boricha: “Mening onam – ot, uloq chopishda undan aslo qolishmayman!” deb hayqirdi. Keyin, yugurishdan to‘xtagach, boshini xam qilib, birdan xomush bo‘lib qoldi. Sababki, otasi eshak ekanligi esiga tushgan edi.

Vaziyat taqozosi bilan sen hatto osmon-falakka ko‘tarilganingda ham, aslida tabiatan kim ekanligingni unutm, zero hayotdagi barcha ezguliklar o‘tkinchidir.

## TURNA VA TOVUS

Zarvara,q, adras liboslar kiyib yurgan diyonatsiz odamlar emas, g‘aribona kiyimda bo‘lsa ham el hurmatini qozongan shoista kishilar qadrlidirlar.

Tovus tillarang qanotlarini ko‘z-ko‘z qilib kamsuqum Turna bilan gap talasharkan, uning ko‘rimsiz patlarini masxara qilib kuldi. Turna unga javob qildi: “Lekin men baralla qiyqirib, to yulduzlargacha ham uchib chiqa olaman, sen bo‘lsang xuddi xo‘rozga o‘xshab yerdan salgina ko‘tarilasan, xolos, hech kim hech qachon seni osmonda ko‘rmagan”.

## SHER, TO‘NG‘IZ VA KALXATLAR

Bema‘ni janjal va nizolarning oldini olgan yaxshi, chunki ular falokatni keltirib chiqaradi.

Yozning jazirama issiq kunlaridan birida suvsab han-sirab qolgan Sher bilan To‘ng‘iz chanqoqlarini bosgani



mo'jazgina bir chashma boshiga keldilar. Lekin chashma yaqinida joy tor bo'lgani uchun, faqat bittalari suvga yaqin kelishi mumkin edi. Mana, ular, qay birimiz birinchi bo'lib suv ichamiz, deb tortishib qolishdi. So'ng bu tortishuv bora-bora dahshatli qonli jangga aylanib ketdi. Bir mahal ular nafas rostlab olish uchun atroflariga nazar tashlagan edilar, ko'zlari mag'lub bo'lganning go'shtini talash uchun shaylanib turgan bir gala quzg'un Kalxatlarga tushdi. Shunda Sher bilan To'ng'iz jangni to'xtatib, bir-birlariga: "Nima, esimizni edikmi, kalxat va qarg'alarga yem bo'lganimizdan ko'ra, do'st bo'lib yashaganimiz yaxshi emasmi?" dedilar.

## **SHER VA YOVVOYI ESHAK**

Kishining orzu-istaklari uning kuch-qudrati, layoqati bilan mutanosib bo'lishi kerak, shunga ko'ra, u o'zidan kuchli va zaif bo'lganlar bilan do'st tutunmasligi kerak.

Sher va Yovvoyi Eshak birgalikda ov qilishdi: Sher kuchli, Eshak chopqir edi. Mana, ular bir olam o'lja g'amladilar. Shunda Sher o'ljalarni taqsimlashga kirishib, ularni uchta ulushga ajratdi. "Mana bu birinchi ulushni, – dedi Sher, – eng ulug' zot, ya'ni shoh bo'lganim uchun o'zimga olaman; ikkinchi ulush ovga qatnashganim uchun meniki bo'ladi; lekin uchinchi ulush senga juda qimmatga tushadi, agar tezroq bu yerdan tuyog'ingni shiqillatib qolmasang".

## **NOSHUD TABIB**

Bu masal o'z kasbini yaxshi bilmaydigan, nodon va maqtanchoq tabiblar haqida.

Bir noshud tabib bo'lgan ekan. Bir kuni u bir bemorning holidan xabar olgani uyiga kelibdi. Ko'pchilikning aytishi-

cha, bu bemorga endi o'lim xavf solmayotgan bo'lsa ham, sog'ayib oyoqqa turib ketishiga hali ancha vaqt bor ekan; lekin bemorni ko'rgani kelgan tabib unga bunday debdi: "Sen tayyorligingni ko'rib qo'y, bir kunlik umring qolgan". Shunday deb u jo'nab ketibdi. Oradan ancha-muncha vaqt o'tib, bemor to'shakdan turibdi, ammo hali darmoni bo'lmaganidan, oldiniga oyog'ini sudrab zo'rg'a yura boshlabdi. Bir kuni ko'chada uni tabib uchratib qolibdi. "Salom, – debdi u, – xo'sh, u yoqda mayyitlar qanday kun kechirishyapti?" Bemor unga shunday javob qilibdi: "Letaning suvini ichganlar u yoqda yallo qilib yurishibdi. Lekin senga shuni aytib qo'yishim ham kerak, yaqinda O'lim bilan Aid kasallarning o'lishiga yo'l qo'ymayotgan tabiblardan qattiq g'azablanishib, shunday tabiblarning hammasini kattakon ro'yxatga ola boshladilar. Seni ham o'sha ro'yxatga kiritmoqchi bo'lishgandi, men tangri Aid qarshisida tiz cho'kib, yolg'on gapirish uyat va gunoh bo'lsa ham, sen haqingda: "U hech qanaqa tabib emas, faqat ig'vogarlar tuhmati bu", deb qasam ichdim".

## KALXAT

Vajohati mushtdakkina, ichi qora, hasadgo'y odam o'zida yo'q va hech qachon bo'lmaydigan narsaga erishmoqchi bo'lsa, bor bisotidan ham mahrum bo'lib qolishi aniq.

Bir zamonlar Kalxatning ovozi juda yangroq bo'lgan va hozirgi ovoziga sira ham o'xshamas ekan. Lekin u bir kuni tasodifan otning kishnashini eshitib qolibdi-yu kun sayin unga o'xshab kishnashga urunaveribdi. Ammo oqibatda, u kishnashni ham qoyillatolmabdi, o'zining yangroq ovozidan ham mahrum bo'libdi.

## SUVORIY VA OT

Mehnatning tagi – rohat ekanligini hech qachon unutmaslik kerak.

Urush borayotgan paytda Suvoriy o‘z Otini arpa va suli bilan to‘ydirib boqib turdi, chunki Oti jang-jadalda unga qadrdon do‘stidek xizmat qilib, xavf-xatarlardan asradi. Urush tugaganidan keyin esa, Suvoriy Otiga zilday og‘ir yuklar ortib qulday ishlatdi va uni faqat kepag-u xashak bilan boqdi. Lekin urush darakchisi bo‘lmish karnaylar Suvoriyni yana jang maydoniga da‘vat etdi, shunda u sulloh sovutlar bilan qurollanib, Otini egarlab unga mindi. Lekin endi Ot uni ko‘taraolmay, har qadamda tizzalari bukilib cho‘kkalab qolaverdi. Nihoyat u egasiga yuzlanib shunday dedi: “Endi sen piyoda sipohlar safida jang qil, chunki meni eshakka aylantirib qo‘ygansan. Eshakni qayta Ot qilishga endi qurbing yetarmikin?”

## QARG‘A, APOLLON VA HERMES

O‘zining hojatbaror valine‘matini qadrlamagan odam boshiga biron musibat tushgudek bo‘lsa, o‘zi uchun birona ham homiy topolmaydi.

Tuzoqqa ilingan Qarg‘a Apollonga iltijo qilib, agar tuzoqdan ozod qilsa, uning qurbongohiga buxur in‘om qilishga so‘z berdi. Lekin tuzoqdan qutilgach, qilgan va‘dasini unutib yubordi. Keyin ikkinchi marta yana tuzoqqa tushib qolganida, bu gal Apollonni butunlay eslamay, Hermesga sig‘inib quyuyq va‘da bera boshladi. Lekin Hermes unga dedi: “O‘z sohibingdan yuz o‘giringaningni ko‘rib, yana uni tahqirlyotganingni eshitib turib, qanday ishonaman sen yaramasning bergan va‘dangga?”

## KASAL QARG'A

Hamma yoqda faqat dushmanlar orttirgan odam o'z boshiga kulfat tushganida bironta ham madadkor do'st topolmaydi.

Kasal bo'lib yotib qolgan Qarg'a g'amga botib yig'lab o'tirgan onasiga dedi: "Yig'lama, ona, undan ko'ra, tangrilarga ibodat qilib, dardimga shifo tila!" Onasi javob qildi: "Voy, bolam-a, qaysi tangri senga rahm qilarkin? Axir sen jamiki tangrilarning mehroblarini ship-shiydam qilib o'margansan-ku!"

## KASAL SHER, TULKI VA BUG'U

Fikri-xayoli nom chiqarish, shuhrat qozonish bilan band bo'lgan odam o'zining halokatga uchrayotganini sezmay qoladi.

Sher kasal bo'lib o'z g'orida yotib qoldi. Shunda u sirdoshi va suhbatdoshi bo'lmish Tulkini chaqirib dedi: "Agar sen mening o'lmay, sog'-salomat yashashimni xohlasang, o'rmonimizda yashaydigan daroz Bug'uni shirin-shakar so'zlaring bilan avrab g'oringa boshlab kelasan. Men uning o'pka-jigari, yuragini eb bir miriqmoqchiman". Mana, Tulki shoh amrini bajargani o'rmonga jo'nadi va u yerda sayr qilib yurgan Bug'uni ko'rdi. Shunda u Bug'uga ta'zim qilib, salomlashdi va dedi: "Men dilingni xushnud etadigan yaxshi bir gap topib keldim senga! Eshitgan bo'lsang kerak, qo'shning – shohimiz Sher hozir tobi qochib yotib qolgan. U kuni bitib joni uziladigan payt yaqin qolganini sezyapti. Hozir u o'zidan keyin qaysi hayvonni butun o'rmon ahli ustidan shoh qilib tayinlash haqida ko'p o'ylayapti. Qobonni u tentak deb aytdi, ayiqni – yalqov, qoplanni – jizzaki, yo'lbarsni – takabbur dedi. "Lekin, – dedi u, – nazarimda, shoh bo'lishga eng munosib hayvon – Bug'u. Bo'y-basti ham hammanikidan baland, uzoq yashaydi, shoxlari bilan

ilonlarni dahshatga soladi<sup>1</sup>. E-e, gapiraman desam gap ko'p! Qisqasi, Sher seni tanladi o'z o'rniga! Bunday xushxabar olib kelganim uchun hali meni ham shohona siylarsan, albatta. Endi men boray, Sher meni yo'qlayotgandir. bilasanmi, u har bir ishni faqat mening maslahatim bilan qiladi. Agar shoh bo'lishni xohlasang, men, kampirning gapiga kir-u darrov Sherning oldiga bor va o'layotganida tepasida bo'l". Tulki shunday dedi. Bu gaplardan Bug'uning esi og'ib, aqli shoshib qoldi va falokatga uchrashini mutlaqo his etmay, Sher yotgan g'orga yugurib ketdi. U ichkariga kirishi bilan Sher shoshqaloqlik qilib, unga tashlandi, shuning uchun o'tkir tirnoqlari Bug'uning qulog'ini faqat yirtib yubordi. Bug'u jon hovuchlab o'rmonga qochdi. Shuncha jon kuydirib qilgan harakati chippakka chiqqanini ko'rgan Tulki chapak chalib qoldi. Sher bo'lsa, ham alam qilganidan, ham qorni ochligidan xunob bo'lib ingrar va g'orni boshiga ko'tarib o'kirardi. Mana, u yana Tulkiga biron ilojini topishni hamda yangi nayrang ishlatib, Bug'uni g'orga boshlab kelishni buyurdi.

Tulki unga dedi: "Endi bu oson bo'lmaydi, lekin, mayli, bir urunib ko'raman sen uchun". Mana, Tulki dilida turli-tuman hiyla-nayranglarni to'qib, xuddi tozi itdek Bug'u orqasidan izma-iz chopib ketdi. Yo'lida uchragan cho'ponlardan u, hamma yog'i qonga belangan bir Bug'uni ko'rmadinglemi, deb so'ragan edi, ular o'rmonzor tomonni ko'rsatishdi. Haqiqatan ham, Tulki Bug'uni daraxtlar orasida ko'rdi, u ko'p yugurganidan hansirab turardi. O'z qilmishiga zarracha ham o'kinmagan Tulki uyalmay-netmay Bug'uning oldiga bordi. Uni ko'rib Bug'uning badanidagi tuklari, g'azabi jo'sh urganidan tikkayib ketdi va dedi: "Yaramas maxluq, meni boshqa laqillatolmaysan! Yaqinlashma! Yaqin kelsang sog' qo'ymayman seni! Bor, qanaqa razil maxluq ekanligingni bilmaydiganlarni ahmoq qil: o'shalarni shohingning huzuriga aldab olib bor!" Lekin Tulki Bug'uga

dedi: “Voy, hali sen shunaqa yuraksiz, qo‘rqoqmisan? Hali sen o‘z do‘stlaringga ham ishonmas ekansan-da! Sher o‘z o‘limi oldidan senga katta saltanatni qanday boshqarishing to‘g‘risida maslahat bermoqchi va yo‘l-yo‘riq ko‘rsatmoqchi bo‘lib qulog‘ingdan ushlagan edi”, sen bo‘lsang shohona panjaning xiyolgina tindalashiga ham dosh berolmay, qo‘rqib qochib ketding! U sendan juda ham qattiq g‘azablandi, endi u bo‘rini shoh etib tayinlamoqchi o‘z o‘rniga – e voh! Agar u badkor shoh bo‘lsa holimiz ne kechadi! Lekin sen hech ham qo‘rqmay, tezroq shoh oldiga bor, axir sen qo‘y emassan-ku, qo‘rqsang. Senga barcha anhor-u jilg‘alar, jamiki daraxtlarning yaproqlari haqqi qasam ichib aytamanki, Sher senga hech ham yomonlik qilmaydi, men faqat seni deb shuncha tirishib yotibman, o‘rgulay!” Tulki shunday so‘zlar bilan Bug‘uga dalda berib, yana uni aldadi va ikkinchi marta Sher g‘origa borishga ko‘ndirdi. Ular g‘orga kirishdi... Nihoyat Sher Bug‘u go‘shiti, suyaklari va iliklari hamda ichak-chavaqlari bilan o‘zini siylab huzur qildi. Tulki bo‘lsa uning ishtahasidan hayratlanib bir chekkada kuzatib turdi; lekin Bug‘uning boshi uzilib tushganida, u imi-jimida boshchanoqni oldi-da ichidagi miyasini yalab-yulqab yutib yubordi – ko‘rsatgan xizmatlari mukofotiga. Bu mahal Sher hamma yoqqa ko‘z yugurtirib Bug‘uning miyasini topolmadi. Tulki bir chekkada turarkan, Sherga dedi: “Bekorga qidirypasan, rostdan ham yo‘q edi uning miyasi. O‘zing o‘ylab ko‘r: bir marta sendan qochib qutilgan bo‘lishiga qaramay, yana to‘ppa-to‘g‘ri changalingga kelib ilingan bunday hayvonda miya nima qilsin axir?”

## SHER – ODIL PODSHOH

Mamlakatda adolat hukm surarkan va barcha sudyalari vijdonan sud qilib halol hukm chiqarishar ekan, bunday davlatda oddiy xalqlar ham tinch, osuda hayot kechirurlar.

Sher o'z fuqarosiga badqahrlilik ham, vahshiyona yovuzlik ham, jabr-u zulm ham qilmay, xuddi odamdek mehr-u muruvvat va adolat bilan saltanatni boshqardi. Shu bois barcha hayvonlar bir-birlarini javobgarlikka tortish va barcha nohaq qilmishlarini bir-birlari oldida bo'ynilariga olib, ayblariga iqror bo'lish uchun shoh saroyiga oqib kelaverdilar: bu erda bo'ri qo'ydan, qoplon echkidan, yo'lbars bug'udan, it quyondan kechirim so'rardi. Shunda qo'rqqoq quyon bir gap aytdi: "Oh, kuchli hayvonlar kuchsiz hayvonlardan qo'rqadigan kun ham kelarmikin, deb men butun umr orzu qilib kelgandim!"

## QO'RQQOQ OVCHI

Bu masal og'izda pahlavon, amalda notavon shilqim qo'rqqoqlarni fosh qiladi.

Bir Ovchi sher izini qidirardi. U yo'lda yog'och kesuvchini uchratib, undan, "mabodo sher izini, yo sher uyasini ko'rmadingmi?" deb so'radi. Yog'och kesuvchi unga: "Yur, hozir senga sherning o'ziniyam ko'rsataman!" deb javob qildi. Ovchining rangi quv o'chib ketdi va qo'rqqanidan tishlari takillab, dedi: "Yo'q, yo'q, menga sher emas, faqat uning izi kerak!"

## RAHBAR BO'RI VA BO'RILAR

O'zini adolatparvar qilib ko'rsatib, jamoa ichida halol tartib o'rnatmoqchi bo'lgan rahbar odamlar ko'pincha o'zlari joriy qilgan tartibga xiyonat qiladilar.

Bo'ri qolgan barcha bo'rilar ustidan rahbarlik qilarkan, bir qonun joriy qildi; bu qonunga ko'ra, har bir bo'ri ov qilib topgan o'ljasini to'daga olib kelishi va uni hamma-ga teng bo'lashib chiqishi kerak ekan; shunday qilinsa, bo'rilar och qolmas va bir-birlarining go'shtini emas ekan.

Shu mahal bu yerdan o'tib ketayotgan eshak bosh chayqab qo'yib dedi: "O, juda dono fikr bu! Lekin unda o'zing iningga yashirib qo'yganing kechagi ov nima bo'ladi? Uni ham endi to'da ahliga teng bo'lib berarkansan-da?" Siri fosh bo'lgan rahbar bo'ri shundan keyin o'zi joriy qilgan qonunni bekor qildi.

## SHER BILAN BO'RI

Jinoyatni qilib qo'yib falokatga uchragan yovuz va ochko'z bosqinchilar ayblarini boshqalarga to'nkay boshlaydilar.

Bo'ri suruvdagi bir qo'yni o'g'irlab, yelkasiga ortmoqlab, o'z uyasiga ketayotgan edi; yo'lda uni Sher uchratib qoldi va o'ljasini tortib oldi. Bo'ri sal nariroqqa qochib borib: "Sen mening qo'yimni tortib olding, bu insofdan emas!" deb qichqirdi. Sher bo'lsa Bo'riga istehzo bilan dedi: "Nima, buni senga qadrdon oshnang insof yuzasidan hadya qilganmidi?"

## ODAM, HAYVONLAR VA ZEVS

Tangrilar in'omi – aql-u zakovatga musharraf bo'lgan ayrim kishilar bunday ulug' ne'matni tan olmay, bezabon va nodon hayvonlarga havas qiladilar.

Deydilarki, tangri odamdan oldin hayvonlarni yaratib, ularning ayrimlariga kuch-qudrat, boshqalariga chopqir oyoq, yana bir xillariga qanot ato etibdi. Odam esa qipyalang'och bo'lib turarkan: "Yolg'iz menga hech nima nasib etmadi!" deb zorlanibdi. Tangri Zevs unga shunday javob qilibdi: "Vaholanki, sen o'zing qanday ulug' ne'matga sazovar bo'lganingni sezmayapsan: sen nutq so'zlay bilasan; bu layoqat tangrilarda ham, odamlarda ham eng kuchli narsalardan kuchliroq, eng tezgir narsalardan ildamroq



boylikdir”. Shunda Odam bu bebaho in’omni o’zida his etib Zevsga ta’zim qilibdi va qalbi quvonchga to’lib jo’nab ketibdi.

## **BUZOQ VA BUG‘U**

Tabiatan qo’rqoq bo’lgan odamlar garchi barvasta qomat va zabardast bo’lib ko’rinsalar ham, hech bir dono maslahat va o’git ularni hech qachon dovyurak qilolmaydi.

Buzoq Bug‘uga dedi: “Bo‘yning itdan ancha baland, chopsang undan o‘zib ketasan, shoxlaring bor o‘zingni himoya qilgani; axir nega qo‘rqasan ulardan?” Bug‘u dedi: “Gaping to‘g‘ri, buni o‘zim ham bilaman, lekin itning vovullaganini eshitsam, birdan es-hushimni yo‘qotib qo‘yaman-u xayolimga yugurib qochib qolishdan boshqa hech nima kelmaydi”.

## **CHO‘PON VA IT**

Yomonga yaqin yursang balosi yuqar, deydilar.

Cho‘pon qo‘ylarini qo‘tonga haydab kiritar ekan, bir bo‘rini ham qo‘ylarga qo‘shib kiritayotganini payqamay qoldi. Lekin ziyrak It sezib qolib Cho‘ponga dedi: “Axir qo‘ylaringni omon saqlamoqchisan-ku, nega manavi hayvonni qo‘tonga kirityapsan?”

## **SHAMCHIROQ**

Hayotiy shon-shuhrat, shukuhu dabdabalar kishi aqlini ozdirib, es-hushini o‘g‘irlab qo‘ymasligi kerak, zero hech qanday noz-ne‘mat, baxt-saodat odamlarga mangu baxsh etilmagandir.

Shamchiroqning moy shimgan piligini yondirdilar, shunda u, men quyoshdan ham charog‘onroqman, deb

maqtana boshladi. Ammo shu mahal shabada sal qat-tiqroq esgan edi u o'chib qoldi. Va uni qayta yoqa bosh-lagan odam dedi: "Sen yonishni bil, lekin indama, chunki quyosh nurini hech qachon xira qila olmaysan!"

## DALA SICHQONI VA SHAHAR SICHQONI

Doim yurak hovuchlab tahlikada dabdabali, serha-sham kun kechirgandan ko'ra, kamtarona ammo xotirjam yashagan ming karra afzaldir.

Biri dala sichqoni, yana biri uy sichqoni bo'lgan ikki sichqon bir-birlarini mehmonga chaqirishdi. Uy sichqoni dugonasinikiga mehmon bo'lib borganida hali dalada g'al-la o'rimi boshlanmagan edi. Mehmon sichqon loy, tuproq yopishgan don va ildizlarni kemirarkan, dedi: "Turmushing sho'rlik chumolilarnikiga o'xsharkan! Lekin menikida har xil ozuqalar oshib-toshib yotipti; yeganim oldimda, yema-ganim ketimda. Yaxshisi, yur menikiga: bir miriqib maishat qilamiz!" Shunday deb u dala sichqonini o'z uyiga boshlab ketdi va unga omborxonadagi qop-qop don, un, loviyalarni, yana savat-savat anjir-u xurmolarni, ko'zalardagi asalni ko'rsatdi. Shuncha ko'p yemishni ko'rgan dala sichqonining ko'zlari o'ynab ketdi. Mana, u savatdan bir bo'lak pishloq olib o'z iniga tashib ketmoqchi bo'ldi. Shu payt birdan kimdir omborxona eshigini ochdi; sichqonlar chiyillash-gancha yugurib borib bir kavakka tiqilib kirib olishdi. Sal-dan keyin dala sichqoni asta boshini kavakdan chiqarib bir dona anjir turshagini olmoqchi bo'ldi, lekin yana kimdir nimanidir olgani kirib keldi, ikkala sichqon yana o'zlarini panaga oldilar. Ana shunda dala sichqoni, garchi qorni juda och bo'lsa ham, shunday dedi: "Yaxshi qol, dugonajon, bexavotir yeb bo'lmaydigan bu boyliklaring, don-dunlaring o'zingga buyursin. Men, yaxshisi, o'z ozuqam – ildizlar-u giyohlarni kemirib kun kechiraveraman xavf-xatarsiz".

## ODAM VA HERMES

Ba'zi odamlar yuz bergan har bir baxtsizlikda aybni tangrilarga qo'yadilar. Undan ko'ra, o'z shaxslariga atrof-licha razm solib, sodir etgan o'z gunohlarini tan olsalar yaxshi bo'lardi.

Bir kema ichidagi juda ko'p odamlar bilan suvga g'arq bo'la boshladi. Buni ko'rib turgan odam shunday dedi: "Tangrilarning bu hukmi adolatdan emas: bitta betavfiqning kasriga shuncha begunoh odamlar o'lib ketyapti!" Bu odam turgan yerda juda ko'p chumolilar zir yugurib yurishardi. Odamning shu gapidan keyin bir chumoli uning oyog'ini tishlab oldi. Odamni faqat bitta chumoli tishlagan bo'lsa ham, u poshnalari bilan juda ko'p chumolini ezg'ilab tashladi. Shunda uning qarshisida paydo bo'lgan Hermes uni oltin tayoqchasi bilan urib qo'yib, dedi: "Nega endi aybni tangrilarga qo'yyapsan? Axir o'zing ham chumolilar ustidan nohaq hukm chiqarding-ku!"

## BO'RILAR VA ITLAR

O'z vataniga xiyonat qilganlar albatta shafqatsiz jazoga uchragaylar.

Bo'rilar Itlarga shunday deyishdi: "Bizlar har jihatdan bir-birimizga juda o'xshab ketamiz, shunaqa ekan, xuddi og'a-inilardek bir jon-bir tan bo'lib yashasak yaxshi emasmi? Bir-birimizdan hech farqimiz yo'q, faqat yashash sharoitimiz boshqacha: bizlar erkin hayot kechiramiz, sizlar bo'lsangiz odamlarga tobesiz, ularga xuddi qullardek xizmat qilasiz, bu ham yetmaganday, ular sizni kaltaklashadi, bo'yingizga bo'yinbog' osishadi, qo'ylarini qo'riqlatishadi. Shuncha kuyib-pishib xizmat qilsanglar ham, sizlarni faqat qoq suyaklar bilan boqishadi. Keling-

lar, yaxshisi, gapimizga kiringlar-da, qo‘ylarni bizga topshiringlar. Ana unda hammamiz birgalikda go‘shxo‘rlik qilib bir xumordan chiqamiz”. Itlar bu taklifga rozi bo‘ldilar; lekin Bo‘rilar qo‘tonga kirib kelishganda birinchi navbatda Itlarni g‘ajib tashladilar.

## ESHAK VA OT

Davlat boshida turgan badavlat, nufuzli odamlarga hasad qilmaslik kerak, balki unday odamlarning o‘z faoliyati davomida qanday xavf-xatarga uchrashlarini, qanday hasadgo‘y g‘animlariga qarshi kurashuvlarini tasavvur qilib, xotirjamlik onasi bo‘lmish faqirona hayotni afzal deb bilish kerak.

To‘yimli yem bilan boqilib yaxshi parvarish qilinayotgan Otga Eshak hasad qilib o‘zining ayanchli qismatidan zorlanarkan yum-yum yig‘lab derdi: “Eng og‘ir yuklarni menga ortib tashishadi, lekin qornimni to‘ydirishga kelganda chala qursoq qilib boqishadi. Ot bo‘lsa, yaltiroq bezakli yuganni taqib olib, sho‘x-sho‘x gijinglaydi, yeldek uchib chopadi”. Eshak shunday xayollar bilan band bo‘lgan paytda urush boshlandi. Xo‘jayin yaroq-aslahalarni taqib Otga mindi va dushmanlar to‘dasi tomon uni qushdek uchirib ketdi. Janggohda Ot jarohatlanib yerga quladi va joni uzildi. Shunda Eshak endi boshqacha o‘ylay boshladi va Otga rahmi keldi.

## YARALANGAN BURGUT

Yaqin kishing sanchgan tig‘ning og‘rig‘i ikki karra alamliroq bo‘ladi.

Burgut inidan chiqqan quyonlarni tappa bosishga chog‘lanib qoya cho‘qqisida poylab o‘tirardi. Shu mahal bir ovchi Burgutni nishonga olib kamonidan o‘q uzdi,

o'qning tig'i Burgutning badaniga kirib, uning patlar qadalgan dum tomoni shundoqqina uning ko'zi oldida tiralib turib qoldi. Buni ko'rgan Burgut dedi: "E voh, o'z patlarim tig'idan halok bo'layotganim vujudimni ikki hissa achchiqroq zirillatmoqda".

## DEHQON VA MEVA QILMAYDIGAN DARAXT

Odamlar, odatda, adolatparvar bo'lishdan ko'ra, ko'proq foyda ketidan quvishni yoqtiradilar.

Dehqonning dalasida faqat chug'urchuqlar va chumchuqlarning maskaniga aylangan bir daraxt bo'lib, u hech hosil bermasdi. Dehqon foydasi yo'q bu daraxtni kesib qulatmoqchi bo'ldi va qo'liga boltasini olib daraxt tanasiga bir zarba urdi. Shunda jamiki chug'urchuq va chumchuqlar chuvillashib, panohgohimiz bo'lmish bu daraxtni kesma, kesmasang sho'x-sho'x sayrashib dilingni yayratamiz, deb Dehqonga yolbora boshlashdi. Lekin Dehqon qushlarning chirqillashiga parvo qilmay, daraxtga yana va yana bolta urdi. Birdan daraxt tanasida kavak ochildi; kavakda asalari uyasi va birtalay asal bor edi. Dehqon asaldan tatib ko'rdi-yu, boltasini chetga otib yubordi; shu paytdan boshlab bu daraxtni u muqaddas bilib, astoydil parvarish qila boshladi.

## KAL SUVORIY

Baxtsizlik yuz berganida kuyunmaslik kerak: axir tug'ilgan chog'ingda tabiat senga ato etmagan narsani o'zingniki qilib asrab qololmaysan-ku. Biz dunyoga yalang'och kelganmiz va undan yalang'och bo'lib keturimiz.

Bir boshi kal Suvoriy boshiga yasama soch kiyib, ot ustida turli xil mashqlarni bajara boshladi. Shu payt bir-

dan shamol turib, uning yasama sochini uchirib yubordi. Suvoriyning mashqini tomosha qilib turgan odamlar buni ko'rib xoxolab kulib yubordilar. Lekin Suvoriy otini to'xtatib tomoshabinlarga dedi: "Begona soch uchib ketib, tug'ilganimda o'zimda bo'lgani qoldi; xo'sh nimasi kulgili buning?"

## TEMIRCHI VA IT

Bu masal birovlarning mehnati evaziga qorin to'ydiruvchi yalqov va ishyoqmas odamlarga qarshi qaratilgan.

Temirchining Iti bor edi. Temirchi bolg'a bosib asbob-anjom yasaganida It uxlab yotardi, lekin ovqatlangani o'tirganida It darrov uyg'onib xo'jayinining oyog'i tagiga kelib cho'qqayardi. Mana, temirchi Itiga suyak tashlarkan, dedi: "Voy, badbaxt tanbal-e! Bolg'amni sandonga gursillatib urganimda qilt etmay uxlaysan, lekin ovqatlanganimda jag'im qimirlashini eshitib darrov ko'zingni ochasan-a!"

## SICHQON BILAN QURBAQA

Hatto o'lik ham qasd olishi mumkin, zero ilohiy adolat hamma narsani nazorat qiladi va har kimni qilmishiga yarasha jazolab muvozanatni saqlaydiki, buni qilmish-qidirmish deydilar.

Sichqon Qurbaqa bilan do'st tutunib o'z boshiga balo orttirdi. Qurbaqa dilida qora niyat bilan Sichqonning oyog'ini o'zining oyog'iga uzun ip bilan uladi. Oldiniga ular pishgan boshoqlarni terib yeyish uchun dalaga chiqdilar, lekin keyin bir hovuz labiga yaqin kelishganida, Qurbaqa suvni ko'rib, baralla sho'x-sho'x qurilladi-da, hovuzga "sho'lp" etib sakrab, Sichqonni ham orqasidan sudrab suvga tortdi. Sho'rlik Sichqon bir lahzada suvga

bo'kib shishib o'ldi va Qurbaqaning oyog'iga bog'langani sababli, jasadi uning orqasidan suzib yuraverdi. Shu payt Sichqonning shishgan jasadini kalxat ko'rib qolib, uni changaliga oldi-da osmonga ko'tarildi. Buning oqibatida oyog'i Sichqonga bog'langan Qurbaqa ham suvdan ko'kka ko'tarildi va u ham kalxatga yem bo'ldi.

## **SOPOL KO'ZA VA MIS KO'ZA**

Kambag'al odamning boy va qudratli odam bilan qo'shni bo'lib yashashi xavflidir.

Daryoda Sopol ko'za bilan Mis ko'za suzib borardi. Sopol ko'za Mis ko'zaga dedi: "Sen menga yaqinlashma, sal nariroqda suz: sen meni turtib yuborsang ham, men senga urilib ketsam ham – baribir, men sinaman".

## **XO'JAYIN VA DENGIZCHILAR**

O'z uyida hammaning ustidan xo'jayinlik qilishga odatlanib qolgan bir odam dengizda suzib ketayotganida ob-havoning ayniganidan tobi qochib qoldi. Shunda dengizchilar uning holidan xabar olib, unga yordam ko'rsatib turdilar. Lekin yaxshilikni bilmaydigan bu betob Xo'jayin dengizchi yigitlarga: "Agar kemani tezroq haydamasalaring, hammalaringni toshbo'ron qilaman!" deb o'shqirdi. Uning bu po'pisasiga javoban bir dengizchi shunday dedi: "Oh qaniydi, hozir hammamiz o'sha toshloq joyda bo'lib qolsak!"

Baski, qismatimiz shu ekan, og'ir azobga uchramaslik uchun, yengil-yelpi ta'nalarga chidashga majburmiz.

## **QARG'A VA KO'ZA**

Suvsagan Qarg'a chanqog'ini qondirmoqchi bo'lib suv solingan ko'za oldiga keldi-da, uni engashtirmoqchi

bo'ldi; lekin bunga kuchi yetmadi. Ammo farosati unga ish berib, niyatiga yetdi: Qarg'a bitta-bittadan tosh terib kelib ko'zaga tashlayverdi, natijada, toshlar ko'za tubiga cho'kib, suv ko'za og'zigacha ko'tarildi va toshib yerga to'kila boshladi; ana shunda Qarg'a chanqog'ini qondirdi.

Demak, aql kuchdan ham qadrliroq, qudratliroq ekan.

## KASAL ESHAK VA BO'RI

Bo'ri kasal Eshakni uchratib qoldi va uning badanini boshdan-oyoq bir-bir paypaslarkan, qayering ko'proq og'riyapti – shu yeringmi yo bu yeringmi, deb so'ray boshladi. Eshak unga: “Sen tegayotgan yerim”, deb javob qildi.

Badniyat kishilar o'zi shunaqa bo'ladi, hatto yordam qilayotganday bo'lib ko'rinsalar ham, albatta biron ziyon yetkazish payida bo'ladilar.

## KEKSAYGAN OT

Ot haqidagi bu masal odamzod qismatini tasavvur qilishni o'rgatadi.

Qarib darmondan qolgan Ot jang-u jadalni tark etib, endi kuni tegirmon toshini aylantirishga qoldi. Jang maydonini tegirmonga almashtirishga majbur bo'lgan Ot boshiga tushgan bu iztirobli hayotdan zorlanib, o'tmishi-ni eslay boshladi. “E voh, – dedi u tegirmonchiga, – bir paytlar men urushga qatnashgan kezlarimda ustimdagi egar-jabduq va boshqa abzallar chaqmoqday chaqnardi, maxsus tayinlangan otboqar meni parvarish qilardi. Endi bo'lsa, qaysi qilgan gunohim uchun janggohni manavi tegirmon toshiga ayirboshladim – o'zim ham bilmayman”. Tegirmonchi unga shunday javob qildi: “Sen endi o'tmish hayotingni eslashni bas qil: foniy jonzotlarning qismati



o‘zi shunaqa – hayotimizda huzur-halovatli damlar ham, baxtsiz kunlar ham bo‘ladiki, hammasiga bardosh bermog‘imiz shart”.

## UCHTA BUQA VA SHER

Buqalar haqidagi bu masal odamlarni hamjihat bo‘lishga chaqiradi.

Uch nafar Buqa doim birgalikda o‘tlashar edi, Sher esa ularga hamla qilish niyatida orqalaridan poylab yurardi. Buqalar ahil bo‘lganlari sababli, Sher ularni yenga olmasligini bilar, shuning uchun bir amallab Buqalarni bir-biridan judo qilmoqchi bo‘ldi. Mana, u Buqalar o‘rtasida nizo, nifoq qo‘zg‘ab, ularni bir-biriga qarshi qilib qo‘ydi; uchta Buqa bir-biridan arazlab uch tomonga tarqab ketdi. Ana shunda ahil va hamjihat bo‘lgan bu jonivorlarni yenga olmagan Sher endi yakalanib qolgan har bir Buqani hech qiynalmay mahv etaverdi.

Demoqchimizki, hamjihatlik hamjihat bo‘lganlarni falokatdan asragay.

## TULKI VA SHER

Tulki haqidagi bu masal qurb yetmagan ishni uddalashga urunmaslik kerak, deb saboq beradi.

Tulki Sherning soyasida yashar va uning ko‘makchisi edi: u ov mo‘l joylarni izlab topar, Sher bo‘lsa hujumga o‘tib o‘lja yig‘ardi; keyin bu o‘ljalarni ular ikki o‘rtada har birining qilgan xizmatiga yarasha bo‘lashib olardilar. Bora-bora Tulki Sherdan hasad qila boshladi: uning nazarida, Sher ov joylarini qidirib topayotgan Tulkining vazifasini uncha pisand qilmay, o‘zining ov qilish ishini eng muhim xizmat deb hisoblayotganday tuyildi; shunday

xayolga borgan Tulki yolg'iz o'zi podalarga hujum qilib ko'rdi va shu zahoti ovchilarning tuzog'iga ilindi.

Xavfli katta amaldan bexatar mutelik afzaldir.

## BURGUT, ILON VA DEHQON

Burgut va Ilon haqidagi bu masal yaxshilik qilgan odamdan minnatdor bo'lishni o'rgatadi.

Burgut bilan Ilon bir-biriga chirmashib qattiq olisha boshladilar. Mana, Ilon uzun gavdasi bilan Burgutni o'rab bo'g'a boshladi. Bu olishuvni ko'rib qolgan Dehqon ularni bir-biridan ajratdi va burgutni uchirib yubordi. Ilon Dehqonning bu qilmishidan qattiq g'azablandi va xaloskor Dehqon ichmoqchi bo'lgan suvga o'z zahrini tomizdi. Buni sezmagani Dehqon suvni ichmoqchi bo'lganida, birdan Burgut uchib kelib, Dehqonning qo'lidan suv idishini tortib oldi.

Yaxshilik qilgan odamga albatta yaxshilik bilan javob qaytarurlar.

## QARG'A VA OQQUSH

Qarg'a haqidagi bu masal tabiatga zid ish qilmaslik kerak, deb o'rgatadi.

Qarg'a Oqqushni ko'rib uning oppoq patlariga havasi keldi. "Agar yaxshilab yuvinsam, men ham shunaqa oppoq qush bo'laman", dedi u va doim tangrilarga bag'ishlab mehroblarga qo'yilgan ozuqalarni o'g'irlab yeyish bilan kun kechirgan Qarg'a endi bunday yashashdan voz kechib, daryo va ko'l bo'yiga borib kun kechira boshladi. Lekin qancha urinmasin, qancha yuvinmasin, u patlari rangini o'zgartira olmadi, ammo suv bo'yida hech qanday yegulik bo'lmaganidan, och qolib jon taslim qildi.

Turmush tarzingni o'zgartirganing bilan tabiat qonunini o'zgartira olmayсан.

## TAKABBUR QO'NG'IZ

Bir Qo'ng'iz issiq go'ng ichidan to'yinib chiqdi va ko'kka boqib, qanotlarini yoyib uchib yurgan burgutni ko'rdi. U shunday tez uchar ediki, ko'z ochib yumguncha vaqt o'tmay osmonning bir ufqidan narigi ufqiga yetib borardi. Buni ko'rgan Qo'ng'izga alam qildi va u o'zining qo'ng'iz qavmlariga yuzlanib shunday dedi: "Anavi burgutga bir qaranglar: tumshug'i ham, changallari ham vahshiyona o'tkir, vujudi baquvvat, qanotlari uchqur; xohlasa to bulutlargacha ham uchib chiqa oladi, istasa yergacha ham sho'ng'ib tusha oladi. Lekin bizlar bo'lsak, tabiatning o'gay farzandlariga o'xshaymiz, bizni na uchar qushlar sirasiga, na sudralib yuruvchi maxluqlar toifasiga qo'shadilar, holbuki burgutning ovozi ham menikidek jarangdor, qanotlari ham menikidek yaltiroq emas. Yo'q, birodarlar! Undan ko'ra, qushlar jamoasiga qo'shilib, ular bilan birga yashaganim, hamisha birgalashib uchganim yaxshi". Shunday deb u dag'al va yoqimsiz g'o'ng'illagancha osmonga ko'tarildi. Lekin fazoda burgutga ergashib uchmoqchi bo'lganida kuchli shamolga dosh berolmay holdan toyib, qo'ng'izlarning doimiy issiq maskanidan juda uzoq joyga borib tushdi va u yerda yegani go'ng topaolmay, g'amu hasratga botib shunday dedi: "Oh, qaniydi hozir o'zimning go'ngtepamga borib qolsam – meni uchqur qushlar sirasiga qo'shishsa ham, sudraluvchi maxluq deyishsa ham parvo qilmasdim".

Takabburlikda hayot kechirishning xosiyati bo'lmaydi: bunday odamlar o'zlari orzu qilgan, intilgan xayrli niyatlariga erishish o'rniga mavjud bo'lgan o'z boyliklaridan ham ayrilib qoladilar.

## DEHQON VA UNING XOTINI

Dehqon o'z xotinini daraxtzorda o'ynashi bilan yotganini ko'rib qoldi. G'azabi qaynab o'sha erga yugurib bordi. Lekin o'ynash u kelguncha o'rnidan sakrab turib daraxtlar orasiga kirib berkindi, dehqon esa xotinini yomon so'zlar bilan bo'ralab haqorat qila boshladi. Xotini erining dag'dag'asidan go'yo hayron bo'lganday: "Voy, nega meni so'kyapsan, aybim nima?" deb so'radi. "Hozir men seni o'ynashingning quchog'ida ko'rdim!" dedi dehqon. Shunda xotin daraxtzorni boshiga ko'tarib shang'illay boshladi: "Voy, sho'rginam qursin mening! Mana endi uch kundan keyin o'lishim aniq! Chunki ilgari mening onam ham, buvim ham xuddi shanaqa falokatga uchragan ekanlar: o'limlaridan uch kun oldin ularning ham yonida allaqanday yigit paydo bo'lgan-u lekin u buvimga ham, oyimning ko'ziga ham ko'rinmagan ekan. Yo'q! Endi men bu yorug' jahonda ortiq yashamasligim kerak; shuning uchun, hozir butun bisotimiz, boyligimizni o'rtada teng bo'lashib olaylik-da, men biron bir monastirga bosh olib ketay". Dehqon ziqna, qurumsoq odam edi; xotinining bu gaplarini eshitib unga dedi: "Voy, nimalar deyapsan, xotin? Qo'y, unaqa qilma! Qasam ichib aytaman – men yoningda hech qanaqa erkakni ko'rmadim!" "Yo'q, – deb oyoq tirab turib oldi xotin, – endi hech ham sen bilan qololmayman: tangrimning dargohiga ruhimni poklab borish g'amini yeyishim kerak. Sen hozir meni allaqanday gunoh ishda ayblab bolaxonador qilib so'kding – o'z qulog'im bilan eshitdim! Ayt, qanaqa gunoh qilgan ekanman?" – "Qo'y, eslama, xotin, bundan buyon seni yomonlab bir og'iz ham so'z aytmayman, – dedi er, – hech ko'rmaganman sening biron bir gunoh ish qilganingni! Agar og'zimdan qandaydir noma'qul gap chiqib ketgan bo'lsa, uni hazil

deb hisobla!” – “Unday bo‘lsa, – dedi xotin, otang bilan onangning ruhlari haqqi: “hech qachon seni hech qanday begona erkak bilan ko‘rmaganman, bugundan boshlab orqangdan iskovuchlik qilib hech qayoqqa bormayman, endi seni hech ham haqorat qilmayman!” deb qasam ich”. “Bo‘pti, qasam ichganim bo‘lsin”, dedi er. So‘ng ular monastirga borishdi va dehqon avliyolarning muqaddas xoklari tepasida turib, barcha bergan va‘dalarini bajarishga so‘z berdi.

Masaldan hissa: ayol zotida shaytonning barcha nayranglari va yana bitta ortiqcha nayrang mavjudki, u ko‘zingni baqraytirib turib ham, shamg‘alat qilib ham seni laqillatib keta oladi.

## KAKKU VA QUSHLAR

Bir kuni qushlar o‘zlariga shoh saylash uchun anjumanga yig‘ildilar; shu mahal ular uzoqdan Kakkuning kukulaganini eshitib qoldilar. Uning o‘tkir va yangroq ovozi barcha qushlarga xush yoqdi, lekin bu sayrayotgan qaysi qush ekanini hech bir qush bilolmadi. Shunda qushlar, bu ovozi jarangdor, sayroqi qush, agar qalban va amalan xuddi sayroqiligiddek serg‘ayrat bo‘lsa, shohimiz bo‘lishga loyiqdir, degan qarorga keldilar. Mana, ular bu qushning qaddu qomati va yashash tarzini ko‘rib-bilib kelgani chittakni jo‘natdilar. Bu qushcha uchib borib Kakkudan sal nariroqdagi bir daraxtga qo‘ndi. Qarasa, Kakku ayanchli bir ahvolda, boshi ma‘yus egilgan, unda hech qanday shohona qiyofa ham, vajohat ham yo‘q, aksincha, uning ojiza va haqir qush ekanligi yaqqol ko‘rinib turardi. Shunda chittak Kakkuning fe‘lini puxtaroq sinab ko‘rmoqchi bo‘ldi va uning tepasidagi novdaga borib qo‘nib, o‘z axlati bilan Kakkuni bulg‘adi; shunda ham Kakku qilt etmadi. Bu ahvolni ko‘rgan

chittak Kakkudan hazar qilib, uni qarg'ay-qarg'ay uchib ketdi va qushlar jamoasiga qaytib borib, Kakkuning qo'rqoq qush ekanligi, hatto rasvosini chiqarganda ham o'ch olishni o'ylamagani haqida so'zlab berdi. "Axir o'ylab ko'ringlar, – dedi chittak, – o'zini zig'irdakkina mendan ham himoya qila olmagan bu qush bizlarni yirik-yirik yirtqich qushlardan qanday qo'riqlay olsin? Yo'q, bunaqa shohdan xudo asrasin bizni; undan ko'ra, biz boshqa bironta farosatli, qudratli, dovyurak qushni saylaylik". Shundan keyin qushlar hamjihat bo'lishib, burgutni o'zlariga shoh qilib sayladilar; hamma qushlar, burgutning bo'y-basti savlatli, tumshug'i va tirnoqlari o'tkir, bizni g'animlardan himoya qila oladi, tanovulda ham, boshqa narsalarda ham me'yorni biladi, demakki, o'z raiyatini ortiqcha soliqlar solib azoblamaydi, bir marta to'yib ovqatlangach, bir necha kungacha ro'za tutib hech nima yemaydi, binobarin, u adolatli, diyonatli va qattiq qo'l hukmdor bo'ladi va eng muhimi – o'z xalqiga ketma-ket mashaqqatli zulm o'tkazish odil hukmdorga yarashmasligini yaxshi biladi, deb fikr yuritdilar.

Bunday ibratli tadbir o'zi uchun rahbar yo sudya saylashda fuqaroga qo'l keladi va u faqat og'izda kerilib amalda qo'lidan hech ish kelmaydigan odamlarni emas, balki insofu adolatdan quvvatlanib, g'animlar xurujini daf qilishga, yurtda adolatsiz amallarni barham topdirishga qodir bo'lgan kishilarni saylaydi.

## **QARCHIG'AY, BURGUT VA TURNA**

Bir kuni Burgut Qarchig'aydan qattiq g'azablanib, uni quvib ketdi, qolgan barcha qushlar uning orqasidan ergashdilar. Lekin Qarchig'ay tog' bag'ridagi kovakka kirib berkinishga ulgurdi. Shunda Burgut kovak oldiga to'plangan o'zining muqarrablaridan: "Qay biringiz

Qarchig'ayni bu yoqqa tortib chiqara olasiz?" deb so'radi. Mana, hamma qushlar kelishib, bu vazifani Turnaning zimmasiga yukladilar, chunki uning bo'yni uzun, demak, Qarchig'ayga yetib borishi mumkin edi. Lekin Turna bo'ynini cho'zib, boshini kovak ichiga tiqishi bilan, Qarchig'ay ikkala changalini uning bo'g'ziga botirib bo'g'a boshladi. Bu kutilmagan hujumdan va o'tkir tirnoqlarning tomog'iga botishidan qo'rqib ketgan Turnaning ko'ngli aynib, ichi buzilib, birdaniga Burgutni ham, uning barcha muqarrablarini ham bulg'ab yubordi. Shuning uchun, u Qarchig'ayning changalidan qutilgan zahoti bu sharmandalikdan uyalib, o'z yurtidan bosh olib ketishga va boshqa bironta begona o'lkaga borib yashashga qaror qildi. Mana, u yo'lga chiqib poyonsiz dengiz uzra ucha boshladi; yo'lda u bir baliqchi qush – oqchorloq bilan uchrashib, hol-ahvol so'rashdi. Shunda oqchorloq Turnadan nima uchun boshqa yurtga bosh olib ketayotgani sababini so'radi. Turna unga hamma bo'lgan voqeani so'zlab berdi. Oqchorloq bo'lsa undan: "O'zingku uchib ketyapsan, ammo bulg'angan keting nima bo'ldi – uni qoldirib ketayotgandirsan?" – deb so'radi. "Yo'q, – deb javob qildi Turna, – ketim doim o'zim bilan birga" – "Unda mening maslahatimni eshit, – dedi oqchorloq, – sen, yaxshisi, o'z qadrdon yurtingga qayt, nimaga desang, begona yurtda ham xuddi shunaqa yo bundan ham battar sharmanda bo'lishing mumkin". Turna oqchorloqning fikriga qo'shilib vataniga qaytdi.

Badnom bo'lishdan qutilish maqsadida begona yurtga bosh olib ketgan ko'pchilik odamlar aynan shunday tushkunlikka yo undan ham alamliroq musibatga duch kelishlari mumkin. Binobarin, bunday odamlar vatanini emas, o'z xulqi-atvorini o'zgartirishlari lozim.

## BO'RINING TAVBASI

Bo'ri o'zining shuncha qilgan yovuz qotilliklari uchun tavba qilmoqchi bo'lib xudoga sig'indi va endi pasxa bayrami arafasidagi ulug' post (ro'za) kunlarida sira ham go'sht yemaslikka ahd qildi. Lekin oradan sal vaqt o'tmay, u bir kuni o'rmon yonidagi sayxonlikda yakka-yolg'iz o'tlab yurgan bo'rdoqi qo'chqorni ko'rib qoldi-yu, o'ziga o'zi shunday dedi: "Eh attang, agar tavbatazarru qilmaganimda anavi qo'chqorning go'shtiga rosa miriqqan bo'lardim-da! Be, nima deb bosh qotiryapman o'zi? Ana, qo'chqor yolg'iz o'tlab yuribdi; agar uni men saranjom qilmasam, boshqa bironta o'tkinchi o'marib ketishi mumkin! Xullas, hozir men bu jonvorni losos balig'i deb faraz qilaman-da, tutib yeyman qo'yaman; qolaversa, losos mayin taom va bugungi kunda uning narxi oshgan". Shunday deb Bo'ri qo'chqorni tutib yedi.

Yovuz va nopok amallar qon-qoniga singib ketgan shunday odamlar bo'ladiki, ular o'z xohish-istaklarini ichgan qasamlaridan ham, tangriga sig'inib qilgan tavbalaridan ham ustun qo'yadilar va o'ylab-netib o'tirmay, yana odatiy shumliklarini qilaveradilar.

## O'G'RI VA SHAYTON

O'g'ri tikanakli oq buta tagida uxlab yotganida tush ko'rdi. tushida ro'parasida Shayton turganmish; u uyg'onib ketib ko'zini ochdi; ochdiyu yana o'sha Shaytonga ko'zi tushdi; u O'g'rining tepasida turarkan, unga shunday dedi: "E'zozli do'stim, menga sadoqating benazirdir, shuning uchun ham senga bo'lgan e'tiqodim cheksizdir: har bitta qo'ygan qadaming ham, har qaysi qilgan ishing ham mening maqtovimga loyiqdir. Agar bundan keyin ham shunday bo'lib qolsang, mudom mening yordamimdan bahramand



bo'lgaysan: faqat mening nomimni tilga olsang kifoya, hamma kirishgan ishing osongina va bexatar bajo etilur". O'g'ri bu so'zlarni eshitib butunlay haddidan oshib bebosh bo'lib ketdi va o'g'rilik qilishda bosar-tusarini bilmay qoldi. U har gal qaroqchilik qilishga kirishganida o'z sohibi Shaytonni tilga olarkan, doim ishi o'ngidan kelaverdi. Lekin bir kuni nihoyat qo'lga tushdi va sudda o'lim jazosiga hukm etildi; mana, uni oyoq-qo'lga kishan solishib, qattiq azob berib, kaltaklab qatlgohga sudrab ketdilar; shunda O'g'ri yana Shaytonga iltijo qildi, zero u faqat shu Shaytondangina umidvor edi. Shayton uning qarshisida paydo bo'lib: "Men shu yerdaman, sen hech qo'rqma!" dedi. Mana ular qatlgohga yetib bordilar, O'g'ri yana o'z sohibidan yordam so'radi; o'limga mahkum bo'lgan barcha o'g'rilarning ustози Shayton yana dedi: "Sabr qil, sabr qilgan murodga yetadi!" Mana, O'g'ringa bo'yniga sirtmoq ham solindi va u uchinchi marta o'z homiysiga shunday deb iltijo qildi: "Haqiqiy do'st boshingga og'ir kulfat tushganda o'zini ko'rsatadi: hozir qayerda va ne ahvolda ekanimni o'zing ko'rib turibsan; bir-birimiz bilan do'st tutinganimizning shohidi va guvohi bo'lgan o'sha tikanakli oq buta haqqi, ko'rsat menga yordamingni". Lekin Shayton O'g'riga shunday dedi: "Sen mening yordamim bilan shu paytgacha bahuzur jang qilib kelding; endi mening qudratimsiz yolg'iz o'zingning olishuvingni bir ko'rsam yomon bo'lmasdi!"

Biz ko'pincha bir yolg'onchi ikkinchi yolg'onchini yolg'on gaplar bilan laqillatganini va makkorlikning o'zidan kuchliroq makrga yon bosganini ko'ramiz – bu hali xolva, ammo xudo ko'rsatmasin-u, faqat Shaytondan umidvor bo'lganlar juda qattiq aldanurlar.

## AJDAR VA ODAM

Ajdar bir odam bilan do'st tutinib yashashga ahd qildi va doim bu ahdini sadoqat bilan bajardi. Oradan ancha-

muncha vaqt o'tdi. Bir kuni Ajdar barcha boyligi – beaded oltin, kumushlari-yu, olam-jahon qimmatbaho toshlarini (u asl nav toshlarni xuddi zargardek bir-biridan farq qilar va ularning qiymatini aniq ayta olardi) shu qadrdon do'stiga asrab qo'ygani topshirdi, lekin u bu oltin, kumushlari bilan birga yana zarvaraqlar liboslar-u nafis matolarni ham do'stiga ishonib topshirdimi yo yo'qmi – buni aniq bilmayman. Mug'ombir Ajdar hamma boyligini asrab turish uchun do'stiga topshirayotganida, uning sadoqatini sinamoq niyatida oltinlar orasiga bitta tuxum ham qo'yib, unga shunday dedi: “Mana bu tuxum mening eng bebaho boyligim, uni hamisha ko'z qorachug'idek asrashim va begona ko'zlardan maxfiy tarzda saqlashim lozim. Sen, qadrdon do'stligimiz haqqi-hurmati, bu tuxumni ehtiyotlab saqla: zero mening jonim, hayotim shu tuxumda”. Ajdar shu gaplarni aytib, safarga jo'nab ketdi. Vale uning do'sti ochko'z odam edi, shunga ko'ra, u Ajdarning butun boyligini qanday qilib o'zlashtirish mumkinligi haqida o'ylay boshladi va nihoyat Ajdarning go'yo joni saqlanayotgan tuxumni sindirishga qaror qildi va uni sindirdi. Lekin oradan sal vaqt o'tar-o'tmas Ajdar qaytib keldi va tuxumning singanini ko'rdi-yu do'stining sodiqligi qay darajada ekanligini anglab oldi.

Do'st va o'rtoqlarni sinab ko'rish foydadan xoli emas, zero ularning sadoqatiga ishonganingdan keyingina ular bilan bahuzur roz aytishing, sirlashishing mumkin bo'ladi.

## DEHQON BILAN GNOM

Dehqon bir kuni mitti odam – Gnomni tutib oldi. Shunda bu Gnom tutqunlikdan ozod bo'lish uchun Dehqonga uning uchta istagini bajarishga so'z berdi. Lekin Dehqonning xotini: “Gapir unga, – dedi, – istak aytishni sening o'rningga men

bajaray, bizga nima kerak-u, nima kerakmas – o‘zim yaxshiroq bilaman”. Mana, Dehqon xotinining gapiga kirib: “Mayli, o‘sha istaklarni xotinim ayta qolsin”, dedi. Bu birinchi istak edi. Endi qolgan ikki istakni xotini aytishi kerak. Lekin xotin miyasiga yaxshi fikr kelishini kutib, istaklarni aytishga shoshilmadi. Nihoyat bir kuni ular ovqatlanib o‘tirishganda, xotin qo‘lidagi qo‘y iligini sindirmoqchi bo‘ldi-yu sindirolmadi, uni qoqmoqchi bo‘ldi-yu qoqolmadi. Shunda u eriga qarab: “Eh koshkiydi, hozir og‘zingda temir tumshuq bo‘lsa, manavi suyakni kemirib iligini olib berarding”, dedi. Xotin bu istakni aytgan zahoti erining og‘zi temir tumshuqqa aylandi-qoldi. Buni ko‘rgan xotin darrov: “Voy, yo‘q, yuzingning temir tumshuqsiz avvalgi holida bo‘lgani yaxshi!” deb yubordi. Shunday qilib uchta istakdan birontasi ham xotinga naf keltirmadi.

Agar odam o‘zga bir odamning maslahatiga yo tanbehiga itoat etadigan bo‘lsa, albatta farosatli, dono va tadbirkor odamni o‘ziga rahnamo va ustoz qilib olmog‘i kerak.

## **TULKI VA OYNING SUVDAGI AKSI**

Bir kuni kechasi Tulki daryo yoqalab borayotganida suvda osmondagi oyning aksini ko‘rib qolib, uni pishloq deb o‘yladi. Shunda u, agar bu daryoni ichib quritsam, tagida yotgan pishloqni olib eyman, deb o‘ylab, daryo suvini apir-shapir ichaverdi va axiyri bo‘kib o‘ldi.

Ochko‘z odam ham shunaqa: agar tekin foyda chiqadigan joyni bilib qolsa, o‘lib-tirilib harakat qiladi va ajalidan oldin o‘zini go‘rga tiqayotganini sezmay qoladi.

## **BO‘RI VA QARG‘A**

Bo‘ri qo‘chqorni ko‘rib qoldi, bir Qarg‘a uning ustiga qo‘nib o‘tirardi. Ko‘rdi-yu alamidan chuqur xo‘rsinib

qo'yib, dedi: "O saodatli Qarg'a! Sen eng baxtli qushsan: qayerga borib qo'nsang ham, nimalar deb qag'illasang ham, nima ishlar qilsang ham hech kim senga yomon gapirmaydi. Lekin o'ringda men bo'lsam, barcha odamlar shang'illashib meni quvishga tushadilar – go'yo ularning butun boyliklari shu bitta qo'chqordan iboratday".

Ichi qora odam baxtli kishilarga shunday hasad qiladilar; garchi u o'zining baxilligini tan olsa ham, nega axir boshqalarni qadrlashadi-yu ammo menga hech ishonishmaydi, deb xafa bo'ladi.

## TULKI BILAN KAPTAR

Ayozli qish kuni edi, Tulki ov qilgani inidan chiqdi, chiqdi-yu baland butning tepasiga qo'nib o'tirgan Kaptarga ko'zi tushdi va uni tutib emoqchi bo'ldi; mana, u yaqin kelib Kaptar bilan salomlashdi hamda o'zining odatiy tilyog'lama gaplari bilan shunday dedi: "Voy tavba, nega axir sovuq izg'irinda ham, qor yo yomg'ir yog'ayotganda ham shunaqa baland joyga qo'nib o'tirasan-a, hayronman? Undan ko'ra, pastroqqa uchib tushib, menga yaqinroq joyda bo'lganing yaxshi edi, ana unda ikkimiz birgalikda kechgacha dilkashlik qilardik. Kaptar unga shunday javob qildi: "Men ojiz va qo'rqqoq qushman, shuning uchun tinchimni ko'zlab balandroqda o'tiraman". – "E, qo'rqma sira ham, – dedi Tulki, – men hozir katta majlisdan kelyapman. Bu majlisda jamiki janjal va olishuvlar bugundan boshlab man etildi hamda barcha parranda-yu darrandalarning endi hamisha tinch va totuv hayot kechirishlari haqida yorliq e'lon qilindi. Mana endi men ham, aziz jonim haqqi qasam ichib aytamanki, endi senga zinhor yomon ko'z bilan qaramayman". – "Agar shu gaping rost bo'lsa, qanday yaxshi – demak, shartnoma ham yozilgan, yorliq ham o'qilgan; men ham endi sen

bilan bajonidil dilkashlik qilaveraman, lekin, qara, anavi katta yoʻldan ikkita otliq oldilarida itlari bilan buyoqqa kelishyapti; ovga chiqishgan shekilli”. Bu gapni eshitgan Tulki qoʻrqib ketib: “Ayt-chi, ular hali uzoqdami yo yaqin kelib qolishdimi, bu atrofda berkinadigan biron pana joy bormi? – deb soʻradi. – Gap shundaki, Kaptarjon, tinchlik haqidagi yorliqdan itlarning xabari bormi yo yoʻqmi – aniq bir gap aytolmayman hozir”. Ana shunda Kaptar Boʻriga dedi: “Ha-a, tushunarli, sen aytgan oʻsha yorliq yozilgan boʻlsa ham, hali imzolanmagan-ov nazarimda”.

Aqlli odam gʻanim bilan munosabatda boʻlganida xuddi shunday ehtiyotkor boʻlmogʻi kerak – zero hamisha oʻz foydasini koʻzlab ish koʻradigan dushman hech qanday doʻstlikni tan olmaydi.

## **BURGUT, QIRGʻIY VA KAPTARLAR**

Parrandalar shohi Burgut (qadimgi odamlar uni shunday deb atashgan) bir kuni eman daraxtining qir uchiga kelib qoʻndi; qushlarning qozisi deb nom olgan Qirgʻiy esa Burgutdan pastroqdagi bir novdaga qoʻnib oʻtirardi. Bu mahal pastda, yerda besh-oltita donni choʻqilab eb qorinlari toʻygan kaptarlar qanotlarini parpiratib bir-birlari bilan oʻynashardi. Buni koʻrgan Qirgʻiy ularga dedi: “Bu qanaqasi – oʻz qozingiz va xojangiz koʻzi oldida bunday beparvolik qilib likonglashga qanday haddingiz sigʻdi? Bilib qoʻyinglar, agar tepamda shohimiz Burgut boʻlmaganida bu oʻyinqaroqligingizning jazosini tatib koʻrardingiz”.

Qozi-yu sudyalar ustidan oliy hukmdor – shoh borligi qanday yaxshi – ular shohdan hayiqib qahr-u gʻazablarini tizginlashga majbur boʻladilar.

## BUG‘U VA UNING BUZOG‘I

Bir kuni ona Bug‘u o‘z bolasini dalaga olib chiqib, xavf-xatarga uchramaslik uchun nimalar qilish lozimligini o‘rgata boshladi. Shu mahal dalada bir ovchi ko‘rindi. Buzoqcha onasidan, bu kim o‘zi, qo‘lidagi narsa nima, deb so‘radi. Ona javob qildi: “Bu – odam; sen hammadan ko‘proq shu odamdan qo‘rqin: uni yaxshilab ko‘rib-bilib ol, uchratganingda ehtiyot bo‘lasan va tezroq qochib ketasan”. Bug‘uvachcha onasiga dedi: “Men uni juda yaxshi ko‘rib turibman: hecham qo‘rqinchlimas, ko‘rinishidan, qo‘rqoqqa o‘xshaydi. Nimaga desang, u otdan tushib darrov ot panasiga o‘tib oldi, u bizlardan judayam qo‘rqib ketdi-yov, ana endi u butazorga qochib kirib bizlardan berkinib oldi. Uning qo‘lidagi narsa nima, oyi?” Bug‘u dedi: “Qo‘lidagi narsa egik tayoq, bu tayoq bizlar uchun juda xavfli, tayoqqa tortilgan ip o‘rtasidagi kichkina cho‘p hammadan ham dahshatliroq: ana o‘shandan qo‘rqish kerak”. – “Bu odamning narsalari shunaqa qo‘rqinchli ekan, – dedi buzoq, – nega ularni azza-bazza ko‘kragiga tortib yotibdi?” – “Shuning uchun ham qo‘rqinchli-da ular, bolam, – deb javob qildi ona Bug‘u, – odam o‘sha cho‘pni o‘ziga qancha qattiqroq tortsa, cho‘p shuncha tez bizga etib keladi”.

Befahm odamlar ham shunaqa: to boshlariga falokat tushmaguncha, uning yuz berishini hech his etmaydilar va o‘zlarini undan ehtiyot qilish haqida o‘ylamaydilar.

## ECHKI BILAN BO‘RI

Bir kuni Echki butazorda o‘tlab yurganida birdaniga bahaybat Bo‘riga ro‘para kelib qoldi. “Iye, sen nima qilyapsan bu soya-salqin daraxtzorda?” deb so‘radi undan Bo‘ri. Echki javob qildi: “O janobim, men sizning

ko'zingizga ko'rinmaslik uchun ko'pdan beri uzoq-uzoqlarda qochib yurdim; endi, mana, o'zim sizning huzuringizga kelayotgan edim. Faqat, iltimos, menga bir yaxshilik qilsangiz". Bo'ri unga dedi: "Men ham seni ko'p qidirdim, mana, axiri o'zimning xususiy maysazorimdan topdim; mayli, senga bir yaxshilik qilay, faqat, jonimni omon qoldiring, deb so'rama". – "Yo'g'-e, men jonimning g'amini yeyotganim yo'q, – dedi Echki, – iltimosim shuki, o'zim bilan siz haqingizda ketma-ket ikkita duoi xayr o'qimoqchiman; to shu duolarni qiroat bilan tilovat qilib bo'lgunimcha meni yemay tursangiz". – "Yaxshi, – dedi Bo'ri, – aytganingcha bo'lsin". – "Unda, – dedi Echki, – meni anavi tepa boshiga olib chiqing, u yer ko'kka yaqin – shunda o'qigan tilovatim-u qiroatli duolarim ham osmon-falakka eshitiladi, ham yovvoyi va xonaki echkilarning qulog'iga etib boradi-da ular ham menga jo'r bo'lishib siz bilan men ikkalamizni astoydil duo qila boshlashadi". Bo'ri Echkining aytganini qildi; Echki tepa boshiga chiqib olib, ko'zlarini ko'kka tikkancha, bor ovozi bilan ayyuhannos solib ma'ray boshladi. Bo'ri uning yonida turarkan, Echki duo o'qiyapti, deb o'ylardi. Bu asnoda yaqin-atrofdagi o'tlab yurgan echkilar ham, qishloqdagi itlar ham, keyin, dalada ishlayotgan dehqonlar ham Echkining vahimali ma'rashini eshitishib, har tomondan yugurib kelishdi-da, Bo'rini tutib olib rosa do'pposlashdi va Echkini o'limdan qutqarib qolishdi. So'ng po'stagi qoqilib chalajon bo'lib qolgan Bo'rini sudrab borarkanlar, u Echki tomonga o'girilib dedi: "Eh, hech omadim kelmadi-kelmadi-da! Sen, nazarimda, meni faqat chala-chulpa, ammo o'zingni chin dildan berilib duo qilganga o'xshaysan". Echki unga shunday javob qildi: "O'zim haqimda o'qigan ibodatimning hamma yoqqa eshitilgani men uchun yetarli bo'ldi".

## ER VA UNING MANJALAQI XOTINI

Bir odamning xotini juda badfe'l, vaysaqi va o'lgudek qaysar edi. Bir kuni er-xotin maysazor bo'ylab sayr qilib yurganlarida, er bu o'tloqning o'tlari o'rib olinganini ko'rib xotiniga dedi: "Qara, xotin, bu yerdagi o'tlarni juda hafsala bilan bir tekisda o'rib olishibdi". – "Bekorlarni aytibsan, – dedi xotini, – o'tlar o'rilmagan, qaychilangan". – "Doim menga ters gapirganing-gapirgan, – dedi shunda er. – Lekin aniq esimda – qo'shnimiz bu o'tloqdagi o'tlarni chalg'i bilan o'rgandi". – "Senda es yo'q, – dedi xotin qaysarligi tutib, – bu yerdagi o'tlarni chalg'i bilan o'rishmagan, qaychilab qirqishgan". – "Nima, albatta sening aytganing to'g'ri bo'lishi kerakmi, mochag'ar? – deb baqirvordi er va xotinini yerga yotqizib ustiga minib oldi-da, dedi: "Men aytgan gapni to'g'ri deb bo'yningga ol, bo'lmasa hamisha menga ters gapiradigan manavi tilingni shartta kesib tashlayman, manjalaqi! Gapir o'tlar nima bilan o'rilgan?" Lekin xotin so'zlarni endi aniq gapira olmasdi, chunki eri uning tilini changallab tortib turardi; shunday bo'lsa ham, xotin "qaychi" so'zini "aysi" deb aytdi. Shunda g'azabi qaynagan er xotining tilini kesarkan, yana savolini qaytardi. Endi xotin tilidan ayrilgan, gapira olmasdi, ammo shunda ham qaysarligi qo'zib, ikkita barmog'ini qaychiga o'xshatib qimirlatdi. Mana, er o'z xotinini shu tarzda gung qilib qo'ygan edi.

## SARBOZ VA QAROQCHILAR

Bir sarboz keng dalada ot choptirib ketayotganida ikkita qaroqchini ko'rib qoldi; ular qandaydir bir nojo'ya ishni ko'zlashayotganday pichirlashib turishardi. Sarboz ularga yaqin borib so'radi: "Nega pichirlashyapsizlar, axir bu keng dalada zog' ham yo'q, bahuzur gaplashaversanglar



bo'ladi-ku?" Qaroqchilardan biri unga shunday javob qildi: "To'g'ri, pichirlashmasak ham bo'laverardi, ammo badtarin ishlar haqida pichirlab gapirish o'ng'ayroq, biz shunga odatlanib qolganmiz".

Bu aqli qisqa odamlarga tekkan kasaldir: ular har bir aytgan gaplari, qilgan ishlarida o'zlarining yovuz niyatlarini oshkor qilib qo'yadilar, natijada qanday nomaqbul odam ekanliklari hammaga otning qashqasiday ma'lum bo'ladi-qoladi.

## HOMILADOR BOY

O'zini betob hisoblagan bir boyga tabib, qortiq solib qoningni bir idishga olib qo'y, men uni kelib ko'raman, deb tayinlab ketadi. Boy tabibning aytganini qiladi va tomiridan olgan qonni qiziga berarkan, deydi: "Sen bu qonni ehtiyot qilib asrab qo'y, hali tabib kelib ko'radi-da, betobligim sababini aytib beradi". Qiz qonni avaylab asramaydi, chunki u tabiatan loqayd va beparvo qiz edi. Qon hidini sezgan it yugurib kelib, qon quyilgan idishni hidlamoqchi bo'ladi va uni ag'darib yuboradi. Qon yerga to'kiladi. Buni ko'rgan qiz, voy, endi otamga nima deyman, deb qo'rqib ketadi; keyin yum-yum yig'lab yuz bergan voqeani dugonasiga so'zlab beradi. Dugonasi unga taskin berib shunday deydi: "Men bilaman nima qilishni: sen tomiringga qortiq solib o'sha idishga o'zingning qoningni quygin-da, otang tayinlaganidek, uni tabibga ko'rsat; hech kim hech nima sezmaydi". Bu maslahat boyning qiziga ma'qul bo'ladi va u shosha-pisha hamma ishni dugonasi aytganday qilib bajaradi. Lekin tabib tibbiyot ilmining piri, hoziq hakim edi: qonga ko'zi tushishi bilan unda homiladorlik belgilarini ko'radi. Ko'radi-da uy sohibiga deydi: "Tibbiyot ilmidan olganim barcha saboqlarga amal qilganim holda senga shuni aniq aytamanki, bu qonning

egasi homiladordir”. Boy qanday g‘ayritabiiy holatga muhtalo bo‘lganidan hang-mang bo‘lib qoladi. Mana, endi u to‘lg‘oq tutadigan payt kelishini yuragi taka-puka bo‘lib kuta boshladi. Uy sohibining qornida homilasi borligi butun xonadon ahlini vahimaga solgan, hamma dag‘-dag‘ titrab, nima qilishini bilmas va nuqul tabibni yolg‘onchi, qallob deb haqorat qilar edi. Lekin odamlar yaqinlashib kelayotgan mudhish falokatdan vahimaga tushishib, bu voqeaga aslida nima sabab bo‘lganini so‘rab-surishtira boshlaydilar; shunda ular yerga to‘kilgan qonni ko‘rib qolib, qizni so‘roqqa tutadilar va butun haqiqatni bilib oladilar. Tabibning yanglishmaganligini, aytgan gapi to‘g‘ri ekanligini bilgan qiz hamma bo‘lgan voqeani otasiga bir boshdan so‘zlab beradi va o‘z nomusi bulg‘anganini bo‘yniga oladi.

Beparvo va inobatsiz kishini sharmanda qiluvchi illatlar shu tarzda yuzaga chiqadi.

## BO‘RI BILAN TIPRATIKON

Bo‘ri bilan Tipratikon do‘st edilar. Lekin bir kuni Bo‘ri bexosdan panjasi bilan qopqonga ilinib qoldi. Shunda u do‘sti Tipratikondan, qani endi sodiq do‘stim ekanligingni isbotlab, menga yordam qil, dedi. Tipratikon esa unga bunday javob qildi: “Axir seni bu qopqonga aziz avliyolarning ruhlari yo‘llaganlar-ku, ularning o‘zi seni qopqondan ozod qilmasalar, men qanday yordam qila olaman? Sen har doim ovingning baroridan kelishini tilab hamda go‘sh t emaslikka va o‘zga ne‘matlardan voz kechishga so‘z berib, ul avliyolarning ruhlariga necha martalab tavba-tazarrular qilgansan, va‘dalar bergansan, illo bergan va‘dalaringni, ichgan qasamlaringni yaxshi bajardingmi? Mana shuning uchun ham ular sendan ranjishib, seni shu tuzoqqa ro‘para qilishgan bo‘lsa

ajab emas. Aytmoqchimanki, avvalam bor, sen quruq va'dalaring bilanmas, qilgan xayrli, savob ishlaring bilan aziz avliyolarning mag'firat qilishini kut, shundagina o'zingga ham yaxshi bo'ladi, mening do'stligim ham senga naf keltiradi, aks holda hech nimaga erisholmaysan, zero men hech qachon tangrilarning xohish-irodasiga qarshi bormasmen".

O'rtog'ingdan ko'p ham umidvor bo'lma, balki o'zingni nazardan qochirma, zinhor qing'ir yo'lga kira ko'rma.

## BO'RI VA QAYIQCHI

Begona yurtlarga bosh olib ketayotgan Bo'ri keng va chuqur bir daryo bo'yiga kelib qoldi; u daryodan suzib o'tishga yuragi betlamay, narigi sohilga o'tkazib qo'yishni Qayiqchidan iltimos qildi. "Mayli, kira haqini to'lasang o'tkazib qo'yaman", dedi Qayiqchi. Bo'ri unga: "So'raganingni beraman, qayig'ingga tushirsang bo'lgani", dedi. Mana, Qayiqchi Bo'rini qayiqqa tushirib daryodan suzib o'ta boshladi. Shunda Bo'ri qayiq egasidan: "Xo'sh, qanaqa kira haqi olmoqchisan mendan?" – deb so'radi. "Sen menga, – dedi Qayiqchi, – faqat uchta rost gap ayt – shu kira haqi bo'ladi". Bu shart Bo'riga yoqdi va u shu zahoti birinchi gapni aytdi: "Kim yaxshilik qilsa, u yaxshi odamdir". – "Bu chindan ham rost gap", – dedi qayiq egasi. Mana, ular daryoning o'rtasiga etib bordilar, shunda Bo'ri ikkinchi gapni aytdi: "Kim yaxshilik qilmasa, u yomon odamdir". – "Bu ham to'g'ri gap, – dedi Qayiqchi, – endi uchinchi gapni ayt!" – "Uchinchi gapni hali bilmayman, – dedi Bo'ri. – Sen meni daryo bo'yiga oborib qo'y, ungacha o'ylab topaman uchinchi gapniyam". Mana ular sohilga etib kelishdi, shunda Bo'ri bir sakrab quruqlikka chiqib oldi-da: "Yomonga yaxshilik qilgan odamning butun harakati bekor ketadi!" deb qichqirdi.

Bo‘rining gapi to‘g‘ri edi: kimda-kim yovuz odamga yaxshilik qilsa, bu yaxshiligi unga yomonlik bo‘lib qaytadi.

## BO‘RI VA KAPTAR

Bir kuni bo‘ri mayda-chuyda xas-cho‘plarni terib yurgan yovvoyi Kaptarni ko‘rib, unga dedi: “Tavba, kun bo‘yi tinim bilmay qayoqdagi xas-cho‘plarni tashiganing-tashigan, lekin qurgan dang‘illama uyingni ham, o‘t yoqilgan issiq o‘chog‘ingni ham hech ko‘rmadim, qo‘shnijon”. Kaptar Bo‘riga shunday javob qildi: “Qo‘shnim bo‘lganingdan beri men ham sening doim uyangga qo‘zichoqlarni ortmoqlab kelishingni ko‘raman-u, ammo egningga bironta issiq kiyim bitganini ham, yor-do‘stlaring bilan ulfatchilik qilganingni ham hech ko‘rmadim”.

Masal demoqchiki, ichi qora, ochofat odamlar ham xuddi oqko‘ngil, saxovatli kishilar singari ko‘p mehnat qiladilar-u, lekin hech qachon baxtli bo‘lolmaydilar.

## CHOL VA UNING O‘G‘LI

Bir cholning o‘g‘li bor edi. Bu durkun yigit otasining qartayib, vaqti qazosi yaqin qolganini sezdi-da bir kuni undan, siz vafot etganingizdan keyin men qanday yashay, qayerga borib turay, deb so‘radi. Ota o‘g‘liga: “Qayerda odamlar seni hurmat qilishsa o‘sha yerga borib yasha”, dedi. O‘g‘il bo‘lsa: “O‘shanaqa joy topilmasachi?” deb so‘radi. “Unda, – dedi ota, – odamlari sendan qo‘rqadigan yurtda yasha”. – “Unaqa yurt ham bo‘lmasachi, – deb so‘radi yana yigit, – unda nima qilay?” – “Agar unaqayam, bunaqayam yurt topilmasa, – dedi ota, – qidirib topganing mamlakatda sen hech qanaqa ish qilmaydigan bo‘lib kun kechir”. – “Agar o‘shanaqa mamlakatniyam topolmasamchi, ota?” – “Unda, – dedi yigitning otasi, –

shunday joyga borib turginki, qayerdan kelganingni ham, kimning o'g'li ekaningni ham hech kim bilmasin”.

## TULKI BILAN XACHIR

Shunday odamlar borki, hali o'zlari shogird ham bo'lib ko'rmaganlar-u kerilishib ustozlik qilmoqchi bo'ladilar. Shu haqda sen bir masal eshit.

Xachir daraxtzor yonidagi o'tloqda o'tlab yurardi. Uning oldiga Tulki kelib: “Kimsan?” deb so'radi. “Hayvonman”, deb javob qildi Xachir. “Men buni so'rayotganim yo'q, – dedi Tulki, – ayt-chi, otang kim bo'lgan?” – “Bobom ot bo'lgan ekan”, dedi Xachir. “Sendan buniyam so'raganim yo'q, – dedi Tulki, – menga faqat otingni ayt”. – “Otimni bilmayman, – deb javob qildi Xachir, – otam men go'dak paytimda o'lib ketgan. Lekin o'shanda otimni keyingi chap oyog'imning tuyog'iga yozdirib qo'ygan ekan – ismimni unutib yubormasliklari uchun. Agar bilging kelayotgan bo'lsa, yaqinroq kel-da, o'zing o'qib ol tuyog'imdan”. Tulki bu yerda qandaydir makkorlik mavjudligini darrov fahmladi va bo'rini qidirib topgani o'rmonga yugurib ketdi: keyingi paytlarda u bo'ri bilan ancha o'chakishib qolgan edi. Mana, u ochlikdan sirilib yotgan bo'rini bir daraxt tagidan topdi va astar-paxtasini ag'darib koyiy ketdi: “Voy notavon, noshud, esi past hayvon-e, nega bu yerda joningni qiynab, ochlikdan sirilib yotibsan? Qani, tur o'rningdan, yalqov, anov o'rmon yoqasidagi o'tloqqa bor, u yerda seni o'ziga bino qo'ygan kattakon, biqqa semiz bir jonivor kutib turibdi; darrov uni gumdon qil-u qorningni to'ydirib ol”. Mana, bo'ri o'tloqqa borib, Xachirga: “Kimsan?” deb savol berdi. “Hayvonman”, deb javob qildi Xachir. “Men buni so'rayotganim yo'q sendan, – dedi bo'ri, – otang kim bo'lgan?” – “Bobom ot bo'lgan ekan,” dedi Xachir. “Men buniyam so'rayotganim yo'q, –

dedi bo'ri, – sen menga faqat otingni ayt”. – “Buni bilmayman, – deb javob qildi Xachir, – otam go'dak toychoq paytimda o'lib ketgan. Lekin o'lmasidan oldin otimni keyingi chap oyog'imning tuyog'iga yozdirib ketgan ekan – ismimni unutib yubormasliklari uchun. Agar bilmoqchi bo'lsang, yaqinroq kel-da, o'zing tuyog'imdanda o'qib ol”. Vale bu yerda qandaydir mug'ombirona sir borligiga bo'rining farosati yetmadi va u yaqin kelib Xachirning tuyog'ini hafsala bilan tozalay boshladi: bo'ri, rostdan ham nimadir yozilgan bo'lishi kerak bu tuyoqqa, deb o'ylab, uni o'qimoqchi bo'lgan edi. Biroq shu payt orqa oyog'ini ko'tarib turgan Xachir bo'rining peshanasini mo'ljallab chunonam tepdiki, kalta fahm bo'rining miya qatig'i o'ynab, ko'zlari kosasidan otilib chiqib ketdi. Sal nariroqda dukkakli butalar panasida berkinib turgan Tulki suyunib chapak chalib yubordi va kulib turib dedi: “Voy galvars, tentak maxluq-a, axir sen savodsiz edingku, qanaqa o'qirding? Manavi o'ng dastpanjam haqqi qasamki, chakkangni yorib to'g'ri qilishdi”.

Hamma tentak odamlar ham shunaqa: o'zlarini bilimdon qilib ko'rsatmoqchi bo'ladilar-da, ko'pincha pand yeb qoladilar.

## QOBON

Ba'zi bir odamlar o'zlarining jamiyatda tutgan mavqelariga qanoat qilgilari kelmay, o'z toifalaridagi kishilar, hatto o'zlaridan mansabdorroq bo'lgan insonlar ustidan hukmronlik qilish ilinjida yashaydilar. Shu haqda sen bir masal eshit.

Cho'chqalarning kattakon bir to'dasida o'ziga bino qo'ygan takabbur Qobon bor edi. U o'zini hamma hamjinslaridan afzal hisoblar va doim, nega axir to'da sardori men emasman, deb xunob bo'lgani-bo'lgan edi.

Mana, bir kuni u alamiga chiday olmay, ovozining boricha “xur-xur”lab, so‘yloq tishlarini irshaytirib, cho‘chqalar to‘dasi ichida chirpirak bo‘lib gir-gir aylana boshladi: bu qilig‘i bilan u hamma cho‘chqalarni vahimaga solmoqchi bo‘lgan edi. Lekin hamjinslari uning bu “xurmacha” qilig‘iga e‘tibor ham bermadilar; shunda Qobon jig‘ibiyroni chiqib o‘ziga o‘zi dedi: “E-e, nima bor menga bu cho‘chqalar orasida? Ish buyursam – hech biri quloq solmasa, g‘azablanib “xur-xur”lasam – hech biri qo‘rqib qochib ketmasa, g‘azablansam – bitta ham cho‘chqa dag‘-dag‘ titramasa... Yo‘q, bu yerda men endi bir kun ham qololmayman”. Qobon shunday deb o‘rnidan turdi va o‘z to‘dasini tark etib uzoq-uzoqlarga bosh olib ketdi. Yo‘lda u bir talay qo‘zichoqlarni uchratdi va shu suruv orasiga kirib olib, og‘zidan ko‘piklar sochib, so‘yloq tishlarini yaraqlatib, baralla “xur-xur”lagancho gir-gir aylana boshladi. Qo‘zichoqlar bu dahshatli maxluqdan qo‘rqib, har tomonga tiraqaylab qochishdi. Shunda Qobon g‘ururlanib o‘ziga o‘zi dedi: “Shu yer bo‘ladi mening maskanim: bu yerda men izzat-hurmat topaman, hamma qo‘zichoqlarni qo‘rqitib olaman; meni darg‘azab kayfiyatda ko‘rgan qo‘zichoqlar har tarafga qochishadi, ular mening dag‘dag‘amdan dag‘-dag‘ titrashadi; bu yerda hamma qo‘zichoqlar meni hurmat qilishadi, mendan qo‘rqishadi”. Qobon ancha kungacha shu qo‘zichoqlar jamoasida “hukm surib” yashab yurdi. Va nihoyat, kunlarning birida qorni och bir bo‘ri qo‘zichoqlardan birontasini o‘marib olib qochgani pisib kela boshladi. Qo‘zichoqlar bo‘rining qorasini uzoqdan ko‘rishgani hamono, hammalari har tarafga shataloq otib qochib ketishdi; qobon bo‘lsa, qo‘zichoqlar meni himoya qilishadi, degan viqor bilan, o‘zini bo‘ridan himoya qilishni o‘ylamadi ham. Shunda bo‘ri, bugun cho‘chqa go‘shriga rosa miriqadigan bo‘ldim, deb so‘lagini oqizib, Qobonning orqa oyog‘idan g‘archcha

tishladi-da, oʻrmon tomonga sudray boshladi. Lekin yoʻlda u tasodifan bir gala choʻchqalarga roʻpara kelib qoldi. Qobon ilgari shu choʻchqalar toʻdasida yashagan edi. U oʻz egachi-singillarini koʻrib qolib, butun dala-dashtni boshiga koʻtarib ovozing boricha chiyillay boshladi. Choʻchqalar uni tanib qolishdi-yu hammalari yoppasiga boʻriga tashlanishdi va unga har tomondan soʻyloq tishlarini botirishib, aʼzoi badanini tilka-tilka qilishib sulaytirib qoʻyishdi, ogʻalari Qobonni esa uning ogʻzidan ozod qilishdi. Shunda Qobon chekkan alamlarini oʻylab va nomatlub qilmishlaridan xijolat boʻlib, oʻz qavmlari orasida turganicha shunday dedi: “Saodatli kunlaringda ham, falokatga uchragan damlaringda ham yaqin kishilaring bilan hamjihat boʻl, deyilgan bir maqolda. Mana, men ham agar oʻz xeshlarimni tashlab ketmaganimda bunday ogʻir kulfatga uchramagan boʻlardim”.

Koʻpchilik odamlar ham shunaqa: ular oʻzlarining hayotdagi mavqelariga qanoat qilmay, katta mansablarga erishish ishtiyoqida elib-yugurib harakat qiladilar, vale koʻpincha falokatga uchrayotganlarini oʻzlari ham bilmay qoladilar.

## BOʻRI BILAN ESHAK

Senga qarshi yomon niyatda boʻlgan odamning gaplariga aslo ishonma. Shu haqda bir masal eshit.

Boʻri Eshakni uchratib unga dedi: “O, birodarim Eshak, bugun qornim juda ham och, seni emasam boʻlmaydi”. – “Xohlaganingni qilaver, – deb javob qildi unga Eshak, – sening ishing buyurish, mening vazifam buyruqqa itoat etish. Agar meni yeydigan boʻlsang, koʻp azob-u uqubatlardan qutqararding: oʻzing bilasan, uzumzorlarda ezilgan xum-xum musallaslarni ham,



xirmonda yanchilgan qop-qop arpa-bug‘doylarni ham, o‘rmonda kesilgan o‘tinlarni ham, tegirmonda tortilgan unlarni ham, tog‘dan esa imorat qurishga ishlatiladigan toshlarni ham nuqul tashiganim-tashigan, qisqasi, hamma og‘ir ishlar menga yuklangan. E voh, qanday bexosiyat kunda tug‘ilgan ekanman! Faqat bir iltimosim bor sendan: meni gavjum yo‘lda emasang; nimagaki, men uyalaman. Agar shu ochiq joyda, qo‘ni-qo‘shnilarimiz va xo‘jayinim ko‘zi oldida meni yeydigan bo‘lsang, hamma: voy, eshagimiz tushkurga nima bo‘ldi, o‘zini bo‘riga yedirgani uyalmadimikin-a, deb ustimdan kulishadi. Shuning uchun, iltimos, bir foydali maslahatimni eshit: hozir ikkovimiz o‘rmonga kiraylik-da, yamyashil novdalardan pishiq arqon eshaylik, keyin sen o‘sha arqonning bir uchiga meni, xuddi o‘z qulingdek, belimdan bog‘laysan, men bo‘lsam arqonning ikkinchi uchini sening bo‘yningga, go‘yoki o‘z sohibim sifatida bog‘layman; shundan keyin sen meni qalin o‘rmonning ichkarisiga yetaklab borib, o‘sha yerda bemalol, bexavotir yeyaverasan”. Bo‘ri Eshakning mug‘ombirona niyatini fahmlamadi va shunday dedi: “Bo‘pti, xuddi sen aytganingdek qilamiz”. Mana, ular o‘rmonga kirishib, novdalardan chayir arqon eshishdi – Eshak novdalarni tashib turdi, Bo‘ri arqon eshdi; keyin u arqonning bir uchini Eshakning beliga, Eshak esa, arqonning ikkinchi uchini Bo‘rining bo‘yniga bog‘lashdi. Shunda Eshak: “Qani, ketdik endi sen xohlagan tomonga”, dedi. Lekin Bo‘ri unga: “Yo‘q, yaxshisi, o‘zing yo‘l ko‘rsat”, dedi. “Jonim bilan”, dedi Eshak va o‘z xo‘jayinining uyi tomon yura boshladi. Mana, Bo‘ri uzoqda qishloq qorasini ko‘rib qoldi va dedi: “Iye, biz boshqa tomonga ketyapmiz-u!” – “Obbo sohibim tushmagur-e, nega unaqa deyapsan? – dedi Eshak. – Sen yuraver, boya senga aytganim yo‘l shuning o‘zi-ku!” Nihoyat Bo‘ri aldanganligini tushundi

va orqasiga tisarila boshladi, Eshak bo'lsa uni oldinga o'z xo'jayinining uyi tomon bor kuchi bilan sudrayverdi; bu payt uydan otilib chiqqan Eshakning egasi va uning oila a'zolari Bo'rining po'stagini qoqib o'lgudek do'pposlادilar. Kimdir Bo'rining boshini bolta bilan chopib tashlamoqchi bo'lgan edi, lekin mo'ljalni to'g'ri ololmay, uning bo'ynidagi arqonni cho'rt uzib yubordi; Bo'ri qutilganiga quvonib to'g'ri tog' tomonga g'izillagancha yugura ketdi. Eshak bo'lsa, o'z egasining uyi tomon yo'l olarkan jonini omon saqlab qolganidan xursand bo'lib, hamma yoqni boshiga ko'tarib hangray boshladi. Bu asnoda toqqa etib olgan Bo'ri Eshakning hangraganini eshitib shunday dedi: "E, yo'q, endi sira ham bo'ynimga arqon bog'latmayman: anoyi emasman!"

Ushbu masal biz baloga uchratmoqchi bo'lganimiz odamning gaplariga ko'p ham ishonmaslikni taqozo qiladi; zero bir marta aldangan odam ikkinchi marta ehtiyotkor bo'ladi. Hatto ko'r ham hassasini faqat bir marta yo'qotadi-ku.

## OMADI YURMAGAN BO'RI

Shunday odamlar borki, ular o'z hayotiy sharoitlariga qanoat qilmay, doim yanada yuksakroq, savlatliroq mansabga erishmoqchi bo'ladilar, lekin unday odamlar qancha yuqoriga ko'tarilmasinlar, payti kelib sobiq mavqelaridan ham tubanroqqa qulab tushib ketadilar. Shu haqda bir masal eshit.

Erta tongda uyg'ongan Bo'ri o'rnidan turdi va suyaklarini qisirlatib kerishdi-da, o'ziga o'zi dedi: "Xudoga shukur-e! Bugun men rosa ovqatga to'yaman, bu aniq; keyingi oyog'imning panjalari menga shuni ma'lum qilishdi". So'ng u inidan chiqib so'qmoq yo'ldan yurib ketdi. Yo'lda u yerda yotgan bitta somsani topib

oldi, somsa but-butun, yumshoqqina edi – shu yerdan o'tgan bironta yo'lovchining xaltasidan tushib qolgan bo'lsa kerak; Bo'ri somsaning uyoq-buyog'ini aylantirib turdi-da, dedi: “Yo'q, seni emayman, esam qornimni quldiratasan! Nima qilaman seni eb? Bugun shundoq ham ovqatga miriqadigan kunim: keyingi oyog'imning panjalari bugun tongda shunaqa xushxabar aytishdi qulog'imga”. Bo'ri shunday deb yana yo'lida davom etdi, biroz yurgach endi u yo'l yoqasida yotgan bir nimta tuzlangan cho'chqa go'shtini topib oldi. Uni uyoq-buyoqqa ag'darib ko'rdi-da, dedi: “Yo'q, seni yemayman, yesam tashna bo'lib suv ichgim kelaveradi. To'g'ri-da, axir bugun shundoq ham ovqatga to'yishim aniq-ku, nima qilaman sho'r go'shtni yeb?”

Bo'ri yana yo'l yurib ketdi va yaylovda bir biyaning o'z toychog'i bilan o'tlab yurganini ko'rib qoldi, “Voy, xudoga shukur-e! – dedi Bo'ri. – Bugun miriqib qorin to'ydirishimni bilardim. Mana, xudo etkazdi”. So'ng u biyaga yaqin borib dedi: “Xo'-o'sh, egachi, endi eyman-da sening bolangni – nima deysan?” Biya unga shunday javob qildi: “Biz sening izmingdamiz, nima qilmoqchi bo'lsang qilaver; faqat bir iltimos: kecha o'tloqda oyog'imga zirapcha kirib qolgan edi, axir sen binoyiday tabibsan-ku, oldin shu zirapchani oyog'imdan chiqarib tashlagin-da keyin, mayli, yeyaqol toychog'imni”. Bo'ri zirapchani tortib olgani biyaning oyog'i oldiga yaqin keldi, shunda biya uning manglayiga chunonam qattiq zarb bilan bir tepdi-da toychog'ini olib o'rmon tomonga qochib ketdi va zumda ko'zdan g'oyib bo'ldi. Birozdan keyin axiri hushiga kelgan Bo'ri dedi: “Mayli, hechqisi yo'q, hali eng mazali noz-ne'matlar kutib turibdi-ku meni”.

U yana yo'lida davom etdi va bir sayhonlikda bir-biri bilan suzishayotgan ikkita qo'chqorni uchratdi, so'ng sevinib ketib dedi: “E xudo, o'zingga shukur! Men

qo'chqor go'shtiga mana shu yerda miriqadigan bo'ldim". Va u qo'chqorlarga qarab dedi: "Og'aynilar, hozir men ikkovingizdan biringizni eyman". – "Ixtiyor o'zingda, – dedi qo'chqorlardan biri Bo'riga javoban, – mayli, bizni nima qilsang qilaver. Lekin bizni yeyishdan oldin bir savob ish qilsang, ya'ni adolatli hukm chiqarib janjalimizni ajrim qilib bersang yaxshi bo'lardi. Gap shundaki, ko'rib turganing bu o'tloq otamizdan ikkovimizga meros qolgan, lekin biz uni hech bo'lashib ololmayapmiz, shuning uchun nuqul jiqqamusht bo'lganimiz-bo'lgan". – "Mayli, – dedi Bo'ri, – iltimosinglarni bajaraqolay, lekin o'zinglar aytinglar: qay yo'sinda ajrim qilay?" Ikki qo'chqorning biri unga shunday dedi: "Bo'lmasa, eshit, janobim: sen o'tloqning qoq o'rtasiga borib turasan, men bilan ukam ikkovimiz o'tloqning ikki chekkasidan baravariga sening oldingga chopib boramiz; birinchi bo'lib yetib borgan o'tloqning egasi bo'ladi, bellashuvda yutqazgan senga emish bo'ladi". – "Bo'pti, men roziman", dedi Bo'ri. Qo'chqorlar dalaning ikki chekkasiga borib turishdi. Keyin baravariga to'g'ri Bo'riga qarab shamoldek yelib kela boshladilar va ikkovlari biri o'ngdan, ikkinchisi chapdan Bo'rini shunaqangi zarb bilan suzdilarki, uning, qo'rqqanidan ichi o'tib ketdi. So'ngra qo'chqorlar juftakni rostlab qolishdi; qovurg'alari singan chalajon Bo'ri esa hushidan ketib cho'zilib yotib qoldi. U anchadan keyin hushiga kelib o'ziga o'zi shunday dedi: "Yo'q, buyam bir nasiba, tuzalib ketaman hali, axir men bugun miriqib ovqat eyishim kerak-ku!"

U yana yo'l yurib ketdi va saldan keyin bir yaylovda bolalarini ergashtirib yer titkilab yurgan ona cho'chqani ko'rib qoldi. "hamdu sano bo'lsin senga, ey samo malikasi! – dedi Bo'ri. – Bugun tushlik taomim shohona bo'lishini ko'nglim sezgandi". Keyin u ona cho'chqaga dedi: "Singiljon, bugun men sening bolalaringni tanovul qilmoqchiman!" Cho'chqa unga shunday javob

qildi: “Ixtiyoring, hazratim, nima qilsang qilaver; faqat bir iltimosim bor: sen bolalarimni yeyishdan oldin cho‘qintirib ol, chunki ular hali cho‘qintirilmagan. Keyin, mayli, bemalol yeyaver”. – “Xo‘p bo‘ladi, – dedi Bo‘ri, – bo‘lmasa, menga cho‘qintiradigan joyni ko‘rsat”. Ona cho‘chqa Bo‘rini suv tegirmoni o‘rnatilgan anhor labiga boshlab borib dedi: “Mana senga obixayr – muqaddas suv”. Bo‘ri anhor labiga borib ruhoniya ota – hazrat timsolida turdi-da, cho‘chqa bolalarini cho‘qintirishga shaylanib, endigina bitta cho‘chqachani suvga cho‘mib olmoqchi bo‘lgan edi, shu payt ona cho‘chqa xur-xurlab bor kuchi bilan Bo‘rini anhorga itarib yubordi. Suv uni to‘g‘ri tegirmon toshini aylantirayotgan g‘ildirak tomon oqizib ketdi; natijada, g‘ildirak gupchaklari Bo‘rining butun terisini shilib, qovurg‘alarini majaqlab yubordi. Nihoyat u zo‘rg‘a suvdan chiqib jon saqlab qoldi va o‘ziga o‘zi dedi: “Bu safar meni gel qilishdi, lekin, baribir, parvoim falak: axir meni dabdabali ziyofat kutmoqda-ku bugun!”

U bir qishloq yonidan o‘tayotganida non yopiladigan pech oldida uymalashib turgan echkilarga ko‘zi tushdi: “Yo xudo, o‘zingga shukur! – dedi u nigohini ko‘kka qadab. – Mana, bu yoqda ekan-ku mening tushlik nasibam: ko‘rib ko‘zim o‘ynab ketdi!” U to‘g‘ri echkilar oldiga bordi. Lekin echkilar uni ko‘rgan zahoti pech ichiga kirib berkinib olishdi. Bo‘ri pech og‘zini to‘sib turgan qopqoqqa yaqin kelib dedi: “Salom, singiljonlar! Bu yerga kelishimdan maqsad, sizlarni yeb qornimni to‘yg‘azmoqchiman”. Echkilar unga shunday javob qilishdi: “Bizlar bo‘lsak, hazrat, kunduzgi ibodatni boshlab berishingizni kutayotgandik. Qani, boshlayqoling tezroq, biz ham sizga jo‘r bo‘lib ibodat qilaylik; ibodat tugaganidan keyin hammamiz huzuringizga chiqamiz, ana o‘shanda bizni nima qilsangiz qilaverasiz”. Shunda

Bo'ri o'zini oliy rutbadagi ruhoniyy – episkopdek tutib, pech oldida ovozing boricha uv tortib “ibodat” qila boshladi. Bo'rining uvlagan ovozini eshitgan qishloq ahli qo'llariga tayoqlar olib, itlarini ergashtirib yetib keldilar-da Bo'rini do'pposlab rosa po'stagini qoqdilar, itlar uni yumma talashib hamma yog'ini g'ajib tashladilar; nihoyat Bo'ri itlarga xomtalash bo'lishdan zo'rg'a qutilib, g'ajilgan oyoqlarini sudragancha o'rmonga qochib ketdi.

Mana, Bo'ri bir azim tup daraxt tagiga keldi-da, uzala tushib yotdi va hasratidan chang chiqib, qayta-qayta afsuslanib shunday nola chekdi: “Yo tangrim, tangrim, atigi bir kunning o'zida shuncha mash'um falokatlarga duchor bo'ldim-a! Lekin shu kechmishlarim haqida chuqurroq mulohaza qilib ko'rsam, hammasiga o'zim aybdor ekanman. Nega axir bunchalik takabbur bo'ldim, nega topganim somsani yoqtirmadim, bir nimta cho'chqa go'shtidan hazar qildim!” Keyin u yana zorlanib shunday dedi: “Axir mening otam shifokor bo'lmagan va men tabiblik kasbini o'rganmagan edim-ku: nega axir o'zimni tabib hisoblab, ot oyog'idagi zirapchani tortib olmoqchi bo'ldim? Otam hech qachon sudya bo'lmagan va men jinoiy jazo qonunlari majmuasidan bexabar edim-ku: nega axir ikkita qo'chqor mojarosiga hakamlilik qildim? Otam pop bo'lmagandi-ku, men ham savodsiz bir omi bo'ri edim: shunday ekan, nega axir cho'chqa bolalarini cho'qintirishga rozi bo'ldim? Otam hech qachon episkop bo'lmagan va menda ham hech qanday diniy mansab yo'q edi: shunday ekan, qiroat bilan namoz o'qishim, echkilarga duoi xayrlar ulashishim shartmidi axir?” So'ng u Xudoga iltijo qilib dedi: “Yo parvardigorim, shunday qilginki, hozir, shu yerning o'zida osmon-falakdan bir qattol shamshir tushib, meni mahv etsin va jonimni olsin!” Ayni shu payt bir odam shu daraxtga chiqib olib uning bachki novdalarini kesayotgan edi; u Bo'rining

hamma gaplarini eshitdi va uning ohu nolalari tugashi bilan qo'lidagi boltasini mo'ljallab turib Bo'ring ustiga tashladi. Bo'ri umbaloq oshib o'zini daraxt tagidan olib qochdi. Keyin o'rnidan turdi-da, oldin osmonga, keyin daraxtga nazar tashlab shunday dedi: "Yo tangrim, bizning nola-fig'onlarimiz senga shu qadar tez etib borar ekan-ku!" Keyin u, rosa kaltak yeb, hamma yog'i tilka-pora bo'lib ketganiga qaramay, o'rmon tomonga yugurib ketdi. Bugun ertalab u o'rmondan mag'rur qiyofada chiqqan edi, endi bo'lsa, u yerga g'amga botib, shumshayib kirib bordi.

Bu masal, o'zing bilmagan, qo'lingdan kelmaydigan ishni qilishga, yuksak martaba ketidan quvishga urinma, demoqchi va, har kim o'ziga munosib bo'lgan lavozimga qanoat qilib yashasin, deb nasihat qilmoqchi bizga.

## QIZG'ANCHIQ IT

Shunday odamlar borki, o'zlariga hech kerak bo'lmagan narsalarini ham boshqalardan qizg'anadilar; o'sha nokerak buyumlaridan hech qanday manfaat ko'rolmasliklarini bilsalar ham, baribir, hech kimni u buyumlariga yaqin yo'latmaydilar. Shu haqda bir masal eshit.

Og'ilxonadagi pichan g'arami ustida it yotardi; u juda qizg'anchiq edi. Bu yerdan o'tgan sigir-u, buqa-yu, qo'y-echkilar agar pichandan bir chimdim olib yemoqchi bo'lsalar, it kurak tishlarini irshaytirib irillay boshlardi. Shunda hayvonlar ta'na qilib, deyishardi: "Sen o'zingga kerak bo'lmagan narsani bizlardan qizg'anib yaxshi qilmayapsan. Axir pichan tabiatan sen yeydigan ozuqa emas-ku, nega baxillik qilib uni bizga yedirmayapsan?" Itning bu baxilligini kattakon bir suyakni og'ziga tishlab olgan, ammo uni o'zi kemira olmasa ham boshqa itlarga bergisi kelmayotgan itning fe'liga qiyos qilsak bo'ladi.

Masaldan hissa: baxillik dardidan shifo topish oson

emas. Uni juda qiyinchilik bilan faqat tizginlab tursa bo'ladi, illo uning ildizini batamom quritib bo'lmaydi.

## IT, BO'RI VA QO'CHQOR

Ba'zi bir mug'ombir, ammo nodon va ojiz kishilar ko'pincha farosatli va qudratli odamlarni aldamoqchi bo'ladilar-da, o'zlari mushkul ahvolga tushib qoladilar. Shu haqda bir masal eshit.

Bir odamning qo'ylari juda ko'p edi; ularning hammasini bitta bahaybat qopog'on it qo'riqlardi; bo'rilar uning vovullashini eshitib dag'-dag' titrashar, vajohatini ko'rib, dumlarini qisgancha, in-inlariga qochib ketishardi. Shuning uchun bu qo'ylar suruviga bironta bo'ri yaqin yo'lay olmasdi. Shu zaylda oradan bir necha yil o'tdi va qopog'on it o'ldi. Bu judolikdan tashvishlari ortgan cho'ponlar o'zaro hasratlasha boshladilar: "Endi nima qilamiz-a? Azamat qo'riqchimizdan ayrilib qoldik, mana endi bo'rilar qo'ylarimizni birin-ketin bo'g'izlab tortib ketaverishadi". Ularning bu gapini suruvdagi bitta kekkaygan qo'chqor eshitib qolib, cho'ponlarga dedi: "Menda bir zo'r taklif bor, eshitinglar: sizlar junimni tozalab qirqinglar, shoxlarimni arralab tashlanglar, keyin ustimga manavi o'lik itning terisini yopinglar, ana unda bo'rilar menga ko'zlari tushishi bilan o'takalari yorilib, tiraqaylab qochib ketishadi". Cho'ponlar Qo'chqorning aytganini qilishdi; shundan keyin, bir kuni ov qilmoqchi bo'lib, suruvga yaqin kelgan bo'rilar ustiga itning terisi yopilgan Qo'chqorni uzoqdan ko'rib qolishdi-yu vahimaga tushib bir zumda qoralarini o'chirishdi. Lekin oradan biroz vaqt o'tib, ochlikdan sillasi qurigan boshqa bir bo'ri suruvdagi qo'zichoqni yelkasiga ortmoqlab qocha boshladi. Buni ko'rgan Qo'chqor darhol uning orqasidan quva ketdi. Bo'ri orqasiga o'girilib izma-iz quvib kelayotgan "it"ni ko'rdi-yu qo'rqqanidan ichi o'tib



ketib hamma yog'i bulg'andi va yanada tezroq yugura boshladi, lekin Qo'chqor uni quvishda davom etaverdi. "It"ning Bo'riga yetib olishiga bir bahya qolgan edi; buni ko'rgan bo'ri ikkinchi marta bulg'andi. U qarasa, mana hozir "It"ning changaliga ilinadigan... Shunda uning yuragi taka-puka bo'lib, uchinchi marta ichi o'tib ketib, yana bulg'andi. Lekin shunda ham Bo'ri joni halqumiga kelib, g'izillab yugurar, Qo'chqor esa uni ta'qib qilib quvar ekan, ustiga yopilgan it terisi yo'l yoqasidagi butalarga ilinib, ishqalanaverib dabdala bo'lib ketdi; buni Bo'ri ko'rdi va aldanganini tushundi. Shunda u yugurib kelib Qo'chqorga chang soldi-da: "Sen o'zi kimsan?" deb so'radi. Qo'chqor endi nima ham qila olardi, "Men qo'chqorman", deb javob qildi. "Qo'chqor bo'lsang nega meni quvlading?" deb so'radi Bo'ri. "Hazillashuvdim", dedi Qo'chqor. "Qani, yur men bilan, - dedi Bo'ri, - qilgan hazilingni o'zingga ko'rsataman". U shunday deb Qo'chqorni o'zi birinchi marta qo'rqib ketganida bulg'angan joyga boshlab bordi va dedi: "Mana o'sha sening haziling!" Keyin ikkinchi marta ichi ketgan yerga olib borib: "Bu ham sening hazilingmidi?" deb so'radi. So'ng qo'rqqanidan yuragi yorilgudek bo'lib, uchinchi marta ichi ketib bulg'angan yerga Qo'chqorni olib bordi-da: "Bu ham sening hazilingmidi?" deb so'radi-da, Qo'chqorni shu yerning o'zida g'ajib-g'ajib yeb yubordi.

Bu masal, nodon va zaif odamlarga tanbeh berib, ularga, oqil va iqtidorli kishilarni hiyla-nayrang ishlatib aldamaslik kerak, deb uqdiradi.

## **ODAM, SHER VA UNING O'G'LI**

Ota-ona gapiga quloq solmaydigan, bergan nasihatlarini nazarga ilmaydigan, tanbehlarini inobatga olmaydigan va buning oqibatida ajalidan oldin nobud

bo'ladigan farzandlar el orasida ko'p uchraydilar. Sen shu haqda bir masal eshit.

Kimsasiz ovloq joyda bir odam yashardi; u tinim bilmay mehnat qilar, daraxtlarni kesib yer ochar va shu ochilgan erga turfa xil ekinlar ekardi. Lekin bu zaminning sultoni Sher doim uning ekinzorlarida daydib yurib, yerdan nish urib chiqqan ekinlarini payhon qilar, ildizi bilan sug'irib olib toptab tashlardi. Sherning bu qilmishidan achchig'langan Odam har er-har yerga qopqonlar qo'ydi, tuzoq iplarini tortdi; shunda Odam bilan olishuviga ko'zi etmagan Sher go'dak o'g'li Sherbachchani oldi-da, boshqa zaminga bosh olib ketdi.

Oradan yillar o'tdi; Sherbachcha ulg'ayib qudratli Sher bo'ldi va bir kuni u otasiga shunday savol berdi: "Ayt-chi, ota, bizlar bu yerda tubjoy ahlimizmi yo boshqa yoqdan kelib qolgan musofirlarmizmi?" Ota o'g'liga dedi: "Yo'q, bolam, bizning o'z vatanimiz bu yerdan ancha uzoqda; bu yerga bir Odamzodning hiyla-nayranglari dastidan qochib kelganmiz". Bunday javobdan hayron qolgan Sherzod yana so'radi: "O'sha aytganing Odamzod qanaqa maxluq ekanki, undan hatto Sher ham qo'rqibdi?" – "U Odam, – deb javob qildi Sher, – bizlardan ancha kichkina va zaifroq maxluq, ammo shunaqangi hiylagarki, ko'rsang hayron qolasan". – "Unda men, – dedi Sherzod, – o'sha Odamning oldiga borib, bizga ozor bergani va o'z yurtimizdan quvg'in qilgani uchun, undan o'ch olaman". – "Yo'q, bora ko'rma, o'g'lim, – dedi ota, – nimaga desang, uning miyasi to'la vij-vij nayrang, tag'in seni tutib olib o'ldirib qo'ymasaydi, deb qo'rqaman". Sherzod otasiga dedi: "Shu kalam va jismimdagi jonim haqqi qasamki, men bu gapingga quloq solmayman, boraman-da o'sha odamdan o'ch olaman". – "Borganingga pushaymon bo'lasan, o'g'lim!" dedi unga keksa Sher. Lekin Sherzod ota nasihatini qulog'iga ildiz, Odamning oldiga jo'nab ketdi.

U yo'lda boraturib, o'tlab yurgan bir otni ko'rdi; otning sag'risi yag'ir bo'lib ketgan, ozib qovurg'alari sanalib qolgan edi. Sherzod unga savol berdi: "Ayt, kim seni bunchali qiynab yubordi?" – "Odam, – deb javob qildi ot, – u meni arqonga bog'lab qo'yadi, oyog'imni tushovlaydi, og'zimga yugan soladi, keyin ustimga minib olib, meni xohlagan tomoniga yeldiradi, shuning uchun ham elkam va sag'rimni yag'ir bosgan, qornim ochligidan ozib ketganman va qamchi yeyaverib ramaqijon bo'lib qolganman". – "Ayt-chi, – deb so'radi otdan Sherzod, – sen chindan ham shoh otam saltanatining fuqarosimisan?" Ot unga shunday javob qildi: "Men nafaqat otang saltanatining, yana sening ham saltanating fuqarosiman". Shunda Sherzod: "Shu kalam haqqi qasamki, men o'sha Odamdan sening ham qasdingni olaman", deb qasam ichdi.

Keyin u yana yo'l yurib ketdi va yo'lda hamma yog'i kaltak va turtkilardan yara-chaqa bo'lib ketgan bir ho'kizni uchratdi; u pashshalarga talanib yaylovda o'tlab yurardi. Sherzod unga yaqin borib: "Ayt, kim seni bunchalik qiynab yubordi?" deb so'radi. "Odam, – deb javob qildi ho'kiz, – u meni qayishlar bilan chandib bog'laydi, gardanimga bo'yinturuq iladi va omochga qo'shib yer haydatadi, yana meni xalalab, do'pposlay-do'pposlay tog'dan og'ir toshlarni tashitadi". – "Ayt-chi, – dedi unga Sherzod, – sen chindan ham otam saltanatining fuqarosimisan?". Ho'kiz javob qildi: "Nafaqat otang saltanatining, yana sening ham saltanating fuqarosiman". Shunda Sherzod unga dedi: "Voy bo'... bu Odam deganing nafaqat menga, barcha fuqarolarimga ham juda ko'p yovuzliklar qilibdi-ku! Ammo men shu kalam va paxmoq yollarim haqqi qasam ichib aytamanki, sening ham qasdingni olmay qo'ymayman".

Shu mahal Sherzod o'z oyog'i tagida, yerda Odamning oyoq izini ko'rib qoldi va ho'kizdan so'radi: "Iya, bu nimaning izi?" – "Odamning izi", deb javob qildi ho'kiz.

Sherzod bu iz ustiga o'z oyog'ini qo'yib ko'rdi va dedi: "Panjasi kichkina bo'lsa ham, shuncha ko'p badkorliklar qilibdi bu odam!" So'ng u: "Menga ko'rsat o'sha odamni, u qayerda?" deb so'radi ho'kizdan. "Ana u", deb javob qildi ho'kiz. Sherzod o'girilib Odamni ko'rdi; u tepa boshida belkurak bilan yer qazib tuproq tashirdi. Sherzod baralla o'shqirib shunday dedi: "Ey Odam, sen mening podsho otamga ham, men – shahzodaga ham, yana saltanatimiz fuqarolari – hayvonlarga ham juda ko'p zulm o'tkazibsan! Endi shu yovuz qilmishlaring uchun men sendan o'ch olaman!" Lekin Odam unga qo'lidagi uzun tayoq, bolta va pichoqni ko'rsatib shunday dedi: "Meni yaratgan tangrim haqqi qasam ichib aytamanki, agar oldimga chiqquday bo'lsang, seni shu tayoq bilan urib o'ldiraman, manavi bolta bilan nimtalayman, pichog'im bilan teringni shilib olaman". – "Unaqa bo'lsa, – dedi Sher o'g'li, – yur, otamning oldiga boraylik, u podsho – o'zi hukm chiqarsin". Odam unga bunday javob qaytardi: "Oldin sen, to otang dargohiga borgunimizcha menga ziyon-zahmat etkazmaslikka qasam ich, men ham xuddi shunday qasam ichaman, keyin ikkalamiz birgalikda otangning huzuriga boramiz". Mana, Sherzod Odamga shikast etkazmaslikka, Odam ham unga qo'l tekkizmaslikka qasam ichishdi-da, keksa Sher huzuriga ravona bo'lishdi.

Odam katta yo'ldan bora turib, bir so'qmoqqa burildi va shu yo'ldan keta boshladi; bu torgina so'qmoqning har yer-har yeriga u tuzoqlar qo'ygan edi. Odamning katta yo'ldan chetga chiqqanini ko'rgan Sherzod: "Men ham sen yurgan yo'ldan boraman", dedi. "Ixtiyoring!" dedi Odam. Sherzod Odamning orqasidan izma-iz yura boshladi va saldan keyin tuzoqqa ilindi. Tuzoq uning oldingi ikki oyog'ini mahkam o'rab olgan edi. U: "Hey Odam, menga yordam ber!" deb baqirdi. "Ha, nima bo'ldi senga?" deb so'radi Odam. "Oldingi oyoqlarimni nimadir

mahkam chandib o‘rab oldi, – dedi Sherzod, – o‘tinaman, menga yordam qil!” – “Yo‘q, – dedi Odam, – to otangning huzuriga borgunimizcha senga qo‘l tekkizmaslikka qasam ichganman; shunga ko‘ra, hozir senga yordam berolmayman”. Endi Sherzod faqat keyingi ikki oyog‘ida yura boshladi, lekin uncha ko‘p yurmay, yana bir tuzoqqa ilindi; endi uning keyingi oyoqlari ham chambarchas bog‘langan edi. Sher o‘g‘li yana faryod chekib: “Odam! Hoy Odam, yordam ber menga!” deb baqirdi. “Yana nima bo‘ldi?” deb so‘radi Odam. “Keyingi oyoqlarimni ham nimadir mahkam o‘rab oldi, qimirlatolmayapman”. Ana shunda Odam o‘rmonga kirib, yo‘g‘on bir so‘yil kesib keldi-da, Sherzodni hech ayamay do‘pposlay boshladi. Sherning o‘g‘li yomon qo‘lga tushganini sezdi va Odamga yolborib dedi: “Odam, hoy Odam, rahm-shafqat qil menga, sen yelkamga urma, qornimga ham, ko‘kragimga ham urma; bilasanmi, mening otam, Odamzodning miyasi vij-vij hiyla-nayrang, uning oldiga bora ko‘rma, deganida gaplarini qulog‘imga ilmagandim, keyin otam, agar o‘sha Odamning oldiga borsang, qattiq pushaymon bo‘lasan, deb bergan tanbehiga tushunmagandim, shuning uchun sen otamning nasihatini eshitishni istamagan quloqlaringa, otamning tanbehiga parvo qilmagan nodon kallamga ur!” Odam bu gapni eshitib, Sherzodning quloq-chakkasi va boshiga so‘yil bilan urgan edi u til tortmay o‘ldi.

Bu masal, ota-ona nasihatlariga albatta quloq solish, ularning o‘git va tanbehlariga beparvo bo‘lmaslik lozim, deb ta‘lim beradi bizga.

## **TULKI, SARBOZ VA UNING YAROQBARDORI**

Ba‘zi bir odamlar makr-u hiyla ishlatib shu qadar ko‘p yolg‘on so‘zlaydilarki, natijada, ularning aytganlariga hech kim ishonmay qo‘yadi, ana shunda ular o‘zlarining

bu illatlarini goh-goh e'tirof etishga majbur bo'ladilar. Shu haqda bir masal eshit.

Bir Sarboz o'z Yaroqbardori bilan keng daladan o'tib borardi. Shu payt Sarboz g'izillab chopib ketayotgan bir Tulkini ko'rib qoldi va: "Yo tavba, anavi Tulkinining kattaligini qara-ya!" dedi. Uning Yaroqbardori o'girilib qarab dedi: "Voy, hali sen shuni katta deb ajablanyapsanmi, xojam? Senga bo'lgan sadoqatim haqqi qasamki, yaqinda men bir yerda shunaqa Tulkini ko'rdimki, u hatto buqadan ham kattaroq edi!" – "Shunaqa degin, – dedi Sarboz, – o'sha Tulkinining terisini biron ta tejamkor va tadbirkor mo'ynado'zga berishsa, undan nechta po'stin chiqararkin-a?" Ular har to'g'rida gurunglashib yo'llarida davom etdilar. Shu payt Sarboz dedi: "Yo qodir Yupiter, bugun aytilgan har qanday yolg'on gaplardan bizni o'zing himoya qil, anov daryodan bexavotir o'tib olishimizda va ko'zlagan manzilimizga beshikast yetib borishimizda bizga panohgoh bo'l!" Yaroqbardor sohibining bu tavallosini eshitdi va undan: "Ey xojam, hozir sen nima haqda duo o'qiding?" deb so'radi. Sarboz javob qildi: "Nahotki bilmasang? Hademay biz bir antiqa xislatli daryodan kechib o'tamiz: u daryodan o'tayotgan odam mabodo o'sha kuni biron yolg'on gap aytgan bo'lsa, u suvdan omon chiqolmay cho'kib ketadi". Yaroqbardor Sarbozning bu gapini eshitib qo'rqqanidan yuragi takapuka bo'la boshladi. Mana, ular kichik bir anhor bo'yiga yetib kelishdi, shunda Yaroqbardor: "Ey xojam, boya sen aytgan xatarli daryo shu emasmi?" deb so'radi. "Yo'q, – dedi Sarboz, – hali unga ancha bor". – "Buni so'rashimdan maqsad, – dedi Yaroqbardor, – boya senga aytganim Tulki eshakdan salgina kattaroq edi, xolos". – "Menga buning farqi yo'q", dedi uning xojasi. Ular yurib-yurib yana bir boshqa daryo bo'yiga yetib kelishdi va Yaroqbardor tag'in so'radi: "Xojam, bugun

menga aytganing daryo shu emasmi?” – “Yo‘q hali”, dedi Sarboz. Yaroqbardor bo‘lsa: “Buni so‘rayotganimga sabab shuki, – dedi, – bugun men senga aytganim Tulki o‘zimizning oddiy buzoqdan katta emas edi”. Sarboz unga shunday javob qildi: “O‘sha sen ko‘rgan Tulking katta-kichikligi meni qiziqtirmaydi!” Mana, ular yana bir daryoga yaqinlashdilar. Yaroqbardor Sarbozdan so‘radi: “Xojam, bugun sen gapirgan daryo shu emasmi?” – “Yo‘q, u emas”, deb javob qildi Sarboz. Yaroqbardor bo‘lsa: “Buni so‘rayotganimdan maqsad, – dedi, – men yaqinda ko‘rgan Tulki uyimizdagi qo‘zichoqdan katta emas edi”. Sarboz bo‘lsa yana: “Uning qandoqligi meni qiziqtirmaydi”, dedi. Nihoyat kech kirib qosh qorayayotgan paytda ular azim daryo bo‘yiga yetib keldilar va Yaroqbardor dedi: “Nazarimda, xojam, boya sen tilga olgan daryoga endi yetib kelganga o‘xshaymiz”. – “Topding”, dedi Sarboz. Bu javobni eshitgan Yaroqbardor qo‘rqib ketdi va uyalganidan cho‘g‘day qizarib shunday dedi: “Ey xojam, aybimni tan olaman: bugun senga yolg‘on gapirgan edim, jonim va tanim haqqi qasam ichib aytamanki, senga aytganim o‘sha tulki boya ikkovimiz ko‘rgan tulkidan katta emas edi”. Sarboz kulib yubordi va Yaroqbardorga tanbeh berib shunday dedi: “Men ham senga qasam ichib aytamanki, bu daryoning suvi ham boshqa suvlar singari bexatardir”.

Bu masal yolg‘onchilarning uydirmalarini qoralaydi, zero donishmand kishilar aytilgan har qanday yolg‘on gapni juda ustalik bilan fosh qilib, yolg‘onchining sharmandasini chiqara oladilar.

## MUNDARIJA

<i>Xans Kristian Andersen. Bulbul</i> .....	3
<i>Irkit o'rdakcha</i> .....	15
<i>Nodar Dumbadze. Hellados</i> .....	29
<i>Yuraginning bir parchasi</i> .....	39
<i>Antuan De Sent-Ekzyuperi. Kichkina shahzoda</i> .....	52
<i>Ezop masallari</i> .....	117



*Adabiy-badiiy nashr*

**Nodar Dumbadze**

# ELLADA

---

*Xans Kristian Andersen*  
**BULBUL**



*Antuan De Sent-Ekzyuperi*  
**KICHKINA SHAHZODA**



**EZOP MASALLARI**

Muharrir	<i>Gulnoz Mo'minova</i>
Badiiy muharrir	<i>Oloviddin Sobir o'g'li</i>
Texnik muharrir	<i>Dilmurod Jalilov</i>
Sahifalovchi	<i>Bobur Tuxtarov</i>
Musahhih	<i>Rayxon Ibragimova</i>

Nashriyot litsenziyasi AI № 315. 24.11.2017.  
2018-yil 15-martda bosishga ruxsat etildi.  
Bichimi 84x108 <sup>1</sup>/<sub>32</sub>. Times New Roman garniturasida.  
Ofset bosma. 23,75 shartli bosma toboq. 21,15 nashr tobog'i.  
Adadi 10000 nusxa. 1317-raqamli buyurtma.  
Bahosi shartnoma asosida

Yoshlar nashriyot uyi. Shayxontohur tumani,  
Navoiy ko'chasi, 11-uy.

«DAVR PRESS» NMU MCHJ ning matbaa bo'limida  
ofset usulida chop etildi.

O'zbekiston Respublikasi, 100156, Toshkent sh.,  
Chilonzor tumani, 20-A daha, 42-uy.



ISBN 978-9943-5219-5-7



9 789943 521957